

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**XORAZM MA‘MUN
AKADEMIYASI
AXBOROTNOMASI**

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2024-7/3
Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2024

Bosh muharrir:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.

Tahrir hayati:

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.
Ametov Yakub Idrisovich, d.b.n., prof.
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.
Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.
Jumanov Murat Arepbayevich, d.b.n., prof.
Kadirova Shaxnoza Abdaxalilovna, k.f.d., prof.
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.
Qutliyev Uchqun Otoboyevich, f-m.f.d.
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.
Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.

Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.
Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.
Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.
Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.
Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.
Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.
Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.
Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.
Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.
Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.
Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.
Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.
Safarov Alisher Karimdjaniyevich, b.f.d., dos.
Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.
Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.
Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.
Xolliyev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.
Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.
Cho‘ponov Otanazar Otojonovich, f.f.d., dos.
Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.
Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.
Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.
O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.
O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.
Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.
Xudayberganova Durдона Sidiqovna, f.f.d.
Xudoyberganov Oybek Ikromovich, PhD, k.i.x.

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№7/3 (116), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2024 y. – 181 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

MUNDARIJA
TARIX FANLARI

Abdugʻaniyeva G.A. Oʻzbekiston Respublikasida milliy armiya poydevorining yaratilishi	5
Abdullaeva N.B. XX asrning 40-80 – yillari oxirlarida Xorazmdagi koreyslarining milliy xususiyatlaridagi transformatsion jarayonlar	8
Abdullaeva N.B. XX asrning 40-80 – yillari oxirlarida Xorazm viloyatida ilm-fan va madaniyat sohalarining taraqqiyotida koreylar diasporasining oʻrni	11
Abdullaeva N.B. Xorazm koreyslarining viloyat qishloq xoʻjaligi rivojidadagi oʻrni	14
Ahmadxojayev M.Z. Siyosiy lider faoliyatini tashkil etishning huquqiy asoslari va tarixiy ildizlari	18
Atajanov M.I. Qadimgi Xorazm hududida ilk shaharlarning shakllanishi uchun zaruriy shart sharoitlarning mavjudligiga oid ayrim mulohazalar	21
Atajanov M.I. Qadimgi Xorazm shaharlarining harbiy meʼmorchilik anʼanalariga doir baʼzi mulohazalar	24
Bakdurdiyeva Q.Q. Xorazm vohasi zargarligi tarixiy jarayonlar tontekstida	27
Bakdurdiyeva Q.Q. Xorazm zargarligida qoʻllanilgan naqshlar va ularning semantik ifodalari	31
Fattullayev F.F. Buxoroning eski shahar qismidagi mahallalarning tarixiy ildizlarini aniqlashga doir tadqiqotlar	34
Hamidova Sh.R. Surdolimpiya tarixiga oid ayrim mulohazalar	37
Karimova N.I. The middle ages - the flower of grocery trade in Central Asia	40
Mirzakhamdamova D.Z. Aholi bandligini taʼminlashda oilaviy qadriyatlar, kasanachilik va qoʻl mehnatini rivojlantirish - yangicha yoʻnalish va ichki manbalarni safarbar etish	45
Murodov H.S. Buxoroda turizmi va uning ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarga taʼsiri	50
Ochilov A.T. XX asrning 70-80 yillarida Buxoro vohasining antik va ilk oʻrta asrlar davri moddiy madaniyatining oʻrganilishi	52
Parmonov Sh.Sh. Buxoro amirligiga qarshi Rossiya imperiyasining bosqinchilik siyosatiga general Joʻrabekning munosabati	55
Qurbonov M.D. Mirza Salimbekning tarixiy oʻlkashunoslik ilmi rivojiga qoʻshgan hissasi	58
Rahmonberdiyeva M.J. Sharq olimlarining tadqiqodlarida Mitra kultining ifodalanishi	63
Tilabjonova S.Sh. Salib yurishlarining gʻoyaviy birligi va katolik cherkovining taʼsiri	67
Toshboyev F., Uzakov S. Jizzax vohasidagi tarixiy-madaniy yodgorliklarni oʻrganilishiga doir	70
Tosheva Sh.U. Ziyolilar qatlamining tarkib topishi va ularning jamiyat hayotida tutgan roli	73
Turayev M. Ikkinchi jahon urushi yillarda Oʻzbekistonda tibbiyotning holati va muammolari	75
Xamrayev I.M. Gavkushon majmuasining Buxoro suv tizimi va meʼmorchiligida tutgan oʻrni	79
Xujanova M. Ikkinchi jahon urushi yillarida Oʻzbekistondagi bolalar uylarining ahvoli	82
Xushmatova S. Surxondaryo viloyat davlat arxivining tashkil etilishi	86
Бахриев О.А. Абдулхай Лакнавийнинг илмий мероси	88
Бегалиева Д.Э. Хива хонлиги давлат бошқарувида маҳрам лавозимининг ўрни	90
Бобоева С.Р. Сурхон воҳасида электр тармоқларининг вужудга келиши ва ривожланиши	93
Гуллиев Н. Ўрта Осиёнинг илк ўрта асрлардаги халқаро алоқаларининг манбаларда ёритилиши	96
Мадаминов О.З. Янги Ўзбекистонда давлат имиджини ривожлантиришнинг асослари	99
Омонов А.М. Селунгур ғор макони бифаслари	101
Сабурова С. Қадимги дунё академиялари	107
Саидмуродова М.С. Теоретическое и практические аспекты формирования населения и человеческих ресурсов Ташкентской области	112
Самадов И.И. Бухоро Халқ Совет Республикаси (БХСР)да ер масаласи ва пахтачиликнинг аҳволи	114
Тошбоев Ф.Э., Равшанов Ў.Р. Уструшонанинг антик давридаги миграциялар ҳақида	119
Умаров А.Ш. Нурота туркманларининг ўрганилиш тарихи	121
Усмоналиев И.И. Фарғона водийси шаҳарлар топонимининг асарларидаги тахлили	126

PEDAGOGIKA FANLARI

Adilbekova A.V. Harnessing the power of games in english language teaching: a comprehensive review	129
Allanyazov M.B. The importance of improving the professional competence of a foreign language teacher	131
Amonova D. Why are school children interested in learning foreign languages?	134
Aripova N.R. Methodological potential of electronic educational resources in teaching a foreign language	137
Atayev G.K. Introducing strategic competencies and modern teaching methods	139
Avilova X.N. Asliytdagi matnlar orqali o'qish ko'nikmasini rivojlantirishda mashq va topshiriqlar ahamiyati	144
Batirova F.A. Maktabgacha ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari	146
Farmonova N. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni	149
Islomova L.F. The importance of differentiated instruction in english language teaching	151
Kalandarova D.S., Karimov D.T., Zaripova Z.N. Biologiya o'qituvchisining kasbiy fazilatlari va kasbiy o'sishi	154
Muminova D.Sh. Features of training ict and editing techniques to future translators	156
Pulatova N.R. Talabalarning innovatsion kompetensiyalarini boshqarishdagi zamonaviy yondashuvlar	159
Shukurullayeva N.Q. 4-sinf ona tili fanidan ot so'z turkumini o'rgatish darslarini samarali tashkil etishning innovatsion usullari	162
Usmonova M.S., Usmonov X.E. Oliy nerv faoliyati mavzusini o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish	165
Yuldosheva B. So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlarining maktabda o'qitilishi	168
Исмагилова М.Ф. Состояние глагольного словаря в речи детей-билингвов и методические рекомендации по их разрешению	170
Нармуратов И.Н. Педагогические технологии: понятие и значение в современной педагогике	173
Яхшибоева Г.О. Парамедицинада инглиз тили амалий машғулотларида тиббиётга оид терминларни ўргатиш методикаси	176

TARIX FANLARI

UO'K 355/359

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MILLIY ARMIYA POYDEVORINING
YARATILISHI***G.A.Abdug'aniyeva, tayanch doktorant, O'zFA Tarix instituti, Toshkent*

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligini tashkil etilishi, mustaqillikning dastlabki yillarida armiyada boshqaruvning susayishi, uning nazoratdan chiqishi jamiyat uchun xatarli ekanligini anglagan holda, O'zbekiston Respublikasi rahbariyatining mudofaa sohasida amaliy harakatlarni olib borishi mamlakat mudofaasini ta'minlash barobarida davlatning harbiy strategik siyosatini shakllanishiga zamin yaratganligi o'z ifodasini topgan.

Kalit so'zlar: TurkVO, Tijorat markazi, havo-desant qo'shinlari, harbiy-transport aviatsiyasi, razvedka bo'linmalari va ta'minot bo'linmalari.

Аннотация. В статье создание Министерства обороны Республики Узбекистан, ослабление управления армией в первые годы независимости, осознавая, что потеря ею контроля опасна для общества, руководство Республики Узбекистан принятие практических действий в области обороны создало основу для формирования военно-стратегической политики государства в целях обеспечения выраженной обороны страны.

Ключевые слова: ТуркВО, Торговый центр, Воздушно-десантные войска, военно-транспортная авиация, разведывательные части и части снабжения.

Abstract. In the article, the creation of the Ministry of Defense of the Republic of Uzbekistan, the weakening of control of the army in the first years of independence, realizing that its loss of control is dangerous for society, the leadership of the Republic of Uzbekistan, the adoption of practical actions in the field of defense, created the basis for the formation of the military-strategic policy of the state in order to ensure the expressed defense of the country.

Key words: TurkVO, Trade Center, Airborne Forces, military transport aviation, reconnaissance units and supply units.

Mustaqillik qo'lga kiritilgan kundanoq O'zbekiston Respublikasi xalqaro huquqning sub'ekti sifatida o'z armiyasini tuzishga qaror qilishi va Mudofaa ishlari vazirligining tashkil etilishi yangi vujudga kelgan davlat xavfsizligi himoyasini ta'minladi, turli millatga mansub bo'lgan harbiy xizmatchilarning fuqarolik huquqlarini kafolatladi. Istiqlolning dastlabki yillarida O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan milliy armiyani shakllantirishga alohida ahamiyat berilishi bilan bir qatorda uning huquqiy asosini vujudga keltirish masalasiga davlat siyosatining ajralmas qismi sifatida qaraldi. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda mamlakat mudofaasi bilan bog'liq qonun hujjatlarining takomillashib borishi va bu borada amalga oshirilgan ishlar natijasida mamlakatda harbiy xizmatning nufuzi ortib borishiga sabab bo'ldi.

Ushbu mavzu yuzasidan huquq, tarix va falsafa fanlari vakillari tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan. Jumladan, X. Sodiqov, B. Yo'ldoshev, I. Inoyatovlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini barpo etishda yuzaga kelgan muammolar va bartaraf etish chora-tadbirlari masalasi yoritilgan bo'lsa[3], Q.Mamedov[7; 13-45] va J.Fozilovlarning maqolalarida O'zbekistonda Mudofaa vazirligi va qo'shinlariga asos solinishi, tuzilishi va shakllanish jarayonlari o'rganilgan[8; 57-64].

“O'zbekiston Respublikasining Mudofaa ishlari vazirligini tuzish to'g'risida”gi Prezident Farmonining 1991-yil 6-sentabrda qabul qilinishi va 10-sentabrda O'zbekiston Mudofaa ishlari vaziri tayinlanishi bu yo'ldagi muhim qadamlardan biri bo'ldi[1;7]. Vazirlar Mahkamasining 1991-yil 25-oktabrdagi “O'zbekiston Respublikasi Mudofaa ishlari vazirligi masalalari bo'yicha” qarori asosida mamlakat Mudofaa ishlari vazirligining Nizomi hamda tashkiliy – shtat tuzilishi tasdiqlandi [2; 247-250]. Vazirlik dastlab 12 nafar ofitser hamda 3 nafar xodim bilan o'z faoliyatini boshladi.

O'z milliy Qurolli Kuchlarini barpo etish ko'plab iqtisodiy, ijtimoiy muammolar bilan bir qatorda, mamlakatda ayni paytda Sovet ittifoqi Mudofaa vazirligi va uning Qurolli Kuchlarining

ajralmas qismi sifatida ulkan harbiy kuchga ega bo'lgan Turkiston harbiy okrugi tomonidan ham yashirin va oshkora tarzda qarshiliklarni yuzaga kelishiga olib keldi. Jumladan, Turkiston Harbiy okrugi qo'shinlari qo'mondonining 1991-yil 30-dekabrda "Turkiston harbiy okrugining Tijorat markazini tuzish haqida"gi buyrug'idan ko'zlangan asosiy maqsad mamlakat hududidagi harbiy texnikani talon-taroj qilib, uni O'zbekiston hududidan chiqarib yuborishga qaratilgan edi. Mamlakat mudofasini ta'minlash uchun zarur bo'ladigan harbiy texnikani saqlab qolish davlat harbiy siyosatining dolzarb vazifalaridan biri hisoblangan. Chunki Turkiston harbiy okrugi qo'mondonining buyrug'iga asosan, okrugdagi harbiy texnikani sotish va sotib olish uchun tuzilgan tijorat markazi barcha harbiy texnikalarni Sovet Ittifoqi Qurolli kuchlari balansiga o'tkazar va ayrim joylardagi harbiy texnikalar Qozog'iston orqali Voronej shahriga jo'natilar edi. O'zbekiston rahbariyatining 1991-yil dekabr oyidagi buyruqlari ayni vaqtda mamlakatda harbiy texnikani saqlab qolish maqsadida qilingan muhim qadam bo'ldi va 1992-yil 30-yanvar kuni Mudofaa vazirining 9-sonli buyrug'iga asosan O'zbekiston hududida Turkiston harbiy okrugi tijorat markazining ish faoliyati tugatildi[3;118].

1991-yil 31-avgustda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to'g'risida"gi Qonunga va 1991-yil 30-dekabrda Minsk shahrida tuzilgan MDH qatnashchisi bo'lgan davlatlar boshliqlarining Kengashi tomonidan tuzilgan Qurolli Kuchlar va chegara to'g'risidagi Bitimga muvofiq, 1992-yil 1-fevraldan boshlab umumiy qo'shinlar hamda MDH davlat rahbarlarining 1992-yil 20-dekabrda Kiyev shahrida qabul qilingan qarorda 1992-yil 1-maydan havo desanti qo'shinlari, harbiy transport aviatsiya, razvedka qo'shinlari, ta'minot qismlari mablag' bilan ta'minlanmasligi bildirildi.

Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, armiya ta'minotini tugatgan holda harbiylar noroziligini keltirib chiqarish, mustaqillik sari endigina qadam qo'yayotgan davlatlarga joylardagi Qurolli Kuchlar tizimlarining ishonchsizligini yuzaga keltirish va armiya orqali mustaqil davlatlarga tazyiq o'tkazishdan iborat edi. Shunday o'ta murakkab sharoitda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarining ijtimoiy himoyasini ta'minlash, jangovarlik qobiliyatlarini saqlab qolish maqsadida, Respublika tasarrufiga olingan harbiy tuzilmalarga rahbarlik qilish O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 20-fevraldagi Farmoniga binoan Mudofaa ishlari vazirligiga yuklatildi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 14-yanvardagi 527-XII-sonli "O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy qismlar va muassasalarni respublika tasarrufiga olish to'g'risida"gi qarori [9] va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 22-yanvardagi 25-sonli "Ittifoq tasarrufida bo'lgan birlashmalar, korxonalar va tashkilotlarni O'zbekiston Respublikasi yurisdiksiyasiga va mulkiga o'tkazishga doir ishlarni tashkil etish to'g'risida"gi qarorini [8] bajarish maqsadida Mudofaa vazirligi tomonidan 1992-yil 7-fevraldagi 14-sonli buyrug'iga ko'ra, 1992-yil 14-fevralgacha O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan harbiy komissarliklarni barcha shaxsiy tarkib, qurol-yarog', texnika, moddiy resurslar va xo'jalik fondlari bilan mamlakat tasarrufiga olish belgilandi[4;28].

Mudofaa vazirligining 1992-yil 17-fevraldagi 19-sonli buyrug'iga binoan, TurkVO Qishloq xo'jaligi boshqarmasi O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan qishloq xo'jaligi korxonalari ("Toshkent", "Turkiston", "Samarqand" harbiy sovxozlari va "Progress" yordamchi xo'jaligi) bilan birgalikda barcha ko'chmas mulk, mablag' va moliyaviy jihatdan O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi balansiga o'tkazilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 20-fevraldagi 347-son Farmonini bajarish maqsadida umumiy maqsadli qo'shinlar tarkibiga kiruvchi qo'shinlar, qismlar va harbiy ta'lim muassasalari davlat tasarrufiga olindi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining birinchi o'rinbosari I. Xolmatovga O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi markaziy boshqaruv apparatini TurkVO shtab-kvartirasi binosiga joylashtirish va to'g'ridan-to'g'ri nazorat qilish vazifasi topshirildi. Shunga ko'ra, 1992-yil 11-martdagi 25-sonli buyrug'iga binoan, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining markaziy apparati TurkVO shtab-kvartirasi (Maksim Gorkiy ko'chasi, 100-uy manzili)ga joylashtirilgan[4; 80].

Buning ahamiyatli tomoni shundaki, Mudofaa ishlari vazirligi dastlab Mustaqillik maydoni 5-uyga, ya'ni O'zbekiston Respublikasi Fuqaro muhofazasi binosiga joylashtirilgan edi. Bu davr mobaynida SSSR mudofaa vaziri Y. Shaposhnikov va Sovet ittifoqining Markaziy Osiyodagi mustahkam tayanchi – Turkiston harbiy okrugi qo'mondoni general-leytenant G. Kondratyev tomonidan mustaqil davlat harbiy vazirligi tuzilishiga bir necha bor ochiqdan-ochiq tarzda qarshilik ko'rsatish va tazyiq o'tkazishga urinishlar sodir etilgandi. Mudofaa ishlari vazirligi binosining aynan TurkVO binosiga ko'chirilishi ushbu to'siqlarga hukumat tomonidan berilgan qat'iy va dadil javobning yaqqol ko'rinishi edi.

1992-yil 7-maydagi 53-sonli buyrug'iga ko'ra, Chuvalachidagi TurkVO rahbariyati dam olish qishlog'i negizida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi pansionati tashkil etildi[4;166].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 18-maydagi PF 402-sonli Farmoniga asosan O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan havo-desant qo'shinlari, harbiy-transport aviatsiyasi, razvedka bo'linmalari va ta'minot bo'linmalari davlat tasarrufiga o'tkazildi[4;178].

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 1992-yil 8-iyundagi 72-sonli buyrug'iga binoan, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining tibbiyot muassasalari shtatlariga o'zgartirishlar kiritildi. Unga ko'ra, muassasalar avvalgi shtatlardan chiqarib tashlanib, vazirlik tarkibiga quyidagi tibbiy muassasa nomlari tarzida kiritish belgilandi:

1. TurkVO garnizoni P.F Borovskiy nomidagi 340-sonli tuman harbiy gospitali O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi P.F. Borovskiy nomidagi markaziy harbiy gospitaliga aylantirildi;

2. TurkVO garnizoni 35-poliklinikasi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy poliklinikasi sifatida vazirlik tarkibiga qabul qilindi;

3. TurkVO 18-harbiy tibbiy komissiyasi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy harbiy tibbiyot komissiyasiga o'zgartirildi;

4. 55496-sonli harbiy qismi esa O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy sanitariya-epidemiologiya laboratoriyasiga aylantirildi;

5. 52202-harbiy qism o'rnida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Markaziy tibbiyot ombori tashkil etildi;

6. TurkVO 90-sud-tibbiyot laboratoriyasi negizida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Sud-tibbiyot laboratoriyasi tashkil etildi;

7. TurkVOning 556-patologik laboratoriyasi asosida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Patologik laboratoriyasi tuzildi;

8. TurkVO 41-qon quyish stansiyasi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qon quyish markaziga o'zgartirildi;

9. TurkVO tibbiyot xodimlari uchun 73-amaliyot o'tash joyi O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi tibbiy amaliyot o'tash joyiga aylantirildi [5; 213].

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirining 1992-yil 19-iyundagi 81-sonli buyrug'iga asosan, TurkVOning "Frunzevets" kundalik gazetasi tarqatib yuborilib, uning asosida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining markaziy matbuot organi – O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining kundalik nashri "Vatanparvar" gazetasi tashkil etildi[5;248].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1992-yil 3-iyuldagi Farmoni bilan Turkiston harbiy okrugi 125 yillik faoliyatidan so'ng 1992-yil 1-iyuldan e'tiboran mamlakat hududidagi faoliyati tugatildi[3; 248]. Bu esa mamlakat hududida Mudofaa ishlari vazirligi o'z faoliyatini to'laqonli amalga oshirishida muhim omil bo'lib xizmat qildi.

Mudofaa ishlari vazirligi zimmasiga harbiy safarbarlik tadbirlari, Milliy gvardiyani tuzish va ta'lim berish, fuqarolar mudofaasini amalga oshirish, harbiy bilim yurtlarini butlash, oliy o'quv yurtlaridagi harbiy kafedralar va kuchaytirilgan harbiy tayyorgarlik maktablarini boshqarish, muqobil xizmatni tashkil qilish, urush qatnashchilari va baynalminal jangchilar bilan ishlash, harbiy xizmatga chaqirish, qo'shinlarni joylashtirish, harbiy mashqlar o'tkazishni muvofiqlashtirish, qo'shin va harbiy ob'ektlarini yangi joyga ko'chirib joylashtirish, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash vazifalari yuklatildi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, milliy armiyaga asos solinishi birinchidan, mamlakat hududida Sovet ittifoqdan qolgan tartibsiz harbiy mexanizmning zararli oqibatlari va mavjud vaziyatni yanada izdan chiqishini oldini olish, uni qayta yangi asosda shakllantirish hamda professional darajaga ko'tarish, mamlakatni ishonchli qurolli himoyasini tashkil etish imkoniyatini berdi.

Ikkinchidan, harbiy ob'ekt, muassasa va texnikalarni davlat hisobiga o'tkazishga erishilishi harbiy xarajatlarni nisbatan kamayishi va bor imkoniyatlardan oqilona foydalanish orqali milliy armiya poydevorini qurishda muhim omil bo'lib xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони № 232 . Ахборотнома Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони № 8. (1184) ж.№17.1007. 1991й.10 сентябрь.
2. О'zMA, R-837 – fond, 41-ro'uxat, 7934-yig'majild
3. O'zbekiston Qurolli Kuchlari (o'tmishda va hozirda)/ Mualliflar X. Sodiqov, B. Yo'ldoshev, I. Inoyatov. – Toshkent: Tafakkur qanoti, 2014.
4. Tarix instituti ishchi daftari. 2024.
5. O'zMVDA, 45-fond, 67399-ro'uxat, 1-yig'majild.
6. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгаш Қарори № 527 –XII. 14.01.1992.
7. Мамедов Қ. Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари–мустақиллик маҳсули ва унинг ҳимоячиси // Ватан ҳимоячи муқаддас бурч. “Ўзбекистон”.2001.
8. Фазилов Ж.Х. Ички қўшинлар Қуролли Кучларимизнинг ажралмас қисм // Ватан ҳимоячи муқаддас бурч. “Ўзбекистон”. 2001.
9. <https://lex.uz/docs/-376179>

UO'K 323.15

XX ASRNING 40-80 – YILLARI OXIRLARIDA XORAZMDAGI KOREYSLARINING MILLIY XUSUSIYATLARIDAGI TRANSFORMATSION JARAYONLAR

N. B. Abdullaeva, o'qituvchi, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. XX asrning 40-80 – yillari oxirlarida Xorazmdagi koreyslarining tili, urf-odatlari va milliy xususiyatlaridagi transformatsion jarayonlar masalasi juda kam o'rganilgan. Jumladan, Xorazm viloyatida yashovchi koreyslarining tili, urf-odatlari va milliy xususiyatlarida ko'zga tashlangan o'zgarishlar, bu o'zgarishlar viloyatda yashovchi koreyslar diasporasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotida qanday o'rin tutganligi masalasi deyarli tahlil qilinmagan ayni shunday dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan olganda mazkur maqola XX asrning 40-80 – yillari oxirlarida Xorazmdagi koreyslarining tili, urf-odatlari va milliy xususiyatlaridagi transformatsion jarayonlar masalasi tahliliga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: koreyslar, diaspora, koreys tili, urf-odatlar, mentalitet, toy' marosimi, birinchi tug'ilgan kun, ta'raka marosimi, yangi yil, "chusok" – hosil bayrami.

Аннотация. В конце 40-80-х годов XX века вопрос трансформационных процессов в языке, обычаях и национальных особенностях корейцев Хорезма изучен очень мало. В частности, изменения в языке, обычаях и национальных особенностях корейцев, проживающих в Хорезмской области, вопрос о том, как эти изменения происходили в социально-экономической и культурной жизни корейской диаспоры, проживающей в регионе, является одним из наиболее актуальных. рассматриваются актуальные проблемы, которые не были проанализированы. В связи с этим данная статья посвящена анализу процессов трансформации языка, обычаев и национальных особенностей корейцев Хорезма в конце 40-80-х годов XX века.

Ключевые слова: Корейцы, диаспора, корейский язык, традиции, менталитет, свадебный обряд, первый день рождения, похоронная церемония, новый год, «чусок» — праздник урожая.

Abstract. In the late 40s-80s of the 20th century, the issue of transformational processes in the language, customs and national characteristics of the Koreans in Khorezm has been studied very little. In particular, the changes in the language, customs and national characteristics of the Koreans living in Khorezm region, the question of how these changes took place in the socio-economic and cultural life of the Korean diaspora living in the region is one of the most urgent problems that have

not been analyzed. is considered In this regard, this article is devoted to the analysis of the transformation processes in the language, customs and national characteristics of Koreans in Khorezm in the late 40s-80s of the 20th century.

Key words: Koreans, diaspora, Korean language, traditions, mentality, wedding ceremony, first birthday, funeral ceremony, new year, "chusok" — harvest festival.

Kirish. XX asrning 40-80 – yillari oxirlarida O‘zbekistonda, shu jumladan Xorazm viloyatida yashayotgan koreyslarining tili, urf-odatlar va milliy xususiyatlaridagi transformatsion jarayonlarda eng avvalo koreyslar aholi punktlarini mahalliy aholi punktlari bilan aralashtirib yuborilishi, ijtimoiy turmush tarzining mahalliy sharoitlarga moslashib borishi, koreys millati vakillari bilan mahalliy yoki yana boshqa kamsonli millat vakillari (ayniqsa ruslar) o‘rtasidagi nikoh munosabatlari eng muhim omillar hisoblanadi.

XX asrning 40-80-yillari davomida sovet jamiyatidagi o‘zgarishlar bevosita respublikalardagi koreyslar diasporalarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidagi ham katta o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Ayniqsa, XX asrning 80-yillari o‘rtalarida SSSRda boshlangan “qayta qurish” deb nom olgan siyosiy-iqtisodiy jarayonlar, koreys diasporalari ijtimoiy hayotiga va milliy an‘analariga ham o‘z ta‘sirini o‘tkaza boshladi. Natijada, birinchi marta 1989-yilda O‘zbekistonda koreys madaniyat markazlari shakllana boshladi. Jumladan, Xorazmda ham Xvan Revmir Ivanovich tashabbusi bilan 1989 yil 27 oktyabrda O‘zbekistonda birinchi bo‘lib, Xorazm viloyati Koreys madaniyat markazi tashkil etildi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yuqorida ta‘kidlanganidek, XX asrning 40-80 – yillari oxirlarida Xorazmdagi koreyslarining tili, urf-odatlar va milliy xususiyatlaridagi transformatsion jarayonlar masalasi alohida tadqiqot sifatida hozirgacha yetarlicha tadqiq etilmagan.

O‘zbekiston viloyatlarida yashovchi koreyslar tarixi, ijtimoiy – ma‘naviy hayoti va XX asrning 40-80 – yillari oxirlarida Xorazmdagi koreyslarining tili, urf-odatlar va milliy xususiyatlaridagi transformatsion jarayonlar masalasi V.S. Xan, M.D. Ten, V.N. Kim, L.B. Kim, P.G. Kim, V.V. Nam, A.X. Raxmonqulova, D. Men kabi tadqiqotchilar asarlarida aks etgan [1; 2; 3; 4; 5; 6; 7; 8; 9,10,11,12]. Bularning barchasi — mavjud adabiyotlarni hisobga olgan holda — XX asrning 40-80 – yillari oxirlarida Xorazmdagi koreyslarining tili, urf-odatlar va milliy xususiyatlaridagi transformatsion jarayonlar bilan bog‘liq masalalarni, O‘zbekistondagi diasporalar ijtimoiy ahvolini aks ettiruvchi dasturlarini qo‘llash fonida ishlab chiqish zaruratini tug‘diradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma‘lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Statistik tadqiqotlar ma‘lumotlariga ko‘ra, O‘rta Osiyoga ko‘chirilgan koreyslar hali Uzoq Sharq hududlarida yashab yurgan paytlaridanoq asta-sekinlik bilan koreys tilida emas balki, asosan rus tilida ko‘proq gaplashib boshlaganliklari ayon bo‘ladi [12,48]. Bu yo‘nalishda koreyslarning O‘rta Osiyo hududlariga ko‘chirilganlaridan keyin yanada katta o‘zgarishlar ko‘zga tashlana boshladi. Zero, yuqorida ta‘kidlanganidek, 1939-1940 o‘quv yilda sovet hukumati koreys maktablarini tugatish to‘g‘risida qaror qabul qilinganidan keyin koreyslarning keyingi avlodlari asosan rus maktablarida o‘qiy boshlaganlar [12,48]. Jumladan, 1959 yilgi O‘zbekistonda aholini ro‘yxatga olish tadbirlari natijalariga ko‘ra, respublika miqyosida koreys millatiga mansub 138 453 kishi yashagan bo‘lsa, ulardan 25 265 kishi o‘zlarining asosiy tili sifatida rus va boshqa tillarni ko‘rsatib o‘tganlar [3, 138-144].

Xuddi shunday, 1970 yilgi aholini ro‘yxatga olish natijasiga ko‘ra, O‘zbekiston SSRda koreyslarning umumiy 147538 kishidan, 78521 kishi rus tilida erkin gaplasha olgani holda, 38973 kishi rus tilini, 3509 kishi o‘zbek tilini ona tili deb hisoblagan [4,202].

1989 yilgi aholini ro‘yxatga olish natijalariga ko‘ra, O‘zbekistonda 183140 nafar koreys yashagan. Agar ushbu aholi ro‘yxatiga ko‘ra, O‘zbekistonda 45 yoshdan oshgan koreyslar orasida 73,9% koreys tilini ona tili deb atagan bo‘lsa, 45 yoshgacha bo‘lgan koreyslar orasida bu ko‘rsatkich atigi 49,8%ni tashkil qilgan [15,60]. Bundan tashqari, koreys tilini o‘z ona tili deb ataganlarning ko‘pchiligi bu tilda to‘liq so‘zlashmagan. Binobarin, o‘sha davrda respublikada koreys tilida o‘qish va yozishni biladigan 3517 kishi bo‘lgan, bu umumiy koreys aholisining 2% ni tashkil etgan [6,125].

XX asrning 40-80 – yillari oxirlarida O‘zbekistonda, shu jumladan Xorazm viloyatida yashayotgan koreyslarining tili, urf-odatlar va milliy xususiyatlaridagi transformatsion jarayonlarda eng avvalo koreyslar aholi punktlarini mahalliy aholi punktlari bilan aralashtirib yuborilishi, ijtimoiy turmush tarzining mahalliy sharoitlarga moslashib borishi, koreys millati vakillari bilan mahalliy yoki yana boshqa kamsonli millat vakillari (ayniqsa ruslar) o‘rtasidagi nikoh munosabatlari eng muhim omillar hisoblanadi. Jumladan, otasi koreys, onasi rus millati vakili bo‘lsa, ularning farzandlari koreyscha tyagubya (yoki metis) deb atalgan. Tyagubyalarning asosiy tili rus tili bo‘lgan. Lekin bu farzandlarning familiyasi koreyscha, ismi esa ruscha bo‘lgan (masalan, Aleksandr Shin, Valeriy Pak, Nikolay Kim va hokazo). Aynan shu tyabugyalarning ko‘payib borishi natijasida XX asrning 80-yillariga kelib, koreyslarning nafaqat antropologik qiyofasi o‘zgarib borgan, balki ularning katta ko‘pchiligi o‘z ona tili-koreys tilini unuta borishi bilan birga, o‘z milliy urf-odat va an‘analarini ham esdan chiqara boshlaganlar. Shu bilan birga sovet hukumatining strategik rejasi, ya’ni millatlarning madaniyati va milliy an‘analarini aralashtirish, yagona “sotsialistik madaniyat”, “yagona sovet xalqi”ni yaratish siyosatini amalga oshirishi ham koreyslar ijtimoiy turmush tarziga ta’sir qilib, milliy urf-odatlar kamayib, “sovetcha” uslubdagi urf-odatlarining shakllanishiga olib kelgan [14,198-199].

XX asrning 80-yillari o‘rtalarida SSSRda boshlangan “qayta qurish” deb nom olgan siyosiy-iqtisodiy jarayonlar, koreys diasporalari ijtimoiy hayotiga va milliy an‘analariga ham o‘z ta’sirini o‘tkaza boshladi. Natijada, birinchi marta 1989-yilda O‘zbekistonda koreys madaniyat markazlari shakllana boshladi. Jumladan, Xorazmda ham Xvan Revmir Ivanovich tashabbusi bilan 1989 yil 27 oktyabrda O‘zbekistonda birinchi bo‘lib, Xorazm viloyati Koreys madaniyat markazi tashkil etildi. Ammo, ular faqat O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, samarali faoliyat yuritishlari uchun keng imkoniyatlarga ega bo‘lgach, o‘zining to‘laqonli rivojlanishiga erishdi [16].

XX asrning 80-yillari oxirlariga kelib sovet jamiyatidagi o‘zgarishlar bevosita respublikalardagi koreyslar diasporalarining ijtimoiy-iqtisodiy ahvolidagi ham katta o‘zgarishlarni yuzaga keltirdi. Jumladan, koreyslar diasporasi xo‘jalik yuritish uslubi bo‘lmish “kobondi”lar faoliyati ham qisqara boshlagan.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni alohida ta’kidlash lozimki, XX asrning 30-yillarida Xorazm viloyatiga ko‘chirib keltirilgan koreyslar diasporasining viloyat madaniy hayotida tutgan o‘rni masalasi deyarli tahlil qilinmagan ilmiy mavzulardan hisoblanib, bu masalaga tarixiy tadqiqotlarda hozirgi kungacha deyarli e’tibor qaratilmagan. Umuman olganda, XX asrning 40-80 – yillari oxirlarida Xorazm viloyatida yashovchi koreyslar nafaqat viloyatda, balki respublika bo‘yicha ham ilm-fan va madaniyat sohalarining taraqqiyotidagi o‘rni juda muhimdir. Jumladan, eng birinchi koreys milliy teatri Xorazm viloyatida tashkil qilingan bo‘lib, keyinchalik, ba’zi sabablarga ko‘ra, Toshkentdagi koreys teatriga birlashtirilgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Государственный Архив Российской Федерации (ГАРФ). Ф. Р-5446, оп. 29, д. 48, л. 154-155.
2. Десять лет спустя: (К 10-й годовщине Ассоциации корейских культурных центров Республики Узбекистан). Отв ред. В. С. Хан.- Ташкент-Сеул, 2001. – 167 с.
3. Итоги Всесоюзной переписи населения 1959 года. СССР [Текст] : (Сводный том) / Центр. стат. упр. при Совете Министров СССР. — Москва : Госстатиздат, 1962. – 284 с.
4. Итоги Всесоюзной переписи населения 1970 года. Том IV. Национальный Состав населения СССР, союзных и автономных республик, краев, областей и национальных округов. – Москва: Статистика, 1973. – 648 с.
5. Ким Л.Б., Ким В.Н. Формирование и развитие драматического и музыкального искусства корейской диаспоры Узбекистана // Кореистудия в России: направление и развитие. 2020. Т. 1. № 1. – С. 70-76.(С. 72).
6. Ким П. Г. Корейцы Республики Узбекистан: История и современность.-Т.: Узбекистан, 1993.-176 с.
7. Нам В.В. К истории корейского просвещения в Узбекистане // Корейская диаспора в Центральной Азии: история, культура и социальная жизнь. К 85-летию проживания корейцев в Центральной Азии: материалы 1-й международной конференции по корееведению Университета Пучон в Ташкенте. Ташкент, 20 января 2024 года / Отв. ред.: В. В. Нам, В. С. Хан. – Ташкент: Университет Пучон в Ташкенте, 2024. – С.42-50.
8. Постановление СНК Узбекской ССР и ЦК КП(б) Узбекистана. О мероприятиях по обслуживанию переселенцев-корейцев по линии просвещения (внесено Наркомпросом УзбССР). Ташкент. 25 ноября 1937 г. // ГАРФ, ф. Р-5446, оп. 29, д. 48, л. 154-155.
9. Рахманкулова А.Х. К вопросу просвещения и образования корейцев в Узбекистане (с момента депортации по настоящее время) // <https://koryo-saram.sitea-rahmankulova-k-voprosu-prosveshheniya-i-obrazovaniya-korejtsev-v-uzbekistane-s-momenta-deportatsii-po-nastoyashhee-vremya/>

10. Ген М.Д. Корейцы СНГ: от общей истории к единому этнокультурному сообществу евразийских корейцев // Идеи и Идеалы. Проблемы национального дискурса. №1(31), т. 2, 2017. – С. 35-50.
11. Хан В. С. Историография корейцев Центральной Азии: основные направления и этапы развития. – Ташкент: Baktria press, 2021. – 624 с.
12. Хан В.С.Корейцы на постсоветском пространстве: Диаспора или диаспоры? // Сборник статей: 1937 год: прошлое, настоящее и будущее. Корейцы как часть русского мира / отв. ред. Ж.Г.Сон, М.И. Ким. — М.: Аквариус, 2017. – С.45-55.
13. Хан В. Корейцы в постсоветской Центральной Азии: новые вызовы и модели поведения // *고려학연구* 권15 2019. Pp. 198-199.
14. Хан В. С. Коре сарам: кто мы? (Очерки истории корейцев).Изд. 3-е, перераб. – Бишкек: ИЦ “АРХИ”, 2009. – 208 с. с илл.
15. Хан С. М. Язык душа народа // Десять лет спустя. – Ташкент; Сеул, 2001. – С. 57-66.
- 16.Хорезмский корейский культурный центр. [Электронный ресурс]. <https://library-koresaram.com/katalog/product/horzemskij-oblastnoj-korejskij-kulturnyj-centr>.

UO‘K 323.15

XX ASRNING 40-80 – YILLARI OXIRLARIDA XORAZM VILOYATIDA ILM-FAN VA MADANIYAT SOHALARINING TARAQQIYOTIDA KOREYLAR DIASPORASINING O‘RNI

N.B. Abdullayeva, o‘qituvchi, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. *XX asrning 40-80 – yillari oxirlarida O‘zbekiston va xususan viloyatlarda yashayotgan kam sonli xalqlarning respublikada ilm-fan va madaniy taraqqiyotga qo‘shgan hissasi masalasi juda kam o‘rganilgan. Jumladan, Xorazm viloyatida ilm-fan va madaniyat sohalarining taraqqiyotida koreyslar diasporasining o‘rni masalasi deyarli tahlil qilinmagan ayni shunday dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Zero, koreyslar diasporasi nafaqat iqtisodiyot sohasida, balki madaniy soha taraqqiyotida ham juda katta yutuqlarga erishganlar. Shu jihatdan olganda mazkur maqola XX asrning 40-80 – yillari oxirlarida Xorazm viloyatida ilm-fan va madaniyat sohalarining taraqqiyotida koreyslar diasporasining o‘rni masalasi tahliliga bag‘ishlangan.*

Kalit so‘zlar: *koreyslar, diaspora, deportatsiya, koreys teatri, musiqa, san‘at, koreys tili, milliy markazlar, ta‘lim markazlari, “teskari integratsiya”.*

Аннотация. *Вопрос о вкладе национальных меньшинств, проживающих в регионах Узбекистана, в развитие науки и культуры в республике в конце 40-х и 80-х годах XX века был очень мало изучен. В частности, вопрос о роли корейской диаспоры в развитии науки и культуры в Хорезмской области является одной из наиболее актуальных проблем, не подвергающихся анализу. Ведь корейская диаспора добилась больших успехов не только в экономической сфере, но и в развитии культурной сферы. В связи с этим данная статья посвящена анализу роли корейской диаспоры в развитии науки и культуры Хорезмской области в конце 40-80-х годов XX века.*

Ключевые слова: *Корейцы, диаспора, депортация, корейский театр, музыка, искусство, корейский язык, национальные центры, образовательные центры, “обратная интеграция”.*

Abstract. *At the end of the 40s and 80s of the 20th century, the issue of the contribution of a small number of peoples living in the regions of Uzbekistan to science and cultural development in the republic was very little studied. In particular, the question of the role of the Korean diaspora in the development of science and culture in the Khorezm region is one of the most urgent problems that have not been analyzed. After all, the Korean diaspora has made great achievements not only in the economic sphere, but also in the development of the cultural sphere. In this regard, this article is devoted to the analysis of the role of the Korean diaspora in the development of science and culture in Khorezm region in the late 40s-80s of the 20th century.*

Key words: *Koreans, diaspora, deportation, Korean theater, music, art, Korean language, national centers, educational centers, “reverse integration”.*

Kirish. XX asrning 30-yillarida Xorazm viloyatiga ko'chirib keltirilgan koreyslar diasporasining viloyat ijtimoiy – iqtisodiy va ayniqsa, madaniy hayotida tutgan o'rni masalasi deyarli tahlil qilinmagan ilmiy mavzulardan hisoblanadi. Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, koreyslar diasporasining viloyat qishloq xo'jaligi sohasida erishgan yutuqlari o'sha paytlarda dunyo miqyosida tan olingan holda, ularning O'zbekiston xalqlari madaniy taraqqiyotidagi o'rni masalasiga tarixiy tadqiqotlarda hozirgi kungacha deyarli e'tibor qaratilmagan. Qolaversa, bu yutuqlarga sovet adabiyotlarida ham xolisona baho berilmasdan, sovet xalqlarining baynalmilal madaniyati yutuqlari sifatida talqin qilingan.

Shu jihatdan olganda mazkur maqola koreyslarning O'zbekiston xalqlari madaniy taraqqiyotidagi o'rni masalasi tahliliga va umuman koreyslar diasporasining Xorazm viloyati madaniy – ma'naviy hayotidagi tutgan o'rni masalasi tahliliga bag'ishlangan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Yuqorida ta'kidlanganidek, Xorazmdagi koreys diasporasining kelib joylashuvi tarixi va madaniyati masalasi alohida tadqiqot sifatida hozirgacha yetarlicha tadqiq etilmagan.

O'zbekiston viloyatlarida yashovchi koreyslar tarixi, ijtimoiy – ma'naviy hayoti va madaniyatining turli qirralari, koreys madaniyatining Xorazm viloyati madaniy taraqqiyotidagi o'rni masalasi V.S. Xan, M.D. Ten, V.N. Kim, L.B. Kim, P.G. Kim, V.V. Nam, A.X. Raxmonqulova, D. Men kabi tadqiqotchilar asarlarida aks etgan [1; 2; 3; 4; 5; 6; 7; 8; 9]. Bularning barchasi — mavjud adabiyotlarni hisobga olgan holda — Xorazmdagi koreyslarning voqea qishloq xo'jaligi sohasi taraqqiyotida koreyslar diasporasining o'rni bilan bog'liq masalalarni, O'zbekistondagi diasporalar ijtimoiy ahvolini aks ettiruvchi dasturlarini qo'llash fonida ishlab chiqish zaruratini tug'diradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonga ko'chirib keltirilgan koreys millati vakillari asrlar davomida shakllangan milliy o'ziga xoslikni, madaniy an'analarini saqlab qolishga harakat qilganlar albatta. Zero, muayyan millatning o'z milliy-madaniy an'analarini saqlab qolishning va eng asosiy omillaridan biri bu o'ziga xos bilim va madaniyatning mavjudligi hisoblanadi. Uzoq Sharq hududlarida yashab yurgan paytlaridanoq koreyslar mahalliy xalqlardan o'zlarining bilim va madaniyati yuksakligi bilan ajralib turgan edilar. Shuning uchun ko'chirilish jarayonlari qiyinchiliklari, mutlaqo noma'lum hududlardagi og'ir sharoitlarga qaramasdan koreyslar O'zbekiston hududlariga ko'chib kelgan dastlabki kunlaridanoq o'z farzandlariga bilim berishga harakat qilganlar. Bu borada O'zbekiston hukumati tomonidan ham qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, 1937 yil 17 oktyabrda "O'zSSR Maorif xalq komissarligi tizimidagi koreys aholisiga madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish bo'yicha faoliyat to'g'risida", 1937 yil 10 noyabrda "Koreyalik bolalar uchun maktablar tashkil etish va saqlash xarajatlari to'g'risida" qarorlar qabul qilindi [7].

Xorazm viloyatida ham ko'chirib keltirilgan koreyslar uchun darhol koreys maktablari va bolalar bog'chalari tashkil qilingan. Jumladan, O'zbekiston SSR XKS tomonidan 1937 yil 25 noyabrdagi "Ko'chirilib keltirilgan koreyslar hududlarida maorif-ta'lim tizimini yo'lga qo'yish bo'yicha" Qaroriga ko'ra, koreys millati vakillari bolalari uchun maktablar tashkil qilish, eskilarini ta'mirlash, darsliklar va o'quv qurollari bilan ta'minlash uchun 2 mln. 53200 so'm pul mablag'i ajratildi [1].

1938-yil 13-martda SSSR Xalq Komissarlari Sovetining "Milliy respublikalar va viloyatlar maktablarida rus tilini majburiy o'rganish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi [7]. Ushbu qarorga muvofiq O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti 1938 yil 19 martda "O'zbekiston SSRning o'zbek va boshqa rus bo'lmagan maktablarida rus tilini o'rganish to'g'risida" qaror qabul qildi [7]. Bu qarorlarda milliy maktablarda rus tilini o'qitish metodikasini o'rganish va takomillashtirish, maktablarni rus tili o'qituvchilari bilan ta'minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar belgilandi. Milliy maktablarda rus tilini o'qitishning kengayishi milliy tillarni o'qitishni qisqartirish hisobiga sodir bo'ldi. Rus va koreys tillari dasturi va o'qitishda o'zgarishlar yuz berdi. Boshqa fanlar bo'yicha koreys maktabining o'quv materiali va o'quv rejasi rus maktabining dasturlari va o'quv materiallari hajmiga mos keltirildi. Bu qarorga ko'ra, rus tili asosiy til sifatida o'qitiladigan bo'lgan bo'lsa-da, koreys maktablarida dastlab barcha fanlar bo'yicha darslar faqat koreys tilida olib borildi [7]. Ammo,

O'zbekiston Maorif Xalq Komissarligi 1939/40 o'quv yilida barcha koreys maktablarini o'qitish rus tilida olib boriladigan maktablarga aylantirdi.

Bu qarorlar bir tarafdin katta ahamiyatga ega bo'lib, koreyslarning ko'p millatli muhitda yashash sharoitiga moslashishi, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olishi, turli sohalarida mehnat qilishi uchun xizmat qildi. Biroq bu O'zbekiston koreyslari orasida ikki avloddan keyin faqat katta avlod vakillari o'z ona tilini saqlab qoldilar, keyingi avlod esa asosiy til sifatida asosan rus tilini tanladilar [7].

Koreyslarning Uzoq Sharqdan O'rta Osiyo hududlariga ko'chirilgan dastlabki yildayoq, ya'ni 1937 yil 3 noyabrda Xorazm okrugining Gurlan tumanida birinchi koreys musiqa-drama teatri tashkil qilindi. Teatr sahnalarida "Sim Chen ismli qiz haqida afsona", "Mechkay", "Egizaklar", "Chxun Xyan sadoqati to'g'risida afsona" kabi koreys xalq afsona va ertaklari asosidagi spektakllar qo'yilgan. Bu spektakllar mualliflari Din U, Kin Gi Cher va Kim Viktor kabi iste'dodli san'at ustalari sahnalashtirgan edilar. Ammo, bu teatr jamoasi viloyatda ko'p faoliyat ko'rsatmadi. 1943 yilda mazkur teatr Toshkent viloyati xalq teatri bilan birlashtirilishi natijasida Gurlan teatri o'z faoliyatini to'xtatdi [3, 72].

Mashhur haykaltarosh N. M. Pakning 40 yillik ijodiy faoliyati Xorazm viloyati san'ati taraqqiyoti yo'li bilan chambarchas bog'liqlikda kechdi. Dastlab u deyarli 10 yil davomida Ogahiy nomidagi Xorazm viloyati Davlat musiqali-drama teatrida rassom bo'lib ishlagan bo'lsa, 1964 yilda tashkil qilingan Urganch shahar badiiy-ishlab chiqarish ustaxonasida o'zining asosiy ijodini haykaltaroshlikka qaratdi. Uning eng mashhur asarlari jumlasiga, ilk asari "Oxirgi bog'lam" (1956 yil), "Sholikor Pak Dionos" (1961-1962 yillar), "Sholikor-brigadir N.M. Pak" (1968 yil), "Gurlan tumanida yashovchi yangibozorlik vatandoshlar yodgorligi" (1980 yil) va "Yuy-Farxod" (1986 yil) kabi ijod namunalari kiradi. U Yevropa haykaltaroshlik uslubida faoliyat olib borgan bo'lsa-da, asarlaridagi asosiy g'oya koreys milliy an'analarini, milliy mentalitetini ko'rsatib berishga harakat qilgan. Jumladan, "Qishloq xo'jaligi mehnatkashlari", "Vatan urushi faxriylari", "Bolalar tarixda va hozirgi zamonda" kabi portret janridagi asarlarida koreys millati vakillari maishiy hayoti va ijtimoiy turmush tarzi qirralarini mohirona gavdalanitira olgan edi [2, 97].

Viloyat ijtimoiy-madaniy hayotida ko'pgina koreys millati vakillari faoliyat olib borib madaniyat va ilm-fan taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar. Jumladan, E.V.Pak viloyatda og'ir atletika sohasining rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shib, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan sport ustasi" unvoniga sazovor bo'ldi. Keyingi yillarda uning shogirdlari ham viloyat sport sohasi taraqqiyotiga muhim hissa qo'shdilar [2, 140].

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni alohida ta'kidlash lozimki, XX asrning 30-yillarida Xorazm viloyatiga ko'chirib keltirilgan koreyslar diasporasining viloyat madaniy hayotida tutgan o'rni masalasi deyarli tahlil qilinmagan ilmiy mavzulardan hisoblanib, bu masalaga tarixiy tadqiqotlarda hozirgi kungacha deyarli e'tibor qaratilmagan. Umuman olganda, XX asrning 40-80 – yillari oxirlarida Xorazm viloyatida yashovchi koreyslar nafaqat viloyatda, balki respublika bo'yicha ham ilm-fan va madaniyat sohalarining taraqqiyotidagi o'rni juda muhimdir. Jumladan, eng birinchi koreys milliy teatri Xorazm viloyatida tashkil qilingan bo'lib, keyinchalik, ba'zi sabablarga ko'ra, Toshkentdagi koreys teatriga birlashtirilgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Государственный Архив Российской Федерации (ГАРФ). Ф. Р-5446, оп. 29, д. 48, л. 154-155.
2. Десять лет спустя: (К 10-й годовщине Ассоциации корейских культурных центров Республики Узбекистан). Отв ред. В. С. Хан. - Ташкент-Сеул, 2001. – 167 с.
3. Ким Л.Б., Ким В.Н. Формирование и развитие драматического и музыкального искусства корейской диаспоры Узбекистана // Корееведение в России: направление и развитие. 2020. Т. 1. № 1. – С. 70-76. (С. 72).
4. Ким П. Г. Корейцы Республики Узбекистан: История и современность. -Т.: Узбекистан, 1993. - 176 с.
5. Нам В.В. К истории корейского просвещения в Узбекистане // Корейская диаспора в Центральной Азии: история, культура и социальная жизнь. К 85-летию проживания корейцев в Центральной Азии: материалы 1-й международной конференции по корееведению Университета Пучон в Ташкенте. Ташкент, 20 января 2024 года / Отв. ред.: В. В. Нам, В. С. Хан. – Ташкент: Университет Пучон в Ташкенте, 2024. – С.42-50.
6. Постановление СНК Узбекской ССР и ЦК КП(б) Узбекистана. О мероприятиях по обслуживанию переселенцев-корейцев по линии просвещения (внесено Наркомпросом УзССР). – Ташкент, 25 ноября 1937 г. //

ГАРФ, ф. Р-5446, оп. 29, д. 48, л. 154-155.

7. Рахманкулова А.Х. К вопросу просвещения и образования корейцев в Узбекистане (с момента депортации по настоящее время) // <https://koryo-saram.sitea-rahmankulova-k-voprosu-prosvesheniya-i-obrazovaniya-korejtssev-v-uzbekistane-s-momenta-deportatsii-po-nastoyashhee-vremya/>

8. Тен М.Д. Корейцы СНГ: от общей истории к единому этнокультурному сообществу евразийских корейцев // Идеи и Идеалы. Проблемы национального дискурса. №1(31), т. 2, 2017. – С. 35-50.

9. Хан В. С. Историография корейцев Центральной Азии: основные направления и этапы развития. – Ташкент: Vaktria press, 2021. – 624 с.

10. Хан В. С. Коре сарам: кто мы? (Очерки истории корейцев). Изд. 3-е, перераб. – Бишкек: ИЦ “АРХИ”, 2009. – 208 с. с илл.

UO‘K 323.15

XORAZM KOREYSLARINING VILOYAT QISHLOQ XO‘JALIGI RIVOJIDAGI O‘RNI

N.B.Abdullayeva, o‘qituvchi, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. XX asrning 30-yillarida Qozog‘iston va O‘zbekistonga, shu jumladan Xorazm viloyatiga ko‘chirib keltirilgan koreyslar diasporasining viloyat ijtimoiy – iqtisodiy hayotida tutgan o‘rni masalasi deyarli tahlil qilinmagan ilmiy mavzulardan biri hisoblanadi. Zero, faqat davlat mulkchiligiga asoslangan sotsialistik jamiyat rad qilgan va bozor iqtisodiyotiga asoslangan “kobondi” xo‘jalik ishlab chiqarish uslubi yordamida juda katta yutuqlarga erishilgan. Ammo, aynan shu sovet hokimiyati iqtisodiy mafkurasiga mos kelmaganligi uchun bu ishlab chiqarish uslubi sovet davri ilmiy tadqiqotlarida tahlil qilinmagan. Shu jihatdan olganda mazkur maqola ana shu “kobondi” ishlab chiqarish uslubi tahliliga va umuman koreyslar diasporasining Xorazm viloyati xo‘jalik-iqtisodiy hayotidagi tutgan o‘rni masalasi tahliliga bag‘ishlangan.

Kalit so‘zlar: koreyslar, diaspora, deportatsiya, kobondi, kobondya, kapitalistik ukhad, ko‘pmulkchilik, mavsumiy ijara, “xalq mulki”, Gurlan, Xonqa, Urganch, kolxoz, sovxoz.

Аннотация. Вопрос о роли корейской диаспоры в социально-экономической жизни региона, переселенной в Казахстан и Узбекистан, в том числе Хорезмскую область в 30-е годы XX века, является одной из практически не анализируемых научных тем. Ведь большие достижения были достигнуты с помощью способа экономического производства «kobondi», основанном на рыночной экономике, который был отвергнут основанным только на государственной собственности производства социалистическим обществом. Однако этот способ производства не анализировался в научных исследованиях советского периода именно потому, что он не соответствовал экономической идеологии советской власти. С этой точки зрения данная статья посвящена анализу этого способа производства «kobondi» и роли корейской диаспоры в экономической жизни Хорезмской области.

Ключевые слова: Корейцы, диаспора, депортация, kobondi, kobondya, капиталистический строй, многовладение, сезонная аренда, «народная собственность», Гурлен, Ханка, Ургенч, колхоз, совхоз.

Abstract. The question of the role of the Korean diaspora in the socio-economic life of the region, resettled in Kazakhstan and Uzbekistan, including the Khorezm region in the 30s of the twentieth century, is one of the practically unanalyzed scientific topics. After all, great achievements were achieved with the help of the “kobondi” method of economic production, based on a market economy, which was rejected by a socialist society based only on state ownership of production. However, this method of production was not analyzed in scientific studies of the Soviet period precisely because it did not correspond to the economic ideology of the Soviet regime. From this point of view, this article is devoted to the analysis of this method of production of “kobondi” and the role of the Korean diaspora in the economic life of the Khorezm region.

Key words: Koreans, diaspora, deportation, kobondi, kobondya, capitalist system, multiple ownership, seasonal rent, “people’s property”, Gurlen, Khanka, Urgench, collective farm, state farm.

Kirish. XX asrning 30-yillarida Xorazm viloyatiga ko‘chirib keltirilgan koreyslar diasporasining viloyat ijtimoiy – iqtisodiy hayotida tutgan o‘rni masalasi deyarli tahlil qilinmagan

ilmiy mavzulardan biri hisoblanadi. Jumladan, koreyslar diasporasining viloyat qishloq xo'jaligi sohasida erishgan yutuqlari o'sha paytlarda dunyo miqyosida tan olingan edi. Ammo, bu yutuqlarga sovet adabiyotlarida xolisona baho berilmasdan, sotsialistik jamiyatning yutuqlari sifatida talqin qilingan. Ayniqsa, koreyslar xo'jaligida qo'llanilgan hamda "kobondi" deb nom olgan ishlab chiqarish uslubi hatto maxsus adabiyotlarda ham ilmiy jihatdan tahlil qilinmagan edi. Zero, faqat davlat mulkchiligiga asoslangan sotsialistik jamiyat mafkurasi hukmronligi sharoitida, kapitalistik jamiyat illati sifatida baho berilgani uchun "kobondi" xo'jalik ishlab chiqarish uslubi o'sha davrlarda nafaqat sovet hukumati tomonidan amalda qabul qilinmadi, balki ilmiy jihatdan ham umuman tahlil qilinmagan.

Ammo, bu ishlab chiqarish uslubi sovet davri ilmiy tadqiqotlarida tahlil qilinmagan. Shu jihatdan olganda mazkur maqola ana shu "kobondi" ishlab chiqarish uslubi tahliliga va umuman koreyslar diasporasining Xorazm viloyati xo'jalik-iqtisodiy hayotidagi tutgan o'rni masalasi tahliliga bag'ishlangan.

Zero, ko'plab arxiv fondlarining maxfiylik darajasidan chiqarilishi, og'zaki tarix ma'lumotlarining ko'payishi mazkur mavzuga yanada kengroq, asosiysi esa ilmiy xolislik nuqtai-nazaridan yondashish lozimligini ko'rsatadi. Ammo mazkur maqolada, koreys sovxoz va kolxozlarining yoki koreyslar aholi tarkibida ko'pchilikni tashkil qiluvchi kolxozlar, jumladan, Xonqa tumanidagi Al-Xorazmiy nomli sovxoz va Gurlan tumanidagi "Kommunizm" kolxozlari haqida so'z yuritilmaydi. Zero, koreys sovxoz va kolxozlarining o'zlari yoq sovet davrida alohida "fenomen" sifatida mashhur bo'lib, ularning o'zlari alohida tadqiqot mavzusi hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Xorazmdagi koreys diasporasining kelib joylashuvi tarixi va madaniyati masalasi alohida tadqiqot sifatida hozirgacha yetarlicha tadqiq etilmagan. Koreya mavzusidagi mahalliy va xorijiy asarlarning aksariyati sobiq sovet davrida nashr etilgan. Sovet davlatidagi koreys diasporasi yagona etnik guruh sifatida qaralganligi sababli, ko'plab tadqiqotlar "sovet koreyslari"ga bag'ishlangan, ammo bu tadqiqotlarning empirik materiallari ma'lum bir mintaqada yashovchi koreyslarni o'rganishga asoslangan (masalan, O'zbekiston yoki Qozog'iston). Xuddi shu sababga ko'ra, shuningdek, Sovet koreyslarining aksariyati Markaziy Osiyoda yashaganligi sababli, ko'plab koreysshunoslik fanlarining sarlavhalari "Markaziy Osiyo koreyslari"ga bag'ishlangan, garchi bu asarlarda ko'pincha ma'lum bir respublikaning, masalan, Qozog'iston yoki O'zbekistondagi koreyslariga bag'ishlanadi.

O'zbekiston viloyatlarida yashovchi koreyslar tarixi, ijtimoiy hayoti va madaniyatining turli qirralari, shu jumladan, sovet davlati hukmronligi davrida faqat koreyslar diasporasiga xoc "kobondi" xo'jalik yuritish uslubi mavzusi V.S. Xan, B. Kim, G. Li, D. Men kabi tadqiqotchilar asarlarida aks etgan [3; 4; 5; 9; 10]. Bularning barchasi — mavjud adabiyotlarni hisobga olgan holda — Xorazmdagi koreyslarning voha qishloq xo'jaligi sohasi taraqqiyotida koreyslar diasporasining o'rni bilan bog'liq masalalarni, O'zbekistondagi diasporalar ijtimoiy ahvolini aks ettiruvchi dasturlarini qo'llash fonida ishlab chiqish zaruratini tug'diradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma'lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Butun bir xalqlarning o'zlarining yashab turgan tarixiy o'lkalaridan boshqa hududlarga majburiy ko'chirilishi, SSSR davlatida stalincha qatag'onlik siyosatining ko'rinishlaridan biri bo'lib, majburiy ravishda 11ta (ba'zi manbalarda 15ta) millat vakillari turli hududlarga majburan ko'chirilgan. Bu millat vakillari ichida koreyslar ham bo'lib, ular aslida Rossiya imperiyasining Uzoq SHarq o'lkalariga XIX asrdanoq turli sabablarga ko'ra (avvalo siyosiy va so'ngra iqtisodiy sabablarga ko'ra) ko'chib kelib, o'rmashib boshlagan edilar. Ammo, 1937 – 1938 yillarda koreyslarning Qozog'iston va O'zbekiston viloyatlariga, shu jumladan, Xorazm viloyatiga ko'chirilishi zamirida faqat siyosiy omillar yotadi. Lekin, bu o'rinda ularning majburiy ko'chirilishining siyosiy va iqtisodiy sabablariga to'xtalib o'tirilmasdan, O'zbekiston viloyatlariga, shu jumladan, Xorazm viloyatiga olib kelib joylashtirilgan koreyslar jamoasining viloyat xo'jalik hayotidagi o'rni masalasiga e'tibor qaratiladi.

Koreyslar eng avvalo Xorazm viloyatining asosan kam o'zlashtirilgan hududlariga, kam hollarda ilgaridan aholi yashab kelayotgan joylarga keltirilib joylashtirilgan. Jumladan, ularning katta

qismi Gurlan tumaniga, so'ngra Yangiariq (1973 yildan Xonqa tumani) va Urganch tumanlariga joylashtirilgan [6, 325-326].

Umumiy holatda 1937 yil 5 dekabr holatiga ko'ra, Gurlan tumaniga 1100 koreys oilasi yoki 5290 kishi ko'chirib keltirilgan edi [7, 143]. 1938 yil noyabr oyi ma'lumotlari bo'yicha Xorazm viloyatiga ko'chirib keltirilgan koreyslarning 477 oilasidan iborat 3 ta kolxoz tashkil qilingan bo'lsa, 399 koreys oilalari 9 ta mahalliy kolxozga joylashtirildi [8, 309-319].

Arxiv ma'lumotlarini hamda koreys keksalarining esdaliklarida vohaga ko'chirib keltirilgan koreyslar ham shu davr jamoalashtirish siyosatiga asosan, bir qancha koreys jamoa xo'jaliklari shakllantirilgan. Jumladan, ilk deportatsiya davri sovet hukumati hujjatlarida koreyslar ham "maxsus ko'chirilganlar" degan nom ostida mahalliy aholidan alohida joylashtirilgan bo'lsa, bir guruh koreys muhojirlari mahalliy o'zbek qishloqlariga joylashtirilgan. Ammo, ular asosan qo'riq yerlarga, o'zlashtirilishi lozim bo'lgan hududlarga joylashtirildilar. Bunday hududlar asosan to'qay va qamishzorlardan iborat yerlar bo'lgan.

Koreyslar ko'chib kelgan yangi hududlaridagi og'ir sharoitlarga qaramasdan, o'zlarining mashaqqatli mehnatlari evaziga to'qay va qamishzorlarni o'zlashtirib, obod qishloqlarga aylantirdilar. Koreyslar sholi, piyoz, karam, baqlajon ekish madaniyatining yangi-yangi uslublarini yerli xalqqa o'rgatdilar [3, 78; 10, 77-86].

Koreyslarning mehnatsevarlik ko'nikmalaridan tashqari, o'sha davr sovet hukumatinin xususiy mulkchilikni umuman rad qiluvchi siyosatiga mos kelmaydigan "kobondi" deb nom olgan xo'jalik yuritish uslubi ham vohadagi koreyslar diasporasining qishloq xo'jaligi sohasida erishgan yutuqlarining asosiy omili bo'lgan edi [4, 154-157]. Demak, bu xo'jalik uslubining mazmun mohiyati qanday edi?

"Kobondi", bu asosan mavsumiy xususiyatga ega bo'lgan (va ko'proq qo'shni hamda uzoq kolxozlarga borib ishlash asosida), davlat va kolxozlar idoralari bilan tuzilgan shartnoma asosida shakllantiriladigan ijaraga yer olib ishlov berish uslubi bo'lib, ko'proq xususiy mulkchilikka asoslangan hamda aynan hozirgi bozor iqtisodiyoti talablari asosida yuritilgan tadbirkorlik turlaridan biri edi. "Kobondi"lar asosan bir necha qarindosh oilalardan tashkil topgan brigadadan iborat bo'lgan va boshqa oilalardan yollanma ishchilar ham yollangan. Eng e'tiborli jihati esa, "kobondi"lar ishchilari faqat dehqon yoki kolxozchilardan iborat bo'lmasdan, o'qituvchilar, injenerlar, texnologlar, jurnalist va hatto ilmiy unvonlarga ega bo'lgan mutaxassis-olimlar ham bu mavsumiy ishlarda ishtirok qilganlar. Juda kam hollarda esa bu brigadalarga mahalliy o'zbeklar ham jalb qilingan. Shu jihatdan ham maxsus adabiyotlarda "kobondi" noqonuniy xo'jalik yuritish uslubi sifatida baholangan edi [3, 78; 9, 291-292].

Umuman olganda, "kobondi" bu – faqat bir ukladli xo'jalik-iqtisodiyotdan iborat sovet jamiyatidagi ilk xususiy mulkchilikka asoslangan va etnik (faqat koreyslarga xos) xususiyatga ega tadbirkorlik turlaridan biri bo'lgan. Shu o'rinda alohida ta'kidlash lozimki, "kobondi" xo'jalik uslubi juda katta mehnatni hamda ratsional dehqonchilik bilimlarini talab qilgan albatta [4, 154-157].

"Kobondi" xo'jalik yuritish uslubining sovet ma'muriy-buyruqbozlik tizimi va rejalashtirilgan iqtisodiyot hukmron sharoitida keng tarqalishiga asosan aynan shu sovet davlati xato xo'jalik tuzumining nuqsonlari sababchi bo'lgan. Jumladan, sovet sovxoz va kolxozlarida ishchilarga to'lanadigan ish haqqi koreys kobondyalari ("kobondi" egalari, qishloq xo'jaligi tadbirkorlari) o'zlari yollagan ishchilarga to'laydigan ish haqqidan deyarli 10-20 baravar past bo'lgan. Jumladan, statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1970-80 yillarda "kobondi"lar ishchilarining yillik ish haqlari 30 ming so'mgacha borgan bo'lsa, mahalliy sovxoz va kolxozlarning ishchi-dehqonlarining yillik ish haqqi eng balandi 2500 so'm bo'lgan, unda ham barcha kolxozchilar yillik daromadi bu miqdorga yetmagan [9, 289-325].

Ikkinchi asosiy sabab, kolxoz va sovxozlarga qo'yilgan majburiyatlar juda yuqori bo'lib, amalda bu rejalar bajarilmasdan, faqat qog'ozda bajarilib, ular davlatdan qarzdor bo'lib qolganlar. Bu holat yuqorida ta'kidlanganidek, kolxozchilarning ish haqlariga katta ta'sir qilgan. Natijada kolxozlar o'zlariga belgilangan rejadagi majburiyatlarni koreys "kobondi"lari hisobiga to'ldirganlar. Shuning uchun ham kolxoz raislari "kobondi"lar faoliyatiga aralashmasdan, ularning faoliyatlarini cheklemasdan, va aksincha qaytanga ularni ishchi kuchi hamda qishloq xo'jaligi texnikasi bilan


ta'minlashlariga sabab bo'lgan edi. "Kobondi"lar rivojlanishining uchinchi asosiy sababi esa koreys kobondiyalariga ijara evaziga beriladigan yerlar asosan, ishlatilmasdan yotgan, qamishzorlar yoki sho'rxok yerlar bo'lgan bo'lsa-da, koreyslar o'zlarining mehnatsevarligi hamda qishloq xo'jaligi borasidagi bilimlariga tayanib, bunday yerlardan ham yuqori hosil olaverganlar. Bu yana kolxozlarning o'z fondlaridagi yerlardan ortiqcha va davlatdan yashirincha yer fondlarining shakllanishiga ham olib kelgan [9,292].

Xullas, sholi ekinini hisobga olmaganda har yili aprel-may oylaridan (hatto piyozni fevral oyidan boshlab) to sentyabr oyigacha koreys mavsumiy qishloq xo'jaligi brigadalari – "kobondi"lar Xorazm viloyatining turli hududlarida tarvuz, piyoz va baqlajon ekinlaridan yuqori hosil olib, birinchilardan bo'lib voha bozorlariga olib chiqqanlar va aholini shu ekin mahsulotlari bilan ta'minlaganlar. Urganch, Xiva va Gurlan shaharlari, Xonqa, Hazorasp va viloyatning ko'pchilik tumanlarida kekxa nuroniylar orasida o'tkazilgan etnografik so'rovnomalarga ko'ra, koreyslar ta'sirida ba'zi qishloq xo'jalik ekinlarining, ayniqsa piyoz va tarvuzning bozorlarga va aholi dasturxoniga yetib kelishi mavsumi ham o'zgargan. Natijada voha aholisi yangi yetishtirilgan piyoz mahsulotlarini aprel oylaridanoq, tarvuzni esa may oylaridanoq iste'mol qila boshlaganlar [1]. Zero, vohaning keskin iqlimli tabiiy sharoitida bu mavsumda ekin ekib, hosil olish o'ziga xos g'aroyib hodisa hisoblanadi. Jumladan, voha iqlimi nafaqat fevral oyida, balki hali mart-aprel oylarida ham sovuq ob-havo hukmron bo'lishiga qaramasdan, koreyslar fevral oyidanoq piyoz ekishni boshlaganlar. Bu holat arxiv hujjatlarida ham o'z aksini topgan bo'lib, jumladan Xonqa viloyati Davlat arxivi fondlarida saqlanayotgan kolxozlar xo'jalik hayotiga oid hujjatlar ichida koreys millati vakillarining mehnat ta'tili berilishini so'rab yozgan arizalarining hammasi fevral oyi uchun so'ralgan bo'lib, bu mazkur ariza beruvchilarning aynan shu fevral oyida piyoz ekish uchun "kobondi"larga birlashganliklarini ko'rsatadi [11].

O'sha davrlarda yashab va "kobondi" xo'jaligini yuritgan, koreys millati vakillari bergan ma'lumotlarga ko'ra, "kobondi" xo'jaliklarida ko'pincha sholi, tarvuz va piyoz ekinlari ekilgan. Masalan, Urganch shahri, Gurlan ko'chasida yashovchi O'sha Kim ma'lumotiga ko'ra, XX asrning 80-yillarida ular qarindoshlari bilan birgalikda mavsumiy brigada tuzib (kamida 15-20 kishidan iborat), har yili Urganch tuman Oqoltin fuqarolar uyushmasi (sobiq V.Chapayev nomidagi kolxoz) hududidan 5-6 gektar yerni ijaraga olib, bu yerga erta bahorda piyoz va tarvuz (asosan tarvuzning mahalliy aholi ichida "40 kunlik" deb nom olgan navini), yoz-kuz mavsumida esa sholi ekkanlar [2]. Bu o'rinda shuni alohida ta'kidlash lozimki, nafaqat koreyslar yashaydigan tumanlar (Gurlan, Xonqa, Xiva hamda Urganch tumanlari va Urganch shahri) balki, koreyslar yashamaydigan tuman hududlarida ham koreyslar mavsumiy qishloq xo'jaligi brigadalari faoliyati haqida ko'pgina misollar keltirish mumkin.

Xulosa. Umuman olganda xususiy mulkchilikni rad qilib, faqat davlat mulkchiligiga asoslangan sotsialistik jamiyat gullab – yashnagan davridayoq O'zbekiston koreyslari o'zlarining xo'jalik hayotida o'sha sotsialistik jamiyat rad qilgan va bozor iqtisodiyotiga asoslangan "kobondi" xo'jalik ishlab chiqarish uslubi yordamida juda katta yutuqlarga erishganlar. Ammo, bu ishlab chiqarish uslubi sovet davri ilmiy tadqiqotlarida tahlil qilinmagan. Shu jihatdan olganda, viloyatda yashovchi koreyslar diasporasi qishloq xo'jaligi sohasida juda ko'p yangiliklarni va ekin ekish texnologiyalarini olib kelishdiki, bu masalani butun viloyat bo'yicha tumanlar kesimida tahlil qilib chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Dala yozuvlari. Xorazm viloyati Xonqa tumani Sarapoyon qishlog'i, 2023 yil.
2. Dala yozuvlari. Xorazm viloyati Urganch shahri. 2023 yil.
3. Ким Б.И. Ветры наших судеб: Советские корейцы. История и современность. – Ташкент: Узбекистон, 1991. – 183 с.
4. Ли Г. Гобонди. Записки наблюдателя о любви корейцев к земле. Бишкек. Б.и. 2000. – 316 с.
5. Мен Д. Роль корейских колхозов Центральной Азии в строительстве социализма в СССР (1937-1991 гг.) / 
6. Постановление Политбюро ЦК ВКП(б) "О корейцах". 21 августа 1937 г.// Лубянка. Сталин и Главное управление госбезопасности НКВД. Архив Сталина. Документы высших органов партийной и государственной власти. 1937—1938. — М.: МФД, 2004, стр. 325-326.// АП РФ. Ф. 3. Оп. 58. Д. 139. Л. 1—2. Подлинник.

Машинопись // РГАСПИ Ф.17, Оп.166, Д.578 Л.29-32.

7. По решению Правительства Союза ССР / Сост., авт. введ., коммент. Н.Ф. Бугай, А.М. Гонов. — Нальчик: Изд. центр «Эль-Фа», 2003. — С.143.

8. Рахманкулова А.Х. Вклад корейцев в экономику Узбекистана (в конце 1930–1950 гг.) // 1937 год: русскоязычные корейцы — прошлое, настоящее и будущее / Сборник материалов Международного симпозиума, посвященного 80-летней годовщине принудительного переселения корейцев с Дальнего Востока в Центральную Азию (15–17 сентября 2017 г., Владивосток–Уссурийск). — М.: Аквариус, 2018. — С. 309-319; ЦГА РУз. Ф. 314. Оп. 1. Д. 6; Д. 4.

9. Хан В. О специфике трудовой деятельности Коре Сарам в СССР: Кобонди – образ рыночника в не рыночной экономике // *리베리안 권술* 2019. — С. 289-325.

10. Хан В. Освещение истории корейской полулегальной сельскохозяйственной аренды (кобонди) в художественной и публицистической литературе // *O'zbekiston tarixi*. №2, 2014. — С. 77-86.

11. Xonqa tumani Davlat arxivi. Al-Xorazmiy sovxozlari bo'yicha 1980-1981 yillar mehnat ta'tili buyruqlari va arizalar. Fond 270, ro'yxat I, jild 91, 1-142 varaqlar.

UO'K 32(075.8)

SIYOSIY LIDER FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA TARIXIY ILDIZLARI

M.Z.Ahmadxojayev, doktorant, Namangan davlat universiteti, Namangan

Annotatsiya. Ushbu maqolada Siyosiy yetakchining faoliyat asosi yani uning huquqiy asoslari normativ-yuridik tahlil sifatida va siyosiy liderning faoliyat birliklari ochib beriladi ayniqsa Yangi O'zbekiston holatidan kelib chiqib bunda rahbarlik vakolati uning etiketik qarashlari burchga mas'uliyat bilan yondashgan holda jamiyatda inson manfaatlari va uning oliy qadriyatligini dastak qilib olish va jamiyat azolarini kapitalistik jarayonda ijtimoiy bo'hronlardan asrash kabi dogmalar maqsadlari ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Rezolutsiya, siyosiy lider, umum etirof etilgan qadriyatlar, Erasmus, gender tenglik, ijtimoiy adolat, demokratik modernizatsiya.

Аннотация. В данной статье раскрываются основы деятельности политического лидера, то есть его правовая база как нормативно-правовой анализ, и единицы деятельности политического лидера, особенно на примере ситуации Нового Узбекистана, в которой авторитет лидера, его этические взгляды, ответственно подходят к долгу, интересам человека и его высокой ценности в обществе, раскрываются такие цели догм, как поддержка и защита членов общества от социальных кризисов в капиталистическом процессе.

Ключевые слова: Резолюция, политический лидер, общепризнанные ценности, Эразм, международный стандарт образования, гендерное равенство, социальная справедливость, демократическая модернизация.

Abstract. In this article, the basis of the political leader's activity, i.e. his legal basis as a normative-legal analysis, and the political leader's activity units are revealed, especially based on the situation of New Uzbekistan, in which the authority of the leader, his ethical views, responsibly approach the duty, human interests and his high value in the society. the purposes of dogmas such as support and protection of members of society from social crises in the capitalist process are revealed.

Key words: Resolution, political leader, universally recognized values, Erasmus, international training standard, gender equality, social justice, democratic modernization.

Introduction. No matter what country or system exists in the world, the power of a leader or group of people is exercised according to the level of legitimacy and leadership principles of the government based on the legislation and legal mechanism of that country. For this purpose, the principles of political government are implemented with the help of the current state constitution or normative complexes replacing it.

As for the example of modernization in Uzbekistan, the presidential republic is developing more democratically, and this is reflected in the constitution of our main commune. For example, the powers of the president and the role of the prime minister in the potential distribution of power are increasing. For example, the President is the guarantor of the rights and freedoms of citizens,

compliance with the Constitution and laws of the Republic of Uzbekistan, the sovereignty, security and territorial integrity of the Republic of Uzbekistan, he takes the necessary measures to implement decisions. on issues of national-state structure, within the country and works on behalf of the Republic of Uzbekistan in international relations, 3) negotiates and signs contracts and agreements of the Republic of Uzbekistan, ensures compliance with concluded treaties, agreements and obligations concluded by the Republic. Accepts credentials and invitations from accredited diplomatic and other representatives, submits to the Senate of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan candidates for the position of heads of diplomatic and other missions of the Republic of Uzbekistan in foreign countries and international organizations.

Literature review. In the research, not only foreign, but local Uzbek sociological achievements were used in their place. In particular, political scientist A. Mominov's monograph "Uzbekistan: towards an information society", N. Oripov's "Information and communication technologies in public administration: general concepts, world experience, prospects for implementation in Uzbekistan", S. Atamurodov's monograph "Globalization and national-spiritual security", J. Mavlonov's monograph "Kommunikativnye osnovy deyatelnosti institutov grajdanskogo obshchestvo: tendentsii i innovatsii", R. Davletov's monograph "Razvivaya dialog mejdu gosudarstvom i grajdanimi", O. Abduazimov's monograph "Civil society and mass media" and others actual political, legal, sociological, philosophical, psychological problems of society, government and civil society in the process of establishing a civil society are highlighted. The political analysis of local literature showed that, although the existing scientific literature is close to the research topic, the problem of political management and PR technologies, especially their role and importance in ensuring the stability of society, has not been systematically and purposefully worked out. After all, although the legal basis for the democratization and liberalization of the mass media has been created, the legal framework for the legitimization of political management and political PR institutions has not yet been formed. The Laws of the Republic of Uzbekistan "On Social Partnership" and "On Public Control" are the first steps in this direction.

Has the right to appeal to the people of the Republic of Uzbekistan and the Oliy Majlis on the most important issues of implementing the country's domestic and foreign policy, creates and abolishes ministries and other executive authorities of the republic, issues resolutions on these issues. subsequently approved by the Senate of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, the submission of the candidacy of the Chairman of the Senate to the Senate of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan is a practical manifestation of the leader's recognition of democracy and diversity of political views.

Research Methodology. Theoretically, stepping from one political system to another is a kind of "transition", and from the point of view of political science, it requires a transit process. In Uzbekistan, from the first years of independence, from the old administrative command-based state administration to a democratic type of society and state administration, the First President I. A. On the basis of the principle of step-by-step reforms put forward by Karimov, a new national statehood was established. Admittedly, the principle "Don't destroy the old one before building a new one" has historically justified itself - economic, political, legal, cultural and educational reforms are being carried out with Eastern calmness and restraint, without sharp excuses and riots. This process and the chosen strategy of the current President Sh. M. Actively continued by Mirziyoev on the basis of succession, since 2017, this process has accelerated - a strategy of rapid development, not only "catching up" with developed countries, but also striving for leadership based on a completely new policy, was revealed. This process was also reflected in the "Strategy of Actions" on five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan in 2017-2021.

Leaving aside the negative evil that has entered the political sphere from literature and art - flattery and praise of the political leader, it can be objectively and rationally noted that this development is the result of the "Strategy of Actions" by the well-known statesman and political scientist N. In Joraev's words, it deserves to be evaluated as a "call to civilization" in the literal sense. N, as each event is the object and subject of the subject. As Joraev rightly pointed out, the political leader and the head of the state also have their unique qualities.

In this case, they are manifested by:

First, the fact that the leader has a firm and unchanging political position;

secondly, the high quality characteristic of a determined and far-seeing statesman to finish what he started;

thirdly, to achieve unity of work with the word that defines the entire prestige and political image of the head of state;

fourthly, a high level of consistency and coherence in political views and strict demands for their implementation;

fifthly, the ability to control all spheres of society and all aspects of social life in one way due to the great power of memory and inner willpower;

sixth, achieving the timely completion of the issues raised and assigned tasks;

seventhly, a high degree of manifestation of oriental management culture and leadership ethics.

These characteristics and qualities can meet the requirements for the spirituality of a ruler or head of state in the works of Abu Nasr Farabi, such as "Politics of Madaniya", "On the Attainment of Happiness", especially "Book on the Views of the People of the Virtuous City". If Abu Nasr Farabi talked about the 12 qualities necessary for a ruler, Kaikovus, Zahiri, Nizamulmulk, Amir Temur, Maulana Muhammad Qazi and other scholars also stated that it is obligatory to fulfill these duties while expressing their opinion about the duties of governors to the people.

It is revealed that the new communicative innovations required by the strategy of modernization and development of society in Uzbekistan - political management and public relations technologies (PR) as a means of interaction between the state and the people are a factor of ensuring the stability of the society;

in order to further strengthen the effectiveness of relations between the state and the people, it is revealed that it is a social necessity to develop a system of effective use of the intellectual and innovative possibilities of media education with the active participation of civil society institutions;

it is scientifically based on the need to establish "public service", "political management", "political PR" and "political advertising" specializations for the state administration system in higher education institutions based on the experience of foreign countries;

socio-political advertising is based on the establishment of dialogue between political subjects and citizens, to satisfy the needs of society members for information in the political field;

in the process of democratization of society, it is revealed that it is necessary to improve the electoral system in order to create an environment of inter-party competition, and to establish a permanent and purposeful communication of political parties with the public based on the "party and citizen", "party and NGO", "party and neighborhood" system.

Appoints and dismisses the Prime Minister of the Republic of Uzbekistan, members of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan after approval of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, and also appoints heads of committees, institutions and other government bodies. bodies of the republic to positions in accordance with the law, appoints and dismisses. Appoints and dismisses the Prosecutor General of the Republic of Uzbekistan, the Chairman of the Accounts Chamber of the Republic of Uzbekistan after approval by the Senate of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, after consultations with the Senate of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan. of the Republic of Uzbekistan, the State Security Service of the Republic of Uzbekistan appoints and dismisses the chairman.

Candidates for the Senate of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan, the Constitutional Court of the Republic of Uzbekistan, the Supreme Court of the Republic of Uzbekistan, the Supreme Council of Judges of the Republic of Uzbekistan, as well as the chairman of the Candidacy for the position of head of the opposition body are represented by the board of the Central Bank of the Republic of Uzbekistan, the head of the republican anti-corruption body and the republican monopoly . On the recommendation of the Supreme Council of Judges of the Republic of Uzbekistan, appoints and dismisses the chairmen and deputy chairmen of regional and Tashkent city courts, the chairman of the Military Court of the Republic of Uzbekistan.

Appoints and dismisses regional akims and the mayor of Tashkent. The President of the Republic of Uzbekistan has the right to dismiss akims of districts and cities who have violated the Constitution, laws or committed actions that have tarnished the honor and dignity of the akim, and this is an important step in ensuring the rule of law.

The issue of law enforcement is the most pressing issue of any state, and the legal order makes it the area in which this system has a clear effect. suspends and cancels the validity of documents of the executive branch and governors of the republic, has the right to preside at meetings of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan, signs and promulgates the laws of the Republic of Uzbekistan; has the right to return the law with its objections to the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan for re-discussion and voting.

Conclusion. Today, scientific research is being carried out in priority areas such as the role of PR technologies in ensuring the sustainable development of society, including the role of socio-political advertising in the formation of public opinion, modern methods of influencing public opinion during election processes, increasing the effectiveness and efficiency of socio-political PR technologies (M.V. .Moscow State University named after Lomonosov, Institute of International Economics and Business, University of Public Administration, Omsk State University named after F.M. Dostoevsky, Presidential Academy of National Economy and Public Service). Based on the research results, scientific and methodological articles on various issues of PR technologies are being published in official magazines ("Sovetnik", "Sostav.ru", "Advertology.ru", "Novosti SMI", "Press-slujba").

In the event of an attack on the Republic of Uzbekistan or the need to fulfill the obligations of the concluded treaty on mutual defense against aggression, declares a state of war, general or partial mobilization and submits its decision for approval. chambers of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan within three days.

REFERENCES:

1. Report of the President of the Republic of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev at an expanded meeting of the Cabinet of Ministers on the main results of the socio-economic development of our country in 2016 and the most important priorities of the economic program for 2017.
 2. Speech by President Shavkat Mirziyoyev at the IV Congress of the youth social movement "Kamolot".
 3. Speech by President Shavkat Mirziyoyev at a video conference meeting with representatives of the chambers of the Oliy Majlis, political parties and the Environmental Movement of Uzbekistan
 4. Atamuratov M. U. The process of modernization of management personnel system in Uzbekistan. - Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) monograph on political sciences. - Tashkent, 2018.
 5. Inoyatov M. B. The place and role of leaders in achieving independence and strengthening it in Uzbekistan. Doctor of Philosophy (PhD) monograph on political science. - Tashkent, 2019.
 6. Norboev T. Conceptual and methodological issues in the development of civil society in Uzbekistan. Doctor of Political Science (DSc) Dissertation Abstract. - Tashkent, 2021.
 7. Ravshanov F. Basis of selection of leading personnel in the Republic of Uzbekistan. A monograph written for the degree of Doctor of Political Science (DSc). - Tashkent, 2009.
 8. Yusupov A. B. Improving the system of evaluating the effectiveness of public administration of Uzbekistan. Doctor of Philosophy (PhD) monograph on political science. - Tashkent, 2019.
- Sociological research and other information:
9. <https://president.uz/uz/3119> // The Constitution and the rule of law are the most important criteria of a legal democratic state and civil society // President Shavkat Mirziyoyev's speech at the solemn ceremony dedicated to the 27th anniversary of the adoption of the Constitution of the Republic of Uzbekistan.
 10. <http://prezident.uz/ru/list/view1370>.

UO'K: 1(904)

QADIMGI XORAZM HUDUDIDA ILK SHAHARLARNING SHAKLLANISHI UCHUN ZARURIY SHART SHAROITLARNING MAVJUDLIGIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

M.I. Atajanov, o'qituvchi, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. Maqolada Amudaryoning o'ng va so'l sohili hududida shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishining tarixiy ildizlari tahlil qilindi.

Kalit so'z: Shaharsozlik, urbanizatsiya, arxitekturada estetika va kompozitsiya tamoyillari.

Аннотация. В статье проанализированы исторические корни возникновения и развития городов на правом и левом берегах Амударьи.

Ключевые слова: Градостроительство, урбанизация, принципы эстетики и композиции в архитектуре.

Abstract. The article analyzed the historical roots of the emergence and development of cities on the right and left banks of the Amudarya.

Key word: City planning, urbanization, principles of aesthetics and composition in architecture.

Kirish. O'zbekiston tarixida dolzarb muammolardan biri ma'lum bir geografik o'rinda gavjumlashuvi, tabiiy resurslardan foydalanishi, mehnat quollarini takomillashtirish asnosida sifat va miqdoriy jihatidan jamiyat atributi bo'lgan shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishini, tarixiy ildizini o'rganish hisoblanadi. Arxeologik adabiyotlarda Xorazm vohasida mil.avv VI asr so'ngi choragidan o'rta miyona va hajm jihatidan turar joylar qurilishi o'troq ziroatkor qabilalar tomonida amalga oshirilgan. Mazkur masalada shaharsozlik madaniyatining ijtimoiy iqtisodiy va etnomadaniy munosabatlarining ta'sirini yoritish nazarga olingan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.

Xorazm vohasida insoniyatning dastlabki joylashishi Sulton Uvays tog'i so'l hududida (mil.avv 40-12 ming yillar) poleolit davri ilk bosqichlari, (mil.avv V ming yillik, IV ming yillikning birinchi choragida) joylashishi E.A.Vinogradova tahlilida va Z.Burnining asarlaridan olingan ma'lumotlar tahlil qilingan.[1. 1998-c-74-77].

Mil.avv VII-V ming yilliklarda Amudaryo dinamikasi asosida Quyi Amudaryo hududi ikki sohil hududga, ya'ni o'ng sohil Beruniy, To'rtko'l va Ellikqal'a, so'l sohil hududi Xorazm viloyati, Xo'jayli, Ko'ng'iro't va Taxiatah hududlari hamda Toshxovuz viloyati joylashgan tekisligi serhosil bo'lib odamlarning kelib joylashishiga imkon yaratgan [2.2002. 6-162].

Mil.avv IV-III ming yilliklarda Xorazm vohasi aholisi tomonidan o'zlashtirilishi boshlanganligi to'g'risida tarixiy ma'lumotlar [3. 1948. 59-65, 4. 1968-c-170. 5. 1981-c-136]

Janubiy orolbo'yi hududini bronza davri urug' jamoalari jamiyatning barcha jabhalarini rivojlantirish hisobiga bunyodkorlik faoliyati natijasida aholi turar joylari misolida M.A.Itina o'z monografiyasida tahlil qilgan[6 1977-c-24-56]

Mavzuning metodologik asoslari

- Obyektivlik
- Xronologik izchillik
- qiyoslash, munozara
- umumlashtirish, xulosa
- asoslash
- arxeologiya, etnografiya, geografiya fanlari yutuqlaridan foydalanildi.

Tahlil.

Turon pasttekisligi shimoliy-g'arbida, shimolda Orol dengizi, g'arbida Xorazm va sharqida Qizilqum, janubida Zaungezi Qoraqum oraligida joylashgan tekislikda mil. avv 40-12 ming yillikda, bronza oxirigacha bo'lgan yilliklarda Amudaryo oqimining goh ko'tarilishi, goh pasayishi sharoitida istiqomat qilgan ajdodlarimizning jamiyatni tarixiy tarzda rivojlantirish tarixi tahlil qilingan. Bunda Amudaryo o'ng sohili hududida neolit, eneolit va bronza davrlarida ajdodlarimizning Qizilqum va Qoraqum sochma qum uyumlari oralig'idagi botiqlar suv havzasiga aylangan, ular sohil etagiga ulashib ketgan tekisliklar manzilgohlar bunyod qilib, jamiyatning turli jabhalarini rivojlantirish, turar-joylarni olingan yashash sharoitlaridan ma'naviyatida vujudga kelgan bilimlarining rivojlanishini tarixiy davrlarda qanday kechganligi tahlil qilingan.

Mavzu bo'yicha quyidagi natijalarga erishildi:

Xorazm vohasi geografik joylash xususiyati, Xorazmning ilk o'tmishdagi hududi oydinlashtirilgan(mil.avv 40-12 ming yilliklar).

- Quyi Amudaryo hududini ikki qismga aylanishi Amudaryo faoliyati bilan bog'liq ekanligi, o'ng va so'l hududlarida aholining joylashishiga yaratgan omili yoritildi.

- Mil.avv. IV-III ming yilliklar bronza ahligacha Xorazm vohasi topografik joylashish xususiyatlari, turar-joylarning aholiga qo'shni hududlarni o'zlashtirish bosqichlari o'rganildi.

- Neolit, eneolit va bronza davrlarida Xorazm shaharsozlik madaniyatining ijtimoiy-iqtisodiy va etnik madaniy omillari yoritildi.

Ikkinchi qismida esa Xorazm vohasi, unga tutashib ketgan Sariqamish hududlari odamzod tomonidan o'zlashtirilishiga imkon bergan omillar bo'lishida Amudaryo dinamikasi hamda ovchi-termachilarning kundalik faoliyati xulosa qilindi.

Takliflar: Xorazm ekspeditsiyasi xodimlari nashrlarida qayd qilingan fikr-mulohazalardan quyidagi takliflar ilgari suriladi: o'tmish tarixni chuqur o'rganish, ularni bosib o'tgan yo'liga doimo e'tibor berish kerakligi masalasida takliflar ilgari surildi.

Xulosa: Shaharsozlik madaniyatining vujudga kelishi va taraqqiyoti insoniyat rivojlanish jarayonini belgilovchi muhim omil sanaladi. Shaharsozlik madaniyatini tahlil qilish uchun u bilan bog'liq terminlarni chuqur anglash va mohiyati yoritib berish lozim. Sababi ko'pchilik shaharsozlik madaniyatini urbanizatsiya tushunchasi bilan bir xil deb hisoblaydi. Lekin shaharsozlik madaniyati bilan urbanizatsiyaning farqli tomonlari mavjud.

Shaharsozlik deganda shaharning rivojlantirishi va rejalashtirish jarayoni, uning infratuzilmasini yaratish, yer uchastkalarini rejalashtirish, bino va inshootlarni qurish va shahar muhitida resurslarni taqsimlash tushuniladi. Qadimgi davr uchun hududlarda shaharlarning qurilish uslubi, o'ziga xosligi, me'moriy yechimi tahlil qilinadi. Shaharsozlik tushunchasi "Milliy ensiklopediya" da quyidagicha ta'riflangan: "Shaharsozlik (shahar qurish) — me'morchilikning yirik sohasi; shahar bunyod etish nazariyasi va amaliyoti — aholi yashaydigan hududlar (turar joylar) loyiha asosida rejalashtirish. Shaharsozlik ijtimoiy-iqtisodiy, sanitariya-gigiyena, qurilish-texnika, badiiy-me'moriy masalalar majmuini qamrab oladi.... Shaharsozlikda turar joylarning nafaqat me'moriy-badiiy qiyofiga, estetik jihatlariga, balki obodonlashtirishga — yo'llar, ayniqsa, avtomobil yo'llariga, infratuzilma (suv, oqava — kanalizatsiya, gaz, elektr va b. muhandislik ta'minotlari)ga katta e'tibor beriladi[7].

Shaharsozlik — bu shaharni rejalashtirish va rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti deb Vikipediya da ta'rif berilgan[8]. Shuningdek unda, shaharsozlik funksional va amaliy (iqtisodiy, demografik, qurilish-texnik, sanitariya) va estetik (arxitektura-badiiy) vazifalarni har tomonlama hal qiladigan arxitektura va qurilish sohasi sifatida ham belgilanadi. Shaharsozlik turar-joy binolari, shaharlar, qishloqlarning moddiy va fazoviy muhitini shakllantiradi, keng aholi punktlari tizimlari landshaftini fazoviy tartibga soladi deb ko'rsatilgan.

Urbanizatsiya esa shaharning o'sish va rivojlanish jarayonini tavsiflaydi. Bunda aholining ko'payishi, iqtisodiy rivojlanish bilan shaharlarning o'sish jarayoni ham tahlil qilinadi. Urbanizatsiya tushunchasiga "Milliy ensiklopediya" da qo'yidagicha ta'rif berilgan: "Urbanizatsiya – tarixiy rivojlanish asosida shakllangan jamiyat bosqichlari va hududiy mehnat taqsimoti natijasida sodir bo'lgan ko'p qirrali geografik, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik jarayondir. Uning torroq doiradagi ma'nosi demografik-statistik tushunchasi dunyoda, alohida hududlarda, mamlakatlarda shaharlarning (ayniqsa, katta shaharlarning) va shahar aholisi salmog'ining ko'payib borishini anglatadi. Urbanizatsiyaning asosiy ko'rsatkichi shaharliklar sonining o'sishi va jami aholi tarkibida shahar aholisi salmog'ining ortib borishidir[9]. Urbanizatsiya hududlardagi shaharlashish jarayoni tendensiyalarini tadqiq qiladi. Bunda hududlardagi shaharlar soni, kengayib borish jarayoni, aholining shaharga ko'chish jarayonlari, shaharlarning ixtisoslashishi e'tiborga olinadi.

Bundan shaharsozlik shahar infratuzilmasini rejalashtirish va qurishni nazarda tutishini, urbanizatsiya esa butun shahar atrof-muhitining o'sishi va rivojlanishi jarayonini anglatadi deb xulosa qilishimiz mumkin.

Shahar madaniyatini o'rganish bir qancha nazariy asoslarga asoslanadi. Birinchidan, bu shaharlarning tarixiy rivojlanishi va shahar madaniyatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan me'morchilik uslublarini tadqiq qilish va tushunishni o'z ichiga oladi. Shahar qurilishining turli bosqichlari va ularning zamonaviy shaharsozlik amaliyotiga ta'sirini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu usullar arxeologik qazishmalar, raqamli modellar, zamonaviy kartografiya va geografik axborot tizimlaridan olingan ma'lumotlardan foydalangan holda zamonaviy shaharsozlik tadqiqotlarida ham qo'llaniladi. Shaharsozlikning tarixiy usullaridan foydalanish shaharlarning tarixiy merosini saqlashga, ularning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga va hozirgi vaqtda shahar muhitini rejalashtirishda ushbu ma'lumotlardan foydalanishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Виноградова Е.А Первые палеолитические находки в Султануиздаге // Приаралье в древности и

средневековье-М.Наука ИВЛ РАН, 1998

2. П.Баратов, М.Маматкулов, А.Рафиков. Ўрта Осиё табиий географияси. Тошкент. Ўқитувчи, 2002.таблица 11
3. Толстов.С.П. Древний Хорезм. М.1948.
4. Виноградова.А.В Палеолитические памятник Хорезма-М: Наука Вып-8. 1968.
5. Виноградова.А.В Древние охотники и рыболовы Среднеазиатского междуречья М: Наука. Вып 13-1981.
6. Итина.М.А История степных племен Южного приаралья / Тр. ХАЭЭ. Х. М.: 1977. 240 с.
7. Миллий энциклопедия. 10 том. –Тошкент. 2005.– Б.41.
8. <https://ru.wikipedia.org/wiki/Градостроительство>. мурожаат вақти 11.07.2023.
9. Миллий энциклопедия. 9 том. –Тошкент. 2005.– Б.144.
- 10.Мамбетуллаев М.М. История и культура Южного Хорезма античной эпохи (города и поселения). IV в. до н. э.-1У в. н. э. Автореферат. на соис.уч.ст.докт. ист. наук.–Ташкент. 1994.
11. Ходжаниязов Ф. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. Тошкент. О‘zbekiston. 2007. —216 бет;
12. Собиров Қ. Хоразмнинг кишлок ва шаҳарларининг мудофаа иншоотлари. – Тошкент: Фан, 2009. – 195 б.
13. Хожаниязов Г.Х. Фортификация древнего Хорезма (VI в. до н. э. – IV в. н. э.). Автореферат дисс. на соис. уч. ст. канд. ист. наук. – Нукус. 1996.
14. Толстов С.П. Работа Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в 1954-1956 гг. //МХЭ. Выш. 1 М.: 1959. –С. 153;
15. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. –М.: 1962, С.109—117.
16. Итина М.А. Основные итоги работ Хорезмской экспедиции в минувшем пятилетии. 1975 г. //ПИИЭ АН СССР. М.: “Наука” 1977. –С. 48.
17. Qaldirg‘ochdumi shaklidagi burjlar – qal’a burchagidagi ikki burj bo‘lib, ular burchakda bir-biriga juda yaqin quriladi. Xuddi bir biri yutib yuborganga o‘xshaydi. Ko‘rinishi qaldirg‘och dumini eslatadi.
18. Хорезм в истории государственности Узбекистана. – С. 280.
19. Ходжаниязов Г. История развития фортификации античного Хорезма. //СА. № 2. М.: 1981. –С.89.
20. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. –С. 136—204; Ходжаниязов Ф. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. –Б. 125.

UO‘K: 1(904)

QADIMGI XORAZM SHAHARLARINING HARBIY ME‘MORCHILIK AN‘ANALARIGA DOIR BA‘ZI MULOHAZALAR

M.I.Atajanov, o‘qituvchi, Urganch davlat universiteti, Urganch
[orcid=0009-0003-1385-1234](https://orcid.org/0009-0003-1385-1234)

Annotatsiya. Maqolada Amudaryoning o‘ng va so‘l sohili hududida shaharlarning harbiy me‘morchilik an‘analari va ularning tadqiqoti masalalari tarixiy ildizlari tahlil qilindi.

Kalit so‘z: shaharlarning harbiy mudofaasi –fortifikatsiyasi, Devkesganqal’a, Qo‘rg‘oshinqal’a, Katta Qirqqizqal’a, Jonbosqal’a, Ayozqal’a, Burliqal’a, mudofaa inshootlarining tipologik jihatdan tasnifi.

Аннотация. В статье проанализированы исторические корни военно-архитектурных традиций городов право- и левобережья Амударьи и вопросы их исследования.

Ключевые слова: военная оборона — укрепление городов, Девкесганкала, Коргошинкала, Катта Кирккизкала, Джонбоскала, Айозкала, Бурликала, типологическая классификация оборонительных сооружений.

Abstract. The article analyzed the historical roots of the military architectural traditions of the cities on the right and left banks of the Amudarya and their research issues.

Key word: military defense — fortification of cities, Devkesgankala, Korgoshinkala, Katta Kirqqizkala, Jonboskala, Ayozkala, Burlikala, typological classification of defense structures.

Kirish. O‘zbekiston tarixida dolzarb muammolardan biri ma‘lum bir geografik o‘rinda gavjumlashuvi, tabiiy resurslardan foydalanishi, mehnat qurollarini takomillashtirish asnosida sifat va miqdoriy jihatidan jamiyat atributi bo‘lgan shaharlarning vujudga kelishi va rivojlanishini, tarixiy ildizini o‘rganish hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qadimgi davr shaharlarining tadqiqoti bilan shug‘ullangan olimlar birinchi navbatda uning mudofaa tizimiga e‘tiborni qaratadilar. M.Mambetullaevning doktorlik dissertatsiyasining ham bir bobini Janubiy Xorazm mudofaa inshootlari tahlil qilingan[1]. Olim stratigrafik ma‘lumotlar va joylashtirish xususiyatlariga qarab Janubiy Xorazm mudofaa

inshootlarini nisbiy davrlashtiradi hamda ularning dastlabki tipologik tasnifi qiladi. Tadqiqotlar natijasida M.Mambetullaev mil. avv. IV—III asrlarda Janubiy Xorazm chegaralarida, shimoldagi kabi, istehkomlar zanjiri yuzaga keladi, deb xulosa beradi.

Qadimgi Xorazm harbiy arxitekturasi ayrim jihatlari bir qator asarlarda yoritilgan bo'lsa-da, u XX asrning oxirlarigacha maxsus tadqiqot mavzusi sifatida bo'lmagan. Qadimgi Xorazm qal'alarining mudofaa tizimlarini G'.Xodjaniyazov va Q.Sobirovlar maxsus tadqiqot ishlarini olib borganlar[2].

Arxeolog G'.Xodjaniyazovning "Qadimgi Xorazm fortifikatsiyasi (mil.avv.VI – milodiy IV asrlar) (Fortifikatsiya drevnego Xorezma (VI v. do n. e. – IV v. n. e.))" mavzusidagi nomzodlik ishini 1996 yilda himoya qilgan[3]. Mazkur tadqiqot ishi qadimgi Xorazmning mudofaa istehkomi va inshootlarini tahliliga bag'ishlangan dastlabki yirik ish hisoblanadi. Unda qadimgi Xorazm qal'alarining sakkiz asrlik tarixidagi mudofaa tizimlarining rivojlanish bosqichlari, istehkomlarning asosiy elementlari tahlil qilingan. Mudofaa tizimi elementlari boshqa davlatning mudofaa tizimi elementlari bilan qiyosiy solishtirgan holda tahlil qilingan. Shu asosda qadimgi Xorazm fortifikatsiyasining o'ziga xos tomonlari ko'rsatib berilgan.

G'.Xodjaniyazov qadimgi Xorazm mudofaa tizimlarining rivojlanishini 3 bosqichga ajratib ko'rsatgan: 1. Arxaik davr, unda mil. avv. VII asr oxiri — VI—V asrlar, 2. Qanhxa davri, unda mil. avv. IV asr — milodiy I asr boshi, 3. Kushonlar davri, unda milodiy I—IV asrlarni o'z ichiga olgan. Tadqiqot ishida qadimgi Xorazm mudofaa inshootlarining tipologik jihatdan tasnif qilgan. Ularning beshta turini ajratib ko'rsatgan: 1. Shahar tipidagi istehkomli manzilgohlar, 2. Qo'rg'onlar 3. istehkomli ibodatxona inshootlari, 4. istehkomli binolar yoki garnizon uchun kazarmalar, 5. Devkesgan g'ovi va Oqshaxonqal'a tashqi devorini uzun devorlar toifasiga kiritgan. Qadimgi Xorazmning istehkom va qurilish texnologiyasining rivojlanish darajasi Markaziy Osiyoning boshqa tarixiy-madaniy mintaqalaridagi istehkom va qurilishning rivojlanish darajasidan aslo qolishmasligi ko'rsatilgan.

Q.Sobirovning "Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari" nomli asarida O'rta Osiyoda harbiy istehkomlarning vujudga kelishini eneolit davridan boshlab, kushonlar davrigacha bo'lgan evolyutsiyasi masalalari ko'rib chiqilgan. Qadimgi jamiyatda mudofaa inshootlarining rivojlanishi va ularning funksional vazifasi hamda roli bo'yicha to'rt asosiy davr: ibtidoiy, shaharlar paydo bo'lishidan oldingi, ilk shaharlar va shahar harbiy istehkomlari davri ajralib turadi.

Mavzuning metodologik asoslari

- Obyektivlik
- Xronologik izchillik
- qiyoslash, munozara
- umumlashtirish, xulosa
- asoslash
- arxeologiya, etnografiya, geografiya fanlaridan foydalanildi.

Tahlil. Qadimgi davr shaharsozligida shaharlarning harbiy mudofaasi – fortifikatsiyasiga alohida e'tibor qaratilgan. Harbiy me'morchilik har bir davlatning siyosiy va iqtisodiy rivojlanishining ko'rsatkichi ham sanalgan. Shaharlar fortifikatsiyasining takomillashuvi ham uzoq tarixiy jarayonni bosib o'tgan. Shaharlarni tashqi dushmanidan himoyalash uchun birinchi navbatda tabiiy to'siqlar – jarlik, tepalik, tog', daryo bo'ylari e'tiborga olingan. Lekin shaharlarning o'sishi bilan shahar mudofaasini sun'iy ravishda mustahkamlash zaruriyati kelib chiqqan. Natijada mudofaa devorlari, darvoza, burj, shinak, handak kabi sun'iy mudofaa tizimlari yaratildi. Bunday mudofaa tizimlari hududning geografik sharoitiga mos holda bunyod etildi. Bu jihat esa, mudofaa tizimlarining takomillashuviga olib keldi. Harbiy qurollarning rivojlanishi ham bunga o'z ta'sirini ko'rsatdi. Shaharlarning mudofaa tizimini bunyod etishda bir qator mohir me'morlar, poliorketika[4], qurilish, mudofaa ishlari bo'yicha mutaxassislar, hunarmandlar keng jalb etilgan.

Qanha davrida, ya'ni mil.avv. IV asrdan milodiy I asrlar davomida qadimgi Xorazm fortifikatsiyasi rivojlanishida katta o'zgarishlar ko'zga tashlanadi. Bu asosan davlatning mustaqil faoliyat olib borganligi va uning qudratli bo'lganligidan darak beradi. Bu davrda shaharsozlik madaniyati ham rivojlanadi. Harbiy me'morchilikda qudratli mudofaa devorlari va murakkab

adashtirma yo'lli darvozalar quriladi[5]. Bu davr me'morchiligi shaharlarni tepalik ustiga qurish an'anasi saqlanib qoladi. Shaharlar turlicha tarhda bunyod etiladi:

- To'g'ri burchakli aniq tarhga ega bo'lgan shaharlar: Jonbosqal'a, Hazorasp, Xivadagi Ichan qal'a, Xivadagi Tuproqqal'a, Yangiariqdagi Tuproqqal'a, Olmaotishgan, Voengan, Kaparas, Katta Guldursun, Katta Qirqqizqal'a, Oqshaxonqal'a, Ayoqqal'a 1, Qo'rg'oshinqal'a, Sho'rcha va boshqa qal'alar kiradi.

- Kvadrat tarhga ega bo'lgan shaharlar: Bozorqal'a, Burliqal'a 2, Ko'nerliqal'a, Govurqal'a 1 va 2, Tuproqqal'a 3 shahristonlari va boshqlar.

- Doirasimon shaklda qurilgan shaharlar: Qo'yqirilgan qal'a, Shovot Tuproq qal'asi, Kichik qirqqiz, Ustik, Chemonyobdagi Tuproq qal'a.

- Noto'g'ri geometrik shaklda qurilgan shaharlar: Qal'aliqir 2, Qizilqal'a, Aris qal'a, Katta Guldursin qal'a va boshqalar.

Mil.avv. IV-I asrlarda yirik hajmdagi qal'alarning bunyod etilishi, harbiy me'morchilikning taraqqiy etishi qadimgi Xorazm davlatining qudratini va siyosiy maydondagi yo'lini ham ko'rsatadi. Shu to'rt asr mobaynida Xorazm davlati mustaqil taraqqiyot yo'lidan borib, qo'shni davlatlar o'rtasida o'zining o'rni va mavqeyiga ega bo'lgan.

Qadimgi Xorazm harbiy me'morchiligi Baqtriya, Sug'd va Marg'iyonadagi qal'a - shaharlarning qurilish uslublariga o'xshash bo'lsa-da, uning o'ziga xos jihatlari bor. Bular – ikki qavatli otish yo'laklari, yarim oval, «qaldirg'ochdumi» shakllaridagi burjlar, nayzasimon shinaklarning keng tarqalganligi, peshdarvozaning murakkab turli uslublardagi adashtirma yo'llari, proteyxizmalardan keng foydalanilganliklarida ko'rinadi. O'rta Osiyodagi boshqa hududlarda, jumladan Shimoliy Baqtriya shaharlarining tashqi mudofaa devorlari uncha qalin bo'lmagan va proteyxizma ham zaif ishlangan. Bu tadqiqotchilar fikricha, qudratli harbiy qurollari bo'lmagan otliq va piyoda jangchilardan himoya qilish uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Marg'iyonaning ilk shaharlari mudofaasida devor ichida yo'laklar va burjlar hozirgacha aniqlanmagan. Sug'd me'morchiligida paxsa va xom g'ishtlar aralashtirib ishlagan va burjlar asosan to'g'ri to'rtburchak shaklida ishlanib, mudofaa inshootlari qurishda bir xil uslub keng qo'llanilgan. Janadaryo, Quvandaryo, O'rta Sirdaryo havzasidagi shaharlarning mudofaa tizimi qadimgi Xorazm me'morchiligi asosida rivojlangan. Bu Chirik Rabot, Bobishmulla 1, Balandi 1 va boshqa yodgorliklarning qurilish uslubi asosida aniqlangan[6].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мамбетуллаев М.М. История и культура Южного Хорезма античной эпохи (города и поселения). IV в. до н. э.-1У в. н. э. Автореферат. на соис.уч.ст.докт. ист. наук.–Ташкент. 1994.
2. Ходжаниязов Ф. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. Тошкент. О'zbekiston. 2007. —216 бет;
3. Собиров Қ. Хоразмнинг кишлок ва шахарларининг мудофаа иншоотлари. – Тошкент: Фан, 2009. – 195 б.
4. Хожаниязов Г.Х. Фортификация древнего Хорезма (VI в. до н. э. – IV в. н. э.). Автореферат дисс. на соис. уч. ст. канд. ист. наук. – Нукус. 1996.
5. Poliorketika- shaharlarni qamal qilish uslublari.
6. Толстов С.П. Работа Хорезмской археолого-этнографической экспедиции в 1954-1956 гг. //МХЭ. Выш. 1 М.: 1959. –С. 153;
7. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. –М.: 1962, –С.109—117.
8. Итина М.А. Основные итоги работ Хорезмской экспедиции в минувшем пятилетии. 1975 г. //ПИИЭ АН СССР. М.: “Наука” 1977. –С. 48.
9. Qaldirg'ochdumi shaklidagi burjlar – qal'a burchagidagi ikki burj bo'lib, ular burchakda bir-biriga juda yaqin quriladi. Xuddi bir biri yutib yuborganga o'xshaydi. Ko'rinishi qaldirg'och dumini eslatadi.
10. Хорезм в истории государственности Узбекистана. – С. 280.
11. Ходжаниязов Г. История развития фортификации античного Хорезма. //СА. № 2. М.: 1981. –С.89.
12. Толстов С.П. По древним дельтам Окса и Яксарта. –С. 136—204; Ходжаниязов Ф. Қадимги Хоразм мудофаа иншоотлари. –Б. 125.

**XORAZM VOHASI ZARGARLIGI TARIXIY JARAYONLAR TONTEKSTIDA
(VIII – XVIII asrlarda)**

Q.Q.Bakdurdiyeva, o'qituvchi, Ma'mun universiteti Nodavlat Ta'lim Muassasasi, Xiva

Annotatsiya. Tadqiqot ishida o'rganilgan materiallar o'ziga xosligidan kelib chiqib metodologik asosi ta'minlangan va strukturaviy yondashuv asosida tarixiy, etnografik va san'atshunoslikka oid ma'lumotlar taxlil qilingan. Shuningdek, semantik metod, tarixiy-genetik, tarixiy-taqqosiy metodlar orqali Xorazm vohasi an'anaviy hunarmandchiligi transformasiyasi turli tarixiy jarayonlar kontekstida ochib berilgan. Mazkur maqolada O'rta Osiyo, xususan, Xorazm vohasi VIII – XVIII asrlardagi zargarlik san'ati mahsulotlari va ularni yasdagi transformatsion va modernizatsion jarayonlar yozma manbalar va arxiv hujjatlari asosida yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Беруни, Фахретдинова Д. А., Галкин Л. Л., Крамаровский М., Воробьева М. Г., Лавров - Скобло М. С., Неразик Е. Е., Фазаллах ибн Рузбихан Исфогани, Пугаченкова Г. А., Темпель Л. И., Voyevodsky M.A., Вактурская Н.Н., Вельяминов-Зернов В. В., Морозова А. С., yoqut, aqiq, lojuvard, feruza, marjon, tog' billuri, kaxrabo, xrizolit, yashma, marmar, sadaf, oxak, shisha.

Аннотация. На основе уникальности изученных в исследовательской работе материалов была заложена методологическая база и на основе структурного подхода проанализированы исторические, этнографические и искусствоведческие данные. Также с помощью семантического метода, историко-генетического, историко-сравнительного методов раскрывается трансформация традиционных ремесел Хорезмского оазиса в контексте различных исторических процессов. В данной статье на основе письменных источников и архивных документов освещены Центральная Азия, в частности Хорезмский оазис VIII-XVIII веков, и процессы их трансформации и модернизации.

Ключевые слова: Беруни, Фахретдинова Д. А., Галкин Л. Л., Крамаровский М., Воробьева М. Г., Лавров - Скобло М. С., Неразик Е. Э., Фазаллах ибн Рузбихан Исфогани, Пугаченкова Г. А., Темпель Л. И., Воеводский М.А., Вактурская Н.Н., Вельяминов-Зернов В. В., Морозова А. С., рубин, агат, лазурит, бирюза, коралл, горный хрусталь, янтарь, хризолит, яшма, мрамор, перламутр, известь, стекло.

Abstract. Based on the uniqueness of the materials studied in the research work, a methodological basis was provided and historical, ethnographic and art history data were analyzed based on a structural approach. Also, the transformation of the traditional crafts of Khorezm oasis is revealed in the context of various historical processes through the semantic method, historical-genetic, historical-comparative methods. In this article, Central Asia, in particular, the Khorezm oasis of the 8th - 18th centuries, and their transformation and modernization processes, based on written sources and archival documents, are highlighted.

Keywords: Beruni, Fakhretdinova D. A., Galkin L. L., Kramarovsky M., Vorobeveva M. G., Lavrov - Skoblo M. S., Nerazik E. E., Fazallah ibn Ruzbikhan Isfagani, Pugachenkova G. A., Tempel L. I., Voyevodsky M.A., Vakturskaya N.N., Velyaminov-Zernov V. V., Morozova A. S., ruby, agate, lapis lazuli, turquoise, coral, rock crystal, amber, chrysolite, jasper, marble, mother-of-pearl, lime, glass.

Kirish va dolzarblici: Xorazm vohasining VIII – XVIII asrlardagi hunarmandchilikning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan zargarlik san'atida yangi toshlar va yangi uskunalar asosida ancha taraqqiy qildi. Bu davrlarda mahalliy aholining shuningdek arablar va qo'shni davlatlarning ham Xorazm zargarlari yasagan buyumlarga talab kuchli bo'lgan. Ipak yo'li savdosida turli xil qimmatbaho toshlar va minerallar olib kelingan. Bu zargarlik san'atini elementlarini boyitgan.

Metodlar va o'rganilish darajasi: Xorazm vohasining VIII – XVIII asrlardagi hunarmandchilikning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan zargarlik sohasi haqida qimmatli ma'lumotlarni o'z asarlariga kiritgan arxeolog va etnograf tarixchi olimlar qatoriga Мец А. Мусульманский Ренессанс [1.1966.С.346.], Беруни. Собрание сведений для познания

драгоценностей. Минералогия [2.1963.С.259], Древнетюркский словарь [3.1969.С.82.], Фахретдинова Д. А. Ювелирное искусство Узбекистана [4.1988.С.45], Наршахи Абу-Бекр Мухаммад. История Бухары [5.1897.С.33], Галкин Л. Л. Двусторонняя литейная форма X IV века из Сарайчика [6.1978.С.286], Случайные находки, частные приношения и приобретения [7.1893.С.127.], Крамаровский М. Булгарские браслеты: генезис декора и локализация [8.1978.С.49], Федоров - Давыдов Г. А. Браслет с надписью с Салитренного городища [9.1978.С.286], Толстов С. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции [10.1958.С.521.526], Воробьева М. Г., Лавров - Скобло М. С., Неразик Е. Е. Археологические работы в Хазараспе [11.1963.С.168], Фазаллах ибн Рузбихан Исфгани. Михман — наймеи Бухара (записки бухарского гостя) [12.1976.С.128], Пугаченкова Г. А., Темпель Л. И. История искусств Узбекистана [13.1965.С.284], Voyevodsky M.A. Summary Report of a Khwarizm Expedition [14.1938.P.235.245] Вактурская Н.Н. Хронологическая классификация средневековой керамики [15.1953.С.264], Вельяминов-Зернов В. В. Исторические известия о киргиз-кайсаках и сношениях Рвссии со Средней Азией со времени кончины Абдул-Хайрхана [16.1853.С.41.], Ефремов Ф. С. Девятилетние странствия [17.1952.С.210.], Морозова А. С. Каракалпакский женский шлемовидный головной убор «саукеле» [18.1963.С.136,137] kabi noyob asarlarini qayd qilish mumkin.

Tadqiqot natijalari: VIII asr boshlarida arablar bosqini natijasida Xorazmda ishlangan zargarlik buyumlari tovon, o'lja sifatida olib ketilgan, natijada shu mahsulotlarga xalifalikning markaziy shaharlarida ehtiyoj ortib xorazmlik zargarlarga ko'plab buyurtmalar tushgan. Arab davlatlariga katta miqdorda zargarlik buyumlari eksport qilingan. O'z o'rnida xalifalikdan ham zargarlik buyumlaridan tosh marjon olib kelingan. O'sha davrdan boshlab, Xorazmdagi zargarlik buyumlari yana bir tosh marjon bilan boyitildi va marjon toshlar zargarlik buyumlarining tarkibiy qismiga aylandi.

Arablar hukmronligi davrida zargarlik buyumlarida husnixat yozuvlaridan naqsh sifatida foydalanish yangilik bo'ldi. Rangli toshlardan egasining ismi sharifi bitib yozilgan muhr-uzuklar yirik savdogarlar uchun maxsus tayyorlanar edi. Rivoyatlarda aytilishicha, Muhammad payg'ambarimizning uzugiga «Bari o'tadi» degan yozuv naqshlangan ekan.

Bundan tashqari, hayvonlar, sherlar, qurbaqalarning tasvirlaridan zargarlik buyumlarini bezatishda keng foydalanish boshlangan.

Arablar davrida yoqut toshidan oybaldoq ko'rinishidagi isirga va shokilalar yasalgan.

Turli shakl-qiyofadagi munchoqlar aqiq, lojuvard, feruza, marjon, tog' billuri, kaxrabo xalqalardan, xrizolit, yashma, marmar, sadaf, oxak, shisha va hokazolardan yasalgan. Ular toshlarga sayqal berib, turli geometrik shakllar ko'rinishida tayyorlaganlar. Har bir usta o'z mahoratini namoyish qilib hayvon panjasi, tirnog'i, tishi, odam qo'li va oyog'i shaklidagi munchoqlardan shodalar qilganlar.

X asrdan boshlab toshlarning estetik bahosi biroz o'zgaradi. Mazkur davrda yashagan as-Saolibiy toshlarni ahamiyatiga ko'ra quyidagi tartibda sanab o'tadi: Nishopurdan firuza, Seylondan yaxont, Usmondan marvarid, Misrdan zumrad, Yamandan yoqut olib kelingan [1.1966.С.346]. Beruniy 1009-yilda yaxontni birinchi o'ringa qo'ygan, keyin zumrad, gavhar va hokazo [2.1963.С.259.]. Bundan xulosa qilish mumkinki, bu davr zargarlik san'atida yorqin toshlarni ko'proq qadrlashgan. Ayniqsa qizil zumrad, firuza va marvaridga talab kuchli bo'lgan.

Islom dinining reaksion ta'siri kuchli bo'lishiga qaramay, so'ngi asrlarda jonli maxluqot tasvirini tushirish keng tus olgan edi.

X – XII asrlarda ilon shaklidagi burama kumush bilaguzuklar urfda bo'lgan. Bu davr adabiy manbalarida oltin taqinchoqlar — altun ko'proq tilga olinadi[3.1969.С.82].

Buyuk Xorazmshoh Anushteginiylar davrida (XI-XIII asrlar) esa Xorazmda ishlangan zargarlik buyumlarini Eron, Xuroson, Movarounnahr, Turkiston shaharlarida bozori chaqqon bo'lgan. Mazkur davrda tilla, kumush, marjon, dur, aqiq (sapfir), zumrad, olmosdan ko'p foydalanilgan. Xorazm hunarmandchiligi, ayniqsa, zargarlik sohasi yaxshi rivojlangan edi.

Ma'muniylar va Anushteginiylar sulolasi davrida zargarlik san'atida islmiy – girihli naqshlardan foydalanish ortib borishida ko'rishimiz mumkin.

IX-XI asrlar, Xorazm, Zamaxshar va boshqa hududlar - qush ko'rinishida shakllar bilan bezatilgan soch to'g'nog'ichlar va qush shakliga o'xshab ketadigan shokilalar keng tarqalgan [5.1897.C.33]. Qush zardushtiylikda Siyovush¹ga sig'inish ramzi bo'lgan.

XIII asrda Xorazmda uchlari yo'lbars boshiga o'xshatib ishlangan bilaguzuklar ancha ommalashgan.

Shuningdek, bu davrda quloq, tish va tirnoq tozalagich kabi turli pardoz-andoz buyumlari naqshlar bilan bezatilgan bo'lib, mitti-mitti qushchalar shaklida yasalgan. Natijada badiiy ishlov berilgan pardoz buyumi zeb-ziynat buyumiga aylangan. Ular ko'ylakka taqib qo'yilib, doim egasining yonida bo'lgan.

G'oyat bejirim ishlangan naqshinkor, baland gardishlarga o'rnatilgan yirik-yirik feruza, yoqut ko'zli uzuklar yasalgan bo'lib, kishida alohida qiziqish uyg'otadi.

IX-XIII asrlarda har xil tuzulishdagi shisha munchoqlar yasalgan. Shisha qorishmasidan tayyorlangan munchoqlar yaltiroq ko'rinishga ega bo'lib, badiiy jozibasi juda baland bo'lgan. Husnixat san'ati zargarlik bilan birga rivojlandi.

IX asr va XIII asr boshlaridagi davr zargarlik namunalari sifatida bizgacha tumorlar, turunlar va kamar to'g'alari, bosh kiyimlari uchun to'g'nog'ichlar yetib kelgan bo'lib, ular asosan misdan, kumushdan yasalgan. Bu davrda Mavorannahrda oltin va kumush, qimmatbaho toshlar konlarini o'zlashtirish davom etgan, ularning boshqa mamlakatlardan kiritilishi ko'paydi, bu zargarlik sanoatining rivojlanishiga ko'maklashgan.

XIV – XVIII asrlarda zargarlar foydalangan asosiy materiallar oltin, kumush, mis, bronza va boshqa metallar; yarim qimmatbaho va rangli toshlardan – lal, zumrad, firuza, serdolik, lazurit, tog' kristalli, granat, xalsedon; dengiz mahsulotlaridan – marvarid, marjon, chig'anoq, sadaf; odam yaratgan materiallardan – shisha, keramika; organik moddalardan – hayvonlar suyaklari va boshqalar edi.

XIII-XIV asrlarda Xorazmda yasalgan bilakuzuklarning butun uzunligi bo'ylab yaxshi tilaklar bitilgan yozuvlar bilan bezatilgan. Bunday bilakuzuklar ko'pincha uchlarida sher yoki yo'lbarsning boshining tasviri ishlangan [7.1893.C.127]. Bundan taxmin qilishimiz mumkinki, ma'nosi va tashqi ko'rinishiga ko'ra ular zoomorfik bezatilgan qadimiy bilaguzuklardan kelib chiqqan. XIII-XIV asrlarda ularda taqinchoqlarning asosiy qismini arab yozuvi egallagan bo'lib, u hayvonlar tasvirlari bilan uyg'unlashgan. Shunga o'xshash bilakuzuklar Volga bo'yi (Oltin O'rda) va boshqa mintaqalar ustalari orasida keng tarqaldi.

Ustalar qadimgi o'tmishda topilgan eng oddiy shakllardagi uzuklarni yasashni davom ettirishgan. Xorazmda "to'rtta o'ralgan simli uzuklar", "mis uzuklar", "bronza va simdan yasalgan plastina uzuklar", "ingichka bronza uzuklar" topilgan [10.1958.C.521.526.]. A.Navoiy ta'riflariga qaraganda, XV asrdagi eng qimmatbaho uzuk katta yoqut yoki lal qo'yilgan oltin uzuk hisoblangan. Fazallah lapis lazuritli muhr-uzuklar haqida eslatib o'tgan [12.1976.C.128.].

Adabiyotlarda ko'pincha toj deb atalmish jig'a (egret) ham xon hokimiyatining ramzi sifatida talqin qiladi. Qushlar patidan yasalgan hurpaygan jig'a toj ustiga joylashgan. Bunday ko'rinishdagi tojlarni saroy amaldorlari ham kiyishgan[13.1965.C.284.].

Xonlik mahallalarida muhr o'ymakorlari tomonidan ham mahalliy aholi, ham mehmonlar uchun muhr uzuklar yasalgan. Yozuvlarni rangli metall yoki toshga o'yib yozishgan. Muhr uzuklarda turli xil kompozitsiyalar yaratilib, goh yaxlit, goh harfni diametral ravishda ajratuvchi jimjima naqshlar bilan, goh uni figurali tamg'alar va hoshiyalarga joylab bir necha satrlardan iborat bo'lgan murakkab arab yozuvlari bilan bezatilgan[4.1988.C.67.].

"Xorazm hunarmandchilik markazlaridan yana biri Toshhovuz shahridan 30 km g'arbda joylashgan Zamaxshar shahri hisoblanadi. Shahardan temirchilik, shishasozlik, kulolchilik, toshni qayta ishlash kabi hunarmandchilik ustaxonalari izlari aniqlangan" [14.1938.C.235.245.]. Mazkur ustaxonalar XVI–XVIII asr o'rtalariga oid deb topilgan. Yodgorlikdan zargarlik, bezak buyumlari va bronzadan yasalgan qush haykalchalari topilgan.

¹ Markaziy Osiyo xalqlarining mifologik tasavvurlariga ko'ra, quyoshga teng qilinib, umri so'nayotgan va qayta tirilayotgan ma'bud ramzi.

XVIII asrda zargarlikda asosiy material: tilla, kumush, har xil qotishmalar, bronza va rangli toshlar ishlatilgan. Eng ko'p ishlatilgan narsa oltin va kumushdir.

Zargarlik buyumlarini lal, marvarid, firuza, serdolik, yoqut, lazurit, tog' xrustali, marjon va boshqalar qo'shilgan oltin, kumush, bronzadan yasashgan. Zargarlar ro'mollar va yoping'ichlar uchun chambarlar, "sar-suzan" bosh to'g'nog'ichlar, tugmalar, to'qalar va boshqa mahsulotlar yasashgan. Yilnomalarda sonlarning tojlari va diademalari, qimmatbaho toshlar bilan bezatilgan oltin kamarlar ko'proq tilga olinadi [4.1988.C.67.].

1753-yilda Xiva xoni Qayup haqida xabar berilgan, u rus elchilarining qabul qilishda "barcha xon libosida va oltin tojda oltin taxtga o'tirgan... [16.1853.C.41.]". Xon libosidagi bezaklar haqida asirga olingan rus zobiti shunday deydi: "Marvarid iplari kabi oltindan zargarlik buyumlarini yasashadi va uni bo'yinga taqishadi; puflangan oltin tugmachalarni esa ipga bitta dumaloq tosh bilan bog'lab qo'yishadi, shunda u pastga tortilib ketmaydi va yelkasidan o'tkazib ko'kragiga bog'lab qo'yishadi" [17.1953.C.210.].

"Shokila"ning birinchi ta'rifi 1740-1741 yillarda Xivaga bo'lgan elchi D.Gladishev va Rossiya elchixonasidan geodezisti I.Muravinlarning ishlarida uchraydi. Mazkur ma'lumotga ko'ra XV-XVI asrlarda o'troq dehqonchilik bilan shug'ullanuvchi aholi tarkibiga qadimgi turkiy ko'chmanchilar avlodlari va Dashti qipchoq aholisining bir qismi kelib qo'shiladi. Mazkur ko'chmanchilar tarkibida bo'lgan xorazmliklarning shimoliy guruhi ham yurtimizga kirib keladi. Ko'chib kelgan shimoiy guruxning asl kelib chiqishi o'zbek qabilalaridan bo'lgan orolliklar "shokila"sini nazarda tutgan.

Qoraqalpoqlarning "soukela"si Xorazmnikidan yon tomonlaridagi katta marjon munchoqlari bilan ajralib turardi. Peshonaning tepasida kuchli chiqib turgan toshlar va tanish nomi "jig'a" bo'lgan figurali medalon joylashgan. Chakkalardagi marjonlar orasidagi markaziy o'rinni unumdorlik, farovonlik ramzi va dushman kuchlardan qo'riqchi bo'lib xizmat qilgan shoxli qo'chqorlarning boshlarining juft tasvirlari egallagan[18.1963.C.136.137.].

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Xorazm vohasida barcha davrlarda zargarlik hunarmandchilikning asosiy sohalaridan biri bo'lgan. Arablar bosqini zargarlik sohasini yangi elementlar bilan boyitdi. Arab dunyosidan aqiq va yoqut toshlari Markaziy Osiyoga kirib kela boshladi. Bundan tashqari XIV – XVI asrlarda oltin, kumush, mis metallaridan foydalanilgan bo'lsa, XVI asr oxiri va XVIII asr o'rtalarigacha oltindan deyarli foydanlanmay qo'yishadi. Bunga sabab qilib xonlik hukumati tomonidan taqiqlab qo'yilgan. Oltin metaliga ishlov beradigan zargarlar ham bo'lmagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мец А. Мусульманский Ренессанс. М., 1966. – С. 346.
 2. Беруни. Собрание сведений для познания драгоценностей. Минералогия. М., 1963. – С. 259.
 3. Древнетюркский словарь. Л., 1969. – С. 82.
 4. Фахретдинова Д. А. Ювелирное искусство Ўзбекистана. Т:1988 – С. 45.
 5. Наршахи Абу-Бекр Мухаммад. История Бухары. Пер. Н. Лыкошина. Ташкент, 1897. – С. 33.
 6. Галкин Л. Л. Двусторонняя литейная форма XIV века из Сарайчика. СА. 1978, № 2. – С. 286.
 7. Случайные находки, частные приношения и приобретения (без автора I. В кн. «Отчет имп. археологической комиссии за 1891». СПб., 1893. – С. 127.
 8. Крамаровский М. Булгарские браслеты: генезис декора и локализация. Сообщения ГЭ, X Ы П. Л., 1978. – С. 49.
 9. Федоров - Давыдов Г. А. Браслет с надписью с Салитренного городища. СА. 1978, № 2. – С. 286.
 10. Толстов С. Работы Хорезмской археолого-этнографической экспедиции АН СССР в 1949 — 1953 гг. ТХАЭЭ, т.П. М., 1958. – С. 521, 526.
 11. Воробьева М. Г., Лавров - Скобло М. С., Неразик Е. Е. Археологические работы в Хазараспе. МХЭ в.6. М., 1963. – С. 168.
 12. Фазаллах ибн Рузбихан Исфгани. Михман — наймеи Бухара (записки бухарского гостя). Под ред. А. К. Арендса. М., 1976. – С. 128.
 13. Пугаченкова Г. А, Темпель Л. И. История искусств Узбекистана, М. 1965. – С. 284.
 14. Voyevodsky M.A. Summary Report of a Khwarizm Expedition BuIeten АПАА. 1938. – № 3;
 15. Вактурская Н.Н. Хронологическая классификация средневековой керамики Хорезма (IX-XVII вв.). – М. 1953. – С. 264.
- Вельяминов-Зернов В. В. Исторические известия о киргиз-кайсаках и сношениях Рвссии со Средней Азией со времени кончины Абдул-Хайрхана (1748 -1765). т.1. Уфа, 1853. – С. 41
- Ефремов Ф. С. Десятилетние странствия. М., 1952. – С. 210.

Морозова А. С. Каракалпакский женский шлемовидный головной убор «саукеле». В кн. «Археология Средней Азии», V I. Научные тр. ТашГУ, в.200, кн.41. Ташкент, 1963. – С. 136, 137.

UO'K 7.031.2

XORAZM ZARGARLIGIDA QO'LLANILGAN NAQSHLAR VA ULARNING SEMANTIK IFODALARI

Q.Q. Bakdurdiev, o'qituvchi, Ma'mun universiteti, Xiva

Annotatsiya. Ushbu maqola Xorazm vohasi zargarlik san'atiga oid o'rganilayotgan materiallarning o'ziga xosligidan kelib chiqib metodologik asosi ta'minlangan va strukturaviy yondashuv asosida tarixiy, etnografik va san'atshunoslikka oid ma'lumotlar tahlil qilingan. Shuningdek semantik metod, tarixiy-taqqosiy metodlar orqali Xorazm vohasi an'anaviy taqinchoqlarni bezatishda qo'llaniladigan geometrik, islamiy, zoomorf, antropomorf va boshqa naqshlar va ularning semantik ifodalari yozma manbalar, etnografik materiallar va arxiv hujjatlari asosida yoritib berildi.

Kalit so'zlar: feruza, marjon, marvarid, la'l, zumrad, rangli shisha, yoqut, oltin, kumush, naqsh, girix, antropomorf, islamiy, handasaviy, zoomorf, semantika, astral, naqqoshlik, ornitomorf.

Аннотация. В статье представлена методологическая основа, основанная на уникальности исследованных материалов, касающихся ювелирных часов «Хорезмский оазис», а на основе структурного подхода анализируются исторические, этнографические и искусствоведческие сведения. Также на основе письменных источников, этнографических материалов, архивных документов семантическим методом, историко-сравнительным методами выделены геометрические, исламские, зооморфные, антропоморфные и другие узоры, используемые в декорировании традиционных украшений Хорезмского оазиса, и их смысловые выражения.

Ключевые слова: бирюза, коралл, жемчуг, немой, изумруд, цветное стекло, рубин, золото, серебро, узор, извилина, антропоморфный, исламский, геометрический, зооморфный, семантика, астрал, живопись, орнитоморфный.

Abstract. This article provides a methodological basis based on the uniqueness of the researched materials related to the Khorezm Oasis jewelry watch, and historical, ethnographic, and art history information is analyzed based on a structural approach. Also, the geometrical, Islamic, zoomorphic, anthropomorphic and other patterns used in the decoration of Khorezm oasis traditional jewelry and their semantic expressions were highlighted on the basis of written sources, ethnographic materials and archival documents through the semantic method, historical-comparative methods.

Key words: turquoise, coral, pearl, mute, emerald, colored glass, ruby, gold, silver, pattern, gyrix, anthropomorphic, Islamic, geometric, zoomorphic, semantics, astral, painting, ornithomorphic.

Kirish va dolzarbliigi: Xorazm vohasida mahalliy zargarlar qadimdan feruza, marjon, marvarid, la'l, zumrad, rangli shisha, yoqut, oltin va kumushga ishlov berish orqali turli xil shakllarda har xil buyumlar yasaganlar. Zargarlik mahsulotlaridagi bu kabi boy bezaklar san'at asari darajasiga ko'tarilganini ta'kidlash zarur. Zargarlikda har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan metall va tosh turlari, bezak va naqshlari bo'lgan hamda ularda gullar, hayvonlar, qush va mevalarning ko'p tasvirlanishi barcha hududlar uchun ham umumiy hisoblanadi.

Metodlar va o'rganilish darajasi: Xorazm zargarlari o'z faoliyatlari davrida turli xil geometrik, islamiy, antropomorf, zoomorf naqshlardan keng foydalanishgan. Zargarlik faoliyatida ishlatilgan naqshlar va ularning semantik ifodalari o'z ma'lumotlar, asosan, Лотман Ю.М. Семиотика культуры [1.1989.С.30], Холматов Б.К. Композиция [2.2007.Б.60], Гюль Э. Диалог культур в искусстве Узбекистана [3.2005.С.12], Андреев М.С. Орнамент горных таджиков верховьев Амударьи и Памира [4.1928.С.23], Богословская И. Каракалпоқ нақш санъатида зооморф унсурлар [5.2009.Б.16], Чепелевская Г.Л. Сузани Узбекистана [6.1961.С.44], Давлатова С.Т. Ўзбекистоннинг жанубий худудлари анъанавий хунармандчилиги тарихий

жараёнлар контекстида [7.2019.Б.277], Дала ёзувлари, Новейшая энциклопедия символов и знаков [9.2008.С.27.] asarlarida qimmatli ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqot natijalari: Turli millatlarning urf-odat, marosim va bayramlari muayyan ramz, timsollarda aks etishi va aniq maqsadga egaligi ko'pchilikka ma'lum. Bu davrda bir necha yo'nalish bo'yicha jadal rivojlandi [1.1989.С.30]. Demak, turli urf-odat va hatti-harakatlar ham semantik belgilar bo'lib, ular obyektga axborot yetkazuvchi tizimlardir. Binobarin, milliy urf-odat, an'ana yoki biror millat yoki elatga xos marosimlar ham muayyan mazmunga ega bo'lgan, ma'lum ma'noni ifodalaydigan "axborot vositalari" hisoblanib, doimiy o'zgarishlarga uchrab boradi. Milliy muhitda tarbiya topib, shakllangan inson uchun ular tabiiy, ba'zan majburiy xarakterga ega bo'ladi.

Ushbu tadqiqotda semantika-semiotika (semantika – yunoncha ifodalash) yo'nalishi muhim o'rin tutadi. Unga ko'ra, har bir buyum o'zining ma'nosi va shunga muvofiq ularning shakli "tasavvur"ga ega bo'ladi. Xususan, har bir hunarmandchilik buyumlari turli etnik an'analarda o'ziga xos nomutanosib shakllarga ega bo'lib, buyumlarning u yoki bu xossalarini semantizasiya (ifoda) etgan madaniyatning muayyan tanlovini ko'rsatadi. Semiotika nisbatan yangi fan bo'lsa-da, belgilarning jamiyat hayoti, inson kamolotida tutgan o'rniga ega bo'lgan fikr va qarashlar milliy qadriyatlar tizimidagi marosimlardir. Bularga asos bo'lgan insoniylik va jamoatchilik tamoyillari, axloqiy fazilatlarining tahlil qilish bugungi kun uchun nihoyatda ahamiyatlidir.

Husnixatda har bir xattot qanday yozuv uslubiga ega bo'lsa, zargar ustalar ham shunday uslubga egadir. Bir zargarlik buyumining bir xil uslubi, shunday uslubda yasalgan boshqasidan farq qiladi. Shu ma'noda har bir xalqning, har bir hududning, har bir usta zargarining hunarmandchilikda qo'llaniladigan o'z uslublari va yo'nalishlari mavjud bo'ladi. Zero, bunga tarixiy, diniy, geografik, iqtisodiy omillar katta ta'sir ko'rsatgan. Zargar ustalar esa, o'z ishlarini rivojlantirish asnosida turli xil uslublardan, shakllardan, toshlardan foydalangan holda xalq hunarmandchiligi assortimentlarini boyitadilar va avlodlarga boy meros sifatida qoldiradilar.

Naqsh so'zi arabcha – tasvir, gul degan ma'noni anglatadi. U tabiatda uchrovchi o'simlik, hayvonot dunyosi va turli geometrik shakllarning eng sodd ko'rinishlarida takrorlanib keluvchi tasviri ya'ni bezakdir [2.2007.Б.60]. Quyida Xorazm zargarligida qo'llanilgan turli xil naqshlar, zargarlik buyumlarida ishlatiladigan qimmatbaho toshlar va ularning semantik ifodalari alohida to'xtalib o'tamiz.

Xorazm zargarlik san'atida turli xil naqshlardan keng foydalanishgan. Naqshlar o'z xususiyatlariga ko'ra geometrik (handasaviy), o'simliksimon (islamiy), zoomorf (hayvon shaklidagi), astral va antropomorf (odam shaklidagi) naqshlarga bo'linadi [3.2005.С.12]. Shu boisdan, o'simlik yoki geometrik naqshlar tasvirida real predmetlar dunyosi yashirin bo'lib, ularda bizni o'rab turgan dunyo haqida u yoki bu tasavvurlar o'z ifodasini topgan [4.1928.С.23]. Ko'chmanchi xalqlar amaliy san'atida ornitomorf (parrandalarga xos) mavzular keng tarqalgan [5.2009.Б.16]. O'zbek zargarligida o'simliksimon naqshlar, fazoviy jismlar, meva va hayvonlarning uslublashtirilgan tasvirlari aks ettirilganini ko'rish mumkin.

Xorazm vohasi hunarmandchiligida o'simliksimon naqsh gulining o'zni yuqori hisoblangan va bu holat bugungi kungacha saqlanib kelinmoqda. Naqshlarni joylashtirish bilan shaxsan ustalarning o'zlari shug'ullanadi. Hunarmandchilikning barcha turlari, jumladan zargarlikda ham naqqoshlik, ganch va yog'och o'ymakorligi kabi naqsh elementlarining chizilishi o'xshash ko'rinsa-da, bajarilish texnologiyasi va pardoqlash usullari turlichadir. Masalan, ganchkorlik va yog'och o'ymakorligida naqshlar o'yib, naqqoshlikda chizib, kashtachilikda chok yordamida, misgarlikda zarb bilan ishlansa, zargarlikda esa qadab va shunga o'xshash usullar yordamida naqsh solinadi.

Zargarlik buyumlaridagi ramzlar o'ziga xos xususiyat kasb etib, ma'lum semantik ifodalarni anglatgan. Xususan:

O'simliksimon (islamiy, yuguruvchi) naqshlar – asosan gul novda kurtak, barg, g'uncha kabi elementlarning o'zaro ma'lum tartibda bog'lanib tuzilishidir. O'simliksimon naqshlar yakka (bir) va qo'sh (ikki) bandli novda ko'rinishlarida ishlanadi. O'simliksimon islamiy naqshlar – hayotning davomiyliigi, avlodlar kelishini; gullarning chaman bo'lib ochilib turishi – baxt, quvonch va shodliklarga to'la hayot orzusini ifodalagan.

Girih (xandasiy) naqshlar – chigal, tugun degan ma'noni anglatib, to'g'ri chiziqlarning o'zaro kesishuvi natijasida geometrik shakllarni hosil qiladi. Girix naqshlari islamiy naqsh turlari singari ma'lum bo'laklardan iborat bo'lib, alohida tuzilishlariga ega.

Guli girih (aralash) naqshlar – ular murakkab naqshlar hisoblanib, o'simliksimon va geometrik naqsh turlarining o'zaro birikishidan hosil bo'ladi.

Uchburchak shakl – Xiva zargarlik buyumlari ichida ko'p uchraydi va undan asosan tumor sifatida foydalaniladi hamda bu shakl har qanday yomon ko'zlardan asrashini bildiradi.

Handasaviy naqsh kompozitsiyalari, girixlarni tuzuvchi ustalarni naqqoshlikda girixkor, katta ustalar deb atashgan [2.2007.B.6]. Geometrik naqshlarni gumbaz mehrob va turli shakllarda qo'llab ishlash ancha murakkab ishlanadi. Yangi naqsh kompozitsiyalarini odatda naqqosh ustalar chizib berganlar. Ular xalq amaliy san'ati turlari uchun chiziluvchi naqshlarning kompozitsion tuzilishi, chizilishi va pardozi berishi qoidalarini yaxshi bilganlar.

Anor ramzi – voha zargarligida ko'p qo'llaniladi. Ushbu ramz rivojlangan dehqonchilik madaniyatiga xos udum va marosimlari bilan bog'liqdir. Shuningdek, anor – serhosillik, ezgulik, to'qchilik, unumdorlikni, boqiylikni, sevgi va oila, farzand hamda baraka ramzini ifodalaydi.

Qalampir gullari – voha zargarligida ko'p uchraydi hamda yomon ko'zdan asrashga ishora sifatida qo'llanilgan. Ulardan tumor qilinib homilador ayol va bolalarga taqib qo'yilgan, go'yoki ushbu tumor yovuz va yomon kuchlardan asrab qoladi.

Garmdori naqshi — islamiy naqsh turi hisoblanib, ko'z tegishdan asrash belgisi, ona bolalarimga ko'z tegmasin degan niyat bilan tayyorlangan.

Uzumgajak naqshi – zargarlikda qo'llaniladigan islamiy naqsh turi bo'lib, uzun umr ko'rish ramzidir. Ona bolalariga uzun umr tilashini ko'rsatadi.

Uzum mevasi – serfarzand va serdavlat bo'lish belgisi hisoblangan.

Olcha guli yoki mevasi – baxtiyorlik xursandchilik ramzini anglatadi. Bu naqshlarning ishlatilishiga sabab hududda azaldan asosan dehqonchilik bilan birga chorvachilik bilan shug'ullanilganligini aytib o'tish mumkin.

Ochilgan gullar — muhabbat, shoxchali gullar majmuasi — farovon hayotni, lola guli – go'zallik ramzi sifatida ishlatilgan [7.2019.B.277].

Naqshlar aro tasvirlangan baliq surati – poklikka ishora va bir oila bo'lgan juftlikka mudom sadoqat, halol yashash haqidagi o'git va istakni eslatib turgan.

Qilich – mustahkamlik, xususan juft qilich – hayot qo'rg'onining har tomonlama mustahkamligi kabi ramziy ma'nolarni bildirar ekan [8.2022.Dala yozuvlari].

Zargarlikning ba'zi elementlarda muayyan bir hayvon va parrandalar aks etgan bo'lsa, xo'roz, bulbul, kabutar, tovus, to'ti, qaldirg'och, kiyik, echki, qo'chqor shoxi kabi hayvonlar, parrandalar tasviri asosan bilakuzuklarni bezashda foydalanilgan. Boshqa mavzular ham, xuddi shuningdek, ko'p ma'noli bo'lishi mumkin. Qushlar tasviriga aloqador holda, masalan xo'roz, tovus singarilar ham ko'p ma'noli sharhlarga ega. Bular faqatgina qalb haqidagi tasavvurlar bilan aloqadorlikni aytib o'tganimizda shuningdek, qushning vazifasi ikki olam o'rtasidagi vositachi ekanligi tushuniladi.

Qushlar – ko'p uchraydigan naqsh hisoblanib, qadimdan baxt va omad timsoli hisoblanadi. O'simliklar tasviri ko'pincha yorqin rangdagi qushchalar tasviri bilan jonlantirilgan, shundan xalq orasida «boshiga baxt qushi qo'ngan», deb bejiz aytilmaydi. Qadim-qadimdan biror ishni boshlashda, shu ish yaxshi, saodatli bo'lish niyatida qushlar tasviri tushirilgan, shu sababli hashamatli bog'larda qushlarni boqish odat bo'lgan.

Samo jismlari aks etgan bezak turlari: oy, yulduz, yarim oy, quyosh tasvirlar bo'lib, ular kamar, bosh kiyimlarini, taxt, tugma, xanjar, qilich, qadah kabilarni bezashda foydalanilgan. Quyosh, oy, yulduzlarni o'zida aks ettirgan shakl va naqshlar fazoviy jismlarning ramziy ko'rinishi bo'lishi bilan bir qatorda, islom dini bilan ham uzviy bog'liq. Bu naqshlarning qo'llanilishi aholi orasida oila a'zolarini himoya qilish va farovon hayot kechirishga qiyoslangan.

Zargarlar asosan mevali daraxt bargi, nilufar guli, boychechak bilan birga, sakkiz qirrali yulduz, quyosh, oy geometrik shakllari (doira, uchburchak, to'rtburchak, qayrilma rom) belgilarini ham ko'p ishlatishadi [8.2022.Dala yozuvlari]. Xususan:

Quyosh – yorug'lik, issiqlik, mo'l hosilni ifodalagan.

Oy – baxt va visol, osoyishta baxtli hayotni anglatadi.

Turkiy xalqlar zargarligida quyosh timsolini aks ettirish tarixiy-an'anaviy mohiyat kasb etib, orzu-umid ramzi va etnotarixiy qadriyat sifatida ajdodlardan avlodlarga o'tib kelayotganligini ko'plab arxeologik qazilmalar ham tasdiqlaydi. Afsonalarda quyosh va oy bir biriga qarama-qarshi tomonlarning birlashuvi ramzi bo'lib, er-xotin, ayol-erkak, aka singil, issiq-sovuq hamda olov va suv deb tushunilgan [9.2008.C.27.].

Nazmiy-folklor qiyofalarning nusxasi (ekvivalenti) bo'lib keladi. Aylana, romb, xoch, to'liqinli va to'g'ri chiziqlar xalq san'atida birmuncha qadimiy (arxaik) mavzular sanaladi. Zero, aylana, romb, va xoch yagona g'oyaviy ma'no kasb etib, ular quyosh ilohasining ramzi yoki ajralmas unsurlari bo'lib kelgan. Dunyoning boshqa xalqlari singari O'rta Osiyo xalqlarida aylana quyoshning, ayniqsa, oy (to'lin oy g'oyasi akslantirilishi)ning ramzi bo'lgan. Aylana (doira) yovuz kuchlardan saqlovchi tumor, shuningdek, Olloh va koinot ramzidir. Aylana eng mukammal shakl bo'lib, to'la-to'kislik va baxtning alomatidir.

O'rta Osiyoda xalqlarida quyosh shar va doira shaklida tasavvur qilingan hamda shar, doira, yulduzlar va boshqa osmon jismlari tasviri bilan yonma-yon aks ettirilgan. Ba'zan aylana va shar shakli romb yoki to'pbarggul shakllari bilan bir joyda tasvirlanadi. O'rta Osiyoning barcha xalqlari zargarlik buyumlarida quyosh va yulduz ramzlari uchrashi go'yoki ular kishilarni osmon o'z himoyasiga olganligi ishorasiga o'xshaydi [10.1976.C.33].

Xulosa: Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, Xorazm vohasi zargarligida yaratiladigan turli xil naqshlar kompozitsiyasi bir tomondan, irimchilik xususiyatlarini aks ettirgan bo'lsa, boshqa tomondan, taqinchoqqa go'zal ko'rinishni aks ettiradi. Har bir naqshlar uyg'unligi zargarlarning qaysidir ma'no xususiyatlarini aks ettirish uchun va go'zal ko'rinish yaratish maqsadida foydalanilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Лотман Ю.М. Семиотика культуры. – М., 1989. – С. 30
2. Холматов Б.Қ. Композиция. – Тошкент, 2007. – Б. 60.
3. Гюль Э. Диалог культур в искусстве Узбекистана. – Ташкент, 2005. – С.12.
4. Андреев М.С. Орнамент горных таджиков верховьев Амударьи и Памира. - Ташкент. 1928. – С. 23
5. Богословская И. Қорақалпоқ нақш санъатида зооморф унсурлар. Сан'ат. 2009. №2. – Б. 16.
6. Чепелевская Г.Л. Сузани Узбекистана. - Ташкент. Гос. изд-во. худ, лит. УзССР. 1961. – С. 44
7. Давлатова С. Т. Ўзбекистоннинг жанубий худудлари анъанавий хунармандчилиги тарихий жараёнлар контекстида (XIX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshlarida). 2019. – Б. 277.
8. Дала ёзувлари. Хива шаҳри, Ичан-қала маҳалласи, 2022 йил.
9. Новейшая энциклопедия символов и знаков. – М.: Рипол-классик, 2008. – С. 27.
10. Абдуллаев Т.А. Ремесла Узбекистана XIX-XX вв; Путеводитель. — Т.: Фан., 1976. – С.33

UO'K: 951.25-68.233

BUXORONING ESKI SHAHAR QISMIDAGI MAHALLALARNING TARIXIY ILDIZLARINI ANIQLASHGA DOIR TADQIQOTLAR

F.F.Fattullayev, Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro shahrining tarixiy qismiga tegishli mahallalar tarixi, uni o'rganishga doir olib borilgan tadqiqotlar va ularning natijalari xronologik ketma ketlikda tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Buxoro, tarixiy markaz, mahalla, tadqiqotlar, YUNESKO, 2500 yillik yubiley.

Аннотация. В данной статье в хронологическом порядке анализируются история кварталов, входящих в историческую часть города Бухары, проведенные исследования и их результаты.

Ключевые слова: Бухара, исторический центр, окрестности, исследования, ЮНЕСКО, 2500-летие.

Abstract. In this article, the history of neighborhoods belonging to the historical part of the city of Bukhara, the research conducted and their results are analyzed in chronological order.

Key words: Bukhara, historical center, neighborhood, research, UNESCO, 2500th anniversary.

Kirish. O'zbekiston zaminining qaysi hududiga murojaat qilmaylik, ming yillik yer qa'ridagi ilk hayot nishonalarini, eng qadimiy madaniyat va san'at namunalarini har qadamda topish va shu orqali bu yerlarda qanday buyuk sivilizatsiya mavjud bo'lganligini ko'rishimiz muqarrar. Mana shu mo'tabar yurtimizdagi yerosti xazinalaridan, asrlar davomida sukutga cho'mib yotgan shahristonlardan topilgan arxeologik ashyolar, noyob tasvirlar va hali ochilmagan, o'z sirlarini pinhon saqlab kelayotgan cho'lu biyobonlar, hech shubhasiz, bugun biz yashayotgan tuproqda qadim - qadim zamonlardan boshlab buyuk madaniyat va san'at rivojlanganligini tasdiqlaydi.

Shu ma'noda, ulug' ajdodlarimizning umumjahon va umumbashariyat taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissasini hozirgi kunda dunyoda hech kim inkor qilolmaydi. Bunday xulosani yuzlab bebaho topilmalar, osori atiqalar va buyumlar isbotlab beradi[1]. Buyuk Ipak yo'li chorrahasida joylashgan qadimiy Buxoro savdo-sotiq markazi sifatida jahonga dong taratgan. O'rta asrlardayoq o'zining timu-toqlari, o'ziga xos savdo rastalari bilan xorijlik savdogarlar e'tiborini tortgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "... Azaldan savdo yo'llari, madaniyat va sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan boqiy Buxoro, uning ko'pni ko'rgan, ilm-ma'rifat, dinu diyonat, bunyodkorlik borasida nom qozongan xalqi har qanday hurmat va e'tiborga munosibdir". Dunyoda alohida bir elga, alohida bir yurtga bag'ishlab barpo qilingan yodgorliklar majmuasi kamdan-kam uchraydi. Buxoroi Sharif ayni shunday o'lkalar qatoriga kiradi. Shahrimizda shunaqa tarixiy obidalar borki, ularga o'xshashini hech qaysi musulmon davlatida uchratmaysiz.

Asosiy qism. Buxoro- asrlar davomida ulkan Sharqning ilmu ma'rifat va dinu e'tikod markazlardan biri sifatida jaxonga dong'i ketgan kadimiy shaxar. Buxoro o'z davrida ilm-fan, ma'rifat va madaniyat markazlaridan biriga aylanib, bu shaxarda diniy va dunyoviy ilmlar rivoj topgan.

Asrlar davomida Buxoroning dong'i butun Shark bo'ylab fakat ilmu ma'rifat, madaniyat xamda savdo-sotik soxasidagina emas, balki Turkistonning yirik ma'muriy markazi sifatida xam taralib kelgan. Chunki bu shaxar Kuyi Zarafshon o'lkasining kadimgi xokimlarining markaz shaxarlaridan biri bo'lgan.

Buxoro o'tmishi garchi tarixiy va tadrijiy voqealarga nihoyatda boy va qiziqarli bo'lsada, ammo uning zarvaraklarining ko'pgina saxifalari bizgacha to'lik saklanmagan.

Ayniksa vohaning uzok o'tmishi xakidagi ma'lumotlar, shaharning vujudga kelishi haqidagi malumotlar yozma manbalarda mutloko uchramasligi sababli, Buxoroning qadimgi davrlardagi tarixini yoritishda arxeologik kuzatishlar va tadqiqotlar juda muxum jixat xisoblanadi.

Ulkan ko'hna Sharqning dinu e'tiqod, ilm-fan va ma'rifati yo'lida o'zining qo'shgan salmoqli hissasi tufayli ilk o'rta asrlardayoq "Qubbatul islom", "Buxoro-i sharif" nomlari bilan musulmon olamida shuxrat topgan- Buxoroning tarixiy o'tmishini o'rganish, hozirgi kunda yangi bir bosqichga ko'tarildi.

Dunyo miqyosida XVII -XVIII asrlardan boshlab qadimiy madaniyat obidalarini arxeologik nuqtai-nazardan tadqiq qilish boshlangan bo'lsa, bizning o'lkamizda bu ishlar faqatgina XIX asrning oxiri XX asrning boshlaridan boshlangan. Bu davrda Buxoro vohasi Buxoro amirligining markaziy mintaqasi bo'lib, uzoq vaqtgacha bu joyda arxeologik tekshirishlar o'tkazilishi uchun ruxsat berilmagan. Ayniqsa, Buxoro hukmdorlari, islom dini vakillari o'lkadagi yodgorliklarni qazib o'rganishni man qilganlar.

XX asrning 50 yillaridan esa Buxoro shahrini arxeologik tadqiq qilish keng tus oldi. 1952-yildan boshlab taniqli mahalliy tarixchi S. N. Yurenev Buxoro shahrining tarixiy obidalarini o'rganish bo'yicha arxeologik ekspeditsiyalarida faol qatnashadi va mintaqani o'rganish doirasida dastlabki arxeologik faoliyatini shaharning tarixiy obidalarini kuzatish bilan boshlagan[2].

S. N. Yurenev binoni sinchkovlik bilan o'rganib chiqib, o'z hisobotida quyidagilarni qayd etdi. Kalon masjidining har tomonida bir xil qamish qatlami yotqizilgan. Binoning sharqiy devorida loydan yasalgan poydevor joylashgan bo'lib, balandligi 4,80 metrni tashkil qilgan. Shimoliy devorning balandligi 5.30 metr edi, poydevori ko'milgan, ammo poydevor g'ishtlari yaxshi saqlangan. Binoning poydevorining holatini aniqlash uchun devorlarning poydevori 80 sm qazilgan va er qatlamini qazish natijasida XIX asr oxiri – XX asr boshlariga to'g'ri keladigan chinni va shisha

parchalar topilgan. Masjidning g'arbiy tomonidagi kirish eshigi yer sathidan 67 sm pastda joylashgan edi. S. N. Yurenevning so'zlariga ko'ra, bu erda qamish paspaslari ishlab chiqarish ustaxonasi yoki ularni sotish joyi - bozor joylashgan[3].

1952-yil aprel oyida S.N.Yurenev Kalon masjidida masjidning qurilish texnikasi va qurilishda ishlatilgan material turlarini aniqlash maqsadida yangi tadqiqotlarni boshlaydi. S. N. Yurenevning ma'lumotlariga ko'ra, masjidning tomi 27-30 sm tuproq bilan qoplangan. Bu tuproq qatlamdan XIII asrga oid ikkita sopol, XV-XIX asrlarga tegishli ko'plab sopollar va XVIII asr oxiri – XIX asr boshlarida yashil sirlangan qopqoqli idishlar topib o'rganiladi.

1953-yil may oyida S. N. Yurenev arxeolog sifatida Kalon masjididagi qazishmalarga rahbarlik qiladi. Tadqiqotlarda M.X. Panchenko, arxitektor A.S. Bernshteinlar ham ishtirok etadi. 1953-yil 19-mayda Minorayi Kalon va Kalon masjidi o'rtasida 9 ta shurf tushiradi.

S.N.Yurenev olib borgan arxeologik tadqiqotlari natijasida quyidagi xulosalarni beradi: 1. Kalon masjidi yodgorligining quyi qatlamlari Kushon davriga oidligini aniqlaydi. Masjidning birinchi madaniy qatlamida topilgan va Kushon davri bilan bog'liq ikkita sopol buyum buyumlari buni tasdiqlagan. 2. Uchinchi shurfda, masjidning birinchi poydevori uchun, notekis tosh bloklar ishlatilgan. Madaniy qatlamning qalinligi 25-30 sm. S.N.Yurenevning yozishicha, mo'g'ullar Buxoroni 1220-yil fevralda egallab olishgan, keyin masjid saqlanib qolgan, ammo 1273-yildagi tartibsizliklardan keyin masjid yoqib yuborilgan. Ma'lumotlarga ko'ra, masjidning birinchi binosi Kutayba ibn Muslim (713 yil) davriga to'g'ri kelishini aytadi. 3. Ikkinchi marta masjid yong'indan keyin xuddi shu joyda qurilgan. Masjidning ikkinchi qurilishida oldingi poydevori tosh plitalari ustiga tuproq qatlami yotqizilgan va shundan keyingina qurilish boshlangan. 4. Masjidning uchinchi qurilishi uchun ikkinchi qurilishi asos bo'lib xizmat qilgan, ustiga yana olti qator g'isht terilib, masjid qurilgan. Har bir davrda ishlatilgan g'ishtlarning o'lchamlari har xil: masjidning ikkinchi qurilishi g'ishtlarining hajmi 28x28x5,5 sm, masjidning birinchi qurilishi paytida – 19x19x3 sm g'ishtlardan foydalanganligi aniqlangan.

1953-yilning 11-18-sentabrda arxeologik tadqiqotlar P.I. Mitrofanov va I.G. Antipov tomonidan olib borilgan va 9 ta shurf tashlangan. 1953-yil 14-sentabrda V. A. Shishkin va A. V. Nilsonlar tadqiqoto'tash joyiga kelib va 1953-yil 21-sentabrgacha tashlangan shurflarda tadqiqotlar o'tash bilan shug'ullanishadi. O'sha yilning 22-sentabridan 10-oktabrigacha chuqurlarning tavsifi tuzilgan. Chuqurlarni suratga olish I. Y. Davidov tomonidan amalga oshirilgan. 1953-yil 31-oktabrda Kalon masjidi yonidagi qazish ishlari tugatilgan[4].

Umuman olganda S.N.Yurenev Buxoro shahri hududining juda ko'plab joylarida tadqiqotlarini amalga oshirgan. U 1955-yilda Ko'kaldash madrasasida, 1956-yilda Fayzobod, Seyfeddin Boharzi, Ko'kaldosh madrasalarida, 1957-1959-yillarda Kalon masjidida qayta ta'mirlash ishlari, arxeologik tadqiqotlar va kuzatishlar olib borilgan[5].

XX asrning ikkinchi yarmida sovet mustabid tuzumi davrida ham O'zbekistondagi tarixiy-madaniy yodgorliklarni saqlash, ta'mirlash-tiklash borasida bir qator ishlar amalga oshirilgan. Masalan, KPSS Markaziy Qo'mitasi tomonidan 1980-yil 12-avgustda "SSSR xalqlari tarixiy va madaniy yodgorliklari to'plamini nashr qilish to'g'risida" qaror qabul qilinadi. Mazkur qaror asosida 1980-yilning 8-sentabrda O'zbekiston KP Markaziy Qo'mitasi va Ministrlar Sovetining yodgorliklar to'plamini nashr qilish to'g'risidagi 604-sonli qarori chiqadi. Ushbu qaror shartlarini bajarish yuzasidan, O'zbekiston KP MK va Ministrlar Sovetining 1980-yil 17-sentabrdagi 164"P"-sonli buyrug'iga asosan, 1983-yilda Buxoro viloyati va shahri tarixiy-madaniy yodgorliklarini to'plam nashriga tayyorlash to'g'risida tadbirlar belgilanadi.

1980-yil 19-sentabrda YUNESKONing qarori bilan Toshkentda buyuk alloma Abu Ali ibn Sino tavalludining 1000 yillik yubileyi nishonlandi. Mazkur yubileyga tayyorgarlik munosabati bilan Buxorodagi 40 ta me'morchilik yodgorliklari ta'mirlandi, Toshkent va Afshonada allomaga haykal o'rnatildi. O'zSSR Madaniyat vazirligining 1980-yil 25-avgustdagi 417-sonli buyrug'i asosida tuzilgan hukumat komissiyasi tomonidan 20 ta yodgorlik "a'lo"ga, 20 tasi esa "yaxshi" ta'mirlangan, deb qabul qilib olindi. O'zSSR Madaniyat vazirligi kollegiyasining 25-mart 1982-yildagi 413-sonli qarorida Buxoro viloyati madaniyat boshqarmasining O'zSSR "Tarix va madaniyat yodgorliklarini saqlash va ulardan foydalanish to'g'risida"gi qonunning bajarilishi borasidagi ishlar haqida quyidagi

ma'lumotlar keltiriladi. Viloyatda jami 714 ta yodgorlik davlat muhofazasiga olingan bo'lib, ulardan 329 ma'muriy, 259 monumental san'at, 126 tasi arxeologik yodgorliklar bo'lgan. Yana 20 ta yodgorlikni ittifoq ahamiyatiga ega bo'lgan yodgorliklar ro'yxatiga kiritish tavsiya qilingan. 274 yodgorlik esa respublika ahamiyatiga ega bo'lib, davlat muhofazasiga olingan. Buxoro shahri va viloyatdagi tuman markazlarida 379 ta yodgorlikning hisob varaqasi tuzilgan. 143 yodgorlik fotofiksatsiya qilindi. 1987-yilda esa 603 ta yodgorlik davlat muhofazasi va hisobiga olingan bo'lib, ulardan 293 tasi me'moriy, 100 tasi arxeologik, 210 tasi monumental san'at asarlari bo'lgan. 24 ta yodgorlik ittifoq, 244 tasi respublika va 335 tasi mahalliy ahamiyatiga ega yodgorliklar toifasiga kiritildi. 2 ta me'moriy obida, ya'ni Ismoil Somoniy maqbarasi va Minorayi Kalon YUNESKO tomonidan ro'yxatga olingan.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Buxoroning eski shahar qismidagi mahallalar tarixini o'rganishda tarixiy va arxeologik tadqiqotlar juda muhim jihat hisoblanadi. Aynan shu tadqiqotlar Buxoro shahrining 2500 yillik yubileyini nishonlash uchun zamin bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Жайхун соҳилидаги боқий шаҳар. Маърифат, 2002,3 апрел, -Б.5.
2. Boltaev A. Kh. The research of the S.Yurenev un the Mocque Kalan //European Journal of Humanities and Social Sciences. № 5.-Vienna. 2018. P.8.
3. Бухарский музей, инв. № 11448/7. Архив Специальной научно-реставрационной производственной мастерской, инв. № 3210.
4. Boltaev A. Kh. The research of the S.Yurenev un the Mocque Kalan //European Journal of Humanities and Social Sciences. № 5. -Vienna. 2018. P.11-12.
5. Ставиский Б.Я. Сергей Николаевич Юренев - Человек, Личность, а также музейный работник, археолог, краевед...(материалы биографии). К столетию со дня рождения. Бухарский музей. –Бухара,1996. С.8-30.

UO'K 376.3

SURDOLIMPIYA TARIXIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

Sh.R.Hamidova, doktorant, O'zFA Tarix instituti, Toshkent

Annotatsiya. *Mazkur maqolada imkoniyati cheklangan shaxslar ya'ni karlararo ruhiy va jismoniy salomatlikni ta'minlash maqsadida, ularni surdosport o'yinlariga jalb etish, dastlabki surdolimpiya musobaqalar tarixi, ularning o'tkazilish tartibi, surdosport turlari va ushbu sport turlari bilan shug'ullanuvchi eshitishda zaif surdosportchilar faoliyati haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Surdolimpiya, surdosport, XOQ, ICSD, koxlear implant, sportaccord, deaf, surdopedagogika, deaflimpiya, karlararo hajihatlik.*

Аннотация. *В данной статье в целях обеспечения психического и физического здоровья людей с ограниченными возможностями, т.е. глухих, привлечения их к глухим видам спорта рассмотрены история первых Сурдлимпийских соревнований, порядок их проведения, виды спорта глухих и деятельность глухих спортсменов, занимающихся говорят об этих видах спорта.*

Ключевые слова: *Олимпийские игры глухих, спорт глухих, кохлеарный имплант, спортаккорд, глухие, педагогика глухих, Олимпийские игры глухих, общение между глухими.*

Abstract. *In this article, in order to ensure the mental and physical health of people with disabilities, deaf people, to attract them to deaf sports, the history of the first Deaflympic competitions, their procedure, deaf sports and the activities of deaf athletes engaged in these sports is spoken.*

Key words: *Deaf Olympics, deaf sports, IOC, ICSD, cochlear implant, sportaccord, deaf, deaf pedagogy, deaf Olympics, inter-deaf communication.*

Dunyo mamlakatlarida sportni rivojlantirish va aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish ishlari uzoq yillardan buyon an'anaga aylanib ulgurgan. Sababi, sport davlat reytingini dunyoga namoyon etuvchi shakllardan biri bo'libgina qolmay, insonlar salomatligini yaxshilovchi, turli kasalliklarning oldini oluvchi va eng asosiysi, aholining doimiy harakatchanlik qobiliyatini oshiruvchi omillardan demakdir. Va bu jarayonga nafaqat to'laqonli sog'lom insonlarni jalb etish,

balki jismoniy jihatdan imkoniyati cheklangan shaxslarni ham sportga yo'naltirish, ularning faol ishtiroklarini ta'minlash, shuningdek, munosib rag'batlantirish ishlari tizimli tashkil etilgan bo'lib, hozirgi kunga qadar muvaffaqiyatli davom etib kelmoqda. Xususan, butun dunyo davlatlari miqyosida o'tkazib kelinayotgan surdolimpiya o'yinlari shular jumlasidandir. Surdolimpiya (surdolimpiada –fransuzchadan –“kar”, yoki ingliz tilidan “Deaflympics” – “kar” degan ma'nolarni anglatib, eshitish qobiliyatiga ega bo'lmagan shaxslarning sport musobaqalari hisoblanadi. Surdolimpiya o'yinlari dastlab, Butun jahon karlar o'yinlari deb nomlanib, ilk marotaba 1924-yil Parijda bo'lib o'tgan. Mazkur o'yinlarda Fransiya, Buyuk Britaniya, Chexoslovakiya, Italiya, Latviya, Rumuniya, Vengriya, Polsha, Belgiya, Niderlandiya davlatlarining surdolimpiada bo'yicha vakillari ishtirok etgan. Ikkinchi Jahon urushi davrida tanaffus bilan har to'rt yilda bir marta o'tkazilgan. Qishki Surdolimpiada o'yinlari birinchi marta 1949 yilda Avstriyada o'tkazilgan. Unda 5 mamlakatdan 33 sportchi ishtirok etgan. [1] Hozirgi paytda dunyoda Karlar uchun Xalqaro sport qo'mitasi (uning qisqartmasi ICSD) deb nomlangan bitta tashkilot mavjud bo'lib, ushbu qo'mita 1924 yil 24 avgustdan buyon samarali faoliyat yuritib kelmoqda va faqat karlar uchun mo'ljallangan sport tadbirlarining yuqori darajada tashkil etilgan tizimini yarata oldi. ICSD mustaqil va o'zini o'zi boshqaradigan xalqaro sport tashkiloti hisoblanadi. 1955-yil 13-iyunda Fransiyaning Parij shahrida bo'lib o'tgan XOQning 50-sessiyasi ICSD va XOQning Nizomi va vakolatlarini tan oldi va o'sha kundan boshlab ICSDni Olimpiya o'yinlariga ega bo'lgan Xalqaro federatsiya sifatida tan oldi. XOQ homiyligidagi Surdolimpiya o'yinlari dunyodagi ikkinchi eng qadimgi va xalqaro ko'p tarmoqli sport musobaqasiga aylandi. 1966 yilda ICSD Xalqaro karlar sporti sohasidagi yutuqlari uchun XOQ tomonidan Olimpiya kubogi bilan taqdirlandi. 1985 yildan boshlab, hozirgi kunga qadar, XOQ bayrog'i Deaflimpiya o'yinlari o'tkaziladigan barcha saytlarda o'rnatilgan. ICSD tuzilmasi kar sportchilarni ifodalovchi, shuningdek, o'z mamlakatlaridagi karlar sportini nazorat qiluvchi qonuniy, mustaqil, milliy sport tashkilotlaridan iborat. ICSD ning a'zolari bugungi kunda 117 turli mamlakatlardan bo'lgan milliy sport tashkilotlarini o'z ichiga oladi. Har bir mamlakatda mahalliy milliy olimpiya qo'mitasi tomonidan tan olingan va mamlakatning davlat organlarida rasman ro'yxatdan o'tgan faqat bitta Milliy karlar sport tashkiloti bo'lishi mumkin. Har bir mamlakatda ro'yxatdan o'tgan Milliy karlar sport tashkilotida tashkilotning etakchi lavozimlarida karlar, shu jumladan Prezident bo'lishi kerak. ICSDning karlarning global sport tizimini rivojlantirish, uning Olimpiya xartiyasi qoidalariga muvofiqligini ta'minlash, shuningdek, Olimpiya ruhini targ'ib qilish va butun dunyo bo'ylab kar sportchilararo do'stlikni mustahkamlashdagi katta hissasini qayd etib, XOQ Ijroiya kengashi 2001 yil 16 maydagi qarori bilan Jahon karlar o'yinlarini Karlar Olimpiya o'yinlari deb o'zgartirdi va shu bilan o'yinlarning nomi va ularning maqomi o'rtasidagi ziddiyatni bartaraf etdi. Surdolimpiya o'yinlariga sportchilarni tayyorlash jarayonida murabbiylardan surdopedagogik mahorat talab etiladi. Chunki, imo-ishoralar va bildirmoqchi bo'lgan fikr-mulohazalarni tez va to'laqomli tushunish tizimli ishlashga yordam beradi. Surdopedagogika – zaif eshituvchi shaxslarni maxsus o'qitish va tarbiyalash masalalarini ishlab chiqadi. [2] Yozgi Surdolimpiada o'yinlariga quyidagi sport turlari kiradi: yengil atletika, badminton, basketbol, plyaj voleyboli, bouling, velosport, futbol, gandbol, dzyudo, karate, tog' velosipedi, orientirlash, otish, suzish, stol tennisi, taekvondo, tennis, voleybol va kurash (ikkalasi ham yunon-rim va erkin uslublar), qishki Surdolimpiya o'yinlarining sport turlari esa tog' chang'isi, shaxmat, kyorling, xokkey, chang'i sporti, futzal va snouborddan iborat.[3] Bundan tashqari, mintaqaviy musobaqa lar doimiy ravishda o'tkaziladi (masalan, karlar uchun turli xil sport turlari bo'yicha Yevropa chempionati, Osiyo-Tinch okeani o'yinlari, karlar uchun Panamerika o'yinlari va basketbol bo'yicha Afrika chempionati)kabilar. Deaflimpiya o'yinlari XOQ tomonidan tasdiqlangan boshqa o'yinlardan farq qiladi, chunki ular faqat o'zlari xizmat qiladigan jamiyat a'zolari – karlar tomonidan tashkil etiladi va boshqariladi, sababi, o'ziga xos eshitish qobiliyati, o'ziga xos madaniyat va o'ziga xos kar aloqa vositalaridan foydalanish (ya'ni milliy imo-ishora tillari) tizimi. Bundan tashqari, surdolimpiya musobaqalari paytida eshitish asboblari va koxlear implantlardan foydalanishga ruxsat etilmaydi. Qayd etish joizki, XOQ prezidenti janob Xuan Antonio Samaranch uch marta 1981 yilda Germaniyaning Kyoln shahrida bo'lib o'tgan 14-yozgi Surdolimpiya o'yinlari, 1997 yilda Daniya poytaxti Kopengagen shahrida bo'lib o'tgan XVIII yozgi Surdolimpiya o'yinlari va 19-yozgi o'yinlarining ochilish marosimlarida ishtirok etgan.

2001-yildagi surdolimpiya o'yinlari Italiyaning Rim shahrida bo'lib o'tdi. 1924 yildan hozirgi kungacha ICSD Olimpiya o'yinlari 24 ta yozgi va 18 ta qishki Surdolimpiada o'yinlarini tashkil qildi. ICSD kongresslari har ikki yilda bir marta o'tkaziladi, ICSD kongressi 2017 yil 16 iyuldan 18 iyulgacha Turkiyaning Samsun shahrida bo'lib o'tdi. Bundan tashqari, har to'rt yilda bir marta turli sport turlari bo'yicha Jahon chempionatlari va mintaqaviy chempionatlar o'tkaziladi. 2022-yil Braziliyaning Kaxias-do-Sul shahrida bo'lib o'tgan 24-yozgi Deaflimpiada o'yinlarida 2400 dan ortiq sportchi ishtirok etdi.[4] Dunyoning turli davlatlaridan kelgan minglab ko'ngillilar ham qatnashib, surdolimpiya musobaqalarining yuqori darajada o'tishiga ko'maklashdilar. ICSD Konstitutsiyasiga muvofiq uning maqsadlari quyidagilardan iborat: karlarning ko'pgina sport turlari bo'yicha dunyoda yagona, birlashgan vakillik tashkiloti bo'lish, karlar xalqaro sport hamjamiyatida sport mashg'ulotlari va raqobatni rivojlantirish va targ'ib qilish, sohaga doir yangi va zamonaviy o'quv dasturlarini ishlab chiqish va karlar uchun xalqaro talablarga javob beruvchi sport bilan shug'ullanish uchun mavjud imkoniyatlarni kengaytirish, yozgi va qishki deaflimpiya o'yinlarini taqdirlash, nazorat qilish va muvofiqlashtirishda yordam berish, rivojlanayotgan mamlakatlarda karlar sportini tashkil etish va rivojlantirishga ko'maklashish, agar sport turi ICSD tomonidan tan olingan bo'lsa, ruxsat berish va kerak bo'lganda yordam berish, karlar bo'yicha jahon chempionatlari va karlar olimpiadalarini yagona xalqaro tashkilot sifatida muvofiqlashtirish hamda nazorat qilish huquqiga ega, karlar bo'yicha mintaqaviy chempionat va musobaqalarni targ'ib qilish, boshqa xalqaro karlar sporti federatsiyalari bilan hamkorlik qilish va sport tadbirlarini tashkil etish kabilardan iborat. Ushbu maqsadlarga erishish uchun Xalqaro Olimpiya Qo'mitasi (XOQ) va SportAccord (shuningdek, Xalqaro sport Federatsiyalari Bosh Assotsiatsiyasi (GAISF) nomi bilan ham tanilgan) bilan muntazam hamkorlik o'rnatish, karlar sportiga ta'sir qiladigan vositalarni taqdim etish orqali mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarni yaqinlashtirish, sport bilan shug'ullanadigan kar odamlar nomidan tegishli hukumat yoki boshqa tashkilotlar bilan aloqa qilish va yoki hamkorlik qilish, xalqaro va mintaqaviy sport tadbirlari jadvalini muvofiqlashtirish, siyosiy, diniy, iqtisodiy, irqiy, gender, nogironlik yoki jinsiy orientatsiya sabablarga ko'ra kamsitmasdan kar sportchilar uchun ko'pgina sport turlarini targ'ib qilish, ushbu maqsadlarga erishish yoki amalga oshirish uchun barcha zaruriy va qulay sharoitlarni yaratish demakdir. Bugungi kunda ICSDning eng muhim ustuvorliklari quyidagilardan iborat:

1. Kar bo'lgan bolalar surdosportini rivojlantirish va tizimlashtirish;
2. Rivojlanayotgan mamlakatlarda karlar sportini takomillashtirish;
3. XOQ va boshqa xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik va hamkorlikni yanada mustahkamlash chora-tadbirlarini ko'rish;
4. BMTning nogironlar huquqlari to'g'risidagi konventsiyasining asosiy qoidalarini amalga oshirish va surdosport jarayonlariga targ'ib etish;
5. Karlar sportining yutuq va muammolari haqida xalqaro hamjamiyatni xabardor qilib borish va kar insonlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish kabilar.

Qishki surdolimpiya ham alohida tayyorgarlik va reja asosida tashkil etilib, dastlab, Avstriyaning Zeefeld(Tirol) shahrida boshlangan bo'sa, 2015-yil Rossiyaning Magnitogorsk shahrida XVIII surdolimpiya musobaqakari o'tkazildi va unda 27 ta davlat va 344 ta ishtirokchi qatnashdi. 2019-yil esa, XIX qishki surdo o'yinlar Italiyaning Milan shahrida bo'lib o'tdi.[5]

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, dunyo misyosida kar shaxslararo sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, ularning ruhiy va jismoniy salomatligi yaxshilash, surdosport musobaqalariga jalb etish va munosib rag'batlantirish ishlari tizimli ravishda olib borilmoqda. Yuqoridagi sanab o'tilgan jamiiki, chora-tadbirlarni amalga oshirishdan asosiy maqsad imkoniyati cheklangan, ya'ni kar insonlarni jamiyatda ijtimoiy faolligini oshirish, butun duyo bo'ylab karlararo hamjihatlik muhitini yaratishdan iborat demakdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. R.Usmonov, M.X.Mirjamolov. Jismoniy imkoniyati cheklangan o'quvchilarning sport mashg'ulotlariga moslashishi o'-'uslubiy qo'llanma. T.2024.
2. O'zbekiston Milliy ensiklopediya. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti.Toshkent.744-b.
3. L.B.Sobirova, M.X.Mirjamolov. Olimpiya va paralimpiya tarixi va o'yin qoidalari.T.2020. 107-b.
4. leouve(<https://leouve.com.br/ultimas/surdolimpiadas-recruta-voluntarios-para-evento-que-reunira-mais-de-6-mil-atletas-em-caxias>)inglizchadan tarjima.

UDC 9:33

THE MIDDLE AGES - THE FLOWER OF GROCERY TRADE IN CENTRAL ASIA*N.I.Karimova, teacher, Jizzakh State Pedagogical University, Jizzakh*

Annotatsiya. Maqolada O'rta Osiyoda mintaqalararo savdodan tashqari, o'rta asrlarda savdo do'konlari, ko'chalar bo'ylab hunarmandchilik ustaxonalari joylashganligi, a kundalik asosda. O'rta Osiyo savdogarlari quruqlikda ham, dengizda ham savdo yo'llarini muvaffaqiyatli o'zlashtirdilar, yarmarkalar o'tkazilib, xalqaro savdo rivojlandi. Topilgan numizmatik materiallar, ziravorlar va o'tlarning qoldiqlari, sopol idishlar va xumlardagi donlar, shuningdek yozma manbalar va tarixchilarning asarlari oziq-ovqat savdosi faol rivojlanayotganining muhim dalillari:

Kalit so'zlar: Xalqaro savdo, qahrabo, Zakriya ibn Muhammad al Qazviniy, Andalusiya, chivin mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlari, Xorazmshohlar, Qoraxoniylar, Temuriylar, Attaron, galangal, to'q ildiz, ragon.

Аннотация. В статье приводятся сведения, что в Центральной Азии кроме межрегиональной торговли в средние века развивалась и внутренняя торговля, вдоль улиц располагались торговые лавки, мастерские ремесленников и создавались базары, внутренняя торговля велась повседневно. Торговцы Центральной Азии успешно осваивали торговые пути и на суше и на море, проводились ярмарки и развивалась международная торговля. Важным доказательством того что, торговли бакалейными товарами активно развивалась являются найденные нумизматические материалы, останки специй и пряностей, злаков в керамической посуде и хумах, а также письменные источники и труды историков:

Ключевые слова: Международная торговля, амбра, Закрия ибн Мухаммед ал Казвини, Андалусия, москательные товары, бакалейные товары, Хорезмшахи, Караханиды, Темуриды, Амтаран, галангал, чепучинный корень, ревень.

Abstract. The article provides information that in Central Asia, in addition to interregional trade, internal trade also developed in the Middle Ages; trading shops, artisan workshops were located along the streets, and bazaars were created; internal trade was carried out on a daily basis. Traders of Central Asia successfully mastered trade routes both on land and at sea, fairs were held and international trade developed. Important evidence that the grocery trade was actively developing are the found numismatic materials, the remains of spices and herbs, cereals in ceramic dishes and hums, as well as written sources and works of historians:

Key words: International trade, ambergris, Zakriya ibn Muhammad al Qazwini, Andalusia, mosquito products, groceries, Kharezmshahs, Karakhanids, Timurids, Attaran, galangal, scalloped root, rhubarb.

During the reign of the Khorezmshahs, all types of crafts and trade were developed in Gurganj. The Arab scholar and writer Abu Yahya Zakariyya notes that the residents of Gurganj were skilled grocery traders. There were workshops in the city where dyes such as madder and indigo were used to dye natural silk. Ensuring the safety of trade routes and caravan roads stimulated the development of domestic and foreign trade. Merchants of Gurganj sent their groceries to Baghdad and to distant Andalusia (Spain).

The work of the famous Arab scientist Zakiriy ibn Muhammad al Qazwini, "Wonders of Creation" or "Wonders of Creation and Wonders of Existence," provides information, in particular, about the extraction of ambergris, which was used to make various incense, with the addition of the main ingredient, lavender, cloves, coriander and Dr. Zakriya ibn Muhammad al Qazwini writes that "if this sea rages, it throws out pieces of "ambergris" from the depths, like mountains. Albal swallows it, and the ambergris kills him, and he floats to the surface. Special people on ships from (the country of) az-Zinj look out for them, and if they spot such a fish, they throw hooks at it and pull it to the shore, then they cut open its belly and extract ambergris from it, which is in the belly of the fish, it

smells unpleasant and this traders of incense in Iraq, Persia and India know that what is in the back of it is clean and of good quality...”, this information is confirmed by Abu Ali ibn Sina.

On the territory of southern Africa (al-Zinj), ambergris was traded, including by traders from Transoxiana and Khorasan. It is known that in the East, ambergris was one of the exquisite gifts given to ambassadors in the Middle Ages. Al-Masudi's writings mention ambergris candles. It is known that fetora (ambergris) itself is not fragrant, only with the addition of various spices such as incense, cinnamon or lavender can it impart a special aroma and persistent smell.

During the Middle Ages in the East, there was often no distinction between the concepts of medicine, spice, incense and various smoking substances. Therefore, in many Eastern sources, spice sometimes also meant medicine, incense, etc. From research it was revealed that medicines, incense, and dyes were obtained from herbs and spices and they were considered one of the groceries. For example, in the early Middle Ages, such groceries as aromatic medicinal drugs, tablets made from fruits, medicinal herbs, elixirs and various drugs were exported from Tokharistan.

Sources contain evidence that the Karakhanids inherited their property from the Samanids and themselves became the largest owners of mustagalls (tax on land under buildings), in which incense and essential oils were made from fragrant varieties of roses.

Once a year, trade fairs were organized in the bazaars of Central Asia. Basically, they were held on the New Year's day, Nowruz, because this day was considered sacred for farmers and helped determine the time of production of agricultural goods.

Trade in groceries played an important role in trade at these fairs. The galangal spice, known as a warming tea, and medicines were brought to these fairs from South Asia and China, and the indigo dye plant from Kabul and Iran.

The Arab traveler Ibn Batuta, having visited Bukhara in 1333, found most of the bazaars and markets in ruins after the Mongol invasion of Bukhara; the city's economy had not yet been restored by this time; also passing through Urgench, he described it as one of the most significant, beautiful and rich cities with noisy, beautiful bazaars and wide shopping streets, from there dried watermelons, fruits, spices, and herbs were sent in large quantities to India and China. Also in his description, the bazaars of Urgench were like a noisy sea.

It is known that among the Central Asian goods there are mentioned excellent varieties of melons with sweet pulp, which were dried and exported to India and Russia. Ibn Battuta mentions this in his writings that he treated the Indian sultans to such a melon.

Trade in groceries was carried out along the Amu Darya River, along which products such as, for example, were transported to Khorezm; sesame, madder, pepper, dye roots, indigo, tea, soap, etc. Many groceries were brought from Termez such as; saffron, cumin, cloves, cinnamon, sandalwood and other goods, both locally sourced and imported from India and Afghanistan.

In the chronicles of the era of Amir Temur and the Temurids, there is information about the history of trade in groceries in Herat, Samarkand, and Bukhara. Trading shops and bazaars were restored during the reign of the Temurids. The sources provide information about shopping streets and grocery stores, about the import and export of goods outside Transoxiana and Khorasan during the reign of Amir Temur. Various craftsmen were brought from Damascus who wove silk fabrics; craftsmen and artisans were brought from Turkey who grew hemp and flax for the cultivation of ropes, for the needs of various spheres, which had not yet existed in these areas. Musk, rhubarb and many different spices were brought from China, and nutmeg, cloves, cinnamon, ginger, cinnamon flowers, and nutmeg flowers were brought from India. Trade was booming in the cities, wines were sold, various delicious meat dishes seasoned with herbs and spices, such as; caraway seeds, mint, pepper, salt and wine syrup. Also in this city, vineyards were planted, melons were grown, from this sweet fruit - the berries were made into dried, sweet lozenges that are used as a sweet spice until the next harvest.

The victory of Amir Timur over Bayazed influenced the strengthening of ties between Transoxiana and Khorasan with Western European countries. These factors favorably influenced the development of foreign and domestic trade, including grocery. Spices and herbs such as dar fylful,

Turkish delight with the addition of coconut flakes, keledosh otu, isot pepper, etc. began to arrive from the Ottoman possessions to Transoxiana.

It is important to note that the establishment of international relations by Amir Timur with England and France served to intensify trade along the Great Silk Road to India and China and back through Central Asia. Under his rule, the safety of caravans passing through this route is ensured. Trade ties between Central Asia and Byzantium, Spain, Venice, and Genoa, which were considered the most developed states of that time, were strengthening. In particular, European states became consumers of such groceries as saffron, pepper, ginseng, cinnamon, cloves, sesame, cumin, cardamom, which were delivered through Transoxiana.

Historical sources provide information about Samarkand bazaars. Sultan Ali Mashhadi writes that the bazaars of Samarkand were distinguished by the sale of large quantities of groceries such as saffron, henna, wine, vinegar, syrup, tea, baked goods, soap, candles, and various sweets.

Similar reports are given by Zakhiriddin Babur that in Samarkand a separate market was allocated for each trade and this was one of the features of the city. During the Middle Ages, various names for bazaar were used, such as; "juba", "dukon" and "suk". Various dukans were located here and at the same time were considered trade and craft centers. Information is provided about grocery, bakery, pie dukans, and taverns. Confectionery shops and bakeries also functioned at the bazaars and were famous for their delicious flatbreads, sesame, mint, and spinach pies with saffron syrup added to the dough.

In trade agreements preserved in the sources of Central Asia in the 16th century, information related to the trade and purchase and sale of grocery stores was preserved, which states that they sold flour products, mosquito substances and various dyeing herbs and spices, such as madder, safflower, indigo, etc.

The grocery bazaar in Bukhara was called Mokh, and in the 16th century the land around Magoki Attari was the center of pharmacies and a spice market. In the Middle Ages, all visiting traders who worshiped three different world religions: Christianity, Buddhism and Islam performed their religious rites here.

An important role in the grocery trade was played by the purchase and sale of land (plots, shops and dukans). In the Middle Ages in Central Asia, bakeries also served as trading shops. The concepts of nonvoy (baker) and nonfurush (bread merchant) were a single concept at that time, and the following types of professions also functioned: grocery merchants were called bakkal, attor and dorifurush, various sweets, fried nuts - halvafurush and kandifurush.

Historians write that the workshops and shops of bakers and other artisans whose activities involve fire had to be located away from perfumers' shops, grocery merchants and fabric stores, so as not to cause harm.

In the Middle Ages, an authorized mukhtasib was elected from among the artisans and traders of each specialty to supervise his fellow professions. The control concerned, among other things, the recipe for preparing the Khalisa dish and adding meat, spices and spices to it.

An interesting fact is given about the influential Iranian commander Najmi Soni, who during the campaign for the Amu Darya under Ismail Safevi did not refuse a magnificent dastarkhan. Every day, to prepare dishes for him, according to Khondamir, ten men of cinnamon, saffron, ginger and other spices were spent; some types of spices and spices were difficult to find in such quantities and the cooks had to involuntarily reduce the daily consumption of these spices and spices." It was not difficult to imagine how much such food from Commander-in-Chief Najmi Sani cost the population of Transoxiana. This suggests that spices and spices were considered an expensive pleasure in cooking during the reign of Zahiriddin Muhammad Bobur.

In the 16th century, groceries were sold at fairs, bazaars and transported along caravan routes.

In the XVI-XVII centuries. The main trade routes from Russia and Central Asia passed from the Volga and from Tobolsk (Siberia). First route; went from the banks of the Volga to Sarai Berk, then there was a branch from the Ural River to the city of Saraichik, then moving east to the lower reaches of the Syr Darya and continued to Utrar. The second branch went around the south-eastern side of the city of Saraichik, then passed through Tas-Kichu, Sham, Ust-Urt and reached Kharezm.

Next route; starting from Astrakhan by sea it continued to the port of Karagan and further along the Ust-Urt steppe to Khorezm. Research has revealed that the first overland trade route began in the 17th century, and the sea route to Khiva was opened in 1558. In the 16th centuries The route of spices and herbs with Russia passed through the route: Bukhara - Astrakhan - Siberia. Various groceries from Bukhara were transported to Russia via Khiva.

In the 16th - 17th centuries, various spicy roots, musk, ambergris, rhubarb, and paints were brought from Bukhara to Astrakhan and Moscow. Rhubarb was exported from Bukhara to Iran and delivered to Alexandria by Persian traders. In the 50s of the 17th century, trade was carried out with rhubarb, which was brought from Bukhara. turned into a Russian monopoly.

It is known that Bukhara traders traveled on camels in the winter and on ships in the summer to Moscow, Tobolsk and Siberia. They brought groceries to Tobolsk and Moscow: cinnamon (not ground), star anise (anise). Residents of Moscow used star anise as a sweet spice and infused it with vodka; in addition to these spices, Bukhara traders from China brought tea and tobacco.

It is important to note that Russia showed special interest in trade with Khiva. Peter I during his reign paid special attention to imports of grocery goods and, in connection with this, the importance of trade in them rose to a political level. In 1716, a royal decree was issued on studying the geography of the Khiva trade route by the Bekovich-Cherkassky expedition. In the document "The Decree to the Captain of the Guard to Prince Cherkassky is written like this: "Order Lieutenant Kozhin to inquire about spicy potions and other goods there, and both for this matter and for the release of goods, give him two good people from Kozhin." merchants, and so that they are not old." Afterwards, in 1717, on the basis of this decree, an expedition was sent to explore the trade routes of Khiva and the former course of the Amu Darya.

In the Middle Ages, traders from Central Asia were called Sarts, Teziks, and Bukharians. Research shows that grocery merchants had professional tahalluses in Asia and Central Asia: saydana, attar, dorifurus, in Europe: spetsiale, risoto, in Turkey bakkal, grocer.

In the 17th – 18th centuries, spice was brought to Russia from Central Asia; cinchona root, as it was also called cinchona root. In 1774, Khan Abulgazi from Bukhara to Russia sent his ambassadors with credentials addressed to Empress Catherine II and also spicy gifts - rhubarb (84 pounds), cinchona root (5 pounds).

In the 18th century, during the reign of the Ashtarkhanids in the Bukhara Khanate, active trade in grocery goods was carried out with Afghanistan, Iran, Kashmir, Kashgar, as well as with the cities of Turkey (Constantinople, Anatolia). The trade routes of the Bukhara Khanate passed to Orenburg and Astrakhan through Khiva and reached the Mangyshlak Peninsula.

At the end of the 18th – beginning of the 19th centuries, the Tashkent Bekstvo established close trade relations with Russia, bringing there, among other things, groceries.

In the XVIII - XIX centuries. Groceries rose to the level of a luxury item, a means of capital accumulation, and this served to resolve political issues between the countries of Central Asia and Europe.

At the end of the 18th - beginning of the 19th centuries. Bukhara merchants carried out trade along the route leading to India through Northern Khorasan: Bukhara-Chardzhou-Merv-Sarakhs-Mashhad-Herat-Kandahar-Kabul-Peshawar-Lahore.

The next route was heading to the South side starting from Kandahar to Dadui Shikarpur. Between Lahore and Shikarpur was the city of Multan, where most of the Indian traders came from, who were closely connected with the markets of Central Asia. From 1790 - 1800 Goods worth 50 thousand rubles were exported from Bukhara to Russia. Among them, groceries occupied a special place, such as Indian nuts, spicy medicinal plants, which were delivered through India to Bukhara. It is also known that in Bukhara, for the purposes of trade, Indian merchants occupied an entire merchant quarter. They delivered indigo dyeing spice to Bukhara and asked for 10 chervonets (in silver) for one pood. The number of trade caravans reached 2,000 thousand camels loaded with this dyeing spice.

From Kashgar through Chuguchak and Semipalatinsk, as well as through Kokand, Central Asian traders exported groceries such as thyme, cloves, cinnamon, mint and tea to Russia.

From 1790-1800, Bukhara traders brought groceries to Astrakhan and other Russian cities: cloves, nutmegs, pepper, white, yellow and nutmeg ginger, madder, indigo, and tea.

In the 50s of the 18th century, favorable conditions were created for Central Asian traders in Orenburg by diplomat I.I. Neplyuev. He established low duties on the goods of Bukhara traders, for example, for a pound of indigo spices they asked for 60 rubles. At the end of the 18th - beginning of the 19th centuries, the following grocery goods were delivered from Central Asia to Russia: saffron, pistachios, sultanas and madder, indigo, rhubarb, sandalwood, isparak, cinchona root, pepper, cloves, dried dried apricots, nutmeg, ginger, sugar, green tea, sesame oil and seeds. Also, these groceries were in great demand and were sold out in domestic markets in the cities of the Central Asian khanates, for example; in Tashkent, Kokand, Bukhara and Khiva, etc.

At the end of the 18th – beginning of the 19th century, the dyeing spice isparak was grown in Shakhrisabz and delivered to Bukhara dyers and silk traders. Also in Bukhara, madder, gulimakhsar, and ruzan were grown in order to obtain paint for various craft needs.

REFERENCES:

1. Закирия - ал - Казвини. Чудеса творения или Чудеса сотворенного и диковинки существующего, перевод. Толмачевой. М.А. Текст воспроизведен по изданию: Древние и средневековые источники по этнографии и истории Африки южнее Сахары. Т.
2. Арабские источники. XIII-XIV вв. - Восточная литература. 2002. [Электронный ресурс] URL : <https://www.vostlit.info/>.
3. Шефер.Э.Х. Золотые персики Самарканда. - М: Наука,1981.- С.209 – 236.
4. Сокольский И.Н. Растения из Садов Священного Корана.- Москва : Издательская группа САД , 1-е издание, 2008. - С .72.
5. Темофеев И. Жизнь замечательных людей. Ибн Батута. –Москва: Молодая гвардия, 1983. - С.103 – 104.
6. Буряков Ю. Вульферт Э.Ф. Торговля и предпринимательство Средней Азии в раннем и развитом средневековье. 11.10.2009. [Электронный ресурс] URL : <https://ia-centr.ru/experts/iats-mgu/torgovlya-i-predprinimatelstvo-sredney-azii-v-rannem-i-razvitom-srednevekovye/>.
7. Клавихо Руи де Гонсалес . Дневник путешествия в Самарканд.1990. [Электронный ресурс] URL: <https://www.vostlit.info>. (Дата обращения 14.02.2022).
8. Муминов И. Роль и место Амира Тимура в истории Средней Азии. В свете данных письменных источников. – Ташкент : Издательство Фан УзССР ., 1968. - С.30.
9. Костыгова Г.И. Трактат по каллиграфии Султан-Али Мешхеда. Труды, Государственной публичной библиотеки им. М. Е. Салтыкова-Щедрина, т. 11 (V), Восточный сборник, Л., 1957, стр. 133.
10. Мукминова Р.Г. Очерки по истории ремесла в Самарканде и Бухаре в XVI веке. Ташкент, 1976.- С.32.
11. Мухаммад Ан Наршахи .Бухоро тарихи. История Бухары. Перевод. Ш.С.Камолиддина.- Ташкент: SMIA - SIA, 2011. – 222с.
12. Мукминова Р.Г. Вақф – наме. К истории аграрных отношений в Узбекистане XVI вв.- Ташкент: Издательство Наука, 1966. - 245 – 309с.
13. Белиницкий А.М. Средневековой город. Средней Азии.-Москва: АН.СССР, 1973.- 133с.
14. О путях для торговли России с Азией. - Санкт-Петербург : Издательство, Типография И.И.Глазунова, 1873.С26. 90с.
15. Панков. А.В. К истории торговли Средней Азии с Россией XVI – XVII вв. – Ташкент: Издание Общества для изучения Таджикистана и иранских народностей за его пределами, 1927.- 36с.
16. Титов. А. Сибирь в XVII веке. – Москва: Типография Л. и А. Снегирёвых. Остоженко, Савеловский переулок, собств. дом., 1890- С.186.
17. Тарле Е. В. Русский флот и внешняя политика Петра I. - Москва-Берлин: Браск, 1994.- С.180.
18. Родзевич Г.И. Исследование о чепучинных лекарях // Русская медицина.— 1887.— №14.— С.251 .
19. Шубинский П.П. Бухарские посольства при дворе Екатерины II. Исторический вестник. .- Санкт – Петербург : Типография Суворина.А.С. Эртелев. пер., д.13. . 1 - февраля, 1897. – 9с.
20. Байкова Н.Б. Роль Средней Азии в русско-индийских торговых связях, первая половина XVI- вторая половина XVIII вв. -Ташкент: 1964.- 21-22с.
21. Алекторов А. Торговые пути в Средней Азии// Оренбургский листок. 1890. 17 февраля.
22. Зияев Х.З. Экономические связи Средней Азии с Сибирью в XVI-XIX вв .-Ташкент: 1983. С.107.
23. Михалева Г.А. Узбекистан в XVIII – первой половине XIX века. Ремесло, торговля и пошлины.- Ташкент: ФАН. Академии наук Уз ССР., 1991.- 100с.

**AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHDA OILAVIY QADRIYATLAR, KASANACHILIK
VA QO'L MEHNATINI RIVOJLANTIRISH - YANGICHA YO'NALISH VA ICHKI
MANBALARNI SAFARBAR ETISH
(FARG'ONA VILOYATI MISOLIDA)**

*D.Z.Mirzakhdamova, o'qituvchi, Qo'qon davlat pedagogika instituti, Qo'qon
ORCID:0009-0008-3765-0118*

Annotatsiya. *Farg'ona viloyatida azaldan qo'l mehnatiga asoslangan hunarmandchilik orqali aholi band bo'lib kelgan. Maqola aynan shu viloyatda hozirgi kunda yangicha yo'nalish va ichki manbalarni safarbar etgan holda aholi bandligini ta'minlashda qo'l mehnati va kasanachilik, oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali samarali natijalarga erishilayotganligi, bunda Prezidentimizning qaror va farmonlari, hamda so'rovnomalar va viloyatning shahar, tumanlari hokimliklardan olingan ma'lumotlar asosida yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *Oilaviy tadbirkorlik, uy mehnati, kasanachilik, ipakchilik, supurgi biznesi, yetishtirish, kulolchilik.*

Аннотация. *В Ферганской области с незапамятных времен люди занимались ремеслами, основанными на ручном труде. В статье указано, что эффективные результаты в этом регионе достигаются за счет развития ручного труда и предпринимательства, семейного предпринимательства в новом направлении и мобилизации внутренних ресурсов. Районы охвачены на основе информации, полученной от администраций.*

Ключевые слова: *Семейный бизнес, работа по дому, ведение домашнего хозяйства, шелководство, дело веников, выращивание растений, гончарное дело.*

Abstract. *In Fergana region, people have been busy with crafts based on manual labor since time immemorial. The article states that effective results are being achieved in this region by developing manual labor and entrepreneurship, family entrepreneurship in a new direction and mobilizing internal resources. Districts are covered based on the information received from the administrations.*

Key words: *Family business, domestic work, homemaking, sericulture, broom business, cultivation, pottery.*

Kirish. Farg'ona viloyati qadimdan milliy hunarmandchilik markazidir. Bunda viloyatning qadimdan ilm-fan, madaniyat va ma'rifat markazi bo'lib kelganligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Viloyatdagi Rishton, Marg'ilon, Bo'g'dod, Uchko'prik, Beshariq, Buvayda, O'zbekiston, Qo'qon va boshqa shu kabi tuman va shaharlarida qo'l mehnatiga asoslangan milliy hunarmandchilikning juda ko'p yo'nalishlari shakillanib, rivojlanib, ajdodlardan avlodlarga meros sifatida o'tib kelmoqda.

Farg'ona viloyati O'zbekistonda qo'l mehnatiga asoslangan hunarmandchilikning quyidagi turlari bo'yicha yetakchilik qiladi. Mintaqa hissasi zardo'zlik, kashtachilik, popochilik, chokli buyumchilik (90,2%), kosibchilik (80,9%) pichoqchilik, kandokorlik, temirchilik, tunikasozlik (74,9%), uy ro'zg'or buyumlari yasash (72,3%), gilam, polos, namat to'qish, atlas to'qish, chopondo'zlik, do'ppido'zlik, gazlamaga gul bosish (71,0%), yog'och o'ymakorligi, yog'ochga bezak berish, sandiqchilik, beshikchilik, milliy cholg'u asboblari yasash, eshik-rom yasash, mebelchilik (69,3%), charmdo'zlik, egarjabdug' anjomlari yasash (63,5%), hajmi qoliplarda quyuvchi ustalarning ishlab chiqargan mahsuloti qiymati (51,4%) bo'yicha mintaqaning hissasi miniatyurachi rassomchilik, naqqoshlik va ganch o'ymakorligi, zargarlik bo'yicha 32-37%ni tashkil etadi. Uning hissasi faqat kulolchilik, tandirchilik, chinnisozlik hamda qo'g'irchoqsozlikda birmuncha past xolos [3].

Asosiy qism. O'zbekistonda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishda boshqa tadbirkorlik, sub'ektlari qatorida qo'l mehnati va oilaviy biznes ham muhim o'rin tutadi. Tadbirkorlik faoliyatida kasanachilikdan samarali foydalanish, oila farovonligi va aholi bandligini ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Shu bois, azaldan vorisiylik asosida shakillangan, oilaviy qadriyatlar, urf-odat an'ana va sulolalar faoliyatiga asoslangan

kasanachilik hamda oilaviy tadbirkorlikning yo'lga qo'yilishi natijasida turmushimiz obod va farovon bo'lib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev: “Ayollar uchun doimiy ish joylari yaratish borasidagi muhim masala bilan bir qatorda oilaviy biznes, kasanachilik, hunarmandchilik, tomorqa ho'jaligini keng rivojlantirish ishlari ham oqsamoqda” [1] – deya kuyunchaklik bilan fikr bildiridi. Bugungi kunda respublikamizda oilaviy tadbirkorlik uchun qulay sharsharoit yaratilishi natijasida aholi bandligini ta'minlash ko'lami yanada kengaydi. Agar 2012 yili oilaviy tadbirkorlik hamda hunarmandchilikni rivojlantirish maqsadlari uchun 91,3 mlrd so'm kredit ajratilgan bo'lsa, 2016 yilda ushbu raqam 367,2 mlrd so'mga etgan, aniqrog'i, to'rt barobar oshdi. 2017 yilda yurtimizda 8 mingdan ortiq oilaviy korxonalar mavjud bo'ldi[4].

Marg'ilon azaldan hunarmandlar shahri. Yaqinda bu yerda mohir usta Ibrohimjon Sultonov tashabbusi bilan davlat-xususiy sheriklik asosida Hunarmandlar markazi qurilib, foydalanishga topshirildi. 600 nafar usta faoliyat boshlab, 200 ortiq turdagi atlas va adras to'qish, gilamchilik, maishiy xizmat, tikuvchilik, hunarmandchilik mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Ular tomonidan 2 mingga yaqin xotin-qiz, yoshlar doimiy kasanachilik va doimiy ishga jalb etildi.

Mening eng katta islohotim – har bir oilaning nuri bo'lgan onalarni, xotin-qizlarni rozi qilish. Sizlarning ko'zingizdagi ishonchni, umidni ko'rib baxtiyor insonman. Ayollarni qancha rozi qilsak, Yaratgan bizga kuch-qudrat, yurtimizga tinchlik-osoyishtalik beradi. Butun dunyo pandemiya oqibatida katta qiyinchilikka uchrayapti. Hech kim ishonmagandi, shu sharoitda mana shunday korxonalar ishga tushira olamiz deb. Bu – Farg'onadagi o'zgarishlarning boshlanishi, qaldirg'ochi. Xudo xohlasa, natijalarimiz bundan ham yuqori bo'ladi, – dedi Shavkat Mirziyoyev Marg'ilonga tashrifi chog'ida [5]. Ikki qavatli markazning qo'yi qavatida atlas, adras, shoyi, baxmal, beqasam matolar to'qiladi. Birinchi qavatdan tayyor mahsulotlar ko'rgazmasi, podium, chevarxona o'rin olgan. Bu yerdagi do'konda matoga gul chizish, bog'lash, davra, qad tayyorlash jarayonlari ko'rgazmali tarzda namoyish etiladi. Binoning yuqori qavatida gilam sexi joylashgan. Bu yerda barcha mahsulotlar to'liq qo'l mehnati yordamida, 100 foiz toza ipakdan to'qiladi. Hunarmand Ibrohimjon Sultonovning “Ismoiljon gilamlari” korxonasi mahsulotlari butun dunyoga mashhur. Hunarmandlar markazida ham mahsulotlarning sifati yuqori. Asl ipakka tabiiy bo'yoqlardan gul chizib mato to'qiladi. Shu bois bu mahsulotlarga hozirdan xaridor tayyor. Gilamlar asosan Turkiyaga, atlas, adras matolar AQSh, Italiya, Fransiya, Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston kabi mamlakatlarga eksport qilinadi.

Hozir chevarlarga 3,5 million so'mgacha maosh beriladi. Markaz 600 ishchiga mo'ljallangan, xotin-qizlarning qolgani kasanachilik asosida uyda o'tirib ota-bobolarining an'analari davom ettirayotgan Marg'ilon shahar kosib hunarmandlari milliy hunarmandchilik va xalq amaliy san'atini rivojlantirishga munosib hissa qo'shib kelmoqdalar. “Hunarmand” uyushmasi va “Yodgorlik” firmasida ko'plab mohir ustalar mehnat qilmoqdalar. “Ustoz-shogird” maktablarida mehr bilan kasb-kor o'rgatilmoqda, Marg'ilon atlaslari, adraslari, ipak gilamlari, zargarlik va misgarlik buyumlari jahon ko'rgazmalarida namoyish etilmoqda. Marg'ilon shahrida har yili hunarmandlar va tovar ishlab chiqaruvchilarning an'anaviy ko'rik tanlovlari o'tkazilmoqda. Hozirgi davrda ham Marg'ilonning usta hunarmandlari ajdodlar an'anasini davom ettirib, sifatli, nafis shoyi gazlamalar va atlaslari bilan jahon bozoriga chiqmoqdalar. Ulardan mohir atlaschi Turg'unboy Mirzahmedov, chitgar Solijon Ahmadaliev, zargar Abduhamid Abdujabborovlar BMTning “Xalqaro usta” unvoniga sazovor bo'lganlar.

Farg'ona viloyatining Bag'dod tumanida ham bu boradagi ishlar yaxshi yo'lga qo'yilgan. Tumanda aholi bandligi bo'yicha 2008 yilda uy mehnatiga asoslangan 3000 yangi ish o'ri tashkil etilgan edi. Bu esa korxonalariga hamda kasanachilarga birdek foyda keltirdi. “Bog'dodmahsulotlari”, “Bog'dodpaxtatozalash” aksiyadorlik jamiyatlari, shuningdek 20 dan ortiq tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarida kasanachilar bilan shartnomalar tuzilib, buyurtmalar bo'yicha turli mahsulotlar tayyorlanmoqda. “Nazokat nafis” xususiy korxonasi ana shulardan biri. Bu yerda 2007 yili 60 nafar kasanachi ishga qabul qilingan edi. 2008 yilda qo'shimcha 25nafar xotin-qiz bandligi ta'minlangan. Kasanachilar tayyorlagan mahsulotlar esa asosan xorijiy mamlakatlarga eksport qilinmoqda. Korxonalar tomonidan kasanachilarning manfaatlarini ta'minlashga alohida e'tibor

qaratilmoqda. Kasanachilar 20 turdan ortiq mahsulot ishlab chiqarmoqda, bu ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishning turli tarmoqlari rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bag'dod tumani qalampir etishtirish bo'yicha ham viloyatda yetakchilardan hisoblanadi. Bu yer qalampir yetishtirishning hadisini olganlar yurti. Xonadonlaridagi tomorqada achchiq qalampir yetishtirgan bog'dodliklar bugun uni sanoat darajasiga olib chiqib, mahsulotni qayta ishlash, chetga eksport qilish bilan shug'ullanyaptilar. Bu yo'nalishda tumanda koopersiya va klaster tizimi joriy etilgan. "Aramati Bagdada tomorqa xizmati" MCHJ meva sabzavot mahsulotlarini qayta ishlash bilan shug'ullanadi. Loyiha qiymati 19 milliard so'm bo'lib, shundan 12 milliard so'mi tadbirkorning o'z mablag'i, qolgan qismi bank kreditini tashkil etadi. 105 ta yangi ish o'rinlari yaratilgan. Asosiy faoliyati kooperasiya asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishlash, eksport qilishdan iborat bo'lib, Xitoy davlatidan zamonaviy dastgohlar keltirib o'rnatildi. 1500 tonna sig'imga ega muzlatgich ham mavjud. Koopersiya 2019 yilda tashkil etilgan. Kooperasiyaga ajratilgan yer maydoni bugun tumandagi sektorlar kesimida kam ta'minlangan, ijtimoiy ko'makka muhtoj, "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarga kasanachilik asosida bo'lib berilmoqda. Urug' va ko'chatni yetkazib berish, yerni ekishga tayyorlash kabi ishlar kooperasiya tomonidan bajarilishi yo'lga qo'yildi.

-Boquvchim yo'q, ikki nafar farzandimni o'zim tarbiyalab kelyapman. Kam ta'minlangan oila sifatida "Temir daftar"ga kiritilgandim. Bolalarimni boqish uchun yollanma mehnatdan pul topib, kun kechirayotgandik. Yaqinda kooperasiya tomonidan menga 20 sotix yer ajratib berildi. Mehnat bilan daromad topishga va "Temir daftar"dan chiqishga intilyapman. Bu yil qalampirdan 14 million so'm daromadga ega bo'ldim, -deydi Sharifa To'xliyeva [6]. Tumanning "Mirzaobod" mahalla fuqarolar yig'inida istiqomat qilayotgan 700 ga yaqin xonadon egalari ham asosan qalampir yetishtirish bilan shug'ullanishadi. Yetishtirilgan qalampir qayta ishlash uchun korporasiyaga yetkazib beriladi.

Pandemiya davrida Uchko'priklik kasanachi ayollar uylarida 50 mingga yaqin niqob tikishdi. Uchko'prik tumani Mullazoir mavzesidagi namunali xonadonlarda yashovchi nogironligi bor 10 nafar xotin-qiz kasanachilik faoliyatini yo'lga qo'yish orqali ish bilan ta'minlandi. Ayni paytda ular "Qo'qon" erkin iqtisodiy zonasida faoliyat yuritayotgan "Pipitto" korxonasi buyurtmasi asosida o'z uylarida himoya niqoblarini tikishdi. Tuman mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash bo'limi boshlig'i o'rinbosari Munira Xolmirzaevaning ta'kidlashicha, ayni paytgacha kasanachi ayollar 47 ming dona himoya niqobi tikib, buyurtmachiga etkazib berishgan. Avvalroq uy-joyga muhtoj, og'ir ijtimoiy vaziyatda yashayotgan hamda nogironligi bo'lgan xotin-qizlar Mullazoir mavzesidagi yangi uy-joylarga ko'chib o'tgandi. Arzonlashtirilgan loyiha asosida uy-joylar bilan ta'minlangan, lekin doimiy daromadga ega bo'lmagan va kreditini qoplashga layoqatsiz, biroq kasanachilik bilan shug'ullanish istagidagi xotin-qizlarga tuman hokimligi tomonidan zamonaviy tikuv mashinalari etkazib berilgan.

Farg'ona viloyatining Rishton tumani kulolchiligi bir necha asrlik tarixga ega bo'lib, bugungi kunda ham ham ko'hna xalq amaliy san'ati ytti iqlimda mashhur. Usta kulollar tomonidan tayyorlangan omahsulotlar o'zining dizayni, tabiiy rangi va qalampir nusxali naqshlarga boyligi bilan ajralib turadi. Ayni kunlarda bu an'analar yangi bosqichda davom ettirilmoqda. Kulolchilik hadisini puxta egalalagan Shokirjon Ahmadjonov kulolchilik klasterini tashkil etdi. Qiymati 5 milliard so'm bo'lgan ushbu loyiha ishga tushirilgach, 30 ta doimiy ish o'rni yaratildi. Shuningdek, hududdagi 3 ming nafar aholi kasanachilik asosida ishga jalb etildi.

Rishtonda kulolchilik mahsulotlari sanoat zonasi ish boshladi. Umumiy loyiha qiymati 75,8 milliard so'm bo'lgan 37 ta korxonada 7200 dan ziyod ish o'rni yaratildi. Rishton tumani Navoiy mahallasida joylashgan sobiq "Badiiy kulolchilik zavodi" negizida tashkil etilgan Kulolchilik mahsulotlari sanoat zonasi tanatanali tadbir bilan ish boshladi. Tadbirda ishtirok etgan viloyat hokimi Xayrullo Bozorov davlatimiz rahbarining alohida e'tiborlari tufayli azaldan hunarmandlar yurti bo'lgan Rishtonda kulolchilik jadal rivojlanishga yuz tutganini qayd etib, Prezidentimizning viloyatga tashrifidan so'ng tumanga soha rivoji uchun yana 100 milliard so'm qo'shimcha mablag' ajratilishiga qaror qilinganini ma'lum qildi [10]. 2022 yil fevral oyida viloyat hokimining Rishton tumanidagi o'rganishlar jarayonida hududda kulolchilikni yanada rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilab

olingani. 2022 yil mobaynida viloyat mahalliy byudjeti hisobidan sanoat zonasining ichki yo'llari to'liq asfaltlandi, bundan tashqari sobiq zavod hududida ishlab chiqarish hajmini oshirish, yangi ish o'rinlarini yaratish maqsadida 3,3 mlrd. So'm mablag' ajratilib tabiiy gaz tarmog'i, 340 mln. So'm mablag' yo'naltirilib, elektr tarmoqlari tortildi. Ixtisoslashgan sanoat zonasida umumiy loyiha qiymati 75,8 milliard so'm bo'lgan 37 ta chinni va keramika buyumlari ishlab chiqarish va bezak berish korxonasi tashkil etildi, 7200 dan ziyod ish o'rni yaratildi. Tadbirkor Muhayyo Sattorova tomonidan tashkil etilgan "MM Porcelain" MCHJ shaklida oilaviy korxonasi oilaviy korxonaga qoshidagi chini mahsulotlariga bezak berish sexida bugungi kunda 100 dan ortiq xotin-qizlar doimiy ish bilan ta'minlangan. Shuningdek, 300 ta xonadondan 700 nafardan ortiq ishsiz mahalla ayollari ham kasanachilik asosida ishga jalb etib kelinmoqda. Korxonaga tomonidan 2022 yil 1 million dollarlik chinni buyumlari eksporti amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Shokirjon Ahmadjonov rahbarlik qilayotgan "Mingboshi Keramik" oilaviy korxonasi tomonidan qiymati 10,0 mlrd. so'm bo'lgan investitsiya loyihasi asosida yirik kulolchilik kooperasiya tashkil etilgan bo'lib korxonada 100 nafar doimiy ish o'rinlari bilan birgalikda 3000 nafardan ortiq kasanachilik yo'nalishida o'zini-o'zi band qilish orqali yangi ish o'rinlari yaratilgan[7]. Korxonaga tomonidan joriy yilda Rossiyaning Yekaterinburg shahriga mahsulotlarni yetkazib berish bo'yicha 5 mln. Dollarlik eksport shartnomasi imzolangan. Hozirda bunday ixtisoslashgan sanoat zonalariga tumanning To'da, Dahbed, Dehqonobod va boshqa mahallalarida ham tashkil etilmoqda. Noyob sopollari va koshinlik san'ati bilan dunyoga mashhur Italiyaning Deruta hamda Turkiyaning Iznik shaharlari bilan Rishton tumani o'rtasida 2022 yilda xalqaro hamkorlik aloqalari ham o'rnatildi.

O'zbekiston tumani Farg'ona viloyatida supurgi yetishtirish bo'yicha yetakchilik qiladi. Bu kasb bilan tuman aholisi 20 yildan buyon shug'ullanib keladi. O'zbekiston tumanidagi "Sho'rqishloq" va "G'aniobod" mahalla fuqarolar yig'inidagi mahallalarda supurgi yetishtirish, qayta ishlash hadisini olgan mirishkorlar ko'p. Bug'doydan bo'shagan ekin maydonlariga asosan supurgi ekilib, qayta ishlanadi.

"Sho'rqishloq" MFY yakka tartibdagi tadbirkor Bahrom Sotvoldiyev bu borada ko'pchilikka ibrat. Tadbirkorning sa'y harakati bilan tayyorlangan eng ro'zg'orbop buyum-supurgi ichki bozordan tashqari hattoki qo'shni davlatlarga ham eksport qilinmoqda. Bundan tashqari Moldova, Finlandiyaga ham yetib borgan. Har mavsumda 5 million donagacha supurgi eksport qilamiz, - deydi tadbirkor [9].

Bir dona supurgi tayyor bo'lgunga qadar mahalladagi har bir fuqaro ishtirok etadi. Qo'l mehnati bilan tayyorlanadigan bu jarayonda supurgi besh bora qo'ldan-qo'lga otadi. Yuzdan ortiq aholi bilan tadbirkor uy mehnati va qo'l mehnati bilan tayyorlanadigan supurgi kasanachilik asosida ish olib boradi.

"G'aniobod" MFY "Islom" mahallasida istiqomat qilib kelayotgan tadbirkor O'ktamjon Qahhorov uzoq yillardan beri supurgi yetishtirish bilan shug'ullanib kelmoqda. Uning hikoya qilishicha, "Supurgi jo'xorisi asosan, bug'doydan bo'shagan takroriy ekin sifatida o'stiriladi. Shu kunlarda oilaviy tadbirkorning qo'li-qo'lga tegmaydi, ish qizg'in tumanning aksariyat qishloq aholisi supurgi parvarish bilan mashg'ul. Supurgi ekilgach, 2-3 oy davomida pishib yetiladi, daladan yig'ishtirib olingandan so'ng shu yerda supurgi tozalanib, sidirilib bog'lanadi. Keyin esa uni Rossiya va Qozog'istonga eksport qilamiz" - deydi tadbirkor.

Har yili maydonga supurgi jo'xorisi ekib kelayotgan oila bir yilda 300 ming 400 ming dona supurgi eksport qilishadi. O'rtacha hisobda yillik daromad 60-70 million so'mni tashkil etadi. Tayyor holatga kelgan supurgi hozirgi kun holatiga qarab mahalliy bozorda 10-15 ming so'mgacha sotilmoqda. Supurgi tayyorlash jarayonini kuzatsak, ayni paytda 20-25 nafar ishchi supurgi bog'lahs bilan mashg'ul bo'lsa, kuz va qish faslida 70-80 nafargacha ishchi ishlar ekan. supurgi tayyorlash mavsumi boshlanishi asosan kuz va qish fasllarida qizg'in bo'lar ekan, bu davrda doimiy xodimlar Rossiya va Qozog'istondan qaytib kelishib, yana o'z ish joylarida - oilaviy korxonada supurgi bog'lashadi.

Supurgi biznesi juda daromadli kasb bo'lib, supurgi bozorda sotilsa, poyasini qoramolga beriladi, donini esa qo'yga. Qalin poyani esa tandirda yoqib, non pishirsa bo'ladi. Supurgidan aslo ziyon bo'lmaydi. Bu kasb bilan tumanning ota-bobolari ham shug'ullanib kelishgan bo'lib, oilaviy tadbirkorlikning bu turi avlodlarga ham meros bo'lib kelmoqda.

2020 yilda Farg'ona viloyatida 39 353 ta xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lsa, uning 33307 tasi kichik korxonalar va mikrofirmalardir. Bu mavjud korxonalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) 84,6 foizini tashkil etadi. Mazkur raqamlar korxonalar va mikrofirmalarning faoliyat yuritishi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 16,5 foizga oshganligini ko'rsatmoqda. Eng ko'p kichik biznes sub'ektlari Farg'ona shahriga to'g'ri keladi. Viloyat markazida 5855 ta shunday xo'jalik sub'ektlari faoliyat yuritadi. Ularning shahar iqtisodiyotidagi ulushi sezilarli darajada oshib bormoqda. Shuningdek, bunday ko'rsatkichlar Qoqon shahrida 4494 tani, Marg'ilon shahrida 3641 tani, Uchko'prik tumanida 1742 tani tashkil qiladi. Mazkur kichik korxonalar 5094 tasi 2020 yilning to'qqiz oyi davomida tashkil etilgan ahamiyatga molik. Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tahlil qilinganda, ularning sanoatdagi ulushi 23,9 foizni, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 7,5 foiz, qurilish 6,8 foiz, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 6,3 foizni tashkil qilishi ma'lum bo'ldi [8]. Qolgan sub'ektlar boshqa turdagi xizmatlar bilan shug'ullanadi. Yangi, qo'shimcha mahsulot, ish va xizmatlarning bozorga chiqishi raqobat muhitining rivojlanishi va arzonlashishiga olib keladi.

Xulosa. Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, mahallalarda sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik va chorvachilik faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning faoliyat yuritish sharoitlarini yaxshilash avvalambor ishsizlik darajasi yuqori bo'lgan mahallalarda zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarining ishga tushirilishini jadallashtirish hamda ushbu asosda doimiy ish joylari tashkil etilishini ta'minlash va aholi daromadlarini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "Mahallalarda sanoat hunarmandchilik, kasanachilik va chorvachilik mikromarkazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi [2]. Mahallalarni xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznes markaziga aylantirish, kasanachilik, oilaviy biznesni rivojlantirish yangi ish o'rinlarini tashkil etish orqali aholi turmush farovonligini oshirish asosiy yo'nalishlardan biridir. Halqimizning milliy an'analariga xos bo'lgan kulolchilik, temirchilik kosibchilik, yog'och o'ymakorligi, zardo'zlik, kashtachilik, dehqonchilik, chorvachilikni rivojlantirish orqali oilaviy tadbirkorlikning bir necha turlari rivojlantirilmoqda, buning natijasida yangi ish o'rinlari yaratilmoqda. "Mustahkam oila yili" davlat dasturida yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash, ularning oilaviy biznes, xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilib, imtiyozlar berilmoqda.

Mahallalarda kasanachilik, oilaviy biznes tadbirkorlik va milliy hunarmandchilikni rivojlantirish va kengaytirish hisobiga respublikada jumladan Farg'ona viloyatida yildan yilga yangi ish o'rinlari tashkil etilmoqda [11].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh. M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – b.281.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-331-son qarori.
3. Ma'naviyat 2013 y, 10 iyul chorshanba, 5 bet.
4. Mahkamova F. Oilaviy tadbirkorlik nega oqsamoqda? // Xalq so'zi. 2017 y, 7 iyun. 3-bet.
5. 2020 yil 5 iyun Farg'ona haqiqati. 1-bet.
6. Farg'ona haqiqati. 2020 yil 31 oktyabr, 3-bet.
7. Rishton tumani hokimligi rasmiy veb sayti. 05.19. 2022.
8. Farg'ona viloyat statistika boshqarmasi axborot xizmati. 2020 yil.
9. Mirzakhdamova D Z. Creation of new types of household and employment of the population. Fergana region as an example. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 6053–6056. DOI: <https://doi.org/10.47750/pnr.2022.13.S0.6053-6056> page.
10. Mirzakhdamova D.Z.. O'zbekistonda kasanachilikni rivojlantirishning mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi ahamiyati. O'tmishga nazar, 49-b, 2019, №6.
11. Mahalla 2013 2 fevral, 10 son, 2-bet.

**BUXORODA TURIZMI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY JARAYONLARGA TA'SIRI
(2000-2016-yillar)**

H.S.Murodov, PhD, Buxoro davlat pedagogika instituti, Buxoro

Annotatsiya. Mazkur maqola Buxoroda turizm sohasining rivojlanish bosqichlari va amalga oshirilgan tadbirlar, shuningdek, mehmonxona, turistik firmalar faoliyati va xizmat ko'rsatish sohasidagi o'zgarishlar hamda muammolar kabi muhim masalalarga bag'ishlangan

Kalit so'zlar: O'zbekturizm, turistik firma, "Salom", mehmonxona, Poykent, Talgo, eksport, Konsullik, bronlashtirish, Golden Heritage.

Аннотация. Данная статья посвящена таким важным вопросам, как этапы развития туристической отрасли в Бухаре и реализованные мероприятия, а также изменения и проблемы в сфере гостиничного бизнеса, туристических фирм и услуг.

Ключевые слова: узбекский туризм, туристическая компания, «Салом», гостиница, Пойкент, Тальго, экспорт, Консульство, резервация, Золотое Наследие.

Abstract. This article is devoted to such important issues as the stages of development of the tourism industry in Bukhara and the implemented activities, as well as changes and problems in the field of hotel business, travel companies and services.

Key words: Uzbek tourism, travel company, "Salom", hotel, Poykent, Talgo, export, Consulate, reservation, Golden Heritage.

Turizm sohasi kundan kun taraqqiy etib, sohaviy yangilanishlarni taqazo etayotgan shu bilan birga mamlakat iqtisodiy o'sishi hamda aholi farovonligini yuqori darajaga ko'tarilishida strategik ahamiyat kasb etmoqda. Bu borada O'zbekistonning muhim tarixiy markazlaridan biri bo'lgan Buxoro viloyati ham xalqaro va ichki turizm faoliyati uchun yetakchi hududlardan biridir. Buxoro viloyatida turizmning rivojlanish dinamikasini shartli ravishda 2000-2010-yillar va 2011-2016-yillar kesimida ikki davrga bo'lib tahlil qilindi. Birinchi davrda (2000-2010-yillar) sohadagi eng ijobiy tadbir – Buxoroda ipak va ziravorlar festivalining 2001-yildan boshlab, har yili tashkil etilishi bo'ldi[1]. «Ipak va ziravorlar» festivali o'tgan yillar davomida Buxoroning sayyohlik brendiga aylandi.

2005-yilda viloyatda faoliyat ko'rsatayotgan turistik tashkilotlar 45 ta bo'lib, ulardan 37 tasi mehmonxonalar shundan 34 tasi xususiy mehmonxona va 8 tasi turistik firmalar bo'lib, olib borilgan dasturdagi vazifalarni amalga oshirish orqali 2010-yilda turistik tashkilotlar 66 taga (54 ta mehmonxona va 12 tasi turfirma) yetdi[2]. Buxorodagi turistik tashkilotlar, ya'ni turoperatorlar umuman qoniqarsiz darajada faoliyat yuritgan. Ayniqsa, 2008-yilda mavjud 8 ta turistik firma ro'yxatdan o'tgan bo'lsa-da, lekin amalda faqat ikkita turistik firma «Salom» va «Islomiddin» firmalari uzluksiz o'z faoliyatlarini olib borgan[3]. 2011-2016-yillar ya'ni, ikkinchi davr Buxoroda turizm sohasi rivoji uchun xizmat qilgan o'zgarishlar bilan oldingi davrdan ajralib turadi. Shu bilan bir qatorda soha turli kamchilik va muammolardan ham holi emas edi :

birinchidan, Buxoro viloyatning sayyohlik salohiyatini targ'ib qiluvchi bukletlar, papkalar va har xil tarqatma materiallarini tayyorlash talab darajasida emasligi;

ikkinchidan, «O'zbekturizm» milliy kompaniyasi Buxoro mintaqaviy bo'limining elektron saytlari yaratilmaganligi va Buxoro viloyatining sayyohlik-ekskursion xaritasining ushbu davrdagi ma'lumotlari eskirgani;

uchinchidan, Buxoro shahridagi Sitorayi Moxi Xossa muzeyi, Qorako'l tumanidagi «Poykent» arxeologiya muzeyi va Buxoro shahridagi Labi Hovuz majmuasidan Samarqand darvozasigacha bo'lgan yo'l infratuzilmasi talab darajasida emasligi;

to'rtinchidan, Buxoro shahridagi sayyohlik marshrutlariga kiritilgan barcha obyektlarda zamonaviy tungi yoritkichlarni o'rnatilmaganligi va turistlarga kechki sayr uchun sharoit yo'qligi;

beshinchidan, Buxoro mintaqaviy bo'limi ish faoliyati bilan bog'liq kamchiliklar ham mavjud edi. Ular bo'lim xodimlarining ish shtatlarini to'liq emasligi, qo'shimcha ish o'rinlariga zaruriyat mavjudligi, ish jarayonida kerakli internet xarajatlari uchun smetadagi mablag'lar yetishmasligi,

barcha xodimlar kompyuter va printerlar bilan ta'minlanmaganligi kabi o'ndan ortiq kamchiliklar edi[4]. Bu kabi muammolar Buxoro turizmining rivojlanishiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi.

Mazkur davrda sohada ijobiy siljishlar, yutuqlar ham mavjudligi quyidagi tarmoqlarda namoyon bo'ladi:

Buxoro aeroporti kam hajmli va ba'zi servis xizmatlarini ta'minlashda muammolar mavjudligini ko'rsatdi. Bu borada 2011-yilda Buxoro aeroportida yangi terminal barpo etilib, natijada 400 yo'lovchiga xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'ldi[5]. Yangi binoda milliy an'analarda bezatilgan VIP, SIP zallari va ko'plab xizmatlar yo'lga qo'yildi.

2015-yildan boshlab, sayyohlarga qulaylik yaratish uchun viloyatdagi turistik firmalar tomonidan temir yo'l chiptalarini oldindan bronlashtirish tartibi joriy etilishi va 2016-yildan Buxoroda Tashqi ishlar vazirligining Konsullik bo'limi ochilgani muhim ahamiyatga ega bo'ldi[6].

Turistlarga transport xizmatini yaxshilash maqsadida 2016-yilda «Buxoro» temir yo'l vokzalining 800 yo'lovchiga xizmat ko'rsatadigan yangi binosi ishga tushirildi. Shuningdek, 2016-yil Toshkent – Buxoro yo'nalishida yuqori tezlikda harakatlanuvchi Ispaniyaning «Talgo» kompaniyasi tomonidan ishlab chiqarilgan Afrosiyob elektr poyezdining ilk qatnovi yo'lga qo'yildi. Bu sayyohlar sonining sezilarli darajada o'sishiga ta'sir qildi. Bu o'z navbatida uy mehmonxonalarining sonini ko'payishida muhim omil bo'ldi.

Buxoroda turizm sohasining rivojlanishi unga aloqador tarmoqlarda ham o'zgarishlarga ijobiy ta'sir qildi. Ayniqsa, xizmat ko'rsatish sohasida birinchi davr – 2000 – 2010-yillarda Buxoro mintaqaviy bo'limining sayyohlik tashkilotlari tomonidan jami xizmat ko'rsatish hajmi 2000-yilda 860 314,9 ming so'm bo'lsa, 2010-yilga kelib, o'sish tendensiyasi qariyb 10 barobarni, ya'ni 8 344 884 million so'mni tashkil etdi. Ushbu davrda xizmatlar eksporti 2801,1 ming AQSH dollaridan 4021,9 AQSH dollariga yetdi[7]. Ikkinchi davr – 2011 – 2016-yillar oxirlarida esa, ya'ni 2015-yilda Buxoro viloyatiga jami 120 000 ta xorijiy sayyoh tashrif buyurib, ularga ko'rsatilgan eksport xizmatlari hajmi 53,6 million AQSH dollarini tashkil etdi[8]. Mazkur davrda xususiy joylashtirish vositalari, turistik firmalar sonining ko'payishi barobarida ularning viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'rsatgan ta'siri oshishi bilan shahar infratuzilmasidagi (elektr energiya, suv, yo'llar) bir qator muammolarni ijobiy hal etilishida alohida ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, sayyohlarga ko'rsatiladigan servis xizmatlarida ijobiy o'zgarishlar yuz bergan. 2013-yilda «Ko'kaldosh» madrasasida sayyohlar uchun velosipedlar ijarasi yo'lga qo'yildi. Sayyohlar bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun nafaqat turistik tashkilotlar balki Xalqaro «Oltin meros» xayriya jamg'armasi tomonidan 2013-yildan «Ko'kaldosh» madrasasi hududida musiqiy merosimizni targ'ib qilish maqsadida milliy uslubdagi «Golden Heritage» (Oltin meros) choyxonasi tashkil etildi. 2013-yilda ovqatlanish bilan birga milliy an'ana va kiyimlar namoyishi, konsert dasturlarini tashkillashtiruvchi ikkita restoran (G'ulomjon karvonsaroyida «Adras» va Ko'kaldosh madrasasida «Ko'kaldosh») o'z faoliyatini boshladi. 2013-yilga qadar bunday xizmat ko'rsatuvchi restoran faqatgina bitta edi. 2014-yilda Buxoro shahrida kichik «Atlantic pool» akvaparki, «Grand Bowling» bowling zallari tashkil etildi[9] va faoliyat yuritmoqda.

Vazirlar Mahkamasining 2014-yilning 13-martdagi 60-sonli «Turizm faoliyatini amalga oshirish va litsenziyalash tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qaror turizmga xizmat ko'rsatuvchi subyektlarga keng imkoniyatlar yaratdi. 2014-yil davomida Buxoro viloyatida 15 ta xususiy yangi mehmonxonalar ishga tushishi natijasida sayyohlarni joylashtirish vositalarida 220 ta o'rin joy va 42 ta yangi ish o'rinlari yaratildi. Mehmonxona va boshqa joylashtirish vositalari obyektlari soni 2014-yilda jami 85 ta, 2015-yilda esa 12 taga ko'payib jami 97 taga yetdi. Ushbu davrda sayyohlarni joylashtirish vositalaridagi o'rin joylar soni 2,8 mingdan 2,9 mingtaga yetdi. Buxoro turizmida sayyohlik mavsumidagi asosiy muammolardan biri o'rin joy yetishmovchiligi masalasi bo'lib, bu borada Samarqand viloyatidagi mehmonxonalar va ulardagi o'rin joylar soni bilan taqqoslaydigan bo'lsak, 2014-yilda Samarqandda 97 ta mehmonxona va ulardagi o'rin joylar soni 5,1 mingtani tashkil etgan[10]. 2014-yil Buxoro mehmonxonalariga 98,9 ming, Samarqand mehmonxonalariga esa 136,6 ming sayyoh joylashgan. Bunday tafovutning sababi, birinchidan, Buxoroda joylashtirish vositalari va ulardagi joylar sonining yetarli emasligi; ikkinchidan, yuqori toifali mehmonxonalar va ulardagi sifatli xizmat ko'rsatish darajasining cheklanganligi (sayyohlar

eng ko'p joylashadigan 4 yulduzli mehmonxona Buxoroda atigi 3 ta, Samarqand va Toshkentda esa 12-13 tani tashkil etgan); uchinchidan, Buxoroda madaniy hordiq chiqaradigan obyektlar (Yevropa taomlari oshxonalar, teatrlar, sport va boshqa zallar, akvoparklar, bog'lar, favvorali maydonlar, suv havzalari) soning juda kamligi edi. Buxoroda sayyohlik tashkilotlari soni o'sishi bilan sayyohlarga xizmat ko'rsatish sifati ham ijobiy tomonga o'zgarib borgan. 2016-yilda Buxoroda jami sayyohlik tashkilotlar 130 ta bo'lib, shundan mehmonxonalar soni 92 tani tashkil etgan. Buxoro mehmonxonalar bir kunda 4500 dan ortiq sayyohlarga[11] xalqaro me'yorlar darajasida xizmat ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lgan.

Nullas, Buxoroda turizm sohasining rivojlanish bosqichlari va amalga oshirilgan tadbirlar va unga aloqador tarmoqlardagi o'zgarishlarga ijobiy ta'sir qildi. Mazkur davrda xususiy joylashtirish vositalari, sayyohlik firmalar sonining ko'payishi, ularning viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga bo'lgan ta'siri oshib bordi. Turizm tashkilotlari tomonidan xalqaro standartlar darajasidagi xizmat ko'rsatish va servis xizmatlarini yo'lga qo'yila boshlanishi, shahar infratuzilmasidagi (elektr energiya, suv, yo'llar) muammolarni ma'lum darajada hal etilishi natijasida Buxoroda shahar va turizm infratuzilmasining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. BVDA, M-1503-fond, 1-ro'yxat, 39-yig'ma jild, 106-108-varaqlar.
2. BVDA, M-1503-fond, 1-ro'yxat, 27-yig'ma jild, 346-varaq.
3. BVDA, M-1503-fond, 1-ro'yxat, 8-yig'ma jild, 43-45-varaqlar.
4. <https://www.uzairways.com/uz/yaratilish%20tarixi>
5. BVDA, M-1503-fond, 1-ro'yxat, 29-yig'ma jild, 16-21-varaqlar.
6. BVDA, M-1503-fond, 1-ro'yxat, 27-yig'ma jild, 346-varaq.
7. BVDA, M-1503-fond, 1-ro'yxat, 39-yig'ma jild, 591-varaq.
8. BVDA, M-1503-fond, 1-ro'yxat, 27-yig'ma jild, 394-varaq.
9. O'zbekistonda turizm. Statistika to'plam. Toshkent, 2018. – B. 70-71.
10. BVDA, M-1503-fond, 1-ro'yxat, 42-yig'ma jild, 225-varaq.
11. BVDA, M-1503-fond, 1-ro'yxat, 29-yig'ma jild, 17-21-varaqlar.

UO'K 9(575.3)

XX ASRNING 70-80 YILLARIDA BUXORO VOHASINING ANTIK VA ILK O'RTA ASRLAR DAVRI MODDIY MADANIYATINING O'RGANILISHI

A.T. Ochilov, dots., PhD, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Buxoro vohasi moddiy madaniyati hamda hududda kechgan tarixiy jarayonlarni o'rganish maqsadida bir qancha arxeologik tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ushbu maqolada ham aynan XX asrning 70-80 yillarida Buxoro tarixini o'rganish maqsadida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar va ularning natijalari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Buxoro vohasi, moddiy madaniyat, arxeologik tadqiqotlar, shaharsozlik madaniyati, qishloq tipidagi manzilgohlar, Varaxsha.

Аннотация. С целью изучения материальной культуры Бухарского оазиса и исторических процессов в этом районе было проведено несколько археологических исследований. В данной статье проанализированы археологические исследования и их результаты с целью изучения истории Бухары 70-80-х годов 20 века.

Ключевые слова: Бухарский оазис, материальная культура, археологические исследования, градостроительная культура, поселения деревенского типа, Варакша.

Abstract. In order to study the material culture of the Bukhara oasis and the historical processes in the area, several archaeological studies have been carried out. In this article, the archaeological researches and their results were analyzed in order to study the history of Bukhara in the 70s and 80s of the 20th century.

Key words: Bukhara oasis, material culture, archaeological research, urban development culture, village-type settlements, Varakhsha.

Kirish. Moddiy-madaniyat ashyolar Buxoro vohasida antik va ilk o'rta asr davrida tarixiy jarayonlar bir qancha shiddatli kechganini ko'rsatadi. Voha shu davrdan boshlab O'rta Osiyodagi

yirik tarixiy-madaniy o'lkalardan biriga aylanib, umumbashariyat madaniyatiga qo'shgan munosib hissasi tufayli jahon tarixida o'chmas iz qoldira boshladi.

Ammo, Buxoro tarixining eng dolzarb muammolardan biri arxeologik manbalar asosida tarixiy jarayonlarni tiklash xususiyatlari hanzuz echilmagan muammolar sirasiga kiradi. Ayniqsa, Buxoro vohasining antik va ilk o'rta asrlar davri tarixini o'rganish va u bilan bog'liq bo'lgan davrlashtirish masalalari ko'pchilik mutaxassislarni qiziqtirib kelmoqda. Shuning uchun ham antik va ilk o'rta asrlar davri arxeologiya manbalari asosida tarixiy jarayonlarni tiklash xususiyatlarini o'rganish maqsad qilib olindi.

Vohada antik va ilk o'rta asrlar tarixiga doir arxeologik yodgorliklarni o'rganish 1970 yillarda yangi bosqichga chiqqan edi.

Asosiy qism. XX asrning 70-yillarida akademik A.R.Muhammadjonov rahbarligida "Qiziltepa tumani tarixiy va madaniy yodgorliklarining majmuini tuzish" mavzusi ustida tuman hududida qidiruv ishlarini o'tkazish natijasida 58 ta yodgorlik qayd etiladi[1]. Bu yodgorliklarning aksariyati ilk o'rta asrlarga taaluqli bo'lib, asosan aholi yashashi uchun qulay bo'lgan suv havzalari bo'yida joylashgan.

1973 yil arxeologik dala tadqiqotlari mavsumida Zarafshon arxeologik otryadi Buxoro viloyati Romush qishlog'ining arxeologik joylarini dastlabki o'rganishni amalga oshiradi. Romush qishlog'ining shimoliy qismida ikkita katta tepalik kuzatilgan. Markaziy tepalik Shayxi-Kalon deb nomlangan. Rejada u shimoldan janubga cho'zilib, uzunligi 130x90 m. yo'naltirilgan. Ikkinchisi - Gulisangtepa birinchisidan g'arbda joylashgan. Uning sharqiy qiyaligi pastki tepada markaziy tepalikning janubi-g'arbiy burchagi bilan birlashgan. Shayxi-Kalonning taxminan 60-70 m janubi-sharqida balandligi 3-4 m, kengligi 50-70 m uzunligi 150 metrdan ortiq bo'lgan Xo'ja Romushning baland bo'lmagan tepaliklari kuzatilgan. Bu vaqta Xo'ja Romush mozorga aylantirilgan bo'lgan. Uning ustki qismida mozor qabrlarni ko'rish mumkin bo'lgan, markazida esa ikkita tug' o'rnatilgan.

Markaziy tepalikning shimolida 90-100 m uzunlikdagi, kengligi 50 m, balandligi taxminan 1,5 m, g'arbdan sharqqa cho'zilgan yana bir pasttekislik joylashgan. Bir vaqtning o'zida barcha to'rt tepalik bitta tizimga joylashgan. Markazda eng baland tepalik ko'tarilib, perimetri bo'ylab katta imoratlar, shuningdek, turar-joy va ishlab chiqarish massivlari qurilgan. Xo'ja Romush va Shayxi-Kalon shimolidan bir-biri bilan bitta mudofaa tashqi devori orqali ulangan. Shunday qilib, o'lchami 300x300 m dan kam bo'lmagan qadimiy aholi punkti shakllangan. 1973 yildagi dala mavsumida Gulisangtepada ikkita kichik qidiruv ishlari olib borilgan. Olingan sopol materiallar miloddan avvalgi IV-III asrlarga oid bo'lgan. Butun strigrafik qatlamlar va ularning tarkibidagi materiallar besh bosqichga ajratilgan. Xronolik jihatdan Romush I va Romush II ga bo'lingan. Binobarin, qadimgi Buxoro vohasidagi eng yirik hisoblangan Romushtepa qadimgi turar joyi miloddan avvalgi IV asr oxiri – III asr boshlaridan eramizning IV asrigacha doimiy ravishda bir joyda joylashganligini aytish mumkin[2].

Buxoro vohasidagi eng qadimgi shaharlardan biri Romiton hisoblanadi. Uning poydevoriga afsonaviy Turon Afrosiyob shohi asos solingan deyiladi. 1972 yil mavsumida Zarafshon otryadi qadimiy shaharni o'lchash va qazish ishlarini olib boradi, uning markazida stratigrafik shurf yotqiziladi. Tepalik murakkab konfiguratsiyaga ega bo'lgan. Relif shimoldan janubga tushib keladigan 4 sathdan iborat. Otryad xodimlari 1972 yilda shahriston hududida so'nggi davrda aholi istiqomat qilgan turar joylarini topadilar, bu vaqtda shaharning juma masjidi o'z ishini davom ettirgan va shahristonning ochiq maydonida juma bozori tashkil etilgan.

Aholi punktini qazish paytida olingan materiallar kam. Ular to'rtta xronologik ketma-ket komplekslarga bo'lingan: Romitan 1, 2, 3, 4. Arxeologik jihatdan tanib olinadigan narsalardan Romitan 1 qatlamlarining eng past qismidan 20 dan ortiq sopol parchalari topilgan. Romitan 2 sopol guruhi yanada ko'proq. Bu yerda kulolchilik charxida ishlangan oshxona sopol idishlari uchraydi.

Shunday qilib, Romitan materiallarining strigrafik ustuni, xronologik jihatdan 4-6 asrlarga to'g'ri keladi. 6-asrga kelib Shahriston devorlari quriladi 6-7 asrlardan boshlab Buxoroning kuchayishi bilan Turk xoqonligi davrida Romitan, katta shahar sifatidagi ahamiyatini yo'qotadi. Romiton hududida 2 ta mis tanga topiladi. Old tomonida hukmdorning oy bilan tasvirlangan profil

tasviri, orqa tomonida Sug'd yozuvi joylashgan. Ushbu turdagi tangalar 3-4 asrlardagi Buxoro vohasi hukmdorlari tangalariga tegishli bo'lgan[3].

1970 yilda Moskva Restavratsiya Instituti va O'zbekiston FA Arxeologiya instituti qo'shma ekspeditsiyasi Varaxshaning "Ko'k mehmonxona" deb nomlanuvchi qismidagi ishlaridan boshlanadi. 1975—1977 yillarda A.Muhammadjonovning Varaxshadagi qazishmalari jarayonida shahar yoshi haqidagi Narshaxiy malumotlarini tasdiqlaydigan miloddan avvalgi V—IV asrlarga oid ashyolarining topildi. Shu yillari yani, 1975-1977 yillarda Konimex tumanida miloddan avvalgi VI-V asrlarga oid Chordara ko'hna shahri, Qumrabod I, Qumrabod II, Aroban I, Arabon II kabi mustahkamlangan manzilgohlar tadqiq eitlgan[4]. 1977 yilda O'zR FA instituti o'triyadi A.R.Muhammadjonov boshchiligida Buxoro vohasining arxeologik yodgorliklarini o'rganish jarayonida Lyavandoqtepa, Oqsochtepa, Toshobod I va II, Qorovultepa va Kampirdevolning mudofaa tizimlari o'rganildi.

1977-1979 yillarda O.V.Obelchenko tomonidan Varaxshada tadqiqotlar olib boradi. 1977 yilda akademik A.R.Muhammadjonov rahbarligidagi ekspeditsiya «Qiziltepa tumani tarixiy va madaniy yodgorliklarining majmuini tuzish» mavzuida tuman hududida qidiruv ishlarini o'tkazdi. Ekspeditsiya azolari P.Valiev, K.Abdullaev, R.Abdirimovlar tomonidan 58ta yodgorlik (qadimgi qurilish inshootlari qoldiqlari) qayd etildi. Xoja Bo'ston, Shahri Vayron, Oqsochtepada dastlabki qazuv tadqiqotlari o'tkazildi. Oradan 10 yil o'tib, Y.P.Manilov va R.Abdirimov ro'yxatga olingan yodgorliklarda qayta tadqiqot o'tkazib, tuman yodgorliklarining masshtab xaritasini tuzishdi[5].

1981 yilda O'zSSR Fanlar akademiyasining Arxeologiya institutining Buxoro bo'linmasi A.R.Muxamedvanov boshchiligida Poykendning stratigrafik o'rganish maqsadida statsionar ishlar olib boriladi. Bundan tashqari, ikkinchi Shahrison va shahar atrofidagi hududda 10-asrga oid kulolchilik o'choqlarini qazish, o'lchash va tozalash ishlari olib borilgan.. Shaharning sharqiy chekkasida joylashgan Kuxendizda 5,5 x 4,3 m chuqurlikdagi qazish ishlari olib borilib, uning paydo bo'lish vaqtini, shahar tarixining turli bosqichlarida o'zgarib kelgan madaniy qatlamlarning aniqlash uchun foydalaniladi. Natijada Kuxendizning vujudga kelish davri aniqlandi va uning mustahkamlanish vaqti haqida muhim ma'lumotlar olinadi.

A.Y.Yakubovskiy tomonidan ishlab chiqilgan dasturga muvofiq 1981 yilda Poykend otryadi Shahrisonning g'arbiy yarmidagi shahar devorlarini o'rganishni boshlagan. A.Y.Yakubovskiy ta'kidlaganidek, Shahrison II ilk Shahrisonning g'arb tomon kengayib borishi natijasida vujudga kelgan. Maydoni 7 ga. Rejada u to'rtburchak shaklida bo'lib, Shahrison II atrofidagi devorda kamida uchta darvoza bo'lgan. Ba'zi natijalarni umumlashtirish uchun, Poykend shahridagi Shahrison II mudofaa tuzilmalari ilk marotaba o'rganiladi. Devorlarni qayta tiklash davri noaniq bo'lib qoladi. Shunga qaramay, ushbu tadqiqotlar O'rta Osiyo istehkomlari tarixi uchun bir qator ma'lumotlarni bergan[6].

Buxoro vohasining antik va ilk o'rta asrlar davrini arxeologik o'rganilishi tarixida G.L.Semenovning ham o'rni kattadir[7]. 1981 yilda Rossiyaning Davlat Ermitaji, O'zFA Arxeologiya instituti, Moskvadagi Sharq xalqlari san'ati institutining xodimlari bilan birgalikda Poykend va Buxoro vohasining turli arxeologik yodgorligida qazishma ishlarini boshlab yubordilar. Keyinchalik Poykenda olib borilgan arxeologik izlanishlar bo'yicha yillik hisobotlar har yili alohida kitob tarzida e'lon qilinadigan bo'ldi.

1986–1991 yillarda Moskva Sharqiy muzeyidagi guruh Varaxsha makonidagi keng ko'lamdagi tadqiqotlar olib boradi. Bu ishlarga G.V.Shishkina rahbarlik qildi. Ammo yodgorlikning yo'qolib ketishi mumkinligi sabab tadqiqot ishlari chegaralangan tarzda olib borildi. Keyingi tadqiqotlarda aniqlanishicha, makonning g'arbida "ayvon" qismining topilishi vatadqiqotlar natijasi Varaxshaning tarixda uch bosqichga oid ekanligi aniqlanadi. Ammo, 1991 yilga kelib tadqiqotchilar Varaxshada amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlarida katta muammolarga duch keladi va tadqiqotlar to'xtatiladi.

Xulosa. Qadimgi Buxoro vohasining antik va ilk o'rta asrlar davri tarixini va arxeologik yodgorliklarini chuqur, har tomonlama mukammal o'rganish Buxoro vohasi tarixini aniq va ravshan yoritishda muhim hisoblandi. Ayniqsa, voha tarixining eng qadimdan arablar istilosigacha bo'lgan davrini ochib berishda XX asrning 70-80 yillarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar muhim

ahamiyat kasb etti. Shu davr ichida qo'lg'a kiritilgan arxeologik materiallar asosida voha tarixini davrlashtirish masalasida bir qancha ilmiy ishlanmalari taklif qilindi. Har bir izlanuvchi o'zi olib borgan tadqiqot materialidan kelib chiqqan holda, ma'lum davrlashtirish konsepsiyalarini taklif qilganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Мирзаахмедов Ж.К., Одилов Ш., Пардаев М.Х., Мақсудов Р. Қизилтепа қадимиятидан лавҳалар. - Тошкент, 2002. -Б.4-5.
2. Сулейманов Р.Х., Ураков Б. Результаты предварительного исследования античного городища селения Рамиш // ИМКУ. -Ташкент: Фан, 1977. - Вып.13. - С.55-65.
3. Сулейманов Р. Х. Результаты предварительного изучения городища Ромитан // ИМКУ. - Ташкент: Фан, 1984. - Вып.19. -С.118-130.
4. Мухумаеджанов А.Р., Валиев П.С. О работах Бухарского отряда // АО 1976 года. - М.,1977. - С. 535-536.
5. Мирзаахмедов Ж., Одилов Ш., Пардаев М., Мақсудов Р. Қизилтепа қадимиятидан лавҳалар. – Тошкент: А.Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти, 2002. – Б.4-5.
6. Мухамеджанов А.Р., Семенов Г.Л. Исследование городских стен Пайкенда (результаты работ 1981 г. на шахристане II) // ИМКУ. – Ташкент: Фан, 1984. - Вып.19. - С.130-153.
7. Семенов Г.Л. Согдийский город V-XI вв. Формирование плана (по материалам Пайкенда вв Бухарском оазисе и Ак-Бешима в Семиречье). Диссертация в виде научного доклада на соискание ученой степени доктора исторических наук. - Санкт-Петербург, 2002.

UO'K: 94:327(584.4)

BUXORO AMIRLIGIGA QARSHI ROSSIYA IMPERIYASINING BOSQINCHILIK SIYOSATIGA GENERAL JO'RABEKNING MUNOSABATI

Sh.Sh.Parmonov, o'qituvchi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olish uchun olib borilgan harakatlari, Buxoro amiri amir Muzaffarning ruslarga qarshi harakatlari, Rossiya tajovuziga qarshi mahalliy beklar Jo'rabek Bobobek Abdumalik to'raning mardonovar harakatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, Rossiya imperiyasi, Turkiston, Xiva va Qo'qon xonliklari, Shahrisabz va Kitob beklilari, Amir Nasrullo, Amir Muzaffar, Bobobek, Jo'rabek, Abdumalik to'ra

Аннотация. В этой статье рассматриваются действия Бухарского эмирата за завоевание Российской империей, действия бухарского эмира Амира Музафара против русских, доблестные действия местных Беков Джурабека Бабек Абдумалика туры против российской агрессии.

Ключевые слова: Бухарский эмират, Российская Империя, Туркестан, Хивинское и Кокандское ханства, Шахрисабзское и Китабское бекства, Амир Насрулла, Амир Музаффар, Бабобек, Джурабек, Абдумаликтора

Abstract. this article will talk about the actions of the emirate of Bukhara for the conquest by the Russian Empire, the actions of Emir Muzaffar of Bukhara against the Russians, the actions of the local beks Zhurabek Bobobek Abdumalik toara against Russian aggression.

Key words: emirate of Bukhara, Russian Empire, Turkestan, Khiva and Kokand khanates, Shahrisabz and Kitab beks, Amir Nasrullo, Amir Muzaffar, Bobobek, Jorabek, Abdulalik to'ra

Kirish. 1868 - yilga kelib Buxoro bilan aloqalar uzilgan, Shahrisabz va Kitob beklilari mustaqillik kayfiyatida hukm surayotgan edi. XIX asrning ikkinchi yarmi boshlarida Turkiston Xiva, Buxoro va Qo'qon xonliklariga bo'linib qolgan edi. Ular o'rtasida uzoq vaqtlar davomida dushmanchilik kayfiyati hukm surib keldi. Biri ikkinchisi hisobiga chegarasini kengaytirish, ikkinchisi uchinchisi mulklarini talash bilan mashg'ul bo'lib, yagona vatan, ona-yurt haqida mutlaqo o'ylab ko'rilmadi. Xonliklarning har birida ichki nizolar g'ovlab ketgan edi. Toju-taxt bilan bog'liq saroy fitnalari emas, viloyatlarda urug'lar ham yovlashish darajasiga kelib qolgan edi. Qadim Turkistonning avvalgi shukuhi, harbiy qudrati zaiflashib bormoqda edi[1]. Amir Nasrullodan ichki ixtiloflardan chok-chokidan sukilib borayotgan, iqtisodiyoti izdan chiqqan, boshboshdoqlik avj olgan amirlikka meros bo'lib qolgan edi. Uzoqni ko'ra bilmaslik, aysh-ishratga berilish, taxtim omon bo'lsa

bas qabilida hukm surish mamlakatni jarlik yoqasiga keltirib qo'rgan edi. Amir Muzaffar amirlikda qattiq o'rnashib qolgan urug'bozlik o'yinlariga mahalliy hokimlar va biylarning o'zboshimchaligiga, bir so'z bilan aytganda, ichki hokimiyat talashuvlariga barham bera olmadi[2]. U ham ixtilof, nizoni bartaraf etishni birdan-bir yo'li qo'shin tortish, qal'alarni yakson qilish, deb bildi. Bu usuldagi vaxshiyona qon to'kish usuli mang'itlar sulolasi hokimiyatga kelgandan buyon muntazam amalda bo'lib kelgan bo'lsada, samarasiz ekanligi mutlaqo o'ylab kurilmagan edi. Vohada olib borilgan harakatlar natijasida Shahrisabzda Bobobek, Kitobda Jo'rabek hokim bo'lib qoladi. Jo'rabek dodxoh bek bo'lgach, u Kitobning qayta obod bo'lishiga katta hissa qo'shadi. U ayniqsa yo'l qurilish, savdo sotiq ishlariga e'tibor beradi.

O'sha vaqtlarda Kitob, Shahrisabz bozorlarida hind, afg'on mollari sotilgan. Madrasalar qurilib, cho'llarga suv chiqarilgan, dehqonchilik rivojlangan, Jo'rabek xalqni og'ir soliqlardan ozod qilgan. Jo'rabek Kitobning aholisi zich joylashgan qishloqlari va markazini, uch xalqa mudofaa devorlari bilan o'rab olingan joylarini ta'mirlaydi. Eng chetki xalqa Qashqadaryo va Oqsuv daryolari qirg'oqlari yoqalab o'tgan. Bu esa yov bosqinini daf qilish uchun qulaylik tug'dirgan. So'nggi xalqadan tashqarida qal'a va kuzatuv tepaliklari joylashgan. Buxoro amirlari bu tepaliklarga biror marta ham jiddiy shikast yetkaza olmagan. Jo'rabek amir sarbozlarini bir o'zi galma-gal yigirmata miltiq bilan o'qqa tutgan. Bu davrda amir Muzaffar mamlakatni nihoyatda qiyinchilik bilan boshqargan. Hatto uning o'z o'g'li katta to'ra Abdumalik Qarshida mustaqillik bayrog'ini ko'targan[3].

Ikkinchi tomondan Buxoro hududiga rus qo'shinlari yaqinlashmoqda edi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Xerman Vamberi "O'rta Osiyo bo'ylab sayohat" asarida Buxoro aholisi Xiva aholisidan son jihatidan bir necha barobarga ko'pdir va buxoroliklarning Xivani shu paytgacha bosib ololmaganligini faqat va faqat o'zbeklarning mardligi bilangina izohlash mumkin. Mening eshitishimcha, Olloqulixon birinchi bo'lib o'z elchilarini Buxoro va Qo'qonga yo'llab, Rossiya tomonidan bo'layotgan tajovuz xavfining oldini birgalikda olish taklifini qiladi. Buxoro bu taklifni olgach, uni rad etibgina qolmay, balki ruslar tomonga og'ib ham ketadi. Qo'qon taklifni qabul qiladi va Buxoro bilan urush holatida bo'lgan Shahrisabz va Hisor ham ularga qo'shiladi[4]. Lekin ittifoq yaxshi niyatligicha qolib ketadi.

Muxokama va natijalar. Turkiston viloyatining harbiy gubernatori qilib tayinlangan general Chernyayev 1866 -yil yanvar oyida Buxoro amirligining bo'yso'ndirish uchun unga qarshi e'lon qilinmagan urush boshladi. Uning qo'mondonligi ostida qo'shinlar Jizzax tomon o'tlandilar. Bu habarni eshitgan amir Muzaffar o'zi taxtga qayta o'tkazgan va ta'sirida deb hisoblangan. Qo'qon xoni Xudoyorga ruslarning yo'lini to'sishni buyurdi. Xudoyorxon esa Rossiya bilan to'qnashishdan qo'rqib, amir Muzaffarning farmonini bajarmadi. Rus istilochilari Buxoro amirligiga qarshi urush harakatlarini ikki harbiy mavsumda 1866-1868-yillarda o'tkazadi. 1866-yilda olib borilgan istilochilik bosqinlari oqibatida amirlikning O'ratepa, Jizzax va Yangi Qo'rg'on singar hududlari Rossiya tarkibiga kiritiladi. Ikkinchi harbiy mavsumda 1868-yil qirg'inbarotida esa Samarqandning olinishi, amir qo'shinlarining Zirabuloqda uzil-kesil, tor - mor etilishi sodir bo'ladi.

1866-1867-yillarda Chor qo'shinlari Jizzaxga qarshi yurish boshlagan davrda Bobobek va Jo'rabek o'zaro maslaxatlashib. Amir Muzaffarga yordam berishga, o'z qo'shinlari bilan yovga qarshi o'tlanishga ahd qiladilar.

Mirzo Abdulazim Somiyning "Tarixi Salotini Mang'itiya" asarida ko'rsatilishicha, rus qo'shini Jizzaxdan Samarqandga borish yo'lidagi Soybo'y qal'asida turganida[5], Buxoro lashkari G'ishtko'prik degan joyda jang hozirligini ko'rardi. Amir Muzaffar ish ko'rgan, aqlli sardor Shukurbiy inoqni lashkarboshi qilib tayinlaydi. Shu orada Shahrisabzdan Hakimbek Kitobdan Jo'rabek boshchilgida ikki ming sarboz yordamga keladi. Shahrisabz va Kitob beklari Shukurbiy inoqqa noma yo'llab, "yurtga yov kelganda amir bilan bizning ixtilof qilib turishimiz to'g'ri bo'lmas, dushmanga qarshi ittifoq bo'lib jang qilaylik, bizni amir bilan yarashtirib qo'ning", degan taklifni qiladilar. Shukurbiy inoq beklar gapini ma'qullaydi va ularga joy tayin qiladi. Biroq, ayrim uzoqni ko'ra bilmaslar Shukurbiy inoq mavqeyining oshib ketganidan hasad qilib amirga Shahrisabz va Kitobdan kelgan yordam mohiyatini teskari tushunadilar go'yo Shukurbiy inoq kenagaslar bilan birikib, amirga qarshi fitnaga qo'l urgan emish. Kenagaslar desa yurak hovuchlaydigan bo'lib qolgan

amir bu ig'voga ishonadi. G'ishtko'prikka, jangga bo'lib turgan qo'shin qarorgohiga Abdulqodir devonbegini jo'natadi. Abdulqodir devon begi bahona topib, Shahrisabz va Kitob lashkarini ortga qaytarib yuborishga muvaffaq bo'ladi. Shukurbiy inoqni esa aldab, amir o'rdasiga olib keladi. Shukurbiy inok fitnada ayblanib, hibsga olinadi[1].

Shu joyda Abdulla Qodiriy o'zining "O'tkan kunlar romanida Yusufbek hoji tilidan quyidagi alamli so'zlari tepadagi vaziyatga mos tushadi: Ittifoqning nima ekanligini bilmagan, yolg'iz o'z manfaati, shaxsiyati yo'lida bir-birini yeb ichadigan mansabparast va shuhratparast muttahaqlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmasdan turib bizning odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi. Biz shu holatda ketadigan bo'lsak yaqindirki podsho istibdodi Turkistonimizni egallar". Haqiqatdan ham shunday bo'ldi Amir Muzaffar olib borgan siyosat natijasida ruslar bizning o'lkamizni osonlikcha zabt etdi[5].

1868-yilda Rossiya qo'shinlari Buxoro amirligi sarhadlariga bostirib kiradi. Bosqinchiga Nafrat, Vatanga Muhabbat tuyg'ulari butun amirlik aholisini oyoqqa turg'azadi. Bu o'rinda Amir Temur vatani Shahrisabz yigitlari ko'rsatgan jasorat tahsinga loyiqdir. Qora tepa qishlog'idagi rus qo'shinlari bilan Shahrisabz o'tliqlari o'rtasidagi jang buning yorqin manunasidir. Rassom Vereshchagina shu voqeaning shohidi bo'lgan uning so'zlariga e'tibor bering: Kavkazlik josus zobit Pistalkars janubi-sharq tarafdin Shahrisabz va Kitoblik o'zbek askarlari to'dasini tig'ga tortish uchun yuborilgan edi.

U avval Shahrisabzliklarni yengdi, ammo manziliga qarab yurishi bilanoq ular yana birlashib shunday zarba berdiki rus askarlarini Samarqandgacha quvub keldi. General Kaufman qaytib kelayotgan atiryadni kutib olish uchun otlandi. Shahardan tashqariga chiqishi bilan o'qqa tutishdi, oqibatda Fon Kaufman chekinishi bilan urush tugadi.

Amir Muzaffardan yuz o'g'irgan Hakimbek va Jo'rabeklar Abdumalik to'raga xat yozib, ruslarga qarshi muqaddas jihod yo'lida u bilan birga bo'lishni, unga itoat etishlarini izhor etadilar. Vatan tuyg'usi amir bilan nizoda bo'lgan beklarni ruslarga qarshi jang hozirligini ko'rayotgan uning o'g'li bilan ittifoqda bo'lishni taqazo etadi.

Nihoyat, Abdumalik To'ra tarafdorlari yig'ilib bir necha ming kishi jam bo'lgach Hakimbek va Jo'rabeklarning birikuvi sabab, ruslarga qarshi yurish boshlanadi. Ular G'uzordan chiqib Shahrisabz orqali Samarqandga yo'l oladilar. Hakimbek va Jo'rabek o'z kuchlari bilan Abdumalik To'raga qo'shiladilar. Zirabuloq jangi davom etayotgan paytda Samarqanddagi ruslar garnizoniga hujum qilgan Abdumalik to'ra Jo'rabek, Bobobek va boshqa o'zbek, tojik, turkman, qoraqalpoq qavmlari boshliqlarining 8-iyunga qadar urush harakatlarini davom ettirganliklarini alohida takidlash lozim. Kaufman harbiy vazirga yo'llagan ma'lumotnomasida Samarqandni qamal qilgan Shahrisabzliklarni 25 ming kishini tashkil etganini ko'rsatadi .

Kaufman Samarqand gurnizonidagi yo'qotish juda katta e'tirof etishga majbur bo'ladi. Samarqandni ozod qilish ishtiyoqida Muzaffarning to'ng'ich o'g'li Abdumalik to'ra (1848-1909 y) va erksevar beklar Jo'rabek va Bobobek hamda Sulton Sodiq bilan birga birikdilar. Birlashgan vatanparvar kuchlar Amir Temurning Oqsaroyida tantanali tarzda Abdumalik to'rani Amir deb e'lon qildilar. Muzaffarning mulozimlaridan Xudoyor, Abdulla Ibrohim va ko'pchilik ulamolalar bu gapni maqullab Muzaffarni taxtdan tushurilganini tan oldilar. Vatanparvar kuchlar Shahrisabzdan so'ng Qarshini egallaydilar. Karmana Chiroqchi ham tez orada ularni qo'l ostiga o'tadi. Ruslar bilan kurashda chiniqqan Qozoq xalqining sodiq farzandi Sulton Sodiqni Amirzoda, Karmana viloyati hokimi qilib tayinladi. Amirga teskari bo'lgan Kitob hokimi Jo'rabek va Shahrisabz hokimi Bobobek kabi lashkarboshilar Abdumalik to'ra e'lon qilgan g'azot yo'lida barcha elparvar kuchlarni jamlashga urindilar[6]. Turkiston general gubernatori fon Kaufman voqealar rivojini tashvish bilan kuzatmoqda edi. U sulhga ko'ra, Buxoroning ichki ishlariga aralasha olmas shuning uchun qulay fursat va bahona izlar edi. 1868-yilning kuzida amir Muzaffarning amirlikning butun sharqiy qismini egallagan qo'zg'alonchilarga qarshi kurash uchun yordam so'rab qilgan murojati fon Kaufman uchun ayni muddao bo'ldi. Buxoroning bosib olingan hududlari hisobiga tashkil qilingan Zarafshon okrugi boshlig'i general Abramovga amirga yordam berish uchun barcha choralarni ko'rish topshirildi. Ruslarning Buxoro ishlariga aralashishiga qonuniy tus berish uchun barcha choralarni ko'rish topshirildi. Abramov katta qo'shin bilan harbiy harakatlarni boshlab yubordi. Garchi ostonasida

Buxoro vatanparvarlari son va qurol yarog' jihatidan ustun bo'lgan dushmanga qarshi qattiq jang qildilar. Jo'rabek va Bobobek hamda Sulton Sodiq general Abramov qo'shini bilan janglarga o'zlarining mohir sarkarda ekanligini namoyish qildilar. Ammo kuchlar teng emasligi darhol bilindi. Abdumalik to'ra Shahrisabzga chekindi. Ruslar bilan birga amir Muzaffar sarbozlari vatanparvarlar egallagan hududlarni birin ketin egallay boshladilar.

Abdumalik to'ra bilan Sulton Sodiq Xiva xonligi tomon qochishga majbur bo'ldi[1]. Kitob hokimi Jo'rabek va Shahrisabz hokimi Bobobek esa vatanparvarlik kurashini davom ettirib Buxoro amiri Muzaffar va uning homiysi rus bosqinchilariga qarshi tahdid solib turdilar. Buxoro amiri Muzaffar butun amirlikdagi vatanparvar kuchlarning darg'alari bo'lib qolgan Kitob va Shahrisabz hokimligi Jo'rabek va Bobobekka qarshi kurashda yordam so'rab, 1870-yilda fon Kaufmanga murojat qilgan edi.

Xulosa. Shahrisabz va Kitob bekliklari Rus bosqinchilariga qarshi mardonavor kurashdilar faqat qurol yarog' va son jihatdan ustun bo'lgan ruslar g'alabaga erishdilar. Shahrisabz va Kitob bekligini o'ziga bo'ysindira olmagan amir Muzaffar ruslar yordami bilan bu o'lkaga o'z hukmronligini o'rnatdi. Shahrisabz va Kitobga qarshi rus generali Abramov juda katta tayyorgarlik ko'rdi va har bir qilgan ishini Kaufmanga yozma tarzda bayonat bergan. Chunki ruslar Buxoro amirligiga qarshi urushda Samarqandda Shahrisabzlik jangchilarni qiynchilik bilan to'xtatgan edi. Shuning uchun ular Shahrisabzga qarshi urushni puxta rejalar asosida olib bordilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Равшанов П. Шахрисабз тарихи. Тошкент «Янги аср авлоди 2011. Б. 486.
2. Мухаммадхакимхон тура. Мунтахаб ат-таворих / Форс-тожик тилидан тарж., мукаддима, изоҳлар ва курсаткичлар муаллифи Ш.Воҳидов. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2010. В 258.
3. Одилов.А.А. Бухоро амирлигида миллий озодлик ҳаракатлари тарихи: Тарих фан. номзоди. дис автореф. - Тошкент: Ўзму, 2003. Б. 28
4. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. М., 2003. С 256.
5. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата). Ташкент. Академија. 2009 Б.138
6. Н.Содиқов, Н.Жо'раев. О'zbekiston тарихи (Turkiston Chorizm mustamlakachiligi davrida) Sharq nashriyoti Toshkent – 2011. В 126.

UO'K: 908.395.902.1

MIRZA SALIMBEKNING TARIXIY O'LKASHUNOSLIK ILMI RIVOJIGA QO'SHGAN HISSASI

M.D.Qurbonov, tayanch doktorant, Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy

ORCID ID 0009-0000-2561-0815

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri XX asr boshlarida Buxoro amirligida faoliyat yuritgan davlat arbobi, mohir diplomat, o'z davrining ilg'or ziyolisi Mirza Salimbekning ilmiy, adabiy hamda davlat arbobi sifatidagi faoliyati, yaratgan asarlari, ushbu asarlarning tarixiy ahamiyati, shuningdek Mirza Salimbekning o'zi hokimlik qilgan bekliklarning o'lkashunoslik tarixi, etnografiyasi haqida yozib qoldirgan ma'lumotlari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Mirza Salimbek faoliyati alohida yirik tadqiq qilinmagan. Faqat mahalliy va xorijlik mualliflar bir necha ilmiy maqola va risolalarida Salimbek faoliyati muxtasar yoritilgan.

Kalit so'zlar: Yakkabog', Nurota, Sherobod, Boysun, Shahrisabz, kenegas, shayx, masjid, minora, maqbara.

Аннотация. В данной статье рассматривается научная, литературная и государственная деятельность Мирзы Салимбека, государственного деятеля, работавшего в Бухарском эмирате в конце XIX - начале XX века, искусного дипломата, передового интеллектуала своего времени, его произведений, историческое значение этих произведений, а также будут научно проанализированы сведения об истории краеведения и этнографии бекство под властью Мирзы Салимбека. Деятельность Мирзы Салимбека широко не изучена. Лишь отечественные и зарубежные авторы кратко осветили деятельность Салимбека в ряде научных статей и брошюр.

Ключевые слова: Яккабоғ, Нурога, Шерабад, Бойсун, Шахрисабз, кенегас, шейх, мечеть, минарет, мавзолей.

Abstract. In this article, the scientific, literary and statesman activities of Mirza Salimbek, a statesman who worked in the Bukhara Emirate at the end of the 19th century and the beginning of the 20th century, a skilled diplomat, an advanced intellectual of his time, his works, the historical significance of these works, as well as will be scientifically analyzed the information about the history of local history and ethnography of regions ruled by Mirza Salimbek. Mirza Salimbek's activity has not been studied in a big way. Only domestic and foreign authors have briefly covered Salimbek's activities in several scientific articles and pamphlets.

Key words: Yakkabog, Nurota, Sherabad, Boysun, Shahrisabz, kenegas, sheikh, mosque, minaret, mausoleum.

Kirish. Mirza Salimbek ibn Muhammad Rahim (1850—1930) — Buxoro amirligi va Buxoro respublikasida yashagan tarixchi, shoir, davlat arbobi, diplomat. Mirza Salimbek Buxoro amirligining ko'pgina tumanlari va beklklari hokimi bo'lgan, amirlarning diplomatik missiyalarini bajargan, inglizlar bilan muzokaralarda ham qatnashgan. RSFSR qo'shinlarining 1920-yilgi Buxoro operatsiyasidan so'ng hibsga olinib, bir yildan so'ng ozodlikka chiqdi, Buxoro Xalq Sovet Respublikasi qoshida ma'mur bo'lib ishladi, tarixiy tadqiqotlarda qatnashdi, eski kitoblar kutubxonasiga rahbarlik qildi. Mirza Salimbek o'z xotiralarida Buxoro amirligi tarixi, beklklardagi ahvol, hududlarning tarixiy geografiyasi shuningdek, Buxoro amirligida jadidlar faoliyatini tasvirlaydi [Бухорий А.Р. Рахимов К. Мирзо Салимбек колдирган мерос // Мозийдан садо, 2006. № 1.].

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Mirza Salimbekning ilmiy faoliyati, tarixiylik, ijtimoiy-madaniy qarashlari, uning ijodida tarixiy voqealar, xususan Buxoro amirligi tarixi ham alohida o'rinni egallaydi. Bu mavzu doirasi keng va dolzarb bo'lib kelganligi uchun qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mavzuga doir adabiyotlarni quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin:

1. Sovet davrida yaratilgan ilmiy tadqiqotlar;
2. Mustaqillik yillarida yurtimizda nashr qilingan ishlar;
3. Xorijda yaratilgan tadqiqotlar.

Natijalar va muhokama. Mirza Salimbek o'z siyosiy faoliyatini amirlikning Toshkentdagi savdo vakili (1873-1885) sifatida boshlagan. 1888-yilda Buxoro shahri mirshabi etib tayinlanib, bu lavozimda 5 yil faoliyat yuritgan.

1893-yilda Amir Sayyid Abdulahadxon Mirza Salimbekni to'qsabo darajasiga ko'tarib, Yakkabog' [Yakkabog' amirlik bekligining markazi, Qashqadaryo beklkida hozir qishloq nomi] beklkiga hokim etib tayinlagan. Mirza Salimbek o'zining "Tarixi Salimiy" asarida Yakkabog' bekligi iqlimini qulay deb ta'riflab, beklk shimolida Yakkabog' daryosi oqib o'tishini aytgan. Yakkabog' bekligidagi Beshariq, Duyul, Qorabog', Imom Yoqub, Bo'zariq, Sumak, Toshqo'rg'on, Bobo Shodi va Qora-Yog'och amloklarini sanab o'tadi. Shayx Sodiqning Langar [Langar — Yakkabog' tumanlari hududidagi qishloq] deb nomlangan muborak maqbarasi haqida ham yozib qoldirgan. Mirzo Ulug'bek o'sha joyda koshin va pishiq g'ishtlardan masjid, xonaqoh va ayvon qurdirgan. Mirza Salimbek Yakkabog'dagi imoratlar haqida: "Samarqandni hisobga olmaganida, boshqa joyda bunday go'zal binolar yo'q", - deb ta'riflaydi.

Toshqo'rg'on amlokidagi Shiron qal'asini haqida ham Salimbek yozib qoldirgan. Mahalliy aholidan 23 kishi bilan birgalikda qadimgi qal'a va g'orlarni o'rgangan. Qal'a maydonini 20 tanob deb hisoblaydi. Qal'a Yakkabog' daryosi boshlanish o'rnida joylashgan edi. Qal'aning darvozalari, ustunlari, marmardan yasalgan turli buyumlar haqida yozib qoldiradi. Mirza Salimbek keltirgan ma'lumotlar uning sinchkovligi, qiziquvchanligidan dalolat beradi.

Qal'a atrofidagi tabiat boy ekanligini qayd qilib, turli mevali daraxtlar, yovvoyi hayvonlarni sanab o'tadi.

Mirza Salimbek Yakkabog' bekligini 5 yil boshqargan keyin, 1898-yili Nurota bekligiga hokim etib tayinlanadi. Ushbu yili Mirza Salimbekka amiratpanoh bek darajasi beriladi. 1898-yil qish

fasli juda sovuq bo'lib, cho'lda birorta tuya, qo'y, echki, ot, shoxli hayvonlar ham qolmaganligini qayd etadi. Hatto bo'ri, shoqol, qoplon, jayron kabi yovvoyi hayvonlar ham nobud bo'lgan. Buning ustiga ikki yil ketma-ket chigirtkalar ekinlarni yeb, nobud qilishgan. Nurota shahri muborak qadamjo tufayli tabarruk maskan bo'lishiga qaramay, uning aholisi kambag'al bo'lganligini qayd etadi. Nurota aholisining ko'pchiligi hunarmandlar va namozxon bo'lishgan. Nurota shahrida 24 ta masjid bo'lgan. Har bir masjidda maktab faoliyat yuritgan. Nurota bekligida ilmga chanqoq insonlar ko'p ammo, o'qituvchilar kam bo'lgan.

Mirza Salimbek Nurota qal'asi Zulqarnayn [Aleksandr Makedonskiy] tomonidan qurilgan deb yozib qoldiradi. Iskandar 360 ta mashhur sarkardasiga 360 koriz [koriz, kahriz - turli sathlarda joylashgan quduqlar tizimi va quvurlar yoki maxsus buloqlar bilan o'zaro bog'langan yer osti kanali. Sug'orish uchun dalalarga suv yo'naltiriladi. Shuning uchun korizning boshlanishi yer osti suvlarida ko'p bo'lgan yuqori joylarda olinadi] qurishni buyurgan, chunki Nurota hududida daryo va soy bo'lmagan ammo yomg'ir ko'p yog'gan. Salimbek davriga kelib 30-40 ta koriz saqlanib qolgan. Aholi bug'doy va poliz ekinlarini yetishtirgan. Nurota to'qqiz amlokdan iborat bo'lgan. Ularning aksariyati yomg'irli bo'lgan. Har bir amlokning o'z bulog'i bo'lgan.

Mirza Salimbek Nurota bekligida aholining adolatli suv taqsimotini ta'riflab, suv o'lchovida sang [tosh]dan foylanishganligini qayd etadi. Bir sang miqdori 4 soat davomida yerni sug'orish uchun ishlatilgan suv miqdori hisoblangan. Bir soat sug'oriladigan yer esa bir qora [qora - yer. Nurota bekligida bir soat davomida yer maydonini sug'orish uchun ajratilgan buloq suvi miqdori] deb atalgan. Kishining navbati kelishi bilan arbob [Arbob - suv taqsimotini nazorat qilgan qishloq noziri] sug'oriladigan yerning yoniga maxsus ko'za qo'yib, uni suv bilan to'ldiradi. Idishning pastki qismiga yupqa naycha solinadi. Suv naychadan oqib chiqayotganda, bir soat o'tadi, yerga yetarlicha suv o'tgan-o'tmaganidan qat'i nazar, u kishining ulushi tugaydi. Bunday suvning "bir ko'zasi" 1000 dan 1500 tangagacha turadi.

Nurota shahri markazidagi hovuzni ta'riflab, hovuzning kattaligi sharqdan g'arbgacha taxminan yigirma besh gaz; shimoldan janubga 12 gaz bo'lganini qayd etadi. Hovuzning o'rtasida katta muqaddas tosh bo'lgan. Mirza Salimbek me'roj kechasida bu tosh farishta Jabroil tomonidan tashlangan deb yozib qoldirgan. Hovuzning janubi-sharqiy tomonida Shayx Abulhasan Nuriy [Abulhasan Nuriy – vafoti - 899 yilda, shayx] maqbarasi joylashgan. Shayx maqbarasi Mirza Salimbek buyrug'i bilan ta'mirlangan. Ikki do'kon daromadlarini maqbara vaqqiga o'tkazgan.

Nurotadan g'arbdagi G'ozg'on qishlog'i haqida ham ma'lumotlar keltirilgan. G'ozg'on qishlog'ining o'z amlokdor, imom, voiz va Qur'on qorilari bo'lgan.

G'ozg'on aholisi, barcha erkaklar va ayollar tosh o'yish san'atini mukammal egallaganlar. G'ozg'onda tosh koni - marmar tog' bor bo'lgan. G'ozg'onliklar i katta marmar toshlarni maydalab, ulardan ustunlar uchun katta va kichikroq tagkursilar, turli o'lchamdagi tegirmon toshlari, chiroyli idishlar yasaganlar. Nurotadan Karmanaga boradigan yo'lda Teppai Boland qishlog'i joylashgan. Mirza Salimbek shu qishloqda Imom Hasan va Imom Husayn shahid bo'lgan deb yozadi. Aslida Imom Hasan va Husayn Salimbek aytganidek Nurotada emas, Eronning Karbalo dashtida o'ldirilgan.

Nurota bekligining shimol tomoni Urganchga qadar cho'l ekanligini ta'kidlab, janub tomonini butunlay tog'li ekanligini aytib o'tadi. Shuningdek, janubdagi tog'larni Judi tog'lari deb atab Nuh payg'ambar kemasini shu tog'larda deb hisoblaydi va qozi mulla Abdulhalim bilan birga borib kemani ko'rganini aytib o'tgan. Beklikda har biri uch-to'rt kishi qulochiga zo'rg'a sig'adigan daraxtlarni eslatib o'tadi. Ba'zi daraxtlarda hujralar, ba'zilarida maktablar qurilgan, ammo bu daraxtlar avvalgidek yam-yashil bo'lib o'sar edi. Judi tog'ining sharqida, uning yaqinida Baxil tog'i joylashgan. U juda baland. Bu tog'larda alqarlar, ya'ni tog' echkilari bo'lib, ular kuzan deb ataladi. Baxil tog'larning baxilligi shundaki, ularda na suv, na o'simlik bo'lgan. Baxil tog'laridan sharqda Oqchobda [Axchob (Oqchob) — Nurotadan 65 km sharqda joylashgan tog' qishlog'i. Ko'pgina uylarni qurishda tosh qurilish materialini sifatida ishlatilgan] bahor yomg'irlari uchun Abdullaxon II tomonidan to'g'on qurilgan [Abdullaxon bandi — Jizzax bekligining Forish tumanidagi Nurota tog'lari etaklaridan 12—15 km shimolda Pasttog' tizmasining Xonbandi tog' darasidagi to'g'on. To'g'onning tepa bo'ylab uzunligi 51,75 m.]. To'g'on ostidagi turli yerlarga quvurlar o'rnatilgan. Bahor kunlarida bu tog'lar orasiga suv to'planib qolgan. Mirza Salimbek to'g'onni o'sha paytda

ta'mirtalab bo'lib qolganini ta'kidlab, uni tuzatmoqchi bo'lganini yozadi. Bu haqda amirga ma'lum qilmoqchi bo'lganida, amir uni Boysunga hokim etib tayinlash haqida farmon chiqaradi.

1902-yili Mirza Salimbek Boysun bekligiga hokim etib tayinlangan. Boysun bekligini 2 yil davomida boshqargan.

Boysun bekligi besh amlokdan iborat bo'lgan. Mirza Salimbek Boysun bekligidagi faoliyati haqida qisqa ma'lumot beradi. Boysun bekligini batafsil ta'riflamaydi. Xullas, ikki yil u yerda hukmdorlik qilib, og'ir xastalikka chalingan hamda Qozi Sirojiddin tuhmati tufayli mansabdan chetlashtirilgan.

1905-yilda Mirza Salimbek Sherobod [Sherobod — Ko'hitangning janubiy etagi yaqinidagi tuman markazi, Termiz shahridan 60 km shimoli-g'arbda] bekligiga hokim etib tayinlangan. Sherobod bekligining uzunligi g'arbdan sharqqa olti farsah, shimoldan janubgacha yetti farsah masofadir. Sherobod bekligida beshta amlok bo'lgan. Janubi-g'arb tomonidan Amudaryo oqib o'tgan. Daryo sohilida faqat turkman qabilalari yashagan. Ular har yili Sherobod hokimiga belgilangan yer solig'ini to'lab turadilar. Daryo sohilida, Patta-Hisor yaqinida, Termiz shahri joylashgan. Termiz shahrini Chingizxon tomonidan vayron qilingani va shahr xarobalari saqlanib qolgani qayd etiladi. Xoja Hakim at-Termiziy [Abdalkim Termiziy – vaf. 869, shayx, hakimiya darveshlik tariqatining asoschisi. To'liq ismi Muhammad ibn Ali Hakim at-Termiziy. Mirza Salimbek uning bir qancha risolalarini arab tilidan fors tiliga she'riy yo'l bilan tarjima qilib, "Gulshan-i roz" ("Sirlar gulshani") to'plami shaklida nashr ettirgan], Xoja Abu Bakr Varroq, Xoja Zohid Varroq va Xoja Hasan rahimahullohning muqaddas qabrlari joylashgan. Mashhur muhaddis Xoja Muhammad Iso rahimahulloh Sherobodning sharqiy tomonida, undan to'rt dan uch farsang uzoqlikda dafn etilgan. Mirzo Abdullatif [Abdullatif — Mirza Ulug'bekning o'g'li, Ulug'bek vafotidan olti oy o'tib, 1450-yil 8-mayda o'ldirilgan] u yerda balandligi o'ttiz gazga teng bo'lgan pishiq g'ishtdan katta masjid qurdirgan. Bu masjidning janubiy tomonida Xoja Muhammad Iso rahimahullohning qabri joylashgan. Ushbu masjid Mirza Salimbek tomonidan ta'mirlangan.

Sherobod bekligida ruslar bir qator hududlarni o'zlashtirib o'z mavzalarini qurayotgan edilar. Ular Sherobodni "Ikkinchi Farg'ona" ga aylantirish niyatida edilar. Mirza Salimbek amirlik yerlarini ruslar qo'lga o'tib ketishiga qarshi bo'lgan. Bu holat yuzasidan qo'shbegi va amirga maktublar yo'llagan.

Amudaryo bo'yida, Balx viloyati ro'parasida joylashgan Patta-Hisor mavzesida ruslar Tuproqo'rg'on qal'asini qurishgan. Mirza Salimbek ruslar xatti-harakatini kuzatib borish uchun Bekcha qal'asiga o'z odamlarini joylashtirgan.

Mirza Salimbek Patta-Hisorning sharqiy tomonidagi daryo sohilida Solihobod qishlog'i joylashgani, u yerda xo'jalarning ikki urug'i turkmanlar bilan birga yashab, dehqonchilik bilan shug'ullanishi yozadi. Ular Sherobod bekiga yer solig'i to'laganlar. Mirza Salimbek qadimda bu yerda Somon ya'ni somoniylar podshohlarining haqiqiy vatani bo'lgan shahar joylashganini aytib o'tadi [Somon o'rta asr shahri bo'lib, uning joylashgan o'rni aniqlanmagan. Bizningcha, Salimbekning Saman shahri Solihobod qishlog'i o'rnida joylashganligi haqidagi gapini asosli deb hisoblash mumkin. Arab sayyohi Yoqut al-Hamaviy (1179-1229) Somon shahrini Balx mulkiga nisbat bergan edi]. O'sha davrda ham Somon shahrining madrasa va hammom qoldiqlari saqlangani, minoralari esa butunligicha qolgani aytiladi. Jumladan, bu yerda masjid binolari, xonaqoh va sobiq hokimlarning qabrlari, Sulton Husayn Saodat - Termiz sayyidlari oilasining asoschisi (XI-XV asrlar). Termiz shahridan 6 km shimoli-sharqda joylashgan maqbara shunday nomlanadi va uning o'g'illari maqbaralari joylashgan. Majmuadan uncha uzoq bo'lmagan masofada Qirqqiz [Qirqqiz – Termizdagi o'rta asr me'moriy yodgorligi qoldiqlari] katta rabot [Rabot – baland devor bilan o'ralgan keng hovlilar. O'rta asrlarda – karvonsaroylar. Ichkaridan rabot devorlariga turar-joy va maishiy xonalar tutashgan. Karvon yo'llarida ular savdogarlar uchun mehmonxonalar va sayohatchilar uchun xavfsiz bekatlar bo'lgan. Bunday mustahkam hovlilar xavf-xatar davrida atrofdagilar uchun boshpana vazifasini ham bajargan] bo'lgan. Uning devorlari xom g'isht bilan qoplangan; uning haqiqiy eshiklari yo'q bo'lgan. Mirza Salimbek xom g'ishtlarni bir necha asrlardan beri o'ziga nam singdirmagani va yer ostidagi zallar va xonalar maxsus yoritilmasa ham yorug' ekanligiga hayron qoladi.

Mirza Salimbek Sherobod bekligida suv tanqis ekanligini aytib o'tib, suv asosan Boysun bekligidan kelishini qayd etgan. Kalimbof, Talli Oshiqon, Sayyidobod, Moidaariq amloklari suv tanqisligidan qiynalishgan. Ular tez-tez suv masalasida o'zaro janjal qilishardi.

Shu tufayli Mirza Salimbek Jarqo'rg'on amloki kanalini kengaytirish va shu orqali Sherobodga oqib o'tadigan Surxon suvini ko'paytirishga qaror qiladi. Mirza Salimbek Sherobodning suvi sho'r ekanligi hamda bu sho'r suvga o'rganib, chuchuk Amudaryo suviga tuz solib ichishganini ta'kidlab o'tgan.

Boysun va Sherobod beklilari oralig'ida joylashgan Xumkon qishlog'idagi tuz konlariga soylardan suv oqib Sherobod daryosiga quyilgan. Mirza Salimbek Sherobodning iqlimi issiq va suvi sho'rli uchun hokimlardan kimnidir surgun qilmoqchi bo'lsalar, Sherobodga jo'natib yuborishganini aytadi. Yangi kanal qazilgach, Sherobod ob-havosi yoqimli, suvi odam va hayvonlar uchun qulay maskanga aylangan. Sherobodda mevali daraxtlar kam bo'lgan. Tut daraxti bo'lmagan. Lekin bu yerda boshqa beklilardagi kabi ko'kcha qovunning ajoyib navi bo'lgan. Bu xildagi qovunlar yangi hosil davrigacha saqlangan.

Mirza Salimbek 1910-yil Shahrisabz bekligi hokimi etib tayinlangan. Shahrisabzni Keshi Dilkash deb aytishganini qayd etadi. Shahrisabz o'n uchta amloklardan iborat bo'lib, Kenegas qabilasi istiqomat qilgan. Kenegaslar tashqi ko'rinishiga ko'ra, nochor bo'lib ko'rinsalar ham, ular qo'pol fe'l-atvorli va beodob kishilar bo'lishgan. Ularda buxoroliklarga nisbatan qattiq nafrat bo'lgan. Agar imkon topsalar, Buxoro amiriga tobe va qaram bo'lib qolishni istamas edilar. Ammo shunga qaramay, Mirza Salimbek to'rt yil davomida Shahrisabz bekligini boshqarib, u yerdagi odamlar bilan yaxshi aloqada bo'lgan.

Shahrisabzning shimoliy va sharqiy tog'li tomonlarida o'zlarini chag'atoylar deb ataydigan tojiklar yashagan. 13 amlokdan to'rtta amlok tog'li hududda joylashgan. 1914-yili Mirza Salimbek Nasrullo qo'shbegi aralashuvi bilan lavozimidan chetlashtirilgan [Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского Н.К.Норкулов. — Тошкент. 2009.С.115-164.].

Xulosa. Xulosa sifatida aytish mumkinki, Mirza Salimning asarlarida o'sha davr Buxoro amirligidagi siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti, xalqining turmush tarzi va yashash sharoitlari yorqin aks ettirilgan. Bundan tashqari amirlikdagi siyosiy tuzum va uning barbod bo'lishi va Rossiya-Buxoro munosabatlari haqida so'z yuritiladi. Salimbek o'zi guvoh bo'lgan har bir voqea, hodisadan ibratli xulosalar chiqaradi. Shuningdek, Mirza Salimbek o'zi hokimlik qilgan beklilarning XIX asr oxiri-XX asr boshlaridagi tarixi, etnografiyasini tasvirlab, amirlik tarixiy o'lkahunosligiga oid qimmatli ma'lumotlarni qoldirgan.

Mirza Salimbekning ko'plab asarlari qo'lyozma holida bo'lib, bu asarlarni o'rganish ham bugunning dolzarb masalaridan biri hisoblanib, ularni ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etilib, qayta nashr qilinsa keng kitobxonlarimiz uchun katta yangilik bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бухорий А.П. Рахимов К. Мирзо Салимбек колдирган мерос // Мозийдан садо. 2006. № 1.
2. Мирза Салимбек. Тарих-и Салими (Источник по истории Бухарского эмирата) / Перевод с персидского Н.К.Норкулов. — Тошкент. 2009.С.424.
3. Qurbonov Murodjon. Mirza Salimbek – Buxoro amirligining so'nggi tarixchisi. Research on social and humanitarian sciences. Volume: 01/Jan-2023. Impact factor: 7.2 (2022) ISSN-L: 3595-3566. B.42-53.
4. Qurbonov Murodjon. "Tarixi Salimiy" asari - Buxoro amirligining Chor Rossiyasi tomonidan vassalga aylantirilishiga oid muhim manba. International Journal of Intellectual and Cultural Heritage Volume: 3 Issue: 03 | 2023 ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314
5. <http://ihm.iscience.uz/index.php/ijich> 18th May 2023 B.56-62.
6. Qurbonov Murodjon. "Tarix Salimiy" asarida Amir Muzaffar farzandlari tarjimai holi. 2023 yilning 10 - iyunda o'tkazilgan "Buxoro tarixi masalalari" - mavzusidagi konferensiya materiallari to'plami. - BUXORO - 2023. B.220-225.

SHARQ OLIMLARINING TADQIQODLARIDA MITRA KULTINING IFODALANISHI

M.J.Rahmonberdiyeva, doktorant, Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya. Ushbu maqolada qadimgi davrdan shakllangan ko'pxudolik dinlarida uchraydigan, quyosh xudosi – Mitraning sharq olimlari tomonidan o'rganilish tarixshunosligiga bag'ishlangan. Sharq jamiyati diniy qarashlarida Mitra obrazi va uning jamiyat hayotida tutgan o'rni va roli haqida sharq olimlarining izlanishlari natijasida to'plangan ilmiy materiallar tahlil qilinib, tarixiy yondoshuv asosida xulosa va takliflar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Mitra, quyosh xudosi, Zardushtiylik, diniy qarashlar, ko'p xudolik dinlari, qadimgi davr, Avesto, Rigveda.

Аннотация. Данная статья посвящена историографии изучения восточными учеными бога Солнца Митры, которая встречается в политеистических религиях, сформировавшихся с древнейших времен. Проанализированы научные материалы, собранные в результате исследований ученых-востоковедов об образе Митры, его месте и роли в религиозных воззрениях восточного общества, даны выводы и предложения, основанные на историческом подходе.

Ключевые слова: Митра, бог солнца, зороастризм, религиозные воззрения, политеистические религии, античность, Авеста, Ригведа.

Abstract. This article is devoted to the historiography of the study of the sun god Mithras by Eastern scholars, which is found in polytheistic religions formed from ancient times. Scientific materials collected as a result of the researches of oriental scientists about the image of Mithras and his place and role in the religious views of the Eastern society were analyzed and conclusions and suggestions were given based on the historical approach.

Key words: Mithra, sun god, Zoroastrianism, religious views, polytheistic religions, antiquity, Avesta, Rigveda.

Kirish. Insoniyat paydo bo'lishi bilan, inson hayotida dinning ilk shakllari, uning hozirgi zamon yakkaxudolik va ko'pxudolikka asoslangan turlari hayotining ajralmas bo'lagi sifatida rivojlanib bormoqda. Din insoniyat hayotida qay darajada rol o'ynaydi.

Diniy qarashlarning insoniyat turmush hayoti oldida quyidagi vazifalari mavjud:

- Dunyoqarashlik;
- Kompensatorlik;
- Kommunikativlik
- Regulyatorlik;
- Integratorlik;
- Legitimlovchilik.

Dinda inson, jamiyat, tabiat haqida muayyan qarashlarning o'ziga xos talqini bo'lganligi tufayli dinning vazifasining dunyoqarashlik jihati joriy qilinadi[1, 480].

O'zbekiston mustaqillikka erishgach diniy sohani rivojlantirish, shu jumladan ilmiy tomonlama o'rganish, dolzarb masalalar sirasiga kiritildi. Bu sohada ilmiy tomonlama o'rganishning huquqiy asoslari yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risidagi qonun Oliy Kengashning 289-XII-son 1991-yil 14-iyunda qabul qilinib, Mazkur Qonunning yangi tahriri O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlis qonunchilik palatasining yalpi yig'ilishida 1998-yil 1-maydagi 618-I-sonli "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritish haqida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 5-iyuldagi O'RQ-699-sonli "Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni bilan qayta tahrirlangan[2]. 2017 – 2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi doirasida so'nggi uch yil davomida diniy bag'rikenglikni ta'minlash sohasida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

BMT Bosh Assambleyasi 2018-yilning 12-dekabr oyida o'tkazilgan yalpi majlisda "Ma'rifat va diniy bag'rikenglik" deb nomlangan maxsus rezolyutsiyani qabul qildi. O'zbekiston tomonidan ishlab chiqilgan hujjat loyihasi BMTning barcha a'zo davlatlari tomonidan bir ovozdan qo'llab-quvvatlandi. Mazkur rezolyutsiyani qabul qilish tashabbusi 2017-yil sentabr oyida BMT Bosh Assambleyasining Nyu-Yorkdagi 72-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surildi.

2018-yil 16-apreldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3668-sonli Qaroriga muvofiq Qo'mita huzurida faoliyat yuritadigan jamoatchilik-maslahat organi hisoblanmish Konfessiya ishlari bo'yicha kengashning yangi tarkibi tasdiqlandi. Kengash tarkibi 9 tadan 17 ta a'zoga – O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan diniy konfessiyalar vakillari hisobiga kengaydi.

2018-yilning 16-aprelida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5416-sonli Farmonni imzoladi. Mazkur hujjat O'zbekistonda diniy ta'lim tizimining uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan: boshlang'ich bosqichdan (o'rta maxsus islom ta'lim muassasalari yoki madrasalar) tortib, to oliy va undan keyingi diniy ta'limgacha.

2019-yil 4-sentabrdagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-4436-sonli qarori[3]ga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha Qo'mitaning Ichki ishlar vazirligi, O'zbekiston yoshlar Ittifoqi, O'zbekiston xotin-qizlar qo'mitasi va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika kengashi bilan jamiyatda vijdon erkinligi va diniy-ma'rifiy muhit barqarorligi kafolatlarini ta'minlash maqsadida mustahkam va doimiy hamkorlikni nazarda tutuvchi yangi tizim joriy etilishi diniy sohada izlanishlar olib borishda keng imkoniyatlar eshigini ochadi.

Tarixiy moddiy topilmalar topilishi bilan eng qadimgi davrdan, hozirgi kunga qadar tarixiy jarayonlarni qayta tiklash, o'rganish va uning mazmun mohiyatini kelajak avlodga etkazib berish tarixchilar oldida turgan asosiy vazifalardan hisoblanadi.

O'zbekiston hududida topilgan dinga oid moddiy ashyolar nafaqat yurtimizda balki butun jahonda mashhur sanaladi.

Qadimgi dunyo davriga oid topilmalar ichida Mitra ilohiga oid ashyolar topilib, o'tgan asrimizning boshlaridan buyon o'rganilib kelinmoqda.

2000-yillarning boshlarida G.M. Bongard-Levina, V.A. Gaybova va G.A. Koshelenko, Mitra tarixshunosligini qisqacha yoritgan sharqshunos olim sanaladi. Olimlarning ma'lumotlari alohida ahamiyatga ega. Sharqda Mitra ikonografiyasini o'rganish Markaziy Osiyo va Eron hududidan topilgan topilmalar asosida xulosalar berilgan. Amalda keng tarqalgan Mitra tasvirlarining ikonografik sxemalari Markaziy Osiyo hududida topilgan tanga tasviri va qoya surat naqshlari tahlil qilingan.

Avesto kitobining Videvdat (Avesto ruscha tarjimalarda) (1861–1996). Sankt-Peterburg, 1997-yilda I.V. Raka muallifligi ostida nashrdan chiqqan Mitra va uning faoliyati haqida ma'lumotlar uchraydi. Meri Boysning Zardushtiyalar:e'tiqod va urf-odatlar. Sankt-Peterburg, 2003-yilda I.M. Steblin Kamenskiy tarjimasida ostida chiqqan kitobda ma'lumotlar keng uchraydi. Dandamaev M.A., Lukonin V.G. larning Qadimgi Eron madaniyati va iqtisodiyoti nomli asarida 1980-yil Moskvada nashrdan chiqqan Mitra va uning faoliyati haqida ma'lumotlar uchraydi. Dyakonov I.M., Qadim zamonlardan IV asr oxirigacha bo'lgan Midiya tarixi. Miloddan avvalgi davrlar asari 1956-yilda nashrdan chiqdi. Ushbu asarda Mitra obraziga tarif berilgan.

Usullar. Maqolada umumiy qabul qilingan metodlar – xolislik, tarixiy tahlil, qiyosiy-mantiqiy tahlil, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida Mitra ilohi va uning tarixshunosligini yoritib berishdan iborat.

Natijalar. Mitra diniy ilohi haqida to'xtalib o'tadigan bo'lsak, qadimgi dunyo tarixida Yevropa va Osiyo mamlakatlari xalqlari hayotida yorug'lik va quyosh ilohi sifatida tarif berilgan.

Mitra qadimgi sharq dinlarida, asosiy hind-eron xudolaridan biri, ilohiy tomonlama insonga baraka, baxtni o'zida mujassam etgan, yorug'lik ilohasi va hayot beruvchi deb tariflangan.

Qadimgi Eron hududi (G'arbiy Osiyoning Eron ta'sirida bo'lgan hududlari)da Mitraga sig'inish namoyon bo'lgan va bu dinnig ko'pgina unsurlarini o'zlashtirgan. Miloddan avvalgi II-I asrlarda Ellinistik dunyoda keng tarqala boshlagan. Mitraga sig'inish bilan maxsus din – Mitraizm vujudga keldi[4, 166-167].

Mitraizm tarqalgan va rivojlangan hududlarni geografik tomonlama o'rganilsa Eron, Armaniston, Hindiston, Rim hududlar hisoblanadi. Qadimgi Eroniylarning Mitra ilohi, Zardushtiylik xudosi sifatida (Asha) sifatida, qadimgi Armanlarning Mitri, Zardushtiylikdagi quyosh xudosi sifatida, Hind – Oriylarining Mitra, yorug'lik xudosi sifatida, Ellinizm davrining Mitrasi, mitraizmnining asosiy xudosi sifatida gavdalangan.

Bizning hududimizda O'rta Eroniy shakllar qatorida sug'diy tilda Mishinomi bilan, Parfiya tilida Mihriga deya, va Baqtriya tilida Miurosiga nomlari asosida mashxur bo'lgan.

Sharqshunos olimlar E.A. Grantovskiy va V.V. Struvelar bergan ma'lumotlarida Mitraning androgin mohiyatiga ishora qilib, Mitraning ayollik mohiyati haqidagi farazni Kushon tangalarida ma'buda Mioro borligi bilan tasdiqlash mumkin deb ta'kidlashadi[5, 187].

Arman yozuvchisi Eznik Kolbskiy Mitrani quyosh ilohi sifatida paydo bo'lgan deb xabar qiladi.

Millodan avvalgi 1-asrdan, millodiy 2-asrga qadar butun Rim imperiyasi bo'ylab; ayniqsa Rim legionlari joylashgan chegara provinsiyalarida mashhur bo'lgan, ularning askarlari g'alaba keltiruvchi xudo hisoblangan. Mitraga sig'inishning asosiy tarafdorlari ko'pchilikni tashkil qilgan. Mitraizmnining tarqalishida ijtimoiy quyi tabaqalar muhim rol o'ynagan, chunki imperiyada qulchilik juda rivojlangan bo'lib, ular unga kirganlar o'rtasida tenglikni e'lon qilish va o'limdan keyin baxtli hayotni va'da qilish orqali ularni o'ziga jalb qilgan. Mitrada maxsus sirlar bajarilgan. Bularga qurbonliklar, diniy taomlar va boshqalardan iborat bo'lgan[6, 30].

Munozara. Mitraga sig'inishning kelib chiqishi an'anaviy ravishda miloddan avvalgi 2-ming yillikda yashagan Hind-Oriylar va Eron-Oriylarning ajdodlarining e'tiqodlari bilan bog'liq. Aniq davri Miloddan avvalgi. 18-17 asrlarda Yaqin Sharqda kuzatiladi[7, 429-431].

Belgiyalik tarixchi Frans Kyumon mitraizmni o'rganishga ulkan hissa qo'shdi. U o'zining "Mitra siri" asarida Ellinistik va Rim mitraizmining asosini tashkil etgan asosiy xususiyatlarni avvaldan mavjud bo'lgan qadimgi Eron mazdaizmi qabul qilgan mintaqani aniqlashning iloji yo'qligini va har bir hudud o'zining hayot turmushidan kelib chiqib o'z xudolari timsolida gavdalashgan deya ta'kidlagan.

Frans Kyumont mazdaizmni Eron Oriylarining qadimiy e'tiqodlari majmuasi deb atagan, uning oliy xudosi Axuramazda (Axuramazda, Axura-Mazda, Ohrmazd) Ahamoniylar oilasidan fors shohlarining homiysi bo'lgan. Frans Kyumontning fikricha, Hind-Eron Mitrasi mazdaistlar panteonining xudolaridan biri bo'lganligi va barcha Eron satrapliklarida tarqalganligini ilgari suradi[8, 31].



1-rasm. Mitraning devoriy surti. Frans Kyumont koleksiyasidan.

Hind Oriylari orasida Mitra (qadimgi hindcha mitra “do’st”, “do’stlik”, “do’stlik kelishuvi”) xudolar bilan biri bo’lib, Varuna bilan birgalikda umuminsoniy qonunni himoya qiladi. (Rig Veda. II, 27; III, 59; V, 69; Aditya (aditya) - Aditi ma’budasining xudo-o’g’illari sifatida (aditi lit. “aloqasizlik”, “cheksizlik”): Varuna, Mitra, Aryaman, Bhaga, Daksha, Ansha, ulardan asosiysi asura Varuna hisoblanadi. Adityas umuminsoniy qonunni himoya qiladi va samoviy xudolarni tashkil qiladi[9, 146-152].

Eron Oriylari orasida Mitra (aves. mithra “kelishuv”) kelishuv xudosi, shu jumladan. jamoa shartnomasi va alohida qabilalar o’rtasida tuzilgan bitimlar.

Keyinchalik u solihlar tomonida kurashuvchi, umumbashariy arte (ashe) qonuniga amal qilgan jangchi xudo yoki aravachi xudo sifatida, shuningdek, sudya xudosi va quyosh xudosi sifatida hurmat qilina boshladi (Avesto. Yasht 10: Mihr- yasht)[10, 269-270].

Xulosa. To’plangan ma’lumotlar tahlili natijasi shuni ko’rsatadiki, Mitra ilohini ilmiy tomonlama o’rganish sharq olimlarining tarixiy manbalari va berilgan ma’lumotlar asosida Mitraizm qadimgi diniy qarash sifatida vujudga kelganligini tasdiqlaydi.

Uning vujudga kelishi to’g’risida ko’plab qarashlar mavjudligini hisobga olib aniq xulosalar berib bo’lmaydi. Olimlarning fikrlarini va arxeologik moddiy ashyolarni o’rganish asnosida Mitraizm tarqalgan hududlar tabiiy – geografik nuqtai nazaridan har xil tasavvur qilingan.

O’zbekiston hududidan topilgan moddiy topilmalar surtalar va tangalar davriy chegarasi Fors va Yunonlar mustamlaka davriga to’g’ri keladi.

Taniqli olim Edvard Vasilevich Rtveldze tomonidan o’rganilgan numizmatikaga oid Yunon-Baqtriya davlatiga oid tangalarda ham hukumdor zarb etgan tangalarda Mitra obrazi tasvirlangan.



2-rasm. Soter Megasning Baqtriya tangasidagi Mitraning boshi (Grenet, 2003, 13-rasm). E.V. Rtveldzening ruxsati bilan

Mitraizm bu quyosh va yorug’lik xudosi sifatida alohida yakkaxudolikka asoslangan dinning ko’rinishi shaklida paydo bo’lgan degan qarashlar ham fanda mavjud. Yurtimizda uchraydigan topilmalar tahlili shuni ko’rsatadiki, Mitra podsholarga madad bergan yo’lboshi sifatida tasvirlanadi. Mitraizmga sig’inadigan aholi hudud jihatidan ham ulkanligini va qadimgi dunyoning sivilizatsiya markazlarini tashkil etishi, uning qudratidan darak beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. O’zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1991-y., 8-son, 186-modda; 11-son, 273-modda; 1993-y., 9-son, 334-modda; O’zbekiston Respublikasining Qonuni, 01.05.1998 yildagi 618-I-son; O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-y., 5-6-son, 99-modda; O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami, 2008-y., 52-son, 513-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.04.2018-y., 03/18/476/1087-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.
2. Najmiddinov J., Karimov J., Turdiyeva D.. Dinshunoslik. Qomusiy lug’at. Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2017 – 480 bet. ISBN 978-9943-5105-3-1.
3. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 04.09.2019 yildagi PQ-4436-son; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 05.09.2019-y., 07/19/4436/3693-son; 17.03.2021-y., 06/21/6188/0216-son; 22.04.2021-y., 06/21/6212/0358-son; Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 24.05.2023-y., 06/23/75/0292-son.

4. Авеста. «Закон против дево» (Видевдат). / Пер. и комм. Э. В. Ртвеладзе, А.Х. Саидова, Е.В. Абдуллаева. СПб, 2008. С. 345.
- Грантовский Э. А. Ранняя история иранских племен Передней Азии. 2-е изд. М., 2007. С. 347-349, ср. также комм. в: Авеста. «Закон против дево». СПб, 2008. С. 453.
5. Кошеленко Г. А., Ранние этапы развития культа Мифры, в сборнике: Древний Восток и античный мир, М., 1972; С. 255.
6. Вилхелм Г. Древний народ хурриты. С. 44–49, 54–55, 72; Дюмезил Ж. Верховные боги индоевропейцев: Пер. с фр. М., 1986. С. 17–21, 158–172; Елизаренкова Т.Я. «Ригведа» – великое начало индийской литературы и культуры // Ригведа: Мандалы И–ИВ / Изд. подг. Т.Я. Елизаренкова. М., 1989. С. 530.
7. Кюмон Ф. Мистерии Митры: Пер. с фр. СПб., 2000. С. 288.
8. Ригведа: Избранные гимны / Пер., коммент. и вступ. статья Т.Я. Елизаренковой. М., 1972. С. 191.
9. Авеста в русских переводах (1861–1996) / Сост., общ. ред., примеч. И.В. Рака. 2-е изд. СПб., 1998. С. 480.

UO'K 93/94

SALIB YURISHLARINING G'UYAVIY BIRLIGI VA KATOLIK CHERKOVNING TA'SIRI

S.Sh.Tilabjonova, talaba, Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq

Annotatsiya. *Mazkur maqolada O'rta asrlar tarixida o'chmas iz qoldirgan salib yurushlari va uning boshlanishiga qadar sodir bo'lgan jarayonlar, yurushning tezlik bilan boshlanib ketishiga sabab bo'lgan katolik cherkovi hamda papa Urban II ning olovli va'zi qanchalik bu yurishlarga ta'sir qilganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *salib yurishlari, feodal, dehqon, ritsar, papa, katolik cherkovi, va'z, Quddus, muqaddas urush.*

Аннотация. *В этой статье представлена информация о крестовых походах, оставивших неизгладимый след в истории Средневековья, и процессах, предшествовавших его началу, о католической церкви, которая способствовала быстрому началу похода, а также о том, насколько огненная проповедь Папы Урбана II повлияла на эти походы.*

Ключевые слова: *крестовые походы, феодал, крестьянин, рыцарь, папа, католическая церковь, проповедь, Иерусалим, Священная война.*

Abstract. *This article provides information about the crusades that left an indelible mark on Medieval History and the processes that took place before its beginning, the Catholic Church that caused the rapid onset of the March, and how much the fiery sermon of Pope Urban II affected these marches.*

Key words: *crusades, feudal, peasant, Knight, Pope, Catholic church, sermon, Jerusalem, holy war.*

Kirish. Salib yurishlari deganda, 1096-1270-yillarda G'arbiy Yevropa zodagonlari va katolik cherkovi tomonidan Yaqin Sharqqa (Suriya, Falastin, Shimoliy Afrika) qilingan bosqinchilik urushlari tushuniladi. Salib yurishlarining bosqinchilik mohiyati diniy shiorlar musulmonlardan "muqaddas yer" (Quddus)ni ozod qilish bilan niqoblangan yaqin sharqdagi harbiy yurishdir.

Tahlil va natija. Salib yurishlari tushunchasi 1250-yildan paydo bo'lib, XVII-XVIII asrlardan tarixiy asarlarda keng qo'llanila boshlanadi. Birinchi salib yurishlari qatnashchilari kiyimlariga butning tasvirini tushirib, o'zlarini piligimlar (ziyoratchi sayyohlar) deb atab, yurishlar-ziyarat (peregrinatio), faoliyat (gesta) yoki ekspeditsiya (expeditio), muqaddas yo'l (via sacra) nomini olgan.

“Salibchilar” atamasiga ta'rif beradigan bo'lsak, “Salibchilar” deb salib yurishi ishtirokchilari o'z kiyimlariga salib ya'ni xoch, krest tikib olishganligi uchun paydo bo'lgan. Yurish qatnashchilari gunohlardan poklanadi deb hisoblangani bois, yurishda nafaqat ritsarlar, balki oddiy aholi, hattoki yosh bolalar ham qatnashgan. Shu sababli salib yurishlari ommaviy va bir g'oyaviy yurishga aylanib, boshlanib ketdi [1].

Salib yurishlari katolik cherkovining o'z maqsadlari yo'lida tashkil qilingan bo'lib, ular Quddusdagi “Iso payg'ambar qabri”ni kofirlardan ozod qilamiz va xristianlarga qaytarib olib beramiz

deb e'lon qilganlari bilan ularning asil maqsadi yangi yerlarga ega bo'lish edi. Yurishlardan muddao Falastinni «kofirlar»dan xalos qilish va xristianlar e'tiqodicha, Quddusdagi «Iso payg'ambar qabri»ni xristianlarga qaytarib olib berishdir”, — deb rasmiy talqin etilgan.

Haqiqatda esa, bu bosqinchilik yurishlaridan iborat bo'lib, ularda yevropalik feodal va ritsarlarning hech tap tortmay, Sharqning shaharlarini taladilar, qirolliklarni bosib oldilar, o'zlari uchun feodal rentasining yangi soliq to'lovchilarini qo'lga kiritdilar. Salib yurishlarida, feodallardan tashqari, jamiyatning boshqa sinflari, jumladan, dehqonlar ham qatnashdilar. Bu hol salib yurishlariga ommaviy tus bergan. [2]

Yurishlarning klassik davri 1096-1270-yillarda bo'lib, ularni qayta tashkil qilishga urinishlar o'rta asrlarning oxiriga qadar, ramzlardan foydalanish esa yangi davr, hatto hozirga qadar davom etib kelmoqda.

Salb yurishining boshlanishi 1095-yil 18-25 noyabr kuni Klermonda (Janubiy Fransiya) Papa Urban II boshchiligida cherkov soboridagi nutqidan turtki bo'ldi. Rasmiy qism 27-noyabr kuni shahar yaqinidagi dalada, ochiq havoda, ruhoniylar va oddiy odamlar dala oldida yeg'ilganidan so'ng, Papa olovli va'z qildi va unda frank ritsarlari xristianlarni musulmonlar qamalidan ozod qilish va Quddusdagi Muqaddas qabrni kofirlardan qaytarib olishga chaqiradi. [3]

Papa Urban II ning boshchiligida salib yurishlarining boshlanishiga dastlabki harakatlar aynan shu kundan boshlandi. Papaning olovli va'zi qiynoqlardan charchagan oddiy dehqonlarga va o'z huquqlarini yo'qota boshlagan ritsarlarga ayniqsa kuchli ta'sir qiladi.

Bu va'z haqida birinchi salib yurishida ishtirok etgan fransuz tarixchisi Robert Reymsning o'zining “Quddus tarixi” nomli xronikasida papaning quyidagi so'zlari keltirilgan: “Muqaddas qabr sizni ayniqsa rag'batlantirsin. Hozir yovuzlar egalik qilayotgan tobut va ular tomonidan tahqirlangan va sharmandali ravishda yo'q qilingan. Muqaddas joylarni ular talon-taroj qilmoqda. Quddus bu yerning bir bo'lagi, boshqa yerlar bilan taqqoslaganda eng samarali yer, bu yer ikkinchi jannatga o'xshaydi. U insoniyatning qutqaruvchisi tomonidan o'zining kelishi bilan ulug'lanadi, uni o'z ishlari bilan bezatdi, azob-uqubatlar bilan muqaddas qildi, o'lim bilan qutqardi va dafn bilan abadiylashtirdi. Va bu shohona yer hozir to'liq dushmanlarda va Robbiyni bilmaydigan xalqlar tomonidan yo'q qilinadi. U ozodlikka intilmoqda, u sizlarni qutqarishga kelishingizni so'rab ibodat qilishdan to'xtamaydi. Va'zning so'nggi so'zlari aytilgandan so'ng, Le Puy yepiskopi Monteil Ademar (keyinchalik birinchi salib yurishida Papa legati etib tayinlanadi) oldinga chiqdi va birinchi bo'lib olomonning qichqirig'i bilan xochni qabul qildi”. Xudo shunday xohladi!”, — deya qichqirdi. Robert Reymsning bergan ma'lumotlariga ko'ra: Papa bu qichqiriqlarni eshitib, “Titrayotgan birodarlar... agar sizda mavjud bo'lgan fikrlarda Robbiy Xudo bo'lmaganida, sizning bir ovozdan ovozingiz eshitilmas edi va u ko'p lablardan chiqqan bo'lsa-da, uning manbai bir xil edi. Bu qichqiriq siz uchun harbiy xabar bo'lsin, chunki bu so'z Xudo tomonidan aytilgan. Va kimki qalbida bu muqaddas qadamjolar tomon yurish niyatini ko'targan va Xudoga qasam ichgan hamda o'zini tirik, muqaddas va juda yoqimli qurbonlikka olib kelgan kishi, Egamizning xochining tasvirini peshonasida yoki ko'kragida olib yursin. Qasam ichib, qaytib kelishni istagan kishi, bu tasvirni yelka pichoqlari orasiga qo'ysin-deydi” [4].

Ko'rib turibmizki, bu yurish boshlanguniga qadar katolik cherkovi diniy g'oyalar bilan tus bergan. Papa va'zini bunga yaqqol misol qilib, keltirsak mubolag'a bo'lmaydi. Katolik cherkovi buni Xudo xohladi va u sizlarga bu yurishni boshlashingiz uchun xabar yubordi va bu yurishlarni muqaddas deya xalqni ommaviy harakatga boshladi. Robert Reymsning bu xronologik asari shu davrning eng ishonchli manbalaridan biri bo'lib, unda birinchi salib yurishlari va olib borilgan harakatlar barchasi to'liq yoritib berilgan. Salib yurishlari katolik cherkovining shu g'oyalari bilan boshlanishiga katta sabablardan biri bo'ldi.

Dastlabki salib yurishlari xususiyatlaridan biri ommaviylik bo'lib, lekin ular shoshilinch tashkil qilingan. Ularda gersoglar, graflar va ritsarlardan tashqari, dehqonlar, Italiyaning va Fransiyaning janubdagi shaharlar savdogarlari ham qatnashadilar. Yillar o'tib, harakatning ijtimoiy poydevori torayib, yurishlar ritsarlarning harbiy ekspeditsiyalariga aylana boradi. Salib yurishi Rim papasi Urban II tashabussi bilan Quddus va Falastinni musulmonlardan ozod qilish maqsadida amalga

o'shirilgan. Bu salib yurishlarining dastlabki sabablarida biri hisoblanadi va keyinchalik bir nechta sabablar vujudga keladi.

Asosan ko'plab tarix manbalarida salib yurishlarining boshlanishi aynan shu sababdan boshlanganligi to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Masalan, salib yurishlariga G'arbiy Yevropaning o'zidagi ijtimoiy ziddiyatlarning keskinlashib ketganligi edi va XI asrda mayda ritsarlarning ko'pchiligiga yer yetishmasligi, savdo-sotiq hamda shaharlarning rivojlanishi natijasida ehtiyojlarning o'sib borishi munosabati bilan feodallarning mahalliy dehqonlarni ekspluatatsiya qilishdan oladigan daromadlari ular uchun kifoya qilmaydigan bo'lib qoldi. Juda ko'p ritsarlar narsa olishga haqlari yo'q edi. Sharqdagi yerlarni bosib olish maqsadida u yerlarga yurishlar qilish bunday ritsarlarning mushkul ahvoldan chiqishlarining birdan-bir yo'li edi [5], degan ma'lumotlar keltiriladi.

Aholining va ritsarlarning turmush tarzi og'irlashgani sari ularda yangi yerlarga bo'lgan ehtiyojlar ortadi. Undan tashqari yangi yerlarga bo'lgan talabning oshishini boshqa sabablari ham bor ekanligi bilan izohlanadi.

Boshqa bir tomondan salib yurishlarga ijtimoiy-iqtisodiy, tashqi-siyosiy, diniy-psixologik omillar turtki bergan va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida boshlangan pul-tovar munosabatlarining yuksalishi jamiyatning an'anaviy tuzumidagi tabaqalashuvini tezlashtirib, bir tomondan senyorlar moddiy ehtiyojlarini o'stirsa, ikkinchi tomondan, ichki ziddiyatlarni kuchaytiradi [6] sabab bo'lganligi ta'kidlanadi.

Bu ma'lumotlarni o'qib tahlil qilar ekanmiz, salib yurishlari boshlanishiga bir necha omillar sabab bo'lib, ularning deyarli barchasi yuqori tabaqalar tomonidan oddiy aholi, dehqonlar va ritsarlarga nisbatan zulmning kuchayishi bu yurishning boshlanishiga eng asosiy sabab desak mubolag'a bo'lmaydi. Katolik cherkovi va aholining bu yurishlardan asl maqsadlari yangi yerlarga ega chiqish bo'lgan.

XI asr oxiri – XII asr boshida salib yurishidagi g'oyat muhim masala bu dehqonlar masalasi edi. G'arbiy Yevropaning feodal zulmi natijasida asoratga tushirilgan, ezilgan dehqonlari dastlabki paytlarda Sharqqa yo'l oldilar. Krepostnoy qaramlikdan xalos bo'lish, qarzlarni tugatish, Sharqdan yer olish umidi (shuni aytish kerakki, dehqonlarning geografik tasavvuri tamomila xayoliy, amalga oshmaydigan bir tasavvur edi) o'n minglab kishilarning tug'ilib o'sgan shahar va qishloqlarini tashlab, uzoq yurtlarga ketishga majbur etdi va ularning ko'plari bu joylarda och-yalang'och qolib, xor-zorlikda o'lib ketdi[7].

Ruhoniy, feodallar va dehqonlarning Sharqqa qiladigan yurishini vujudga kelgan og'ir ahvoldan qutulishning o'ziga xos bir yo'li deb bilardilar. O'rta asrlar jamiyatidagi insonlar ongida haqiqiy boyliklar Sharq mamlakatlarida ekanligi haqida tasavvurlar ham kundan-kunga kuchayib borar edi. Sharqdan keltirilgan kamyob mollar, ziravorlar bu fikrlarni asoslagandek tuyildilar. Natijada, Yevropada Sharqdagi boyliklarni egallash nafaqat mumkin, balki cherkov aytgandek Xudoga xush keladigan tadbir ekanligiga ishonch hosil qila boshlaydilar va bunday vaziyatdan foydalangan ko'pdan-ko'p monaxlar va boshqa daydi voizxonlar dehqonlar orasida targ'ibotlar yurgizib, ularni Sharqqa yurishdek «ezgu ishda» qatnashishga da'vat eta boshladilar.

Sharqqa qilingan dastlabki ikki yurishda dehqonlar ko'pchilikni tashkil qilganlar. Keyinchalik uchinchi salib yurishidan boshlab ular qatnashmay qo'ydilar. Bundan keyingi salib yurishlarining hammasida faqat feodallarning o'zlari qatnashdilar. Yevropa qirollari, eng yirik feodallar (graflar va baronlar), shuningdek, ko'pdan-ko'p ritsarlar Yaqin Sharqda, faqat Arab Sharqidagina emas, balki Vizantiyada ham yangi feodal davlatlar barpo etish masalasini ochiqdan-ochiq ko'zlay boshladilar. Quddus va Falastin masalasi, keyinchalik ularning rejalarida ikkinchi darajali masala bo'lib qolgan edi.

Katolik cherkovi bu yurishlardan o'z manfaatlari yo'lida foydalanib, “muqaddas urush” deb e'lon qilib, rejalashtirib qo'ygan rejalarini amalga oshirishni boshlaydi. Yangi yerlarga ega chiqib, o'zlarning foydalariga yangi feodal davlatlarini barpo qilish maqsadida bu yurishlarni shoshilinch boshlagan edilar.

Rim katolik cherkovi, salib yurishlarini tayyorlashda katta o'rin tutib, unga faqat shiorlar va rasmiy tus berib qolmasdan, ma'naviy-ruhiy, ba'zida g'oyaviy-moddiy asoslarni ham yaratadi.

Katolik cherkovining g'oyalari va bu g'oyalarni ma'qullagan xalq bilan salib yurishlari dastlabki harakatlari boshlanib ketdi hamda o'rta asrlar tarixida o'chmas iz qoldirgan muhim voqeaga aylandi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, salib yurishlari Yevropa tarixida o'chmas iz qoldirgan siyosiy jarayon bo'lib, dastavval bu yurish Iso payg'ambar qabri joylashgan hudud Quddusni musulmonlardan qaytarib olish maqsadida tashkil qilingan edi. Ammo bu yurishga katolik cherkovi diniy g'oyalar bilan tus berib, o'z maqsadi yo'lida bu yurishlarni ommalashtirishga harakat qildi. Katolik cherkovi O'rta asrlar Yevropa tarixida juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Shu sababli ham bu yurishlarning keng ommaviy tus olishi va tezlik bilan boshlanib ketishida katolik cherkovi hamda papaning hissasi kattadir. Katolik cherkovining mavqeyini uning qanday ahamiyatga ega bo'lganligini salib yurishlaridan ham ko'rsak bo'ladi. Ammo shunday bo'lishiga qaramasdan, katolik cherkovi o'zi rejalashtirgan maqsadlariga erishdi. Bosib olingan Sharq hududlarida salibchilar tomonidan graflik va bir nechta knyazliklar tuzildi. Quddusni egallab olishdi. Katolik cherkovi va salibchilar o'z maqsadlariga yetdilar. Bu yurish ko'plab yo'qotishlarga sabab bo'lgan bo'lsa ham katolik cherkovining o'z maqsadlari yo'lida bu jarayonlarga ko'z yumildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ш.Вохидов, А.Қодиров “Шарқнинг машхур сулолалари” “Академнашр” Т-2013 6-267
2. В.Ф.Семенов “Ўрта асрлар тарихи” “Ўқитувчи” нашриёти. Т-1973 6-177
3. “История крестовых походов” под редакцией Джонатана Райли-Смита Москва “Крон-пресс” 1998 ст-10-11
4. “История крестовых походов” под редакцией Джонатана Райли-Смита Москва “Крон-пресс” 1998 ст-10-11
5. В.Ф.Семенов “Ўрта асрлар тарихи” “Ўқитувчи” нашриёти. Т-1973 6-177
6. Салимов.Т.Ў “Жаҳон тарихи” (Европа мамлакатлари V-XV асрларда) “Университет” Т-2014 6-127
7. В.Ф.Семенов “Ўрта асрлар тарихи” “Ўқитувчи” нашриёти. Т-1973 6-178

UO'K 930.85:351.853(075.8)

JIZZAX VOHASIDAGI TARIXIY-MADANIY YODGORLIKLARNI O'RGANILISHIGA DOIR

F.Toshboyev, prof., PhD, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax
S.Uzakov, magistranti, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax

Annotatsiya. Mualliflar ushbu maqolasida Jjizzax vohasida tarixiy-madaniy yodgorliklarini o'rganish masalalarini yoritgan. Bunda Jizzax viloyatida ko'plab arxeologik yodgorliklar va tarixiy-madaniy yodgorliklar haqida ma'lumot berib, ushbu yodgorliklarga tarixiy turizmni tashkil etish masalalari hamda uning istiqbollari haqida ma'lumot bergan.

Kalit so'zlar: tarixiy-madaniy ob'ektlar, Nurtepa madaniyati, Bunjikat, “Qulfisar ota” ziyoratgohi, A.A. Gritsina, Beshbulok, Xo'jamushkent ota ziyoratgohi, Boboyakka qadamjosi, Ko'k ravot, Qaliyatepa.

Аннотация. В данной статье авторы осветили вопросы изучения памятников истории и культуры Джизакского оазиса. При этом он дал информацию о многих археологических памятниках и историко-культурных памятниках Джизакской области, а также дал информацию о вопросах организации исторического туризма к этим памятникам и его перспективах.

Ключевые слова: Историко-культурные объекты, нуртепинская культура, Бунджикат, святилище «Кульфисар ота», А.А. Грицина, Бешбулок, Ходжамушкентский отцовский храм, ступень Бобоякка, Кок Рават, Калиятепа.

Abstract. In this article, the authors covered the issues of studying historical and cultural monuments in Jjizzakh oasis. In doing so, he gave information about many archaeological monuments and historical-cultural monuments in Jizzakh region, and gave information about the issues of organizing historical tourism to these monuments and its prospects.

Key words: Historical and cultural objects, Nurtepa culture, Bunjikat, "Kulfisar ota" shrine, A.A. Gritsina, Beshbulok, Khojamushkent father shrine, Boboyakka step, Kok Ravat, Kaliyatepa.

Bugungi kunda jadallashib borayotgan globallashuv jarayoni g'arb va sharq sivilizatsiyalari uyg'unlashuvi, xalqlarning milliy o'zligini anglashi va an'anaviy madaniyatini saqlab qolishga bo'lgan intilishni tobora dolzarb masalaga aylantirmoqda. Bu esa xalqlarning milliy madaniyati va tarixiy yodgorliklarini o'rganishga bo'lgan qiziqishi ortishiga sabab bo'lmoqda.

Keyingi yillarda o'tkazilgan qidiruv, qazuv tadqiqotlari natijasida O'rta Osiyo arxeologiyasi fani olamshumul ahamiyatga ega bo'lgan kashfiyotlar bilan yanada boyildi. Bu esa O'rta Osiyo hududi dunyo sivilizatsiyasining asosiy va eng qadimgi madaniyat markazlaridan biri bo'lganligini yana bir bor e'tirof etadi. Insoniyat bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot tajribasidan bizga yaxshi ma'lumki, qaysi davlat, qaysi millat o'z madaniy merosini qadrlasa, e'zozlasa, o'zida mavjud bo'lgan milliy-madaniy an'analari, tarixiy obidalari, arxitektura yodgorliklarini ardoqlashga, o'sha moddiy-madaniy boyliklarni yaratgan ajdodlarga nisbatan hurmat ruhini shakllantira olsa, o'sha davlat, o'sha jamiyatda barqarorlik hukm surgan.

Jizzax viloyati O'rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan bo'lib, uning katta qismi cho'l va dashtliklardan iborat. Jizzax viloyatining re'lefi o'ziga xos bo'lib, tog', tog' oldi, dasht va tekislik (cho'l) zonalarining tutashib ketishi uning o'ziga xosligini tashkil etadi. O'lkaning katta qismini yer tuzilishi tekisliklardan iborat bo'lgan Mirzacho'l egallagan. U janubi sharqdan shimoli-g'arbgacha tomon pasayib boradi. Tekislik qismi shimoliy-g'arbgacha tomon nishab bo'lib, o'rtacha balandligi 250-300 m ga teng. Janubdagi tog' etaklarida balandlik 450-530 m gacha yetadi. Janubiy qismi relefini Turkiston tizmalari va uning g'arbiy Morguzar va Chumqartov tog'lari (balandligi 2500-3000 m gacha, Jizzax qismida 800 m) tashkil etadi[1]. Shimol va shimoli-sharqdan zinapoyasimon shakldagi tekisliklar tog'liklar tomon ko'tarilib boradi. Bu o'lka O'zbekistonning baland va o'rtacha balandlikdagi tog'lar, tog' etaklaridagi tekislik vohalari, sho'rxok va cho'l landshaftliklardan iborat g'oyat noyob mikromintaqani tashkil qiladi[2].

Viloyatning janubiy darvozasi bo'lgan Morguzar tog'ining o'rtacha balandligi 1500-2000 m., ayrim cho'qqilari esa 2621 m ga yetadi. U shimol tomon davom etib, Sangzor daryosining vohasi orqali Nurota tog'idan ajraladi. Sangzor vodiysining eng tor joyi Ilon o'tdi darasi (kengligi 120-130 m) hisoblanadi. Nurota o'rtacha balandlikdagi tog'lardan bo'lib, Hayotboshi deb nomlangan eng baland cho'qqisi 2169 m ga yetadi[3]. O'lkaning iqlimi keskin kontinental. Tekislik qismida yillik yog'in miqdori 200-350 mm atrofida bo'ladi. Mintaqaning tekislikdan iborat ekanligi, shimol tomoni ochiqligi, janub tomonida esa tog'lar mavjudligi sababli, bu yerda Arktika va Sibirdan keladigan sovuq havo massalari turib qoladi. Natijada, qishda havo harorati keskin pasayib, yanvarda o'rtacha harorat -1-3 gradus bo'lsa, sovuq kunlarda havo harorati -30-35 gradusgacha yetadi. Aksincha, bu hudud yozda termik depressiya ta'sirida bo'ladi va havo quruq, jazirama issiq bo'lib, iyulning o'rtacha harorati +26 +28 gradusga yetib, ba'zan +44 +46 gradusgacha ko'tariladi[4]. Tekislik (cho'l va dasht)larda namgarchilik kam bo'lib, tog' mavzolari tomon yog'ingarchilik orta boradi. Turkiston tog' tizmasining shimoliy yonbag'rida yillik o'rtacha yog'in miqdori 600 mm, Nurota tog' tizmasi yonbag'irlarida esa 350-400 mm atrofida bo'ladi. Tog'larda qor ko'p yog'adi, uning qalinligi 0,50-1 m ga yetadi.

Xullas, Jizzax viloyatining geografik qulayliklari tufayli dastlabki urug' jamoalar chorvador hamda o'troq dehqonlar uchun qulay tabiiy shart-sharoit va unumdor yerlar, ayniqsa oqar suv manbalari mavjudligi vohada inson faoliyati bilan bog'liq ijtimoiy jarayonlarning o'zaro moddiy va boshqa madaniy turlarning baravj rivojlanishiga asosiy sabab bo'lgan. Bir paytning o'zida chorvani mavsumiy tarzda qishda – cho'lli mintaqada, yozda esa–tog' o'tloq yaylovlari mintaqasida boqish imkoniyati chorvachilik xo'jaligining ham rivoj topishiga imkon yaratgan. Yaylov (o'tloq) imkoniyatlarining har tomonlama qulayligi bu yerda chorvachilik madaniyatining ham o'troq dehqonchilik madaniyati bilan hamohang tarzda taraqqiy etishiga sabab bo'lgan.

Arxeolog olimlarning xulosalariga ko'ra, Nurtepa madaniyati bir tomondan qadimgi Chochning Burg'uluq, Farg'onaning Eylatan, Qayroqum, Sug'dning Qadimgi Sug'd madaniyatlari ta'sirida bo'lgan bo'lsa, ikkinchi tomondan yuqoridagi madaniyatlar ham Nurtepa madaniyatining ayrim ko'rinishlarini o'zlarida aks ettiradi. Ushbu madaniyatga mansub aholi uy-joylarni to'g'ri to'rtburchak va kvadrat formadagi xom g'isht va paxsadan qurishgan. Shu bilan birga yarim yerto'lasimon uylar xam bo'lgan[5]. Uy hayvonlari suyaklari, tosh yorg'uchoq, keli va uning

soplarining uchrashi ularda chorvachilik va dehqonchilikning rivojlanganligidan dalolat beradi. Sopol buyumlar charxda yoki qo'lda yasalgan. Qurol-yaroqlar ichida bronzadan yasalgan o'q-yoylar keng tarqalgan[6]. Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikning rivoji, temirchilikning yuksalishi, kulolchilikda charxning keng qo'llanilishi va viloyat aholisining qo'shni o'lkalar bilan savdo-sotiq munosabatlarining taraqqiy etishi viloyat hududidagi qadimgi yodgorliklarning iqtisodiy yuksalishga olib keladi.

Shimoliy-g'arbiy Ustrushonaga geograflar tomonidan tekis, cho'lliklarga tutash rustoqlarga ega bo'lgan dehqonchilik vohalari sifatida ta'rif berilgan. Ibn Havqalning yozishicha, "Ustrushonada kema yursa bo'ladigan daryo ham ko'l ham yo'q, lekin uning ekinzorlari, yaylovlari va qishloqlari obod hosildor va (turli-tuman) mahsulotlarga boy[7] ... Uning yirik shahri ustrushonaliklar tilida Bunjikat deb ataladi. Unga quyidagi shaharlar qarashli: Arsubonikat, Kurkat, G'azak, Fag'kat, Sobot, Zomin, Dizak, Nujkat, Xarqona. Bular Ustrushonaning shaharlaridir. Hukmdorlari yashaydigan bosh shahar Bunjikat bo'lib, unda erkak aholining soni taxminan o'n ming kishini tashkil etadi. Binolari esa paxsa va g'ishtdan qurilgan"[8]. Muarrir yuqoridagi shaharlarning har birida rustoqlar borligini ta'kidlab, shaharlari mavjud bo'lmagan Bashog'ar, Masxo, Barg'ar, Farg'ontom, Mink, Baskan va Isbikat rustoqlar haqida ham to'xtalgan[9]. Ushbu sayyohning bergan ma'lumotidan Ustrushonaning tog' mavzellarida joylashgan rustoklarida shaharlar mavjud bo'lmaganligini anglash mumkin.

N.N. Negmatovning yozishicha, Ustrushonaning tekislik qismidagi rustoqlar – Bunjikat, Sabat, Zomin, Fag'non, Nujkat va Xarqona deb atalgan bo'lsa, tog'li qismidagi rustoqlar – Mink, Asbanikat, Biskar, Bangam, Vavr, Shagar, Mascha, Burgar, Buttam deb nomlangan[10]. Davlat poytaxti - Bundjikat Shahrisonsoy daryo qirg'oqlarida, hozirgi Shahrison qishlog'i va uning tog'oldi hududlarida qad rostlagan. Bu davrda Bundjikat Markaziy Osiyoning katta shaharlaridan biriga, iqtisodiyot, savdo va madaniyat markaziga aylangan[11]. Ustrushonaning shimoli-g'arbiy rustoqlari mamlakatning ajralmas qismi sifatida uning siyosiy va iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutgan. Bosh shahar Bunjikat rabodining to'rt darvozasidan ikkitasi shimoli-g'arb shaharlari nomi bilan "Zomin va Nujket darvozalari"[12], deb atalgani bejiz bo'lmas kerak.

Arxeolog va tarixchilar tomonidan yuqoridagi kabi manbalarda qayd etilgan aholi manzillari o'rnini aniqlash borasida anchagina tadqiqotlar o'tkazilgan. Ustrushonaning Tojikiston Respublikasi hududidagi tarixiy madaniy vohalarni tadqiq etgan mutahassislar boshlashgan. O'tgan asrning 50-yillarida O.I. Smirnova rahbarligidagi Tojik arxeologiya ekspeditsiyasi tomonidan Ustrushonaning markaziy va sharqiy qismida qidiruv-qazuv izlanishlari boshlangan, natijada o'sha paytga qadar fanga ma'lum bo'lmagan o'nlab qadim hamda o'rta asrlarga oid aholi manzillari qayd etilgan. Ma'lum bo'lgan ushbu arxeologiya yodgorliklari orasida ilk o'rta asrlarga oid qishloq makonlari son jihatdan ko'pchilikni tashkil qilgan. Shu sababli, qazuv tadqiqotlari aksariyat hollarda arab istilosiga qadar faoliyat ko'rsatgan qal'a-qo'rg'onlarda olib borilgan. Natijada, O'rtaqo'rg'on, Tirmizaktepa, Chilhujra kabi, nafaqat Ustrushona, balki butun Markaziy Osiyo qishloq makonlari madaniyati tarixi uchun muhim yangiliklar bergan noyob yodgorliklar arxeologiya fani ilmiy muomalasiga kiritilgan.

Jizzax vohasida tarixiy obidalar va muqaddas qadamjolar ham ko'plab saqlanib qolgan. Jizzax vohasida ham tarixiy obidalar hozirgi paytda arxeologik yodgorlik sifatida qisman o'rganilgan tarixiy ob'ektlar, ziyoratgohlar asosan avliyolar, muqaddas sanalgan predmetlar, tabiiy-geografik ob'ektlar, hayvonlar kulti va ularni muqaddaslashtirish hamda tabiat mo'jizalari bilan bog'liq holda shakllangan. Muqaddas mozorlarning ba'zilar islomdan avvalgi mahalliy kul'tlar va islom dinini yoygan sahobalar hamda din ravnaq topgach, shu zaminda yashab o'tgan avliyolar, ularning yaqinlari bilan bog'liqdir.

Muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlarni tasniflash borasida turli qarashlar va yondashuvlar mavjud. Jumladan, shu yo'nalishda tadqiqot olib borgan olimlardan N. Abdulhatov Farg'ona vodiysida mavjud bo'lgan muqaddas qadamjolarining geografik joylashuviga ko'ra to'rt guruhga ajratgan bo'lsa[13] (Marg'ilon, Qo'qon, Farg'ona va Sux hududlariga xos ziyoratgohlar), Z. Abidova esa Xorazm vohasiga doir ziyoratgohlarning tarixiy kelib chiqishiga e'tibor qaratgan holda sakkiz guruhga bo'lib tasniflagan (payg'ambarlar nomi bilan ataladigan, sahobalar va ularning izdoshlari bilan bog'liq, turli kasblarning homiy pirlari nomlari bilan hamda tabiat kuchlari bilan bog'liq bo'lgan ziyoratgohlar).

Shunday qilib, O'rta Osiyo, xususan Vatanimiz sarhadlari jahon xalqlari sivilizatsiyasi ravnaq topgan markazlardan biri hisoblanadi. Buni moddiy, madaniy va arxeologik meros ob'ektlarining ko'pligi va ular tadqiqoti natijasida qo'lga kiritilgan katta hajmdagi arxeologik manbalar, materiallar tasdiqlab turibdi. Xalqimizning madaniy merosini chuqur o'rganish, uni asrab-avaylash va kelajak avlodga yetkazish, xususan ana shu yodgorliklarni qayta tiklash, ta'mirlash, restavratsiya qilish, arxeologik izlanishlar olib borish va natijalarini jahon hamjamiyatiga yetkazish qadim tariximizni o'rganish va targ'ib qilishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Агроклиматические ресурсы Джизакской и Самаркандской областей Узбекской ССР. – Ташкент: 1977.
2. Алибеков Л.А., Нишанов С.А. Природные условия и ресурсы Джизакской области. –Ташкент: Узбекистан, 1978.
3. Алибеков Л.А. Ўрта Осиё табиий географияси. – Самарқанд: 2006,
4. Грицина А. Археологические памятники Сырдарьинской области. Тошкент,1992.
5. Тошбоев Ф.Э. Икки хил хўжалик ягона иктисодий тизим // Ўзбекистон археологияси №1. – Тошкент: Фан, 2010,
6. Ибн Ҳавқал. Китоб сурат ал –ард. – Тошкент, 2007.
7. Негматов Н.Н. Государство Саманидов (Мавераннахр и Хорасан в IX-X вв.). – Душанбе.: “Дониш” 1977.
8. В.А. Воронина, Н.Н.Негматов. Открытие Уструшаны. // Наука и человечество. Международный ежегодник. Москва, 1974,
9. Бетгер Е.К. Извлечения из книги «Пути и страны» Абу-л-Касима ибн Хаукаля. Труды САГУ. – Тошкент: 1957.
10. Абдулахатов Н. Фарғона водийси зиёратгоҳлари ва қадамжолари (Фарғона вилояти мисолида): Тар.фан. ном. учун дисс. – Тошкент, 2006.
11. Абидова З. Хоразм воҳаси зиёратгоҳлари ва қадамжолари: тар. фан. бўйича фал. док. учун дисс. автореф. – Тошкент. 2018,
12. Ақчаев Ф. Хўжамушкент ота зиёратгоҳи ҳақида баъзи мулоҳазалар // “Моддий-маънавий мерос ва умумбашарий кадриятлар” мавзусидаги Республика илмий-амалий анжумани материаллари тўплами. – Тошкент. 2015.
13. Исмоилзода Ш. Судур бобо ёхуд Нурато тарихидан саҳифалар. – Тошкент. 2005.

UO’K 930

ZIYOLILAR QATLAMINING TARKIB TOPISHI VA ULARNING JAMIYAT HAYOTIDA TUTGAN ROLI

Sh.U.Tosheva, mustaqil tadqiqotchi, “TIQXMMI” MTUning Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti, Qarshi

Annotatsiya. Ushbu maqolada ziyoli tushunchasining mohiyati, mazkur qatlamning tarkib topishi va ularning jamiyat siyosiy-ijtimoiy, madaniy hayotidagi roli hamda ziyoli kishining tinimsiz yuksaklikka intilib kelishi natijasida jamiyat rivojlanib borayotganligi xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: ziyolilik, qatlam, jamiyat, harakat, fenomen, tadqiqot, toifa, tushuncha, muvafaqqiyat, hayot, yuksalish.

Аннотация. В этой статье рассматривается сущность понятия интеллигенции, состав интеллигенции и их роль в политической, социальной и культурной жизни общества, а также то, как интеллигентная личность неустанно стремится к высшему.

Ключевые слова: интеллект, слой, общество, движение, феномен, исследование, категория, концепция, успех, жизнь, прогресс.

Abstract. This article talks about the essence of the concept of intellectuals, the composition of this stratum and their role in the political, social and cultural life of the society, as well as the fact that the society is developing as a result of the intellectual's relentless pursuit of excellence.

Key words: intellectuality, layer, society, movement, phenomenon, research, category, concept, success, life, rise.

Jamiyatning asosiy yutuqlaridan biri-bu xalq orasida ziyoli qatlamning yuzaga kelishidir.[1] Shu xususda ziyolilar bu fundamental ta'lim va chuqur bilimga ega bo'lgan jamiyat a'zolari qatlamidir. Ziyolilarning jamiyatning boshqa a'zolaridan ajratib turadigan aspekti –bu ular

shug'ullanadigan harakat doirasini chuqur sintez qilib, ilmiylik va asoslanganlik nuqtai nazaridan baholay olish va ilmiy asoslangan bashoratlar ishlab chiqish qobiliyatidir.

“Ziyolilik” tushunchasi (rus tilida –“intelligensiya”, ingliz tilida “intelligent sinfi”) kundalik hayotda XIX asr oxirlarida qo'llanila boshlangan.[2] Bu tushunchaning dastlabki tahlillari Fransiyada ushbu ijtimoiy toifani yuzaga kelishi bilan bog'lanadi. Fransiyada bu sotsial kategoriyaning elit tahlili Pol Benishuning “Yozuvchining bag'ishlovi” (Le Sacre de l'Écrivain, Копти, 1973). asarida chuqur tahlil qilingan. Bu tushuncha XVIII asrdan ruhoniylarga nisbatan xalqning ishonchi so'ngan bir davrda paydo bo'ldiki, bu davrlarda ziyoli qatlam xalq qalbida bo'shagan joyni egallashiga qaratilgan harakat sifatida baholandi.[3] Ziyolilar harakatining yaqqol ta'sirini biz Emil Zolyaning “Avrora”da bosilib chiqqan “Men ayblayman” maqolasi nafaqat Fransiyada balki butun Yevropada ziyolilarning siyosiy darajadagi ta'siridan ko'rishimiz mumkin.[4]

Ziyoli yoxud “intelligence” so'zining etimologiyasi haqida izlanishlar natijasi bu ibora 1300 yillarda ham ishlatilganligining guvohi bo'lish mumkin. O'zi yetti kun ichida aql-zakovatga ega bo'ladi (He which withinne dayes sevene..thilke intelligence In mannes soule resonable Enspired, to himself semblable)[5], ko'rinib turibdiki, John Gower o'zining Confessio Amantis asarida ziyolilik tushunchasini ishlatib ketgan bu taxminan XIV asarlarga oid yozma manbaa hisoblanadi. Ziyolilik lotin tilidagi intellego fe'lidan olingan bo'lib, quyidagi ma'nolarni bildiradi: “sezmoq, sezmoq, sezmoq, bilmoq, bilmoq; o'ylash; ko'p narsani bilish, tushunish”. [6]

“Intelligensiya” tushunchasining o'zi aniqlash qiyin bo'lgan tushunchalardan biri bo'lib, ijtimoiy va gumanitar bilimlar kategoriyasiga kiradi. Ko'p urinishlar natijasida olimlar barcha jihatlarni qamrab olgan universal talqinni olishlari kerak edi “ziyolilar” fenomeni murakkabligi tufayli ob'ektiv ravishda tahlil unchalik muvaffaqiyatli bo'lmadi, Bu hodisaning ko'p funktsionalligi va imkoniyatlarini ko'rsatadi. “Intelligensiya” so'zining etimologiyasi ham biroz noaniq. Ba'zi tadqiqotchilar uning kelib chiqishini lotincha intelligens so'ziga bog'laydilar - tushunish, fikrlash, oqilona ma'nolarida keladi. Boshqalar esa u lotincha intelligentia so'zidan kelib chiqqan -g'oyalar va ob'ektlarni tushunish, tushunish, aniqlik kiritish qobiliyati; aql, ma'nolarida keladi deb izohlaydilar.

Bundan tashqari, biz tadqiqotchilarning noaniq fikrlarining ham guvohi bo'lamiz. “Intelligensuya” ya'ni ziyolilar tarkibiga turli xil siyosiy harakatlarga mansubligi bilan bir qatorda umumiy ma'naviy-axloqiy asosga ega bo'lgan turli kasbiy guruhlariga mansub bo'lgan kishilar kiradi.

Intelligensiya so'zi ming yillar oldin paydo bo'lgan, ko'p tillarda mavjud va aql muammosining boshlanishi atamaning o'zi paydo bo'lgan antik davrga borib taqaladi. “Tafakkur substrati” (Plotinus)da eng yuqori bilim sifatida-yuqori aql deb ta'riflanadi. O'rta asrlarda bu tushuncha teologik xususiyatga ega bo'lgan. Aynan shu o'ziga xos ma'no bilan “ziyolilar” so'zi G'arbda qo'llanila boshlandi va u erda u o'ziga xos ruscha deb hisoblandi. Foma Akvinskiy o'zining Teologiya summasida “intelligensiya” atamasini ishlatadi, biroq bu atamani u ‘ongning kognitiv harakati” deb tushuntiradi.

U Xudoning aqli sifatida, eng oliy ong deb hisoblangan o'zi uchun dunyoning xilma-xilligini yaratish va bu xilma-xillikda eng ko'p farqlash qimmatlidir, uni o'ziga yetaklaydi deb baholabadi. Aql-idrokni tushunishda bir butun sifatida ideal, mukammal, tushunarli mohiyat saqlanib qolgan. [7]

“Ziyoli” fikri ravshan, ongli, odamlarga ziyo, nur ulashadigan kimsa ma'nosida ishlatiladi. Hatto ba'zi bir xalqlar biz tushungan ma'nodagi ziyolini “oydin”, “oydinlar” deb ataydi. Masalan, turklarda bu atama keng tarqalgan. Bundan tashqari, “intelgent”, “inteligentsiya” (lotincha intellestus so'zidan olingan) atamasi aql, zakovat, ong, idrok, insonning fikrlash qobiliyati, degan ma'noni anglatadi. Lug'atlarda ko'rsatilishicha, “intelligentsiya” “professional tarzda aqliy mehnat bilan shug'ullanadigan va buning uchun zarur bo'lgan maxsus ma'lumotga ega ijtimoiy tabaqa” deb qaraladi. Bunga injenerlar, texniklar, tibbiyot xodimlari, o'qituvchilar, huquqshunoslar, fan va san'at arboblari ham kiradi. Bu ta'rif, umuman, to'g'ri, biroq uning istisnolari ham bor. Hayotda maxsus ma'lumotga ega bo'lmagan, aqliy mehnat bilan shug'ullanmaydigan, lekin juda aql-zakovati o'tkir, teran fikrlaydigan, narsa va hodisalarning mohiyatini chuqur idrok etoladigan oddiy odamlar ham tez-tez uchrab turadi.[8]

Ziyolilar qatlamining tarkib topishi va ularning jamiyat siyosiy-ijtimoiy, madaniy hayotida roli haqida ko'plab fikrlar yuritish mumkin. Kishilik jamiyati tarkib topibdiki u tinimsiz yuksaklikka

intilib keladi va bu jarayonni alohida toifadagi “elita” qatlamisiz tasavvur qila olmaymiz. Temuriylar davrlari, undan keying davrlar, qolaversa millatimiz ziyolilik darajasini alohida yangi bosqichga ko'tarib bergan Munavvar Qori Abdurashidxonov va uning zamondoshlari yashagan davrlarni alohida e'tirof etish mumkin. O'zbekistonimizning mustamlakachilik siyosati ostida bo'lgan tarixiy davrlarida ham ziyolilik darajasi to'xtab qolmadi. Bu davrlarda ziyolilar xalqimiz manfaatlarini doirasida yetishib chiqdilar va alohida rivojlanish bosqichiga ko'tarildilar.

Sobiq sovet davrlarida mashaqqatli mehnat zahirida yaratilgan oliy darajali sanoatlashuv asosidagi davlat qurilishida o'zbek xalqining mashaqqatli mehnatini e'tirof etilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Bu davrlarda respublikalarni sanoatlashtirish siyosatining amalga oshirilishi Ittifoq tarkibiga kirgan davlatlar hududida turli sanoat zonalarini tashkil etish muayyan ziyolilar qatlamining vujudga kelishiga asos bo'ldiki, bunda yuqori saviyada texnik xodimlarni tayyorlash va yuksaltirishga alohida e'tibor qaratilgan.[9]

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda aholi, ayniqsa, yosh avlod qalbi va ongida Yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, Xalq farovonligi g'oyalariga sadoqat uyg'otishda ziyolilar bilan bog'liq masala nihoyatda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bugungi murakkab jarayonlarni, turli begona g'oya va buzg'unchi mafkuralar tahdidini har jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash, ularning ustuvor yo'nalishlarini, kimga va nimaga qarshi qaratilganini aniqlash, aholi turli qatlamlariga ta'sirini o'rganish, milliy manfaatlarimiz, hayot tarzimizga zid bo'lgan xurujlarning mohiyatini ochib berish, fuqarolarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash bilan bog'liq vazifalar bugungi ziyoli mas'uliyatini belgilovchi asosiy omillardir. Bu esa fuqarolarni o'z mustaqil fikriga ega, turli ma'naviy xurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. S.Nasirxodjajev Intelligensiya Uzbekistana I yeyo rol v stroitelstve kommunizma."Uzbekistan" Tashkent 1972.
2. УДК 167.7, 304.2, 172.12 Кандидат философских наук, доцент кафедры этики философского факультета Московского государственного университета имени М.В.Ломоносова Татьяна И. Porokhovskaya PhD (Philosophy), Senior Lecturer in Ethics, Faculty of Philosophy of Lomonosov Moscow State University E-mail: 632712@mail.ru Т.И.Пороховская Ответственность интеллектуалов*
3. The Genealogy of the Intellectual since the French Enlightenment. TZVETAN TODOROV Centre National de la Recherche Scientifique Translation by Martha Noel Evans.PMLA Forum, Modern Language Association, 10 Astor Place, New York, NY 10003-6981 (fax: 212 533-0680).
4. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
5. J. Gower, Confessio Amantis (Bodleian MS. 902) viii. l. 2976* (Middle English Dictionary) Citation details for J. Gower, Confessio Amantis.
6. Kazakhstan National encyclopedia (ru) - Vol 2 of 5 (2005).pdf
7. Звездунова Г.В. (Каменск-Шахтинский) Интеллигенция и элита: поиски взаимного соответствия.
8. Ozod Sharafiddinov. ziyolilik (2003)28.10.2014yil ziyoz.uz kutubxonasi.
9. S.Nasirxodjajev.Intelligensiya Uzbekistana I yeyo rol v stroitelstve kommunizma.Tashkent"Uzbekistan".

UO'K 908

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARDA O'ZBEKISTONDA TIBBIYOTNING HOLATI VA MUAMMOLARI

M.Turayev, o'qituvchi, Axborot texnologiyalari va menejment universiteti, Qarshi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistondagi tibbiyotni yaxshilash yuzasidan chora-tadbirlar olib borish sog'liqni saqlash islohotlarining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida sanitariya-epidemiologiya markazlari faoliyatiga asosiy e'tibor qaratilgan. Keyingi yillarda olib borilgan tadbirlar natijasida tibbiy profilaktika va sanitariya-epidemiologik barqarorlikni taminlanganligi bayon etiladi.

Kalit so'zlar: tibbiy kadr, shifokorlar, umumiy amaliyot shifokorlari, qishloq vrachlik punktlari, feldsherlik-akusherlik punktlari, malaka, toifa.

Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется деятельности санитарно-эпидемиологических центров как одному из основных направлений реформы здравоохранения, проведению мероприятий по улучшению медицины в Узбекистане в годы Второй мировой

войны. В результате мероприятий, проведенных в последующие годы, была обеспечена медицинская профилактика и санитарно-эпидемиологическая стабильность.

Ключевые слова: медицинский персонал, врачи, врачи общей практики, сельские врачебные пункты, фельдшерско-акушерские пункты, квалификация, категория.

Abstract. This article focuses on the activities of sanitary and epidemiological centers as one of the main areas of health reform, taking measures to improve medicine in Uzbekistan during the Second World War. As a result of the activities carried out in the following years, it is stated that medical prevention and sanitary and epidemiological stability are ensured.

Keywords: medical cadre, doctors, general practitioners, rural doctor's office, paramedic-obstetric office, qualification, category.

Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekiston sog'liqni saqlash tarmog'i moddiy-texnika bazasini mustahkamlash davlatning muhim vazifalaridan biriga aylandi. Chunki evakuatsiya qilingan va yangidan tashkil etilgan harbiy gospitalarni binolar, kerakli tibbiy asbob-uskunalar va kadrlar bilan ta'minlash, tibbiyot sohasiga fanning yangi-yangi yutuqlarini joriy etish uchun katta mablag' talab qilindi. 1941 yil respublika sog'liqni saqlash tizimiga 330556 ming rubl sarflangan bo'lib, asosiy mablag'lar davolash ishlariga, kadrlar tayyorlashga, soha fanini rivojlantirish uchun ajratildi. 1944 yilga kelib soha uchun ajratilgan umumiy mablag' 482653 ming rublni tashkil qildi[5].

Urush yillari qishloq aholisiga tibbiy xizmat ishini tashkil etish borasida ham muayayn ishlar olib borildi. Bu davrda O'zbekistonda qishloq vrachlik uchastkalari 9,1 martaga, ulardagi davolash o'rinlari 9,4 martaga ko'paydi[6]. Qishloqlarda dehqonchilik ekinlarini ekish va hosilini yig'ish paytida shahar va tuman markazlaridan tibbiy xizmatchilar brigadalari yuborilib, ular aholining yashash va mehnat sharoitlarini o'rganib, kerakli tibbiy yordam ko'rsatdi. Masalan, 1942 yili Toshkent, Andijon, Farg'ona va Namangan viloyatlari qishloqlariga 47 ta shifokor brigadasi yuborildi[4]. Respublika qishloq davolash muassasalari 1941 yili 200 ta bo'lsa, 1945 yilga kelib 296 taga etdi. Ulardagi davolash o'rinlari soni 6134 taga ortdi. Qishloqlarda asosiy tibbiy maskan hisoblanmish feldsher-akusherlik punktlari soni shu yillarga taalluqli ravishda 928 tadan 1158 taga ko'paydi[5].

Urush yillarida O'zbekistonda davolash muassasalari, o'rinlar va tibbiyot xodimlari evakuatsiya qilinganlar hisobiga ortib bordi. 1941 yili O'zbekistonda 368 ta kasalxona va 19498 davolash o'rinlari mavjud bo'lgan bo'lsa, 1945 yilga kelib shifoxonalar 481 ta, davolash o'rinlari 24848 taga, vrachlar esa 2561 tadan 2984 taga ortdi[7].

O'zbekiston sog'liqni saqlash organlari zimmasiga yuklangan murakkab vazifalardan biri bu evakuatsiya qilingan gospitallar faoliyatini yo'lga qo'yish va ularning ish jarayonlarini tashkil etib, yarador va bemorlarni davolash ishlarini olib borish edi. Qoida bo'yicha harbiy gospitallar asosan temir yo'l yaqinidagi shahar hududlariga joylashtirildi va gospitallar faoliyatiga respublika Sog'liqni saqlash xalq komissari o'rinbosari B. I. Berliner rahbarlik qildi. Gospitallar uchun maktab va institut, klub va teatr binolari bo'shatib berildi. 1941 yilning dekabrda respublikada 96 ta evakuatsiya qilingan gospitallar bo'lib, ularda 31700 davolash o'rni mavjud edi. 1942 yilning oxiriga kelib O'zbekistonda 113 ta harbiy gospital va ularda 39140 ta davolash o'rni ishlab turdi. Harbiy gospitallarda 1941 yil oktyabridan 1945 yil 1 iyuliga qadar 164 ming 382 nafar yarador askar va zobitlar davolandi[8].

Harbiy gospitallar asosan Toshkent va Samarqand shaharlarida joylashtirilib, ularning har biriga 20 tadan[9], Farg'ona viloyatida esa 16 ta shunday davolash muassasasi faoliyat olib bordi. Masalan, Samarqand shahrida 1530, 1268, 1267, 3963, 3962, 3964, 3965-sonli harbiy gospitallar ishlab turdi. Shahardan tashqari gospital tarmoqlari viloyatning temir yo'lga yaqin joylashgan Bulung'ur, Narpay, Paxtachi kabi tumanlarida joylashtirildi. Samarqand viloyatidagi gospitallarda urush yillarida 50 mingdan ortiq yarador askar va zobitlar davolandi. Davolangan yaradorlarning 49 foizi harbiy xizmatga qaytarildi[10]. Gospitallardagi yaradorlarni davolashda Samarqand shahriga evakuatsiya qilingan S. M. Kirov nomidagi Leningrad harbiy-tibbiy akademiyasi olimlari va mutaxassislari katta yordam ko'rsatdi. Ular faqat maslahat berib qolmasdan, jarrohlik bo'limlari faoliyatiga ham rahbarlik qildi. Samarqand viloyatidagi evakospitallarning bosh jarrohi vazifasini

Samarqand tibbiyot instituti professori B. E. Pankratev va undan so'ng K. V. Medvedkolar bajardi. Samarqand shahriga evakuatsiya qilingan harbiy gospitallarda akademiklar N. N. Anichkov, V. N. Osipov, V. I. Voyachik, V. A. Shamov, professorlar S. A. Novotelnikov, A. V. Lebedinskiy, V. S. Daynikov, V. M. Broderzon, S. Yu. Minkin, M. N. Entin, F. M. Folkler va boshqalar faoliyat olib bordi[11].

Andijon viloyatida 1941 yili 5 ta harbiy gospital tashkil etilib, keyingi yillarda ular 10 ta bo'ldi. Shahardagi madaniy-ma'rifiy muassasalarning binolari ularga berildi. Masalan, Andijon shahrining 24-sonli maktabi binosiga 5161-evakospitali joylashtirildi[12]. Urush yillari Andijonda g'arbdan ko'chirib kelingan N. I. Panishevskaya, A. I. Aslibekyan, I. P. Garinina, N. I. Mixaylova, A. I. Romanenko kabi tibbiyot xodimlari bor edi[13]. Toshkent shahrida mamlakatdagi yirik hisoblangan ko'z kasalliklari gospitali tashkil etilib, unda taniqli akademik V. P. Filatov faoliyat ko'rsatdi[14]. Urush yillari Ukraina ko'z kasalligi ilmiy-tadqiqot instituti akademigi, sohaning mamlakatdai etuk mutaxassislaridan V. P. Filatov Toshkent shahrida, xarbiy-tibbiy akademiyaning ko'z kasalliklari klinikasi professori B. L. Polyak, professor V. N. Arxangelskiylar Samarqandda, Moskva meditsina institutining ko'z kasalliklari klinikasi professori M. Ya. Fradkin Farg'onada faoliyat olib bordi.

Urush yillari yirik korxonalar qoshida tibbiy sanitariya qismi (MSCH) va sog'lomlashtirish punktlari tashkil etildi. Masalan, 1942 yili tibbiy sanitariya qismlarida 342 nafar shifokor va 605 nafar o'rta tibbiyot xodimlari faoliyat olib bordi. O'rta Osiyodagi yirik gidroelektrstansiya–Farhod GES qurilishi boshlanish bilan quruvchilarga tibbiy yordam ko'rsatish maqsadida tibbiy sanitariya qismi tashkil etildi. Uning tarkibida 250 o'rinli shifoxona, poliklinika va mustaqil sanitariya-epidemiya stansiyasi faoliyat olib bordi. Bundan tashqari qurilish maydonida vrachlik uchastkalari va bezgakka qarshi punktlar ishlab turdi[15].

O'zbekistonda urush tufayli onalik va bolalikni muhofaza qilish ishi biroz susayadi. Bu holat 1943 yil 20 aprelda SSSR Sog'liqni saqlash xalq komissarligining № 181-sonli buyrug'ida ham qayd etildi. Unda ta'kidlanishicha, O'zbekiston SSR, Qirg'iziston SSR, Tatariston ASSR kabi hududlarning Sog'liqni saqlash xalq komissarligi tug'ruq ishlari ustidan nazoratni susaytirganlar. Natijada bu hududlarda tug'ruq muassasalari faoliyati ko'rsatkichlari yomonlashgan. Bu davrda tug'ruq jarayonida tibbiy yordam ko'rsatish 1940 yilga nisbatan 2 martaga kamaygan. Onalar va bolalar o'rtasida davolash-profilaktika ishlarining pasayishi, sanoat korxonalarida qoshida ishchi ayollar uchun akusher-ginekologiya xizmatining yo'lga qo'yilmaganligi, tuman sog'liqni saqlash bo'limi rahbarlari qishloq sharoitida kolxoz tug'ruq uylari tarmog'ini asossiz qisqartirishlari kabi omillar soha ishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

1943 yil martida Moskvada bolalar sog'lig'ini saqlash masalasiga bag'ishlangan Butunittifoq anjumani bo'lib o'tdi. Anjuman hujjatlarida mamlakatda tug'ruq ishlarining tashkiliy-uslubiy jihatlari, onalar va bolalar o'limi tafsilotlari o'rganilib, natijalari tug'ruqxona va ayollar maslahatxonalarida vrachlari konferensiyasi va boshqa yo'nalishlarida muhokama etilishi, kolxoz tug'ruq uylarini qayta tashkil etish, qishloqlarda tug'ruq ishlari rahbarligini yaxshilash, sanoat korxonalarida akusher-ginekologiya kabinetlari tashkil etish kabi masalalarga to'xtalib o'tildi[16].

1944 yil 8 iyunda SSSR Oliy Soveti Prezidiumining "Homilador ayollarga, ko'p bolali ayollarga va yolg'iz onalarga davlat yordami ko'rsatish, onalik va bolalikni himoya etishni kuchaytirish", "Qahramon ona" faxriy unvonini joriy etish, "Onalik shuhrati" ordeni va "Onalik" medalini ta'sis etish to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi. Ushbu farmonda ko'p bolali onalarga beriladigan imtiyozlar, frontda halok bo'lgan jangchilarning bolalariga yordam haqida ham gapirilib, yolg'iz onalarga nafaqalar bola 12 yoshga to'lgunga qadar beriladigan bo'ldi. Shuningdek, hujjatda yolg'iz onalar bolalarini davlat muassasalariga joylashtirishi va davlat hisobidan boqishi, yosh go'dakli onalarni tungi ishlarga jalb etishni taqiqlash haqida ham gapirildi[17]. Belgilangan chora-tadbirlarga qaramay onalik va bolalikni himoya qilish borasidagi ishlarni ijobiy baholab bo'lmaydi. Chunki urush yillari bolalarning turli yuqumli kasalliklarga chalinishi va o'limi ko'payib bordi. Masalan, 1945 yilning birinchi yarimida Andijonda chaqaloqlar uyidagi 192 ta boladan 58 tasi, Samarqand bolalar shifoxonasida 527 ta davolangan boladan 20 foizi turli sabablar tufayli vafot etdi. Urushning og'ir yillari sanitariya-epidemiya xizmati ishini yo'lga qo'yish qiyinlashib bordi. 1941 yil oktyabrda SSSR Davlat Mudofaa Komitetining "Mamlakatda epidemiya kasalliklari bo'yicha

aholini ogohlantirish va ularga qarshi kurash” tadbirlari yuzasidan maxsus qarori qabul qilindi. O‘zbekiston sharoitida urush yillari epidemiyalarga qarshi kurash tadbirlari og‘ir sharoitlarda olib borildi. Evakuatsiya qilinganlarning aksariyati aholi turar joy binolariga joylashtirildi. Aholi yashash punktlarida odam sonining ortishi tufayli shaharlarda sanitariya holati yomonlashdi va turli yuqumli kasalliklar epidemiyasi tarqalishining xavfi kuchaydi. Noqulay vaziyat hisobga olinib, joylarda epidemiyaga qarshi kurash favqulodda komissiyalari tuzildi.

O‘zbekistonlik mutaxassislar bilan birga markaziy mintaqalardan evakuatsiya qilingan sanitariya sohasi mutaxassislari ham respublika sanitariya xizmatini yaxshilashga o‘z hissalarini qo‘shdi. Masalan, urush yillari Toshkentda professorlar Moiseev, Kopranskiy, Yakovlenko kabi mashhur gigienistlar faoliyat olib bordi[1]. Ammo urush yillari belgilangan chora-tadbirlarga qaramasdan aholi orasida epidemiya xavfi o‘zib bordi. Turli yuqumli kasalliklardan ayniqsa terlama va bezgak epidemiyasi xavfi ortdi. Masalan, O‘zbekistonda 1942 yilning dekabrda 1953 nafar kishi tepkili terlama bilan ro‘yxatga olingan bo‘lsa, 1943 yilning fevralida 19258 nafar kishi shu kasallik bilan kasallandi. Bu kasallik ayniqsa Buxoro viloyati tumanlarida keng yoyildi[18].

O‘zbekistonda urush sharoitida ham bezgak kasalligi profilaktikasi bo‘yicha ba’zi chora-tadbirlar olib borildi. 1943 yil 13 martda Farg‘ona viloyati ijroiya komitetining “Farg‘ona viloyatida 1943 yilda bezgakka qarshi kurash bo‘yicha sanitariya-gidrotexnik tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi[2]. Ushbu hujjatda viloyat hududida mart-aprel oylarida barcha suv havzalarini, xususan, sug‘orish va zovur tarmoqlarini tozalash, Farg‘ona, Qo‘qon va Marg‘ilon shaharlarida ariqlarni ochish va ularda suvning doimiy oqishini yo‘lga qo‘yish hamda bu ishlarning barchasini hashar yo‘li bilan amalga oshirish belgilab qo‘yildi. Urush yillari Buxoroda ham bezgak kasalligiga qarshi kurash tadbirlari olib borildi. 1942-1943 yillar davomida G‘ijduvon, Sverdlov, Shofirkon tumanlarida suv havzalari, sug‘orish tarmoqlari va zovurlarni tozalash ishi yaxshi yo‘lga qo‘yildi. G‘ijduvon tumanidagi Mavlon, Xalaki zovurlari to‘la tozalandi[11].

Bezgakka qarshi kurash muassasalari ishini tashkil etish borasida respublikaning turli hududlarida olib borilgan chora-tadbirlar qoniqarsiz ahvolda bo‘ldi. Masalan, 1943 yil may kunlari Namangan viloyati Pop tumani tropstansiyasi tekshirilganida qator xatoliklar aniqlanadi. Bu davrda tuman tropstansiyasini Yambulov boshqarib, u olib borilgan ishlarning qoniqarsizligi yuzasidan ogohlantirilishiga qaramasdan, bezgakka qarshi kurash tadbirlarini uyushtirmagan. Suu bois Yambulov ishidan olinib, ishi prokuraturaga topshiriladi. Pop tumanidagi ba’zi aholi punktlarida bezgak kasalligi epidemiya xarakteriga ega bo‘ldi. Masalan, tumanning “Gulbog‘” sovxozida shunday holat qayd etiladi. Andijon viloyatida ham bu kasallik yildan-yilga ortib bordi. Viloyatda 1941 yili bezgak bilan 15369 kishi, 1942 yili 31332 kishi ro‘yxatga olinadi. Kasallik Andijon shahrida, Lenin, Marhamat, Jalolquduq, Paxtaobod, Oltinko‘l, Voroshilov tumanlarida keng yoyilib, epidemiya yoz va kuz oylarida avj oldi.

1943 yilning bahorida O‘zbekistonning Farg‘ona, Buxoro, Samarqand kabi viloyatlarida va Qoraqalpog‘iston respublikasida aholining bezgak bilan kasallanishi va o‘limi ko‘paydi. 1944 yili Toshkent viloyatining Sirdaryo tumanida bezgak kasalligining o‘sishi bir yilda 160 foiz bo‘ldi. Jizzax shahrida ahvol bundan ham og‘ir bo‘lib, yillik o‘sish 259 foiz edi.[19]

Urush yillarida O‘zbekistonda yuqumli kasalliklar bilan birga ijtimoiy kasalliklar ham ko‘paydi. Oddiy aholi moddiy turmush sharoitlari nihoyatda nochorlashdi. Ayniqsa bu davrda kolxozchilarning moddiy ahvoli og‘ir edi. Masalan, Toshkent viloyati Xovos tumani Frunze nomli kolxoz a‘zolarining moddiy ahvoli tahlil etilganda, juda nochor holat namoyon bo‘ladi. Kolxoz a‘zolari asosan qishloqlarda yashasalarda, 40 foiz oilalarda umuman chorva bo‘lmagan[3].

Xullas, Ikkinchi jahon urushi yillarida sog‘liqni saqlash sohasi faoliyati ham front ehtiyojlari tomon yo‘naltirilib, uning zimmasiga g‘arbdan evakuatsiya qilingan harbiy gospitalarni joylashtirish, epidemiyalarning oldini olish, sanitariya-profilaktika ishlarini jonlantirish, davolash muassasalari ishini yo‘lga qo‘yish kabi murakkab vazifalarning yuklanishi, bu esa tibbiy xodimlar ishini yanada og‘irlashtirganligi aniqlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. ЎЗР ИТТХМДА, 1-фонд, 1-рўйхат, 9367-йиғма жилд, 5-варақ.
2. ЎЗР ИТТХМДА, 1-фонд, 3-рўйхат, 479-йиғма жилд, 16-варақ.
3. ЎЗР ИТТМДА, 3-фонд, 1-рўйхат, 9338-йиғма жилд, 4-варақ.

4. Рахимов Э. В. Социально-экономические основы развития здравоохранения в Узбекистане. – Ташкент, 1984. – С. 35.
5. Советское здравоохранение. – 1975. – № 10. – С. 68.
6. Азляров А. В. Узбекистан на исцеление направляли раненых со всех фронтов // Правда Востока, 10 мая 2005 г.
7. Хотира. Тошкент шаҳри. 1-китоб. – Тошкент, 1994. – Б. 9; Хотира. Самарканд вилояти. 1-китоб. – Тошкент, 1994. – Б. 9.
8. Самарканд тиббиёти тарихи. I-китоб. – Тошкент: Фан, 2007. – Б. 151.
9. Агзамходжаев С. А. Медики Узбекистана в годы Великой Отечественной войны // Советской здравоохранение. – М.: Медицина. 1975. № 10. – С. 67.
10. Уруш кўрган докторлар. – Андижон, 1995. – Б. 4.
11. Ходжаков А. Х. Здравоохранение Андижанской области в годы Великой Отечественной войны // Медицинский журнал Узбекистана. – 1985. – № 5. – С. 9–10.
12. Литвиненко П. М. О героизме медиков в годы Великой Отечественной войны // Медицинский журнал Узбекистана. – 1985. – № 5. – С. 7.
13. Махмудов М., Умирзаков Б. Х. Здравоохранение Узбекистана (Исторический очерк). – Ташкент, 1991. – С. 43.
14. Данилицина Е. И. Охрана здоровья женщины-матери в годы Великой Отечественной войны // Советское здравоохранение. – 1986. – № 3. – С. 41.
15. Здравоохранение в годы Великой Отечественной войны. Сборник документов и материалов. Под редакцией Барсукова Д. Д. Кизвшинского. – М.: Медицина, 1977. – С. 422-423.
16. Бухоро вилояти Давлат архиви, 1023-фонд, 1-руйхат, 173-йиғма жилд, 19-варақ.
17. Мўминова Г. Ўзбекистонда соғлиқни сақлаш тизими тарихи (1917-1991 йиллар). – Тошкент, Yangi nashr. 2015.
18. Buronov Olim Murodullaevich. The fight against infectious diseases of Uzbekistan on experience. Western European Journal of Historical Events and Social Science Volume 2, Issue 4, April, 2024.
19. Olim Buronov. Problems and Solutions of the System of Medical Services for the Rural Population of Uzbekistan. Pindus Journal Of Culture, Literature, and ELT ISSN: 2792 – 1883 Volume 12

UO'K 93/94

GAVKUSHON MAJMUASINING BUXORO SUV TIZIMI VA ME'MORCHILIGIDA TUTGAN O'RNI

I.M.Xamrayev, tayanch doktorant, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Mazkur maqolada Gavkushon majmuasining Buxoro suv tizimi va me'morchiligida tutgan o'rni, ilm va madaniyat markazi sifatidagi ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Gavkushon majmuasi, an'anaviy islom me'morchiligi, Xo'ja Kalon hovuzi, Xo'ja Kalon masjidi, Xoja Kalon minorasi me'moriy uslub, dekorativ hovuz, ilm-fan markazi, islom ta'limoti.

Аннотация. В данной статье описывается роль Гавкушанского комплекса в водной системе и архитектуре Бухары, а также его значение как центра науки и культуры.

Ключевые слова: комплекс Гавкушан, традиционная исламская архитектура, бассейн Ходжа Калон, мечеть Ходжа Калон, архитектурный стиль баини Ходжа Калон, декоративный бассейн, научный центр, исламское учение.

Abstract. This article describes the role of the Gavkushan complex in the water system and architecture of Bukhara, as well as its importance as a center of science and culture.

Key words: Gavkushan complex, traditional Islamic architecture, Khoja Kalon pool, Khoja Kalon mosque, Khoja Kalon tower architectural style, decorative pool, science center, Islamic teaching.

Kirish. Buxoro shahrida joylashgan Gavkushon majmuasi mintaqaning boy madaniy va diniy merosining bir qismi bo'lgan tarixiy me'moriy ansambldir. XVI-asrga oid ushbu majmua an'anaviy islom me'morchiligi namunasi bo'lib, temuriylar va undan keyingi davrlarda Buxoroning yirik ilm va madaniyat markazi sifatidagi ahamiyatini aks ettiradi. "Gavkushon majmuasiga quyidagi binolar kiradi: Gavkushon madrasasi (1562—1566 yillar), Xoja Kalon masjidi (1573—1579 yillar), Xoja Kalon minorasi (1573—1579 yillar), Abdurahmani A'lam madrasasi (XIX asr), Xoja Kalon hovuzi (1573—1579 yillar)"[4].

Asosiy qism. Xo‘ja Kalon suv ombori yoki Xo‘ja Kalon havzasi sifatida ham tanilgan Xo‘ja Kalon hovuzi O‘zbekistonning Buxoro shahrida joylashgan tarixiy suv omboridir. U 16-asr oxirida Shayboniylar sulolasi hukmdori Abdullaxon II davrida qurilgan bo‘lib, shaharda muhim madaniy va tarixiy ahamiyatga ega.

Xo‘ja Kalon hovuzi Buxorodagi eng yirik masjidlardan biri bo‘lgan Xo‘ja Kalon masjidi yaqinida joylashgan bo‘lib, u ham xuddi shu davrda qurilgan. Suv ombori atrofdagi aholini ichimlik suvi, sug‘orish va boshqa kundalik ehtiyojlar uchun suv manbai bo‘lib xizmat qilish maqsadida qurilgan. Xo‘ja Kalon hovuzi 1573-1579 yillarda qurilgan bo‘lib, uning yoshi 400 yildan oshgan. Bu Buxoro infratuzilmasini yaxshilash va uning aholisi uchun zarur qulayliklar yaratish maqsadida Abdullaxon II tomonidan qurilgan.

Hovuz to‘rtburchak shaklda bo‘lib, suvni ushlab turish uchun tosh yoki g‘isht devorlari bilan qoplangan. Unda an’anaviy O‘rta Osiyo me‘moriy elementlari aks ettirilgan bo‘lib, unda o‘yilgan tosh detallari va bezakli koshinlar kabi bezak elementlari mavjud. Xo‘ja Kalon hovuzi Buxoroning boy me‘moriy va madaniy merosining bir qismi bo‘lib, shaharning uzoq tarixi va quruvchilarning zukkoligini aks ettiradi. U qimmatli tarixiy yodgorlik sanaladi va Buxoro YuNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilishiga hissa qo‘shadi. Shuningdek, suv ombori yaqin atrofdagi Xo‘ja Kalon masjidi bilan bog‘lanib, hududdagi diniy-madaniy majmuaning ajralmas qismini tashkil etadi. Xo‘ja Kalon hovuzi o‘rta asrlardagi Buxoroning ilg‘or suv xo‘jaligi tizimlaridan dalolat beradi va shaharning boy tarixi va me‘moriy merosini eslatib turadi. U o‘zining go‘zalligi, tarixiy ahamiyati va Buxoroning madaniy merosiga qo‘shgan hissasi bilan hamon tashrif buyuruvchilar va aholi tomonidan yuqori baholanmoqda.

Gavkushon madrasasi O‘zbekistonning Buxoro shahrida joylashgan tarixiy islom ta‘lim muassasasidir. 16-asrda qurilgan bu shaharning diqqatga sazovor joylaridan biri bo‘lib, uning me‘moriy va madaniy merosi uchun muhim ahamiyatga ega. Gavkushon madrasasi Buxoroning tarixiy markazida, Ark qal‘asi va boshqa diqqatga sazovor joylar yaqinida joylashgan. U 1562-1566 yillar oralig‘ida o‘sha paytda mintaqani boshqargan Shayboniylar sulolasi hukmdori Abdulazizxon II davrida qurilgan. Gavkushon madrasasida temuriylar davrining mumtoz me‘moriy uslubi namoyish etilgan bo‘lib, u o‘zining simmetrik joylashuvi, koshinkorligi va murakkab geometrik naqshlari bilan ajralib turadi.



Gavkushon Madrasasi turist - mehmonlar uchun manzil bo‘lgan ekan. 1938-yil surati[2]

Madrasa markaziy hovlidan, atrofi darsxonalar, talabalar turar joylari va masjidan iborat. Hovli odatda markazda joylashgan ayvon va dekorativ hovuz yoki bog‘ bilan bezatilgan. Gavkushon madrasasi o‘z davrining boshqa madrasalari kabi islom ta‘limi va ilm-fan markazi bo‘lib xizmat qilgan. U Buxoroning intellektual va madaniy hayotida hal qiluvchi rol o‘ynab, O‘rta Osiyo va undan tashqarida talabalar va olimlarni jalb qildi.

Madrasa Buxoroning boy ta‘lim an‘analari ramzi bo‘lib qolmoqda va YuNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilib, shaharning islom ta‘limoti va madaniyati markazi sifatidagi nufuzini oshirishga xizmat qilmoqda. Asrlar davomida Gavkushon madrasasi tanazzul va tiklanish

davrlarini boshidan kechirdi. 20-asrda madrasani asrab-avaylash va uning avvalgi shon-shuhratini tiklash, jumladan, tuzilishini ta'mirlash va bezak elementlarini ta'mirlash ishlari olib borildi.

Bugungi kunda Gavkushon madrasasi Buxoroning boy merosi kontekstida uning me'moriy go'zalligi bilan tanishish va madaniy ahamiyatini qadrlashi mumkin bo'lgan tashrif buyuruvchilar uchun ochiq.

Kalyon masjidi yoki Kalon masjidi sifatida ham tanilgan Xo'ja Kalon masjidi O'zbekistonning Buxoro shahridagi eng muhim va diqqatga sazovor joylardan biridir. U Shayboniylar hukmdori Abdullaxon II davrida, 16-asr oxirlarida, 1573-1579-yillarda qurilgan. Xoja Kalon masjidi Buxoroning eski shahrining qoq markazida, tarixiy markaz yaqinida va Kalon minorasi va Mir-i Arab madrasasi kabi boshqa muhim diqqatga sazovor joylarga yaqin joyda joylashgan. "Gavkushon ansamblida tilga olingan Buxorodagi ikkinchi Xoja Kalon jome masjidi 1579-1580-yillarda qurib bitkazilgan. To'g'ri burchakli bu binoning o'rtasida hovli bo'lib, atrofi ustun-gumbazli galereyalar bilan egallangan"[3]. Masjid o'zining ulug'vorligi va me'moriy go'zalligi bilan mashhur bo'lib, XVI asrda Markaziy Osiyoda keng tarqalgan klassik temuriylar me'morchiligining namunasi. Masjidning asosiy namozxonasi murakkab bezatilgan ustunlar va arklar bilan mustahkamlangan katta gumbazli xona bilan ajralib turadi. Masjid shuningdek, galereyalar va arkadalar bilan o'ralgan keng hovlini o'z ichiga oladi, bu namozxonlar va tashrif buyuruvchilar uchun qo'shimcha joy beradi. Xoja Kalon masjidi buxoroliklar va butun dunyo musulmonlari uchun katta diniy va madaniy ahamiyatga ega. U diniy ibodatlar, jamoat yig'inlari va madaniy tadbirlar uchun markaz bo'lib xizmat qiladi. Masjid islom ilmi bilan aloqadorligi, shuningdek, diniy ta'lim va ma'naviy yo'l-yo'riq markazi sifatidagi tarixiy roli bilan alohida e'zozlanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlab o'tganlaridek, "Vatanimiz zaminida saqlanib kelayotgan osori atiqalar, qimmatli obidalar, tarixiy ma'lumotlar, nodir yodgorliklar bizni jahon xalqlarining madaniyatlari bilan chambarchas bog'laydigan turizm zanjirining oltin halqalaridir"[1].

Xoja Kalon jome masjidi faoliyat ko'rsatayotgan masjid sifatida Buxoro shahridagi musulmonlarning ziyoratgohi bo'lib xizmat qilishda davom etmoqda. Yil davomida har kungi namozlar, juma namozlari va maxsus diniy marosimlar o'tkaziladi. Masjid diniy vazifalaridan tashqari, uning me'moriy ko'rkamligidan qoyil qolish, tarixi bilan tanishish va muqaddas makonning ma'naviy muhitini his qilish uchun tashrif buyuruvchilarni ham kutib oladi. Asrlar davomida "Xo'ja Kalon" masjidi o'zining me'moriy yaxlitligi va madaniy ahamiyatini saqlab qolish maqsadida bir necha ta'mir va restavratsiyadan o'tdi. Masjidning konstruktiv barqarorligini ta'minlash, bezak elementlarini muhofaza qilish, namozxonlar va tashrif buyuruvchilar uchun qulay bo'lishini ta'minlash borasidagi ishlar davom etmoqda. Xo'ja Kalon masjidi Buxoroning boy islom merosi va me'moriy merosining timsoli bo'lib, uning go'zalligiga qoyil qolish va tarixiy maskanning ma'naviy mohiyatini his qilish uchun dunyoning turli burchaklaridan tashrif buyuruvchilarni o'ziga jalb qiladi.

Xoja Kalon minorasi, oddiygina Kalon minorasi sifatida ham tanilgan, O'zbekistonning Buxoro shahrida joylashgan tarixiy yodgorlikdir. U 16-asr oxirlarida, 1573-1579 yillarda Shayboniylar hukmdori Abdullaxon II davrida qurilgan. Xoja Kalon minorasi Buxoroning tarixiy markazida, Xoja Kalon masjidi va Mir-i Arab madrasasi va Ark qal'asi kabi boshqa muhim diqqatga sazovor joylar yaqinida joylashgan. Minora o'zining ajoyib balandligi va nafis dizayni bilan mashhur bo'lib, uni Buxoroning eng taniqli ramzlaridan biriga aylantiradi. U taxminan 47 metr (taxminan 154 fut) balandlikda, o'ziga xos silindrsimon shakli va tepasida tor balkonga ega. Minora tepasida kichik gumbazsimon ayvon o'rnatilgan bo'lib, uning me'moriy jozibasini yanada oshirdi.

Tarixan Xoja Kalon minorasi bir qancha maqsadlarga xizmat qilgan. U islomning vizual ramzi bo'lib, yaqin atrofdagi masjid borligini belgilab, namozxonlar uchun azon bo'lib xizmat qilgan. Bundan tashqari, minora sayohatchilar va ziyoratchilar uchun mayoq vazifasini bajarib, ularni Buxoro shahriga yetaklab, O'rta Osiyoning bepoyon landshaftida ma'lumot nuqtasi bo'lib xizmat qilgan. Minora shuningdek, mudofaa rolini o'ynagan, uning balandligi mojarolar paytida kuzatuv va signalizatsiya uchun strategik nuqtani ta'minlagan.

Buxorodagi ko'plab tarixiy inshootlar qatori Xo'ja Kalon minorasi ham o'zining me'moriy yaxlitligi va madaniy ahamiyatini saqlab qolish uchun ta'mirlash davrlarini boshidan kechirdi. Minora konstruksiyalarining mustahkamligini ta'minlash, tabiiy eskirish natijasida yetkazilgan

zararni bartaraf etish, bezak elementlarini buzilishdan asrash choralari ko'rildi. Xo'ja Kalon minorasi YuNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan va islom me'morchiligi va hunarmandchiligining ajoyib namunasi sifatida nishonlanadi. Bu Buxoroning go'zalligiga qoyil qolish, tarixini o'rganish va mintaqaning boy madaniy merosi bilan tanishish uchun dunyoning turli burchaklaridan tashrif buyuruvchilarni o'ziga jalb etuvchi diqqatga sazovor joy bo'lib qolmoqda.

Xulosa. Muxtasar qilib aytganda, Gavkushon majmuasi juda qadimgi davrdagi me'morchilik va ta'lim-tarbiya yutuqlaridan dalolat beradi va hozirda ham Buxoro shahrining diqqatga sazovor maskani bo'lib qolmoqda. Gavkushon majmuasi o'rta asrlardagi Buxoroning me'moriy va madaniy yutuqlaridan dalolat berib, shaharning islomiy o'ziga xosligi va tarixiy ahamiyatining doimiy ramzi bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2021. -B.40.
2. <https://www.facebook.com/100064653281658/posts/5259306344182849/>
3. To'rayev H. Buxoro tarixi. -Buxoro : “Sadridin Salim Buxoriy” Durdona nashriyoti, 2020.-B.149
4. Bobojonova F. Buxoro me'moriy obidalari tarixi. Buxoro : Fan va ta'lim,2022. -B.96

UO'K 94(574.13):37.018.324

IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA O'ZBEKISTONDAGI BOLALAR UYLARINING AHVOLI

M. Xujanova, PhD, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Jizzax

Аннотация. *Ushbu maqolada ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistondagi Bolalar uylarining ahvoli, ulardagi tarbiyalanuvchilar sonining oshib borishi, evokuatsiya qilingan yetim bolalarni evokapunktarga joylashtirilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.*

Калит сўзлар: *болалар уйлари, Халқ Комиссарлари совети, қатагон, меҳрибонлик уйлари.*

Аннотация. *В данной статье представлена информация о состоянии детских домов в Узбекистане в годы Второй мировой войны, увеличении количества детей в них, размещении эвакуированных детей-сирот в эвакапунктах.*

Ключевые слова: *детские дома, Совет народных комиссаров, репрессии, дом милосердия.*

Abstract. *This article provides information about the state of orphanages in Uzbekistan during the Second World War, the increase in the number of children in them, and the placement of evacuated orphans in evacuation centers.*

Key words: *orphanages, Council of People's Commissars, repression, house of mercy.*

1941-1945-yillar urush oqibatida yuzaga kelgan ijtimoiy muammolar bolalarning ahvolini og'irlashtirdi. Davlat va jamoatchilikning urushning “begunoh” qurbonlari – bolalarga munosabati o'zgardi. Davlat bu muammolarni ko'chirib keltirilgan bolalar uchun maktab internatlar yaratish va bolalar uylari sonini ko'paytirish orqali hal qilishga harakat qildi. Bu harakat, ayniqsa, harbiy urush o'choqlaridan ko'plab bolalar muassasalari ko'chirib keltirilgan O'zbekistonda yaqqol namoyon bo'ldi. Ko'chirib keltirilgan bolalar va kattalarni joylashtirish hamda qabul qilish respublika hayotining urush yillaridagi asosiy faoliyatiga aylandi.

1941 yilda Toshkentda Zuyev va Quyi Qrim bolalar uyining tarbiyalanuvchilari joylashtirildi. Shuningdek, urush yillarida Namangan viloyatining Pop tumanidagi maktablardan biri bolalar uyiga aylantirilgan. Biroq mazkur yangi tashkil topgan bolalar uyida krovat, ko'rpa-to'shak, yostiq, kiyim-kechak kabi kerakli jihozlar mavjud bo'lmagan. Keyinchalik bularning barchasini mahalliy aholi olib kelib bergan. Shuningdek, urush yillarida Toshkentda 1-, 2-, 3-, 15-, 18-sonli bolalar uylari, 14 va 15-sonli maktab-bolalar uylari, Belorussiya bolalar uyi hamda Go'daklar uyi ham faoliyat yuritgan[1].

Arxivlarda Toshkentdagi Go'daklar uyining 1941-194-yillardagi qaydnoma kitoblari saqlanib qolgan. Unda kengash nomiga tushgan “bolalikka olish” haqidagi arizalar uchraydi. Go'daklar uyida bunday arizalar 1941 yil yanvar- sentyabr oylarida 11 ta, noyabr oyida 32 ta, dekabrda 79 ta, 1942 yil

yanvar oyida esa 86 taga yetgan[2]. O'sha yillarda Toshkent shahrida voyaga yetmaganlarni qabul qilish va ularni bolalar uyiga joylashtirish markazi tashkil qilingan edi. 1942 yilda bunday markazlar Toshkent, Farg'ona, Urganch, Namangan, Andijon, To'rtko'l shaharlarida ham tuzilgan. Toshkent viloyatining Kalinin tumanidagi 2-sonli bolalar uyi Odessa va Lugansk shahrining ikkita bolalar uyi tarbiyalanuvchilarini qabul qilgan. Moskva, Odessa va Voronejdan ko'chirib keltirilgan bolalar hamda u yerlardagi 4 ta harbiy-musiqa maktabi o'quvchilari ham O'zbekiston hududidagi bolalar uylariga joylashtirilgan edi.

Mavjud ma'lumotlarning tahlili shundan dalolat beradiki, Ikkinchi jahon urushiga qadar O'zbekiston SSRda bolalar uylaridagi yetim bolalar soni yil sayin kamayib borgan bo'lsa, urush boshlangandan so'ng respublikadagi bolalar uylarida tarbiyalanuvchilar soni keskin oshib ketgan[3].

1-jadval.

Yillar	Bolalar uylari soni	Bolalar uylaridagi yetim bolalar soni
1941	137	16980
1942	164	21470
1943	200	26500
1944	230	30000
1945	242	31500

Ko'chirib keltirilgan bolalarni qabul qilishni tartibli yo'sinda tashkil etish maqsadida O'zbekiston SSR hukumatining qarori bilan 1941 yil oktyabrda evakuatsiya qilingan bolalarni qabul qilish uchun markaziy punkt tashkil etilgan. O'sha yilning dekabrda evakuatsiya qilingan bolalarni joylashtirishga rahbarlik qilish uchun respublika, viloyat, shahar va tuman komissiyalari tashkil etilgan. Bundan tashqari Toshkent, Samarqand, Buxoro va boshqa yirik shaharlarda maxsus shtablar faoliyat yuritgan. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, faqat 1941 yil 25-noyabrdan 1942 yil oktyabrga qadar respublikaning evakuatsiya punktlari orqali 15649 nafar bola qabul qilingan[4]. Ko'chirib keltirilgan bolalar va frontga ketganlarning bolalari har kuni Toshkent, Samarqand, Andijon, Qo'qon va Namanganda tashkil etilgan oshxonalaridan bepul ovqat olishgan. Bemor va zaiflashib qolgan bolalarga tibbiy yordam ko'rsatilgan.

O'zbekiston aholisi ota-onasidan va uyidan ajralgan bolalarni alohida g'amxo'rlik bilan qabul qildi. Ko'chirib keltirilgan bolalarni qabul qilishni tartibli tizimda tashkil etish maqsadida respublika hukumatining qarori bilan 1941 yil oktyabrda evakuatsiya qilingan bolalarni qabul qilish uchun markaziy punkt tashkil etildi. Dekabr oyida evakuatsiya qilingan bolalarni joylashtirishga rahbarlik qilish uchun respublika, viloyat, shahar va tuman komissiyalari tashkil etildi. Toshkent, Samarqand va boshqa yirik shaharlarda maxsus shtablar kecha-kunduz ishlab turdi. Birgina 1942 yil fevraligacha Farg'ona viloyatiga 92415 kishi ko'chirib keltirilgan. Ulardan 48 ming 802 kishi Farg'ona, Marg'ilon va Ko'qon shaharlariga, qolganlari tumanlarga joylashtirilgan[5]. Yetib kelgan bolalar darhol samimiyat va onalarcha mehribonlik bilan qabul qilingan.

1942-yilning boshlarida respublikaning barcha gazetalarda O'zSSR XKS huzuridagi Evakuatsiya qilingan va yetim bolalarni joylashtirish hamda tarbiyalash komissiyasi Davlat bankining shahar boshqarmasida 160 676-raqamli joriy hisob ochganligi haqidagi e'lon bosilgan. Bolalar foydasi uchun bo'ladigan barcha xayriyalar ana shu ko'rsatib o'tilgan hisobga topshirilishi so'ralgan. Mazkur da'vat javobsiz qolmay, 1942 yilning mart oyiga kelib joriy hisobga 2 mln. 74 ming so'm mablag' tushgan. 1943 yilga kelib bu jamg'arma fondi 3,5 mln. so'mga yetgan[6].

Respublikaga bolalar bilan birgalikda bolalar uylari ham ko'chirib keltirila boshlandi. 1941-1942-yillar davomida O'zbekistonga front oldi shaharlaridan 78 ta bolalar uyi evakuatsiya qilingan. Keltirilgan bolalar uylarining 50 tasi mustaqil tarzda saqlanib qolingan. Ularning 4 tasi Samarqand viloyatiga, 9 tasi Namangan viloyatiga, 5 tasi Toshkent shahriga, 13 tasi Andijon viloyatiga, 10 tasi Farg'ona shahriga hamda 9 tasi Buxoro viloyatiga joylashtirilgan[7]. Shuningdek, 28 ta ko'chirib keltirilgan bolalar uylari tarqatilib, ulardagi bolalar respublikadagi mavjud bolalar uylariga, internatlarga va boshqa bolalar muassasalariga hamda qolganlari esa jamoa va alohida shaxslar tarbiyasiga berilgan.

Bu jarayonda Qoraqalpog'iston va barcha viloyatlar faol ishtirok etgan. Evakuatsiya qilingan bolalarning asosiy qismi bolalar uylariga joylashtirilgan va ularning soni urush yillarida muttasil ortib

borgan. 1944 yilda respublikada bolalar uyi miqdori 1941 yildagiga nisbatan ikki barvar o'sib, 222 tani tashkil etgan bo'lsa, 1945 yil oxirida 256 taga yetib, jami 313200 nafar bola tarbiyalangan[8].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev buyuk G'alabaniing 75 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida ta'kidlaganlaridek: "Yangi aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, urush o'chog'iga aylangan o'lkalardan O'zbekistonga 1 million 500 ming kishi, jumladan, 250 mingdan ziyod bola evakuatsiya qilindi. Xalqimiz bu odamlarning barchasiga chinakam mehr va e'tibor ko'rsatdi, so'nggi burda nonini ular bilan baham ko'rib, yuksak insonparvarlik fazilatlarini namoyon etdi"[9].

Ikkinchi jahon urushi davomida Qashqadaryo viloyatiga kelgan polyak bolalari uchun bolalar uylari tashkil etilgan. Beshkent tumanida tashkil etilgan bolalar uyida 54 nafar polyak bolalari tarbiyalangan. Samarqand shahrida ham polyak bolalari uchun bolalar uyi va Moskvadan ko'chirib keltirilgan 120 nafar ispan yoshlari uchun internat ishga tushirilgan. 1941 yil oxirida Buxoro viloyatiga 10 mingdan ortiq polyak fuqarolari va bolalari keltirilgan. Buxoroda 10 yillik polyak maktabi ishlab turgan. Urush yillari respublikada jami 17 ta polyak bolalar uylari tashkil etilgan[10].

Evakuatsiya qilingan aholi uchun Samarqand viloyatining Bulung'ur, Jomboy, Narpay, Pastdarg'om va boshqa tumanlarida ham bolalar uylari tashkil etilgan. Ularda 4270 nafardan ortiq bola tarbiyalangan. Buxoro viloyatiga bir qancha bolalar uylari bolalar bilan birga ko'chirib keltirilgan. 1941 yil 15 dekabrqa qadar viloyatning 2700 dan ortiq ayollari yetim bolalarni o'z tarbiyasiga olib, ularga mehr-muruvvat ko'rsatgan[11].

1941-1945 yillarda Andijon viloyatining barcha tumanlarida bolalar uylari ochilgan. Masalan, Andijon tumanidagi Bo'taqora qishloq fuqarolar kengashi binosida Chernigov bolalar uyi, Qo'rg'ontepa tumanida Donbassdan ko'chirib keltirilgan bolalar uyi, Chinobod, Paxtaobod va Xoldevonbekda Kuybishevdan ko'chirib keltirilgan to'rtta bolalar uyi joylashtirilgan[12].

Termiz temiryo'l stansiyasiga kelib to'xtagan poezdda sovuqda qiynalgan va madorsiz kasal bolalar bor edi. Poezd to'xtashi bilan ayollar bolalarni o'rab olib, ularga mehribonlik ko'rsata boshlagan. Termiz temiryo'l stansiyasiga kelgan poezdda 24 nafar yetim bolalar bor edi[13]. 26 nafar boladan iborat ikkinchi guruh yetim bolalar Sherobod tumani aholisiga topshirilishi kerak edi. Sherobodliklar poezd kelishini kutmasdan Termiz stansiyasiga kelgan. Poezd kelib to'xtashi bilan oq ular bolalarni o'z tarbiyalariga olishga shoshilganlar. Lekin bolalarni asrab oluvchilar yetim bolalar sonidan ko'proq bo'lgan. Shundan keyin viloyat evakopunkti komissiyasi Toshkent shahriga, respublika evakopunktiga xat bilan murojaat qiladi. Darhol ikki faol qiz Toshkent shahriga yuboriladi. Qizlar respublika evakopunktiga murojaat qilib, "Sizlar hamma bolalarni Toshkent shahri aholisiga topshirayapsizlar... Termiz shahriga yubormayapsizlar. Bizga bolalar yetishmayapti..." degan[14]. Shundan so'ng, ular 13 nafar bolani olib Termizga qaytgan va bola olishni istagan P.G.Nikitina, Qunduz Iskandarova, frontchi oilasi Klavdiya Kisileva, shifokor Tumanova, Juravleva, Menglieva, Termiz shahridagi Y.Oxunboboyev nomli maktab o'qituvchisi Yu.Xolmurodov kabilarning oilalariga topshirgan. Bolalarni sog'lomlashtirish uchun Sherobod va Boysun rayonlarida 20 tadan, Sariosiyo va Denov rayonlarida 40 tadan koyka joy tashkil qilingan[15]. Bunday tadbirlar viloyatning boshqa rayonlarida ham amalga oshirilgan. 1942 yil boshlariga kelib viloyatga maktab yoshidagi 534 nafar bola, yasli va bog'cha yoshidagi 83 nafar bola keltiriladi va ular shaxsiy tarbiyaga olinadi. Urush yillari davomida viloyatga 20 mingdan ortiq aholi keltirilib joylashtirilgan bo'lsa, ularning 3,5 ming nafari bolalar edi. Bolalarning hammasi yakka holda oilalarda va jamoaviy holda kolxoz, sovxozlar tashkil etgan joylarda tarbiyaga olingan[16].

Urush yillarida Surxondaryo viloyatiga 21 mingdan ortiq, Qashqadaryo viloyatiga 30 ming nafar, Buxoro viloyatiga 150 mingdan ortiq, Farg'ona viloyatiga 92415 nafar, Namangan viloyatiga 19 ming nafar evakuatsiya qilingan aholi joylashtirilgan. Ularning 1674 nafari ish bilan ta'minlangan. Boquvchisiz qolgan 1780 nafar kishiga har oyda nafaqa berib turilgan. Bu kabi tadbirlar respublikamizning boshqa viloyatlari va Qoraqalpog'iston respublikasida ham amalga oshirilgan. Qoraqalpog'istonga 3891 nafar kishi ko'chirib keltirilgan. 900 ta oila ota-onasidan ajralgan yetim bolalarni o'z tarbiyasiga olgan. Shuningdek, harbiy xizmatchilarning va ko'chirib keltirilganlarning 20,3 ming nafar bolalari bolalar bog'chasiga va bolalar uyiga joylashtirilgan. Shu

tariqa respublikaning barcha xalqlari qatori qoraqalpog'istonliklar ham evakuatsiya qilingan aholiga o'zining munosib yordamini ayamagan[17].

1944 yil noyabr oyidan Toshkentda ko'chirish markazi faoliyat yuritgan va unda bolalar uyi rahbarlarining eng yaxshilari navbatchilik qilishgan. Bolalarni ko'chirish jarayoni ham xavfsiz emas edi, chunki bolalar haftalab yo'lda bo'lishar, ular orasida dizenteriya va teri kasalliklari keng tarqalar edi. Shuning uchun bolalar ikki hafta mobaynida vrachlar nazorati ostida bo'lishar va faqat shundan keyingina turli bolalar uylariga jo'natilar edilar.

Urush davrida bolalar uylari tarmog'i va ulardagi tarbiyalanuvchilar soni muttasil oshib borgan. 1945 yil oxiriga kelib respublikada 267 ta bolalar uyi mavjud bo'lib, ularda 31000 nafar bola tarbiyalangan. Bu bolalarning asosiy qismini evakuatsiya qilingan bolalar tashkil etgan. Ko'chirib keltirilgan bolalar va ayollarga ijtimoiy yordam ko'rsatish maqsadida ular issiq ovqat, darsliklar, daftarlar, kiyim-kechak bilan ta'minlangan. Insonparvarlik – o'zbek xalqining milliy mentalitetiga xos azaliy fazilatdir. Aynan Ikkinchi jahon urushining suronli yillarida xalqimizning insonparvarlik, bag'rikenglik fazilatlarini front marralaridan ko'chirib keltirilgan, boquvchisidan ajralgan bolalarga, qariyalarga har tomonlama g'amxo'rlik qilishda yorqin namoyon bo'ldi[18].

Xulosa sifatida aytganda, Ikkinchi jahon urushi yillarida O'zbekistonda bolalar uylari tarbiyalanuvchilar soni bir necha barobarga ko'payib ketgan. 1941 yilda O'zbekiston SSRda 137 ta bolalar uylari bo'lgan bo'lsa, 1945 yilda ularning soni 242 taga yetgan. Ularda tarbiyalangan bolalar soni deyarli ikki barobarga oshgan bo'lib, ular miqdori mazkur davr oralig'ida 16980 nafardan 31500 nafarga yetgan. Bu asosan urush hududlaridan yetim va qarovsiz bolalarning bu mintaqaga ko'chirishi bilan bog'liq bo'lgan. Bu holat bolalar uylarida yotoq joylar yetishmasligi, bolalar uchun ustki kiyim boshlar, o'quv jihozlari, oziq-ovqat mahsulotlari yetishmasligiga olib kelgan. Ushbu muammolarning oldini olish maqsadida bolalar uylari shahar joylarida zavod-fabrikalarga, qishloq joylarida esa kolxoz va sovxozlarga otaliqqa berilgan va ular o'zlari otaliqqa olgan bolalar uylarini issiq kiyim-kechak oziq-ovqat mahsulotlari, mevalar, sabzavotlar, kerakli mebel jihozlar bilan ta'minlashga harakat qilishgan lekin shunda ham urush qiyinchiliklari sababli berilgan yordam yetarli miqdorda bo'lmagan. Natijada, bolalar uyida to'yib ovqat yemaslik, qiyin sharoit katta yoshli tarbiyalanuvchilarning ish qidirib muassasadan qochib ketish holatlari ko'payishiga olib kelgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zMA R-94-jamg'arma, 5-ro'uxat, 6247-yig'ma jild, 18-varaq.
2. Эгамбердиева Н. Ижтимоий педагогика. Дарслик. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2009. – Б.47.
3. Фазылходжаев К. Детей принимал Узбекистан. – Ташкент: Узбекистан, 1991. – С. 10.
4. Коммунистическая партия Узбекистана в годы Великой Отечественной Войны. Летопись событий. Часть V. (июнь 1941-1945 гг.). – Ташкент, 1980. – С. 59.
5. Ҳошимов Б., Холматов Б. Фарғоналик қахрамонлар (Фашизм устидан қозонилган ғалабанинг 60 йиллигига бағишланади). – Фарғона, 2005. – Б. 15.
6. Правда Востока, 5 апреля 1995 г. №15.
7. O'zMA, 94-jamg'arma, 46- ro'uxat, 97-yig'ma jild, 57-varaq.
8. Хотира китоби. Ўзбекистон Республикаси (1941-1945 й.й.). – Тошкент, 1995. – Б. 41.
9. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг буюк Ғалабанинг 75 йиллиги ҳамда Хотира ва қадрлаш кунига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи - <https://president.uz/uz/lists/view/3564>.
10. Хотира, Наманган вилояти. 1-китоб. – Тошкент, 1994. 6-7 бетлар.
11. Фашизм устидан қозонилган ғалабада Ўзбекистоннинг тарихий ҳиссаси. (1941-1945 й.й.). – Тошкент: Фан, 1996. – 294-296 бетлар.
12. Хотира. Самарқанд вилояти. 1-китоб. – Тошкент, 1994. 9-10-бетлар.
13. Хотира китоби. Ўзбекистон Республикаси (1941-1945 й.й.). – Тошкент, 1994.
14. TShMDA, S-0330-jamg'arma, 3-ro'uxat, 66-yig'majild, 73-varaq.
15. Турдиев С. Улуғ Ватан уруши йилларида Ўзбекистон меҳнаткашларининг кўчириб келтирилган болаларга ғамхўрлиги. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 17.
16. O'ha joyda, 18-bet.
17. Surxondaryo viloyat MDA 2-jamg'arma, 2-ro'uxat, 42-yig'ma jild, 55-varaq.
18. Турдиев С. Улуғ ватан уруши йилларида Ўзбекистон меҳнаткашларининг кўчириб келтирилган бола ларга ғамхўрлиги. – Тошкент: Фан, 1987. – Б. 15.

SURXONDARYO VILOYAT DAVLAT ARXIVINING TASHKIL ETILISHI

S. Xushmatova, o'qituvchi, Qarshi davlat universiteti, Qarshi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Surxondaryo viloyat davlat arxivining paydo bo'lish tarixi va arxivda saqlanayotgan fondlar haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: MIK, byuro, dekret, saqlov, fond, nomenklatura, elektronlashtirish, kataloglashtirish, arxiv.

Аннотация. В данной статье рассказывается об истории Сурхандарьинской государственной арки и фондах, хранящихся в архиве.

Ключевые слова: МИК, бюро, постановление, хранение, фонд, номенклатура, электронизация, каталогизация, архив.

Abstract. This article talks about the history of the Surkhondaryo State Arch and the funds kept in the archive.

Key words: MIK, bureau, decree, storage, fund, nomenclature, electronicization, cataloging, archive.

1918 yil 1-iyunda RSFRS hukumati "Arxiv ishini qayta qurish va markazlashtirish to'g'risida" dekret qabul qilindi. Shundan kelib chiqqan holda Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Komiteti (MIK) 1919-yil 5-noyabrda "Arxiv ishini qayta qurish va markazlashtirish to'g'risida" qaror qabul qilindi. 1926-yilda Surxondaryo viloyat arxiv byurosi ochildi[1]. Turkiston Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasi (MIK)ning 19-noyabr 1934-yil №16/86 va №6 sonli qaroriga asosan Termiz shahrida O'zbekiston Markaziy arxiv byurosining tumanlararo bo'limi tashkil etildi. Ushbu bo'lim Boysun, Jarqo'rg'on, Sariosiyo, Sherobod va Termiz tumanlariga xizmat ko'rsatishi belgilangandi. 1934-1950 yillarda arxiv hujjatlarini saqlash uchun bir dona xona ajratilgandi.

1935 yil 21-dekabrda O'zSSR Markaziy Ijroiya Qo'mitasining qaroriga asosan Surxondaryo viloyat Ijroiya Qo'mitasining arxiv boshqarmasi deb qayta tashkil etildi. O'zSSR Oliy Sovet Prezideumining 1941-yil 6-martdagi Farmoniga asosan Buxoro viloyati tarkibidan Surxondaryo viloyati ajralib chiqish munosabati bilan Surxondaryo viloyat davlat arxivi tashkil etildi[2]. Surxondaryo viloyat davlat arxivida 1-yanvar 2010-yil holatiga 361dona jamg'arma mavjud bo'lib 148808 ming saqlov birligidagi hujjat saqlanmoqda. Arxivda 1917-yildan 2005-yilgacha bo'lgan Davlat boshqaruvi organlari, sud va prokuratura organlari, o'quv madaniy va ma'rifiy muassasalar, kasaba uyushmalari, xalq ta'limi, xalq ta'limi va tashkilotlarning doimiy va uzoq muddatli saqlanadigan hujjatlari saqlanmoqda. Ushbu hujjatlarda Surxondaryo viloyatining tarixi, madaniyati, qurilish, qishloq xo'jaligi, mahalliy sanoat, xalq ta'limi bo'limi sohalarini aks etib, bosqichma-bosqich ko'rsatkichlar asosida ifodalangan. Arxivda saqlanayotgan hujjatlar o'zbek, rus, arab va lotin yozuvlarida yozilgan. Surxondaryo viloyat davlat arxivining quyidagi tumanlarda bo'limlari xizmat ko'rsatmoqda:

Boysun, Sherobod, Angor, Muzrabot, Jarqo'rg'on, Shurchi, Denov, Uzun[3]. 1926-2005 yillarda arxiv ishini rivojlantirishdek mashaqqatli ishda mehnat qilib o'z hissalarini qo'shgan shaxslarga quyidagilarni kiritish mumkin:

Surxondaryo viloyat Ijroiya Qo'mitasining arxiv boshqarmasida: Yakobenko, Zilbergi, Aliyev, M.K. Dyakonova, I. Ismoilov faoliyat ko'rsatgan. Surxondaryo viloyat davlat arxivida Sazonova, Kulakova, Pardayev, Boboqulova, Sergeyeva, L. Chikildina va boshqalar faoliyat olib brogan[4].

Surxondaryo viloyat davlat arxivi quyidagi xizmatlarni ko'rsatadi:

Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar va idoralardan (mulkchilik shaklidan qat'iy nazar) hujjatlarni davlat saqloviga qabul qiladi;

Hujjatlarga ilmiy-texnikaviy ishlov beradi, yig'majildlarni muqovalaydi: Arxiv ishi va ish yuritish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqadi;

Yig'majildlar nomenklaturasini ishlab chiqadi;

Shonli sanalar munosabati bilan arxiv hujjatlari asosida korxonalar, tashkilotlar va muassasalar hamda buyuk shaxslarning arxivi to'g'risidagi tashabbusli axborot tayyorlaydi. Ilmiy tadqiqotlar, diplom himoyasi va dissertatsiya ishlari uchun arxiv hujjatlarini taqdim etadi;

Arxiv hujjatlarining elektron sugurma nusxasini tayyorlaydi va elektron arxiv resurslarini saqlaydi: qisqa muddatli o'quv kurslarida ish yuritish va arxiv xodimlari malaka oshirishlarini tashkil etadi. Surxandaryo viloyat davlat arxivi fuqarolar va tashkilotlarga quyidagi pullik xizmatlarni ko'rsatadi:

- Ijtimoiy huquqiy toifadagi ma'lumotlarni tayyorlab beradi;
- Ma'lumotlarni shartnoma asosida joylarga yetkazadi;
- Buxgalteriya hujjatlarini vaqtincha depozitar saqlaydi;
- Hujjatlarni muqovalaydi, tikadi, kardonlaydi, laminatsiyalaydi;
- Komputer, internet, faks, kseroks va skaner xizmatlari;
- Raqamli fotosuratlar tayyorlaydi;
- Arxiv hujjatlaridan nusxalar ko'chiradi;
- Shaxsiy kelib-chiqish to'g'risidagi hujjatlarni davlat saqloviga olib saqlovini ta'minlaydi.

Tashkilotlarga:

- Shartnoma asosida hujjatlarni tartibga keltirish
- Arxiv hujjatlarini qabul qilish va qayta ishlash
- O'quv xonasida arxiv hujjatlaridan foydalanishni ta'minlash
- Arxiv materiallari asosida turli axborot va ma'lumotlar tayyorlab berish
- Ishlarni texnik rasmiylashtirish
- Tashkilot korxonasi va muassasalar ish yuritishida qo'llaniladigan me'yoriy –uslubiy hujjatlarni

ishlab chiqish

Viloyat davlat arxivi qoshidagi xo'jalik guruhi tomonidan korxonasi, tashkilotlar hujjatlariga ilmiy-texnikaviy ishlov berilib, davlat saqloviga qabul qilishga tayyorlab borilmoqda[5]. Viloyat davlat arxivida mavjud O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondlari to'g'risidagi ma'lumotlar kompyuter dasturiga kiritilgan va hujjatlarning elektron shakli yaratilmoqda.

Viloyat davlat arxivi xodimlari tomonidan tashkilot, korxonasi va muassasalarga arxiv ishi va ish yuritish bo'yicha me'yoriy-uslubiy yordam ko'rsatilmoqda. 1991-2010 yillar davomida arxivga respublikamizdan va xorijiy davlatlardan 300 dan ziyod tadqiqotchilar tashrif buyurgan va ular arxiv hujjatlari asosida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar. Surxondaryo davlat arxivida yiliga 2000 ga yaqin fuqarolar, korxonasi va tashkilotlarning mavzuli, ijtimoiy-huquqiy mazmundagi so'rovlari ko'rib chiqilib ijro etilmoqda. Davlat arxivida 1917-2005 yillarga oid hujjatlar 6690 dona karton qutilarga joylashtirilgan. Ushbu hujjatlar asosida kataloglashtirish ishlari olib borilmoqda. Surxondaryo viloyat davlat arxivi Surxondaryo viloyat arxiv ishi hududiy boshqarmasiga bo'ysunadi. Surxondaryo viloyat arxiv ishi hududiy boshqarmasi esa Surxondaryo viloyat hokimligiga va O'zbekiston Respublikasi "O'zarxiv agentligi"ga bo'ysunadi va ularga o'z faoliyati haqida ma'lumot berib boradi. Surxondaryo viloyat arxiv ishi hududiy boshqarmasiga viloyat davlat arxivi, 9 ta tuman davlat arxivi va 7 ta shaxsiy tarkib hujjatlari davlat arxivi bo'ysunadi.

Surxondaryo viloyat davlat arxivini binosi 1898-yilda tashqi devorlari pishgan g'ishtdan, ichki devorlari esa xom g'ishtdan qurilgan bo'lib, ichki devorlari zaxlab, to'kilib ketgandi[6]. Arxiv binosining poli, shifti va tom qismi taxta va qamishdan qurilganligi uchun hujjatlarni saqlash talablariga mutlaqo javob bermay qolgandi. Surxondaryo viloyat arxivi binosi qurilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-11 fevral kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog'ida berilgan topshiriqlari va kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan 18-son yig'ilish bayonnomasining 10-bandida qayd etilgan. Binoning qurilishi bo'yicha tender "Yagona buyurtmachi xizmati" injiniring kompaniyasi tomonidan o'tkazilgan. Binoning qurilish ishlari 2018-yil 28-sentabr kuni boshlangan bo'lib, 2019-yil 1-noyabr kuni tugatilgan[7]. Bino 7 qavatdan iborat bo'lib, barcha jihozlar bilan jihozlangan. Bino sig'imdorligi 500 ming saqlov birligidagi arxiv hujjatlari uchun mo'ljallangan. Binoda o'quv xonasi, konferensiya zal, fuqarolarni qabul qilish xonasi, oshxona, xodimlar xonasi, hujjatlarni texnik ishlov xonalari va saqlov xonalari mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. I.A. Alimov "Arxivshunoslik" Toshkent; 2015.-25 b.

2. O'zbekiston arxiv tizimi 100 yoshda (1919-2019 yy) Toshkent; "Navruz", 2019. 42-44b.
3. U.Yusupov, A. Aliyev "O'zbekiston arxivlari" Toshkent; "Tasvir" 2021. 344-346 b.
4. <https://orginfo.uz/organization/f3830936fece/>
4. J.Rahimov O'zbekiston tarixini o'rganishda arxiv manbalaridan foydalanish.-Toshkent; "O'qituvchi", 1995. 55-56 b.
5. М.Исакова Становление и развитие архивного дела в Узбекистане. Монография.-Ташкент; Университет, 2012.
6. М.Жукова Комплектование архивов электронными документами Отечественные архивы. 2000. № 2.
7. М.Абдувахובהva Qushbegi arxivida tarixiy toponimlar va Buxoro amirligining ma'muriy hududiy tizimi. Toshkent. 2006.

УЎК 93/94

АБДУЛҲАЙ ЛАКНАВИЙНИНГ ИЛМИЙ МЕРОСИ

*О.А.Бахриев, илмий ходим, Имом Бухорий халқаро илмий-тадқиқот маркази,
Самарқанд*

Аннотация. Ушбу мақолада Абдулхай Лакнавийга замондош уламоларнинг берган таърифотлари ва алломанинг ҳанафий мазҳаби бўйича ёзган асарлари ҳақида қисқача маълумотлар берилади.

Калит сўзлар: Қўлёзма, фатво, шарҳ, усул, зуҳд, тақво.

Аннотация. В данной статье даны краткие сведения об определениях, данных Абдулхайю Лакнави современными учеными, а также о работах, написанных ученым по ханафитской секте.

Ключевые слова: Рукопись, фетва, комментарий, метод, аскетизм, благочестие.

Abstract. This article provides brief information about the definitions given to Abdulhai Laqnawi by modern scholars, as well as the works written by scholars on the Hanafi sect.

Key words: Manuscript, fatwa, commentary, method, asceticism, piety.

Уламолардан бир тоифа борки, илми ва дунёқараши кенг бўлгани сабабли ёзган асарлари илм-маърифатнинг турфа-турфа соҳаларини қамраб олади.

Муҳаддис, фақих, усулий, мантиқий, мутакаллим, тарихчи, тадқиқотчи, танқидчи олим шайх Абулҳасанот Муҳаммад Абдулхай Ансорий Лакнавий Ҳиндий 1848 йил октябр ойининг 23 куни Ҳиндистоннинг Бонда шаҳарчасида зиёли оилада дунёга келган.

Абдулхай Лакнавий ҳам турли фанларга оид кўплаб асар ёзган. Бу унинг илми ва иқтидори кенглиги, ақл-заковати ва мақомининг улуғлигидан гувоҳлик беради. Аллома қолдирган илмий мерос илмни жамлаш, таҳқиқ ва таҳрир қилингани билан бошқа асарлардан фарқланади. Бу асарларни ўқиган кишида бирор маълумот махфий қолмайди.

Абдулфаттоҳ Абу Ғудда айтади: “Имом Лакнавийнинг асарларини ўқиган киши уларнинг аниқ илмий ҳақиқатлар асосида ёзилганига, нодир нақлий далилларни қамраб олганига, кўтарилган ҳар бир масала тўлиқ ёритилганига гувоҳ бўлади. Китобхоннинг қаршисида бутун умрини илм ва китоб ёзишга бағишлаган аллома гавдаланади” [1. 14].

Сулаймон Надавий: “Абдулхай Лакнавий Ҳинд диёрида китобларни таҳқиқ қилиш ва уларни изоҳлаган ҳолда шарҳлаш жараёнида икки янги услубга асос солди. Биринчиси, китоб аввалида унга муқаддима ёзган ва унда матн ва шарҳ соҳибларининг таржимаи ҳолларини ҳамда ушбу мавзуда ёзилган китоблар ҳақида маълумот берган. Иккинчиси, бирор китобни таҳқиқ қилиш ва унга шарҳ ёзишда асарнинг турли нусхаларидан фойдаланган. Синчковлик билан солиштириш натижасида таҳқиқ қилинган ва тўғриланган ягона нусха ҳосил бўлган” [2. 407], дейди.

Бу қўлёзма асарларни таҳқиқ қилишда алломанинг диққат-эътибори кенглигидан дарак беради. Шу тариқа таҳқиқ олимлари учун янги йўл ва услуб қолдирилган.

Абдулхай Лакнавий китоб ёзишга жуда катта эътибор қаратган, ҳеч ҳам вақтини аямаган. Ҳатто баъзи китобларини сафар давомида ёзган. Буни алломанинг қуйидаги сўзлари исботлайди: “Акомун нафоиси фи адаили азкари билисанил форсий” китобимни 1867 йилда қишлоғимдан Ҳайдарободга кўчиш чоғида ёзганман” [3. 48]. Шунингдек, “Зажрун наси ала инкари асари ибни Аббос” китобини 1875 йилда, иккинчи бор ҳаж қилиш асносида ёзиб тугатган [4. 85].

Аллома ёзган асарлар турли илмларни ўз ичига олгани туфайли ўша давр уламоларининг диққат марказида турган. У мукамал баён қилиш ва далил келтириш бобида кўпларни лол қолдирган. Абдулфаттоҳ Абу Ғудда алломанинг бир шарҳи ҳақида бундай деган: “Бу шарҳ муаллифнинг замони кейин келган бўлса-да, шу мавзуда ёзилган китоблардан маълумотининг кўплиги ва мукамаллиги билан ажралиб туради. Муаллиф ниҳоятда чуқур далил келтириш ва шу далилларнинг сабабини баён қилиб бериш билан танилган. Умр бўйи изланишлар олиб бориб, ҳукм чиқариш ва масалаларни ечишда ўрта йўлни танлаган. Аллома ҳанафий мазҳабини маҳкам туган бўлса-да, айрим масалаларда кучли илмига таянган ҳолда бошқа мазҳабга моил бўлиб, уни афзал кўрган. Ҳар доим муҳолиф тарафга одоб билан муомала қилган ва улуғлаган. Бу олижаноблик мутааххир уламоларда кам учрайди” [5. 7].

Абдулхай Лакнавий ўз асарларини таърифлаб, бундай деган: “Ёзганларимнинг бирортасида ноаниқ масала қолмаган. Машҳур манбалардан нусха олинмаган. Имом Шавконий (тав. 1759) ва Имом Ҳарроний (1263-1328)нинг сўзларидан ўзлаштирмадим. Аллоҳдан пиёда ва отликни ажрата олмайдиган киши каби ҳўлу қуруқни йиғиб, бировларнинг китобларини кўчиришдан паноҳ тилайман. Ақл эгалари бу ишни сафсата санайди” [6. 73].

Қуйида Абдулхай Лакнавийнинг асарларига қисқача таъриф бериб ўтамиз. Аллома асарларининг ададини – Имом Саркисин “Муъжамул матбуотил арабий” асарида [14. 1596] – 26та, Закий Мужоҳид “Ал-аъламуш шарқий” китобида [11. 169] – 44та, Абдулхай Ҳасаний “Нузҳатул хавотир” асарида [9. 283] – 90та, шогирди Муҳаммад Ҳафизуллоҳ Бундавий “Канзул баракот” асарида [12. 24] – 94та, яна бир шогирди Муҳаммад Абдулбоқий “Такмилату хайрил амал” асарида [13. 42] – 112та деб кўрсатган.

Абул Ҳасан Надавий: “Мутааххир уламолар фаҳри Абдулхай Лакнавийнинг асарлари бир юз ўнта, шулардан саксон олтитаси араб тилида” [7. 38], Абдулфаттоҳ Абу Ғудда эса “Имом Лакнавий бир юз ўн бешта асар ёзган” [8. 5], деган.

Бу ададлар турлича эканининг асосий сабаби шуки, Имом Лакнавий китобларининг айримларида ўз таржимаи ҳолини келтириб ўтган. Унда асарларининг ададини баъзида қисқартириб, гоҳида тўлиқ баён қилган. Эҳтимол, шу китобгача бўлган асарлари ададини келтирган. Китоблар орқали Имом Лакнавийнинг таржимаи ҳоли билан танишганлар аллома асарларининг ҳаммаси шунча, деб хулоса қилган. Қолаверса, Имом Лакнавийнинг таржимаи ҳоли келтирилган китобидан кейин ёзган китоблари ҳам бўлган.

Абдулхай Лакнавий ёзган асарлар қайси илмларга тегишли эканини Валиюддин Надавий қуйидагича баён қилган: “Аллома усулул фикҳ, фароиз, зуҳд ва тақво илмларига бағишлаб биттадан, сийрат, мунозара ва наҳв илмларига – иккитадан, туғилиш ва вафот этиш ҳақида – учта, ақоид илмига бағишлаб – тўртта, сарф илмига оид – бешта, ҳадис илмига – саккизта, тарих ва таржимаи ҳол илмига – ўн олтита, мантиқ ва ҳикмат илмига – йигирма бешта, фикҳ илмига оид – элликта, жами 120та китоб ёзган” [10. 165]. Алломанинг фикҳий асарлари қаторида қуйидагиларни санаб ўтиш мақсадга мувофиқ: “Иҳкамун қантарати фи аҳкамил басмалати” (Басмаланинг ҳукмларидаги кўприкни мустаҳкамлаш), “Ифодатул хойри фи истияки бисивокил ғойри” (Бошқанинг мисвокидан фойдаланишдаги яхшилиқни ифодалаш), “Иқоматул ҳужжати ала аннал иксора минат тааббуди лайса бибидъатин” (Кўп ибодат қилиш бидъат эмаслигига ҳужжат келтириш), “Окомун нафоиси фи адоил азкори билисанин форисин” (Форс тилида зикр қилишга доир нозик масалалар), “Имамул каломи фимо ятаъаллақу билқироати холфал имами” (Имомнинг орқасида қироат қилишга боғлиқ бўлган сўзнинг улуғи). Бу рисоалар ибодатларда малолланмаслик, ибодатдаги лаззатни ва қалбнинг хузурини ҳис қилиш, нафсига машаққатни юкламаслик, нафл ибодатлардан кўра аҳамиятли ишларни ўтказиб юбормаслик, аҳли оиланинг ҳаққига ўхшаш шариат буюрган ҳақларга

тажовуз қилмаслик, шариат рухсат берган ишни бекорга чиқармаслик, шариат вожиб қилмаган ишни ўзига вожиб қилиш ва шариат ҳаром қилмаган нарсани ўзига ҳаром қилмаслик, ибодат арконларини тўла-тўқис бажариш, фарз ибодатларида давомли бўлиш, уларнинг вақтини узрсиз ўтказиб юбормаслик, кишининг ибодатдаги ғайрати Расулуллоҳ соллаллоҳу алайҳи васаллам ва саҳобаларнинг қилган ибодатларини кам санашга сабаб бўлмаслик маъноларини ўз ичига олади.

Ҳақиқатан ҳам, ўттиз тўққиз йил умр кўрган инсоннинг турли илм соҳаларида 120та китоб ёзиши катта меҳнат талаб қилади. Абдулфаттоҳ Абу Гудда айтади: “Уламолар элликта ёки юзта китоб ёзганларни зикр қилганда, пешқадамлар сирасига Абдулхай Лакнавийни ҳам киритган. Чунки ёзган асарлари сони кўп жилдли китоблари ва бир неча саҳифалардан иборат рисоаларини кўшиб ҳисоблаганда, 110 тадан ортиқдир. Барча китоблари фойдали баҳслар ва мушкул масалаларни ечишга бағишланган. Алломанинг асарлари яшаган умрига таққосланганда, ҳаётидаги ҳар бир кундан унумли фойдаланганидан дарак беради” [1. 13].

Шу сабабли уламолар бир овоздан Абдулхай Лакнавийни кўп китоб ёзган қомусий уламолар қаторига киритган. Бу борада аллома ўздан олдингилардан ҳам, замондошларидан ҳам ўзиб кетган. Унинг қисқа умри давомидаги йирик меҳнати билан қолдирган бой илмий мероси ҳанафийлик мазҳабини қўллаб-қувватлаш ва ҳимоя қилишда узок йиллар бирламчи манба бўлиб қолаверади.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Абдулфаттоҳ Абу Гудда. Муқаддиматул таълиқотил ҳафилати алал ажвбатил фозила. – Дамашк: Дарул қалам, 1991.
2. Абдулхай Лакнавий. Муқаддиматут таълиқил мумажжад ала Муватто Муҳаммад. – Дамашк: Дарул қалам, 1991.
3. Абдулхай Лакнавий. Акомун нафоиси фи адоил азқари билисонил форсий. – Лакнав: Матбаа Мустафо, 1883.
4. Абдулхай Лакнавий. Зажрун носи ала инқори осори Ибн Аббос. – Лакнав: Матбаа Мустафо, 1886.
5. Абдулхай Лакнавий. Зафарул омоний бишарҳи мухтасариш шарифил Журжоний. – Ҳалаб: Матбуотул исламийя, 1995.
6. Абдулхай Лакнавий. Тазкиратур рашид бирадди табсиратин нақид. – Лакнав: Анвару Муҳаммад, 1884.
7. Абу Ҳасан Надавий. Ал-муслимуна фил Ҳинд. – Лакнав: Матбаа Надавий, 1987.
8. Абдуфаттоҳ Абу Гудда. Муқаддимату Абдулфаттоҳ ала сабаҳатул фикри фил жаҳри биззикри. – Дамашк: Дарул қалам, 1991.
9. Абдулхай ибн Фахриддин Ҳасаний. Нузҳатул хавотир ва баҳжатул масамиъи ван навозир. – Ҳиндистон: Даиратул маорифил Усманий, 1972.
10. Валиюддин Надавий. Ал-Имаму Абдулхай Лакнавий алламатул Ҳинд ва Имамун муҳаддисин вал фуқаҳо. – Дамашк: Дарул қалам, 1991.
- Закий Муҳаммад Мужоҳид. Ал-аъламуш шарқийяту фи миати рабиъати ашарата ҳижрийяти. – Миср: Табаатул мисрийя, 1950.
11. Муҳаммад Ҳафиз Бундавий. Канзул баракот фи сийрати Абул Ҳасанот. – Лакнав: Матбаулул улвия, 1888.
12. Муҳаммад Абдулбоқий. Такмилату хайрил амаил бизикри таражими уламои Фаранги маҳал. – Дамашк: Дарул қалам, 1991.
13. Юсуф Илён Сарқисин. Муъжамул матбуотил арабий. – Миср: Матбаа Сарқисин, 1927.

УЎК 93/94

ХИВА ХОНЛИГИ ДАВЛАТ БОШҚАРУВИДА МАҲРАМ ЛАВОЗИМИНИНГ ЎРНИ

Д.Э.Бегалиева, кич.и.х., ЎзР ФА Тарих институти, Тошкент

Аннотация. Ушбу мақолада Хива хонлиги давлат бошқаруви билан боғлиқ масалалар ёритилади. Маҳрам мансабининг ҳуқуқ, ваколат ва вазифалари, лавозимга тайинлаш ва озод этиш, мансаб эгасининг давлат бошқарувида таъсири билан боғлиқ масалалар кўриб чиқилган.

Калит сўзлар: Хива хонлиги, бошқарув, лавозим, маҳрам мансаби, тартиб-қоида.

Аннотация. В данной статье рассматриваются вопросы, связанные с государственным управлением Хивинского ханства. Рассмотрены вопросы, связанные с правами, полномочиями и обязанностями должности махрама, назначением и

освобождением от должности, влиянием занимающего должность на государственное управление.

Ключевые слова: Хивинское ханство, управление, положение, положение махрама, приказ.

Abstract. This article discusses issues related to government administration of the Khiva Khanate. Issues related to the rights, powers and responsibilities of the position of mahram, appointment and dismissal, and the influence of the holder of the position on public administration are considered.

Key words: Khanate of Khiva, administration, position, position of the mahram, order.

Бугунги кунда ўзбек давлатчилик тарихидаги маъмурий идора ва маҳаллий бошқарувни ўрганишга жиддий эътибор қаратилмоқда. Ўрта Осиё хонликларидан Хива хонлиги давлат бошқарув тизимида ҳам мансабдор шахслар алоҳида ўрин тутган бўлиб, олий ҳукмдор ҳокимиятни улар орқали бошқарган.

Хонлик тарихидаги Арабшоҳийлар ва Қўнғиротлар сулоласи даврида ҳукмдорларнинг хос соқчилари ҳисобланган махрамлар ҳам шундай амалдорлардан бўлган. Махрамлар хоннинг энг яқин кишиси ҳисобланган. Чунки, ҳукмдор шахси билан боғлиқ бўлган масалалар бевосита улар орқали амалга оширилган. Хон томонидан ўтказилган ҳар қандай маросимлар махрамларнинг иштирокисиз ўтмаган.

1854-1864 йилларда яъни Хива ҳукмдорларидан Муҳаммад Аминхон (1845-1855), Абдуллахон (1855-1856), Қутлуғмуродхон (1856) ва Сайид Муҳаммадхон (1856-1864)лар даврида хонликда асирликда бўлган Эрон генерали Исмоилхон Мирпанжийнинг маълумот келтиришича, хиваликларнинг одати бўйича, махрам яқин кишилардан, ёши улуғ, ишончли одамлардан тайинланган [7].

Махрамлар хоннинг оромхонасига кириш ҳуқуқи эга бўлган [6]. Махрамлик лавозимида тайинлаш ва озод этиш масаласида хонликдаги мавжуд тартибга кўра амалга оширилган. Ушбу мансаб авлоддан-авлодга ёки бирон бир намунали кўрсатган хизматлари учун берилган.

Махрамлик лавозимидаги шахсларнинг вазифаси нималардан иборат бўлган, давлат миқёсида уларнинг мавқеи қандай бўлганлигини қуйидаги маълумотларда кўриб чиқиш мумкин. Хусусан, Оташ махрам исмли шахс мисолида - хон ҳузурида кўриниш хонасида хизмат қилувчи мулозимлардан бўлган. Ундай ҳолларда хон оғзаки фармойиш берар эди. Лекин унинг фармойишини хоннинг яқин мулозимлари, шунингдек энг яқин махрамлари топширар эдилар [8].

Тарихчи олим О. Муталовнинг тадқиқотида Хива хони Оллоқулихон (1842-1846) давридаги ўн учта махрамнинг исми келтирилган. Маълумотда қисқа бўлса-да уларнинг баъзиларининг вазифаси ва вафоти сабаблари ҳақида қизиқарли маълумотлар қайд этилган.

Хусусан, унда қуйидагича маълумот берилган: Гадоийниёз махрам - (Қарақалпоққа закот йиғишга юборилган, Бухорога элчи бўлган); Давлат Қоракўз махрам, акбар ул-кубаро (Бухорога элчи бўлган); Муҳаммад Мурод махрам, Муҳаммад Ниёзбек махрам (вабодан вафот этган); Муҳаммад Юсуф махрам (визарот паноҳ, 1831 йилда вафот этган); Обиддин махрам (қулар ақобиридин), Ота Ниёз махрам (Техронга элчи этиб юборилган); Саид Ниёз махрам (Ҳиротга элчи бўлиб борган); Фулод махрам (зобит соқчи ва эпчил ясовуллар сарвари); Эрнийёз махрам (Ҳиротга элчи бўлиб борган), Юсуфбек махрам (вабодан вафот этган); Қорли махрам (зобит соқчи ва эпчил ясовуллар сарвари); Ҳасан Мурод махрам (Ҳиротга элчи бўлиб борган) [9].

Ушбу берилган рўйхатдан кўриш мумкинки, махрамларнинг наслий келиб чиқиши, уларнинг шахсий характеридаги ижобий фазилатлари, масъулиятли элчилик вазифаси билан қайси мамлакатларга юборилганлиги кузатиш имконини беради.

Қайд этиш лозимки, махрамларга вазифалар юклатилишида уларнинг шахсий лаёқати, илми ва тажрибаси инобатга олинган. Махрам ҳаттоки, хорижга элчи қилиб юборилган.

Бу хусусида Муҳаммад Ризо Огаҳийнинг мансабдорларнинг орасидаги содиқ ва илмли Хўжаш махрам ва Отанийёз исмли махрамларнинг элчи қилиб, Ўрус вилоятига юборилганлиги

келтириб ўтилган [10]. Баъзи маҳрамларнинг фарзандлари илмли, ақлли бўлганлиги ҳақида манбалардаги маълумотларда акс этган. Хон саройида ўзининг ақл-заковати билан ажралиб турган шахслардан Аҳмад Табибий шундай кишилардан саналган. Хива хони Муҳаммад Раҳимхон II раислигида XIX-XX асрларда ижод қилган адабиёт вакиллариининг ҳаёти ва ижодига бағишланган “Мажмуат-уш-шуаро” (“Шоирлар мажмуаси”) асари яратилди. Бу китоб Али маҳрамнинг ўғли Аҳмад Табибий (1869-1910) томонидан тузилган [2].

Хива ҳукмдорлари томонидан аҳолининг “арз-доди”ни тинглаш маросимида маҳрамлар фаол иштирок этишган. Тарихчи Бобожон Таррох маълумотларига кўра Муҳаммад Раҳимхон II нинг бир йил касал бўлиб, танасининг ўнг томони бир қўли ва бир оёғи фалажланиб, соғлиғи ёмонлашган. Арзхона маҳрамлари кичик Мамат, Маматжон маҳрам, Қодирберган маҳрам, Азиз маҳрамлар бўлган. Давлатмурод маҳрам эса хон заифлиги сабабли аравага ўтказилган хонни “арз-дод”ни тинглаш вақтида орқасидан суяб турганлиги қайд этилган [4, 5].

Арзхона маҳрамларининг жиддий сиёсий тадбир ҳисобланган арз маросимидаги тутган ўрни ва вазифасига қараб айтиш мумкинки, улар ишончли ва тадбирли кишилар орасидан танлаб олинган.

Ақлли ва доно маҳрамлар ҳукмдорларга ўзларини кўрсатиши, эътиборига тушиши сабабли лавозимлари кўтарилган. Мавжуд манбаларда баъзи сарой қулларининг ҳам ўзининг ижобий фазилатлари ва кўрсатган садоқатлилиги сабабли маҳрамлик лавозимига ўтирганлиги қайд этилган. Бу каби маҳрамлар девонбегилик даражасигача кўтарилган. Жумладан, Муҳаммад Раҳимхон II (1864-1910)нинг асли эронлик қуллардан бўлган маҳрам лавозимидаги Муҳаммад Мурод девонбеги мисолида кўриш мумкин. Ҳукмдор Муҳаммад Раҳимхон II томонидан асли эронлик қуллардан бўлган Муҳаммад Мурод кейинчалик маҳрамлик даражасига кўтарилган. 1864 йилда хон томонидан девонбегилик мансабига тайинланган. Ушбу девонбеги хон билан бир неча марта Москва, Петербург сафарларида ҳам бўлган [12].

Маҳрамлар ясовулбошилиқ лавозимига ҳам қўйилган. Хонликда мансабга тайинлашда авлоддан-авлодга ўтиш тартибига амал қилинган. Бунда албатта мансаб отадан ўғилга ўтган. Лекин, баъзи истисно ҳолатларда, жумладан, ўғил фарзанд бўлмаса, мансабга бошқа авлод вакили тайинланган. Хусусан, Хива хони Муҳаммад Раҳимхон II ҳукмдорлиги йилларида Қадам исмли ясовулбоши вафот этиб, унинг ўғил фарзанд бўлмаганлиги учун унинг ўрнига Юнус маҳрамни ясовулбоши этиб тайинланган [3].

Ясовулбошилиқка тайинланган маҳрамлар олдиндан ҳукмдорнинг назарига тушган, ишончини оқлаган шахслардан бўлган. Ясовулбоши аҳолининг “арз-дод”ни тинглаш маросимида асосий хизматчилардан ҳисобланган. Бу жараёнда маҳрамлар ҳам муҳим ўрин тутган ва улар вақти-вақти билан алмашиб турган [1].

Маҳрамлик амалидан бўшатилиш ёки тайинланиш бошқа лавозимлар каби турли сабабларга кўра амалга оширилган. Баъзи ҳолатларда маҳрамликни уддалай олмаган мансабдор вазифасидан четлатилган. Маҳрамга ишониб топширилган сипоҳдорлик вазифасини бажара олмаганлиги учун, лавозимдан озод этилган. Хусусан, Муҳаммад Раҳимхон II нинг 1847 йили эллик бир кунлик Марв сафаридан қайтиши билан Қародошли жамоасининг саркардаси Қорахон маҳрамни мансабидан олиб, қиёт қабиласидан Тоғай миробни шу жамоанинг сипоҳдорлик мансабига мансуб қилиб, ўз яқинларининг орасида хурсанд қилди каби маълумот келтириб ўтилган [11].

Қайд этиш жоизки, баъзи маҳрамларнинг кўрсатган хизматлари учун юқори поғонадаги мансабни эгаллашларида катта роль ўйнаган. Юқорида келтирилганидек, саройдаги девонбеги мансабигача кўтарилган. Шундай маҳрамлардан 1856 йили ақлли ва уддабурон Файзи маҳрамга девонбегилик мансаби берилган [13].

Юқоридаги маълумотлардан хулоса сифатида шуни айтиш мумкинки, маҳрамлик лавозими давлат бошқарувида гарчи кичкина лавозимга ўхшаса-да, аслида ҳукмдорнинг яқин, ишончли кишиларидан эканлиги ва бошқарув фаолиятида ўз таъсирига эга бўлганлигини кўрсатади. Ушбу мансаб эгалари ҳукмдорга яқин бўлганлиги сабабли уларнинг юқори даражадаги мансабларга кўтарилиши ҳам осонроқ кечганлиги кузатилади.

Хонликда ўтказилган давлат аҳамиятига молик бўлган сиёсий маросим ва тадбирларда асосий фигуралардан ҳисобланган. Шу билан бир қаторда уларнинг зиммасига турли масъулиятли элчилик, закот йиғиш каби вазифалар юклатилган. Маҳрамлар ҳукмдорлар ва уларнинг давлат бошқарувида аҳамиятли ўрин тутганлигидан далолат беради.

ҲОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Абдурасулов, У.В. (2015). Хиву в поисках справедливости: церемония “Арзод” в Хивинском ханстве. // Ozbekiston tarixi. №2. 32.
2. Баёний, (1990). Шажараи Хоразмшоҳий. Тошкент. 256.
3. Баёний, (1990). Шажараи Хоразмшоҳий. Тошкент. 243-244.
4. Бобожон Таррох Азизов – Ходим. (1994). Хоразм новазандалари. XIX аср охири – XX аср бошларида Сайид Муҳаммад Раҳимхони соний даврида яшаган шоирлар ҳақида эсдаликлар. Тошкент: Ғ.Ғулом ном. Адаб ва санъат нашр, 24-25
5. Sartori P, Abdurasulov U. (2020). Seeking Justice at the Court of the Khans of Khiva. (19th-Early 20th Centuries) Brill Leiden Boston. 38.
6. Иванин, М.И. (1873). Хива и река Аму-Дарья. Спб. «Типографии товарищества «Общественная польза», 60.
7. Исмоил, Мирпанжий. (1997). Асирликдаги хотиралар. (Исмоил Мирпанжийнинг Хуросон, Марв ва Хивада бошидан кечирган воқеалар баёни) Урганч, Хоразм. Олтин мерос. 43.
8. Ёўлдошев, М.Ю. (1959). Хива хонлигида феодал ер эгаллиги ва давлат тузилиши. Тошкент: Ўздавнашр, 40.
9. Муталов, О. (2005). Хива хонлиги Оллоқулихон даврида. Тошкент, 46-47.
10. Огаҳий Муҳаммад Ризо, (1980). Жоме-ал-воқеоти султоний / Нашрга тайёрловчи Ғ.Каримов. Олтинчи жилд. Тошкент: Адабиёт ва санъати, 50.
11. Огаҳий Муҳаммад Ризо, (1980). Жоме-ал-воқеоти султоний / Нашрга тайёрловчи Ғ.Каримов. Олтинчи жилд. Тошкент: Адабиёт ва санъати, 35.
12. Худойберганов, К. (2012). Хива дунёдаги энг кўхна қалъа. / Маъсул муҳаррир Аҳмедов А. Тошкент: Хоразм Маъмун академияси, 52.
13. Муҳаммад Ризо Огаҳий, (1980). Гулшани давла. VI жилд. Нашрга тайёрловчи Ғ. Каримов. Маъсул муҳаррир Долимов С. Тошкент: Адабиёт ва санъат, 171-172.

УЎК 9.433

СУРХОН ВОҲАСИДА ЭЛЕКТР ТАРМОҚЛАРИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ (1920-1940 йй.)

С.Р.Бобоева, катта ўқитувчи, Термиз давлат педагогика институти, Термиз

Аннотация. Мақолада, Сурхон воҳаси энергетика саноати тарихи, совет ҳокимиятининг электрлаштириши бўйича олиб борган ишлари, қабул қилган расмий ҳужжатлари, архив жамғармалари ва статистик материаллари таҳлили ёритилган.

Калит сўзлар: Паттакесар, Термиз, Шеробод, Метеор, Красний пролетарий, Павлоград, Чертков, Волоковольский, Чернянск, Денов, Шаргун, ГЭС.

Аннотация. В статье описывается история энергетики Сурханского оазиса, работы советской власти по электрификации, полученные официальные документы, анализ архивных коллекций и статистических материалов.

Ключевые слова: Паттакесар, Термиз, Шерабад, Метеор, Красний Пролетарий, Павлоград, Чертков, Волоковольский, Чернянск, Денов, Шаргун.

Abstract. The article describes the history of the energy industry of the Surkhan oasis, the works of the Soviet authorities on electrification, the official documents received, the analysis of archival collections and statistical materials.

Key words: Pattakesar, Termiz, Sherabad, Meteor, Krasny Proletary, Pavlograd, Chertkov, Volokovolsky, Chernyansk, Denov, Shargun.

Кириш. Ўзбекистонда сўнгги йилларда иқтисодий ислохотлар туфайли мамлакат саноат ишлаб чиқариш тизимида таркибий ўзгаришлар амалга оширилиб, замонавий саноат тараққиёти учун кенг йўл очилди. Хусусан, Янги Ўзбекистон шароитида иқтисодиётни электр энергияси билан узлуксиз таъминлаш ҳамда «Яшил иқтисодиёт» технологияларини барча соҳаларга фаол жорий этиш, Ўзбекистон энергетика тизимининг қўшни давлатлар энергетика тизимлари билан барқарор ишлашини таъминлаш, Саноат тармоқларида йўқотишларни

камайтириш ва ресурсларни ишлатиш самарадорлигини ошириш, Уй-жой-коммунал хўжалиги, ижтимоий соҳа объектлари ва бошқа соҳаларда қайта тикланувчи энергия манбаларини кенг жорий этиш ва энергия самарадорлигини ошириш каби масалалар белгилаб олинган. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 26 майдаги ПҚ-3012-сон «2017-2021 йилларда қайта тикланувчи энергетикани янада ривожлантириш, иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳада энергия самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари дастури тўғрисида»ги[1], 2019 йил 1 февралдаги ПҚ-4142-сон «Ўзбекистон Республикаси Энергетика вазирлиги фаолиятини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги, 2019 йил 27 мартдаги ПҚ-4249-сон «Ўзбекистон Республикасида электр энергетика тармоғини янада ривожлантириш ва ислох қилиш стратегияси тўғрисида»ги, 2021 йил 24 июлдаги ПҚ-5193-сон «Сурхондарё вилоятида қуввати 1500-1600 МВт бўлган буғ-газ электр станцияси қурилишини ташкил этиш бўйича чора-тадбирлар тўғрисида»ги[2], 2022 йил 14 январдаги ПҚ-85-сон «Сурхондарё вилояти Шеробод туманида қуввати 456,6 МВт бўлган фотоэлектр станцияси қурилишини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарорлари, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 30 октябрдаги 899-сон «2019-2022 йилларда электротехника саноатини жадал ривожлантириш дастурини тасдиқлаш тўғрисида»ги 7 Қарорлари соҳа фаолиятини такомиллаштиришга оид меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда мақолада белгиланган вазифаларни амалга оширишда муайян даражада хизмат қилади[3].

Усуллар. Мақолада умумий қабул қилинган методлар – ҳолислик, тарихий таҳлил, қиёсий-манتيкий таҳлил, хронологик кетма-кетлик тамойиллари асосида Митра илоҳи ва унинг тарихшунослигини ёритиб беришдан иборат.

Натижалар. Тарихдан маълумки, республикада шўро ҳукмронлиги ўрнатилгач, асосий эътибор социализм қуриш ғоясини илгари суришга қаратилди. Маълумки, бутун бир совет давлатида индустриаллаштириш сиёсати амалга оширила бошланди. Оғир саноатга эътибор қаратилган бу сиёсат, миллий ўлкалар иқтисодий ҳаётига салбий таъсир кўрсатди. Агар 1917 йилда Ўзбекистонда 425 та саноат корхонаси фаолият олиб борган бўлса, 1920 йилга келиб улар сони 138 тага тушиб қолди. Жумладан, электростанциялар сони 6 тадан 4 тага қисқарди[4]. Республика халқ хўжалигининг негиз тармоғи, иқтисодиёт ва техника тараққиётининг мустақкам пойдевори шубҳасиз энергетикадир. Ўзбекистон энергетика системаси умумий ўрнатилган қуввати 11,5 млн квт бўлган 37 иссиқлик ва гидравлек электростанцияларида йилига 55 млрд квт.с.дан ортиқ электр энергияси ишлаб чиқариш имкониятига эга. Ўзбекистон энергетика системасининг барча қучланишлардаги электр тармоқларининг умумий узунлиги 228 минг кмни ташкил қилади[4]. Ўзбекистонда электр қувватидан асосан XX аср бошларидан фойдаланила бошланди. Маълумки, Ўзбекистон Республикаси ва Сурхондарё вилоятида саноатни тараққий қилдириш ҳаракати 1920 йилларда бошланган эди. Республикада халқ 144 хўжалигида саноатни тиклаш жараёни ҳали ҳам давом этаётган бир даврда мамлакатнинг марказий органлари индустриаллаштирилиши тўғрисидаги масалани кун тартибига қўймоқда эди. Бу ҳам бўлса ички жамғармаларни тўплаш ва мамлакатнинг ўзидаги маблағлардан бир мунча оқилона фойдаланиш ҳисобига саноатни ривожлантириш зарур бўлиб қолди. Кенг қамровчи индустриаллаштириш дастурига ўтиш иқтисодий ва одамий ресурсларга ҳаддан ташқари келишига сабаб бўлди. Қўшимча қийинчиликларни келтириб чиқарди ва қанчадан-қанча ҳаракатлар қилишига боғлиқ бўлди. Жамғармалар манбалари тўғрисидаги масала энг кескин муаммоларнинг бирига айланди. Хусусий капитал йирик саноатга атайлаб яқинлаштирилмас, саноат жамғармалари асосигина индустриал сакрашни амалга ошириш мумкин эмас эди. Машаққатнинг собиқ партия раҳбарияти ниҳоятда қаттиқ ўтган сиёсий баҳс мунозараларидан кейин маблағларни иқтисодиётнинг аграр секторидан индустриал секторга яъни деҳқон хўжалиқларидан саноатга олиб ташлаш йўлини маъқулладилар. Республикада индустриаллаштиришнинг бошланиш даврида ривожланган замонавий саноат ҳам йўқ, бор бўлган саноат корхоналарининг ҳам техник даражаси ҳаддан ташқари паст инженерлар, техниклар ва замонавий техникани биладиган малакали ишчилар ниҳоятда етишмас эди. Натижада ўша халқ хўжалигини тиклаш етти-саккиз йилга чўзилиб кетди. Мана шу сабабларнинг ҳаммаси Республика саноати,

ривожланишда кўшимча қийинчиликлар туғдирар эди. Лекин шундай қийинчиликларга қарамасдан, собиқ иттифоқ раҳбарлари 1925-1926 йилларда республикамиз саноатига 106 млн сўм пул ажратдилар. Ўзбекистонда индустриалаштириш гидро-электрстанциялар қуриш билан бошланган эди. Чунки, саноатнинг пахта тозалаш, мой ишлаб чиқариш, ипакчилик, тикувчилик, виночилик ва мева консервалари тайёрлаш соҳаларини ривожлантириш, шунингдек, қишлоқ хўжалик машиналари ва минерал ўғитлар ишлаб чиқарадиган корхоналар қуриш кончилиги, тошкўмир қазиб чиқариш ишларининг жадал олиб бориши албатта кўплаб электр энергиясини талаб қилар эди. Бу ҳолат эса электр энергияси аҳамиятининг ошиб боришини тезлаштирди. Ушбу саноатни индустриалаштириш йўлларида Ўзбекистоннинг жанубий вилояти ҳисобланган Сурхондарё ҳам собиқ совет ҳукуматининг дастлабки ишларида 1920 йилда Шерободда ўн беш от кучига эга бўлган, 1928 йилда Термиз шаҳрида юз от кучига эга бўлган, 1927 йилда 17 июлда Сурхондарё округи режа кўмитаси қабул қилган 10 сонли қарорига Паттакесар, Термиз ва Шеробод шаҳрида электрстанция қуриш тўғрисида қарор қабул қилди. Шу йилнинг 14 сентябрида эса Паттакесар электрстанциясини кенгайтириш учун маҳаллий бюджетдан 7500 сўм пул ажратиш тўғрисида ҳам қарор қабул қилди[5].

1928 йилга келиб Сурхондарё округида 119320 квт электр энергияси ишлаб чиқарилди. Сурхондарё округида биринчи электр тармоқларини ишга туширишда Летр Леснов, Кузма Головонов, Николай Авгуль, Лавел Гоегданов ва бошқаларнинг хизмати беқиёс катта бўлди. 1932 йилга келиб Термиз шаҳрида шаҳар электр тармоғи маркази вужудга келди. 1933 йилга келиб Сурхондарё округида саноат корхоналари сони ҳам ўсиб бориш округда саноат янги электрстанцияларни ўсишига олиб келди. 1935 йилга келиб округимизда 10 та электр станциялар мавжуд эди. Кейин эса саноат корхоналари ҳам ўзларига қарашли бўлган электр энергияси тармоқларига эга бўла бошладилар. Округимизда ҳаммаси бўлиб электрстанциялар 1936 йилда 3 млн 430 квт соат электр энергияси ишлаб чиқарилди.

Мунозара. Сурхондарё округи электр тармоқлари ходимлари Улуғ Ватан урушига қадар воҳамиз меҳнаткашлари ва улар ишлайдиган саноат ва қишлоқ хўжалигига корхоналар электр билан таъминлашда ўзларининг хизматлари билан ёрдам кўрсатдилар. Сурхондарё вилояти ташкил этилгандан кейин вилоят халқ хўжалигида ўзига хос ўринга эга бўлган нурчилар фаолиятида ҳам янги юксалиш даври бошланди. Аммо дунё халқлари ҳаётида аламли из қолдирган Ватан урушининг бошланиши вилоят нурчилари томонидан амалга оширилиши лозим бўлган режаларни ҳам барбод қилди. Ватан уруши йилларида бутун саноати ҳарбий изга кўчириш халқ хўжалигини қайта қуришнинг асосий вазифаларидан эди. Аввало фронт ва фронт яқинидаги вилоятлар завод ва фабрикаларнинг асбоб-ускуналари ҳамда бошқа моддий бойликлари, шунингдек малакали ишчилар ва мутахассисларни мамлакатнинг шарқий туманларига жойлаштириши, эвакуация қилинган корхоналарни дарҳол ишга тушириш зарур эди. Уруш шароитида ҳам Сурхондарё вилояти аҳолиси етарли миқдорда электр энергиясига бўлган талаб қондирилмаган бир паллада ғарбий туманлардан саноат корхоналарининг кўчириб келтирилиши вилоят нурчилари олдига янада масъулият юклади. Уруш йилларида Ўзбекистонга юзга яқин саноат корхонасининг кўчириб келтирилиши кўплаб янги электр станцияларни қуришни талаб қила бошлади. Худди шу даврда Сурхондарё вилоятига ҳам ўнга яқин саноат корхоналари Денов туманидаги Повлоград, Чертков, Волокопальский, Черпенский каби саноат корхоналари учун кўшимча электр энергиясига бўлган талабни қондириш учун Термиз, Денов, Шарғун ва Шерободда кўшимча дизель станциялари қурилди ва ишга туширилди.

1942 йилнинг охирига келиб вилоятимизда катта ГЭСлар сони ўн биттани, кичик ГЭСлар сони эса 12 тани ташкил қилиб, бу ГЭС ларда 1943 йилнинг 1 январига келиб асосий маблаг 3063 минг сўмни ташкил қилди[3]. Вилоят саноат корхоналарининг электр энергиясига бўлган талабини тўлароқ қондириш мақсадида уруш йилларида Қумкўрғон ГЭСи қурилиши бошланди. ЎзССР ХХС ва Ўзбекистон ХП б) Марказий кўмитаси 1944 йил 4-5 февралда «Қумкўрғон ГЭСи қурилиш тадбирлари тўғрисида»ги 136-сонли қарорини қабул қилди. Албатта, бу ГЭС қурилиши уруш йилларида электр энергияси ишлаб чиқаришга улгурмаган

бўлсада, лекин Ўзбекистон КП (б) МКнинг энг муҳим ва тезроқ қурилиб ишга тушириши зарур бўлган зарбдор қурилишидан бири сифатида қараб келинди. Сурхондарё нурчилари нафақат фронт, балки фронтда ҳам ҳақиқий ватанпарвар эканликларини кўрсатдилар. Урушнинг биринчи кунлариданоқ кўплаб Сурхондарё электр тармоқлари ходимлари ҳам куролни қўлларига олиб фашизмга қарши бўладиган қонли жангга отландилар. Булар жумласига Н.П.Лесков, Б.З.Зарипов, Н.И.Двеконов, А.Курбонов, А.Ш.Солихов, Б.М.Штатулин, Н.Г.Сунцев, А.А.Абдурахимов ва бошқа жангчиларни мисол тариқасида келтиришимиз мумкин.

Хулоса. Сурхондарё вилояти Ватан урушига ва уруш йилларида қурилган электр станциялар ҳам вилоятимизни электр энергияси билан тўла таъминлай олмас эди. Буни ҳисобга олган вилоят партия ташкилотларининг 1945 йил бўлиб ўтган конференциясида Қумқўрғон ГЭСи қурилишини ниҳоясига етказиш долзарблиги ҳақида алоҳида таъкидлаб ўтилди. Шунинг учун ҳам Ватан урушидан кейин ҳам вилоятимизда биринчилар қаторида қурилган колхозлараро гидроэлектрстанциялардан бири Сариосиё туманидаги „Ғалаба“ колхозида 40 квтли кичик ГЭС қурилди ва 1947 йил сентябрига келиб, 320 дехқон хонадонлари электр энергияси билан таъминланди[6]. 1947 йилда Сариосиё туманининг «Правда», Узун туманининг «Ворошилов», Шўрчи туманининг «Молотов», Термиз туманининг «Чегара колхозчилари» да кичик гидростанциялар қурилди[7]. Вилоятимизда халқ хўжалигини ва аҳолини электр энергияси билан тўла таъминлаш мақсадида марказлашган тарзда иш олиб бориш учун ЎзССРнинг 1963 йили 4 январдаги 18-сонли буйруғи ҳамда Сурхондарё вилояти таркибида қишлоқ хўжалигини электрлаштириш мақсадида Сурхонэлектросёт ташкил қилинди[6]. Бу электрлаштириш тармоғи таркибига Сариосиё, Шўрчи, Шаҳрисабз туманлари электр станциялари ва «Ўзкомумэнергия» электр тармоқлари киритилди. 1963 йил февраль, май ойларида туман хўжаликларида 2386 квт кучга эга бўлган 10 та дизель электрстанцияси қурилди ва ишга тушди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 26 майдаги ПҚ-3012-сон 2017-2021 қайта тикланувчи энергетикани янада ривожлантириш иқтисодиёт тармоқлари ва ижтимоий соҳада энергия самарадорлигини ошириш чора тадбирлари дастури тўғрисидаги Қарори // www.lex.uz.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 27 мартдаги ПҚ-4249-сон «Ўзбекистон Республикасида электр энергетика тармоғини янада ривожлантириш ва ислох қилиш стратегияси тўғрисида»ги Қарори // www.lex.uz.
3. Sitara R. Boboeva. Surkhandarya region's electricity lines. Look to the past. 2024, vol. 7, issue 3, pp.36-41.
4. Джураев Х. Промышленность Узбекистана. Темпы, структура, эффективность. – Т., Узбекистан, 1974. – С.42-43.
5. Сурхондарё вилоят давлат архиви. 503-банд. 1-рўйхат. 1-варак.
6. Сурхондарё вилоят давлат архиви. 503-банд. 1-рўйхат. 2-варак.
7. Э.Қобулов. Сурхондарё тарихи. Т. 2004. Б-78.

УЎК 327 (575.1)

ЎРТА ОСИЁНИНГ ИЛК ЎРТА АСРЛАРДАГИ ХАЛҚАРО АЛОҚАЛАРИНИНГ МАНБАЛАРДА ЁРИТИЛИШИ

Н. Гулчиев, мустақил тадқиқотчи, ТАТУ Қарши филиали, Қарши

Аннотация. Ушбу мақолада Ўрта Осиёнинг илк ўрта асрлардаги халқаро алоқаларининг манбаларда ёритилиши ҳақида сўз боради. Муаллиф илмий маълумотларга таяниб, мавжуд адабиётлар асосида Ўрта Осиёнинг илк ўрта асрлардаги халқаро алоқаларининг манбаларда ёритилиши бўйича ўзига хос жиҳатларни ўрганган ва таҳлил қилган.

Калит сўзлар: Ўрта Осиё, илк ўрта асрлар, халқаро алоқалар, манбалар, араб ва турк манбалари.

Аннотация. В данной статье речь идет об освещении международных отношений Центральной Азии в раннем средневековье в источниках. На основе научных данных автор изучил и проанализировал в источниках специфические аспекты международных отношений Центральной Азии в раннем средневековье.

Ключевые слова: Средняя Азия, раннее средневековье, международные отношения, источники, арабские и турецкие источники.

Abstract. This article deals with the coverage of the international relations of Central Asia in the early Middle Ages in the sources. Based on scientific data, the author studied and analyzed the specific aspects of the international relations of Central Asia in the early Middle Ages in the sources.

Key words: Central Asia, early Middle Ages, international relations, sources, Arabic and Turkish sources.

Кириш. Ўрта Осиёнинг илк ўрта асрлар даври тарихи бугунги жаҳон тарихшунослигида долзарб масалалардан бири саналади. Чунки Ўрта Осиёнинг илк ўрта асрлар даври унинг қадимги даврига нисбатан бирмунча камроқ ўрганилган. Шундай экан, ҳали ўрганилиши керак бўлган муаммолар анчагина, ҳатто, ўз ечимини топган масалаларга ҳам ҳозирда янгича ёндашувлар талаб этилмоқда. Улардан бири Ўрта Осиёнинг илк ўрта асрлардаги халқаро алоқалари тарихи масаласидир.

Илк Олд Осиё ва Ўрта Осиё ҳақида ислом ёзма анъаналари доирасида яратилган **араб тилидаги манбалар** эса кўп ҳолларда бироз кейинги давр – IX – X асрларга оид маълумотларни беради.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Маълумки, Ўрта Осиёнинг араблар томонидан эгалланиши минтақада ислом маданиятининг кенг ёйилишига олиб келди. Араблар босқини муносабати билан араб тарихчи ва географлари ушбу ҳудуддаги тарихий воқеаликларни ўз асарларида ёритиб беришга ҳаракат қилганлар. Марказий Осиё халқлари, жумладан, турклар ҳақида қимматли маълумотлар берувчи араб манбаларини умумий тарихий асарлар ва географик асарларга бўлиш мумкин. Умумий тарихий асарларга кирувчи Абу Жаъфар Муҳаммад ибн Жаърир ат-Табарийнинг “Пайғамбарлар ва подшоҳлар тарихи” (“Тарих ар-расул ва-л-мулук”; IX аср) асарида араблар босқини арафасида Мовароуннаҳр ва унга туташ ҳудудларнинг сиёсий, ижтимоий-иқтисодий, этник ва маданий ҳаёти кенг ёритилган. Ушбу асарнинг қимматли томони шундаки, муаллиф асарни ёзишда ўзидан аввал ёзилган асарлардан фойдаланиш билан бирга кўплаб воқеаларни ўз кўзлари билан кўрган гувоҳларнинг сўзларига таяниб ёзганлигидадир[1]. Айниқса, асарнинг исломдан олдинги даврлардаги Ўрта Осиёдаги ижтимоий-сиёсий вазият, Эрон-Турон зиддияти, араб қўшинларининг Мовароуннаҳрга юриши, арабларга қарши турк ва турғаш ҳоконларининг Суғд, Бухоро, Шош, Фарғона, Тўхористон ҳукмдорлари билан биргаликдаги курашига доир маълумотлари ушбу тадқиқот учун аҳамиятлидир.

Тадқиқот методологияси. Араб географ ва сайёҳларининг асарларига эса Абулқосим Убайдуллоҳ ибн Хўрдодбеҳнинг “Йўллар ва мамлакатлар ҳақида китоб” (“Китоб ал-масолик ва-л-мамолик”; X аср), Аҳмад ибн Водих ал-Йақубийнинг “Мамлакатлар ҳақида китоб” (“Китоб ал-булдон”; IX аср), Аҳмад ибн ал-Хамадоний (Ибн ал-Факих)нинг “Мамлакатлар ҳақида китоб” (“Китоб ахбор ал-булдон”; X аср), Қудамма ибн Жаъфарнинг “Хирож ҳақида китоб” (“Китоб ал-хараж”; X аср), Абул-Хасан ал-Масъудийнинг “Муруж аз-заҳаб ва масадин ал-жавохир” (X аср), Абу Исҳоқ ал-Истаҳрийнинг “Мамлакатлар йўллари ҳақида китоб” (“Китоб масолик ал-мамолик”; X аср), Абу Бакр ал-Муқаддасий (ал-Мақдасий)нинг “Мамлакатларни билишнинг энг аъло тақсими” (“Ахсан ат-тақасим фи марифт ал-ақолим”; X аср), Абу Райҳон ал-Берунийнинг “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар” (“Ал-асар ал-боқия”; X-XI аср), Абу Абдуллоҳ ал-Идрисийнинг “Нузхат ал-муштоқ” ёки “Китоб Рожер” номи билан машҳур бўлган асари (XII аср), Ёкут ал-Хамавийнинг “Мамлакатлар луғати” (“Муҷам ал-булдон”; XII аср) каби асарлари киради[2].

Араб географларининг асарларида Мовароуннаҳр шаҳарлари ва савдо йўлларида ташқари Ўрта Осиё ҳудудларидаги хом-ашё, озиқ-овқат ва ҳунармандчилик маҳсулотлари ҳам батафсил тасвирланган. Ушбу бой маҳсулотлар минтақадан ташқи бозорга – Эрон, Византия, Миср, Хитой, Ҳиндистон ва Узоқ Шарққача тарқалгани ўша даврлардаги халқаро иқтисодий алоқаларнинг қанчалик кенгайганини тасдиқлайди.

Шу, номаълум муаллиф томонидан форс тилида ёзилган “Дунёнинг шарқдан ғарбгача бўлган чегараси” (“Худуд ал-‘олам мин ал-машриқ ила-л-мағриб”; X аср) ва Муҳаммад ибн Жа‘фар ан-Наршахийнинг “Бухоро тарихи” (“Тарихи Бухоро”; X аср) асари ҳам ўрганилаётган муаммони ёритишда кўл келади[3].

Таҳлил ва натижалар. IX – XII асрларга оид араб ва форс тилли манбалар ичида саёҳатчиларнинг турли ҳисоботлари, қайдлари ва эсдаликлари ҳам муҳим манба бўлиб хизмат қилади. Наср II Аҳмад саройида хизмат қилган сомонийлар вазири Абу Дулафнинг (914-943) туркий қабилалар ҳудудларидан ўтган илк саёҳати ҳақидаги ҳисоботи ҳамда Аббосийлар халифаси ал-Муктадирнинг (908-932) Волга Булғориясига юборилган Ибн Фадланнинг Ўрта Осиё бўйлаб саёҳати алоҳида бироз кейинги даврларга алоқадор бўлса ҳам, қизиқ маълумотларни ўзида жамлаган[4].

IX – XII асрларда яратилган араб ва форс тилли тарихий ва тарихий-географик асарлар муаллифлари Ўрта Осиё ва унга қўшни ҳудудларнинг халқаро алоқалари тарихига бағишланган алоҳида асарлар яратишни мақсад қилмаганлар, албатта. Бироқ тарихий, тарихий-географик, биографик, генеалогик асарлар, луғатлар, саёҳатчиларнинг хотиралари, қомусий асарларнинг таҳлили орқали илк ўрта асрлардаги ҳарбий воқеалар ва сиёсий жараёнлар орасидан халқаро алоқалар масаласига доир маълумотларни ажратиш олиш ва уларни умумлаштириш мумкин.

Хулоса ва таклифлар. Қисқаси, шу пайтгача Ўрта Осиё бўйича олиб борилган тадқиқотлар туфайли жаҳон илм-фани анчагина қимматли ёзма манбалар билан бойиди. Албатта, уларнинг ҳаммасини ҳам мазмунан ва илмий қиймати жиҳатидан бирдек тенг деб бўлмайди. Бироқ, шунга қарамай, улар Ўрта Осиё халқлари тарихи ва маданияти, хусусан, халқаро алоқалари борасида қимматли маълумотларни бера олади. Тўғри, қайсидир ёзма манба йилма-йил, кетма-кетликда баён этилган бўлса (кўпинча бундай йилномалар ҳукмдор саройи котибларига тегишли бўлган), бошқалари эса сайёҳ, роҳиб ёки ҳарбий жосусларнинг хотиралари ёритилган асарлардир. Ҳар иккиси ҳам ўз ўрнида аҳамиятли бўлиб, бир-бирини тўлдириш моҳиятидадир. Фақат тадқиқотчидан сабр ва зийракликни талаб этадиган олиб чиқиладиган муаммонинг манбашунослиги ушбу муаммони ёритишдаги бирламчи босқичдир.

Шундай экан, Ўрта Осиёнинг илк ўрта асрлар даври халқаро алоқалари билан боғлиқ масалани ёритишда турли тиллардаги кенг ёзма манбалардан имкон борича фойдаланган ҳолда улардаги маълумотларни умумлаштириб, бошқа артефактлар билан қиёсий таққослаш зарур.

ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. История ат-Табари. Избранные отрывки. Перевод с арабского В.И. Беляева. Дополнения к переводу О.Г. Большакова и А.Б. Халидова. – Ташкент, 1987.
2. Ибн Хордодбех. Книга путей и стран. Перевод с араб. Н. Велихановой. Баку, 1986; Бетгер Е. К. Извлечение из книги “Пути и страны” Абу-л-Касым ибн Хавкаля // ТСГУ. Вып. 4. Ташкент, 1957; МИТТ. Москва-Ленинград, 1939; МИСЦА. Ташкент, 1988; МЭИТНЦА.Ташкент, 2003; МИКК. Вып. 1. Фрунзе, 1973; Крачковский И.Ю. Арабская географическая литература. Соч. 4. М.-Л., 1957; Волин С. Сведения арабских историков IX-XVI вв. о долине реки Талас и смежных районах // ТИИАЭ КазССР. Т.8. Алма-Ата, 1960; Асадов Ф.М. Арабские источники о тюрках в раннем средневековья. Баку, 1993; Арабо-персидские источники о тюркских народах. Фрунзе, 1973.
3. Hudud al-‘Alam. The regions of the world. Translated by R.V. Minorsky. London, 1970; Муҳаммад ибн Жафар ан-Наршахий. Бухоро тарихи. Форс тилидан А. Расулев таржимаси. Ташкент, 1991.
4. Григорьев В.В. Об арабском путешественнике X в., Абу Долефе, странствование его по Средней Азии // Журнал Министерства Народного Просвещения. – СПб., 1872, сентябрь. – С. 163; Путешествие Ибн Фадлана на Волгу. Перевод и комментарий под ред. академика И.Ю. Крачковского. Институт истории и Институт востоковедения. – М.-Л., 1939. – 194 с.; Ковалевский А.П. Книга Ахмеда ибн Фадлана о его путешествии на Волгу в 921-922 гг. – Харьков, 1956. – 345 с.

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОНДА ДАВЛАТ ИМИДЖИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСЛАРИ

О.З. Мадаминов, ўқитувчи, Урганч давлат университети, Урганч

Аннотация. Мақолада давлат имижини ривожлантириши борасида ўз ечимини кутаётган масалалар таҳлили амалга оширилиб, давлатларнинг ташқи сиёсат соҳасидаги вазифаларини амалга ошириши, шунингдек, чет элда ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиши соҳасидаги расмий фаолият ҳисобланувчи дипломатиянинг ўрни кўрсатиб берилган.

Калит сўзлар: давлат, давлат имижиси, дипломатия, халқаро муносабатлар, геосиёсат.

Аннотация. В статье анализируются вопросы, ожидающие своего решения в развитии имиджа государства, и показана роль дипломатии, которая считается официальной деятельностью в сфере реализации внешнеполитических задач государств, как, а также защита прав и интересов за рубежом.

Ключевые слова: государство, государственный имидж, дипломатия, международные отношения, геополитика.

Abstract. In this article is analyzed issues awaiting resolution in the development of the state's image, and shows the role of diplomacy, which is considered an official activity in the implementation of foreign policy objectives of states, as well as the protection of rights and interests abroad.

Key words: state, state image, diplomacy, international relations, geopolitics.

Кириш. Шунини алоҳида таъкидлаш лозимки, 2017–2021 йилларга мўлжалланган Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича “Ҳаракатлар стратегияси” доирасида юртимизда изчил амалга оширилган ислохотлар ўз самарасини кўрсатиб, хусусан, Ўзбекистоннинг халқаро тарихий-сиёсий жараёнлардаги позициясини мустаҳкамлашда эришилган натижалар “2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси”га мустаҳкам пойдевор яратди. Қолаверса, амалга оширилаётган ички ва ташқи сиёсатдаги ижобий тарихий ўзгаришлар мустақил Ўзбекистоннинг халқаро майдондаги нуфузи - имиджини ортишига хизмат қилмоқда.

Мустақиллик йилларида амалга оширилаётган ва Янги Ўзбекистонни барпо этишга пойдевор яратаётган том маънодаги тарихий юксалишлар нафақат халқимиз томонидан, балки кенг дунё ҳамжамияти ва халқаро ташкилотлар томонидан ҳам эътироф этилмоқда. Бу ташаббуслар негизида эса нафақат миллий манфаатлар, балки умумжаҳон манфаатлари ва барқарорликка чақириқлар ётади. Ўзбекистон ўзининг тарихий миссиясини тўлақонли англагани ҳолда демократик ислохотларни олиб бормоқда ҳамда бу ислохотлар ортага қайтмас тарихий тус олиб улгурган. Демократик тараққиёт ва Ўзбекистоннинг барча соҳалардаги сиёсий ташаббуслари – унинг давлат имижини юксалишига пойдевор бўлиб хизмат қилади.

Таҳлил ва натижалар. Давлат имижиси бу, энг аввало, ўзга халқлар, мамлакатлар ва халқаро ташкилотларнинг у ёки бу давлат ҳақидаги тасаввурида ўз аксини топади. ҳақидаги тасаввурдир. У тарихий воқеалар, маданий мерос, иқтисодий куч, сиёсий барқарорлик, инсон кадр-қиммати ва келажакка интилиши каби кўплаб мезонларни қамраб олади. Ижобий имиж давлатнинг обрў-эътибори ва нуфузини оширадиган бўлса, салбий имиж эса унинг таъсири ва ишончилигига тўсқинлик қилиши мумкин.

Давлатнинг имижиси “юмшоқ куч” концепцияси билан чамбарчас боғлиқ бўлиб, бу мамлакатнинг мажбурлашга асосланган “қаттиқ куч”га эмас, балки ўз жозибadorлиги билан жалб қилиш орқали бошқаларга таъсир қилиш ҳаракатини англатади. “Ижобий давлат имижиси мамлакатнинг юмшоқ кучини кучайтириб, уни ишончлироқ ва бошқа мамлакатлар учун жозибador қилади. Юмшоқ куч турли воситалар, жумладан, маданий алмашинувлар, таълим дастурлари ва самарали халқ дипломатияси орқали амалга оширилиши мумкин” [2].

Давлат имижини шакллантиришдаги энг муҳим муаммолардан бири бу медиа воситалари орқали манипуляцияси ва идрокни бошқаришга ҳаракат қилишдир. Бугунги кунда рақамли оммавий ахборот воситалари ва виртуал тармоқ платформаларининг ривожланиши

бу муаммони долзарблаштирмакда, чунки ахборот тез, шиддатли ва тегишли контекстсиз тарқалиши мумкин. Давлатлар нотўғри маълумотларга ёки ноҳолис ахборотга қарши кураш олиб бориши мумкин, бу эса уларнинг ҳаракатлари ва ниятлари ҳақида нотўғри тасаввурга – образнинг шаклланишига олиб келади.

Давлат имижини шакллантириш тарихнинг турли босқичида халқлар ва миллатлар ўртасидаги маданий тафовутлар туфайли мураккаблашиб боради. Тарихнинг маълум бир палласида давлат томонидан прагматик зарурат сифатида амалга оширилаётган ҳаракатлар, ўзга бир тарихий макон ва замонда тажовузкор ёки беқарорлаштирувчи сифатида қабул қилиниши мумкин. Турли ихтилофлар кўпинча тарихий контекст, маданий меъёрлар ва ижтимоий тафовут ва фарқлардан келиб чиқади. Бу келишмовчиликлар кўзда тутилмаган тўқнашувларга олиб келиши ва давлатнинг жаҳон миқёсидаги имижига путур етказиши мумкин.

Масалан, мустамлакачилик мероси ва тарихий юк муайян халқнинг ижобий имижини яратишга қаратилган саъй-ҳаракатларини сусайтириши мумкин. Империализм, эксплуатация сиёсати ёки инсон эркинликларининг чекланиши сингари ўтмишдаги воқеликлар давлатнинг обрўсига зиён етказиши билан имиж шакллантирувчи сифатларга ҳам салбий таъсир ўтказиши мумкин. “Ушбу тарихий хатолардан узоқлашишга уринишлар бошқа халқларнинг шубҳа ва қаршиликларига дуч келиши мумкин, бу эса янада ижобий имижни тақдим этиш ҳаракатларига тўсқинлик қилади” [1, б. 159-179].

Ижтимоий-иқтисодий номутаносиблик ва давлатнинг ички ривожланишидаги муаммолари ҳам унинг глобал имижига таъсир қилади, албатта. Аҳоли ўртасида камбағаллик даражаси, тенгсизлик ва бошқа омиллар ҳам бунга мисолдир. Ижтимоий адолат тамойилларининг бузилиши ва муҳим инфратузилманинг етишмаслиги билан курашаётган давлатлар барқарорлик, тараққиёт ва легитимлик қиёфасини (имижини) лойиҳалашда қийинчиликка дуч келишади. Халқаро муносабатлар акторлари кўпинча ўзининг ички муаммоларини адекват ҳал қила олмайдиган ҳукумат самарадорлигини шубҳа остига кўядилар, бу эса унинг глобал саҳнада конструктив иштирок этиш салоҳиятига таъсир қилади.

Мамлакатнинг инсон ҳуқуқлари ва ахлоқий хулқ-атвори унинг қиёфасини шакллантиришда ҳал қилувчи роль ўйнайди. Фуқаролик эркинликлари, сўз эркинлиги ва озчилик гуруҳларига муносабат каби масалалар бўйича шубҳали маълумотларга эга бўлган давлатлар халқаро ҳамжамиятнинг танқиди ва қораланишига дуч келиши мумкин [8]. Бундай тарихий тенденциялар давлатнинг ҳар қандай ижобий ташаббусларига соя солиши мумкин, бу эса обрў-эътиборни бузишга ва дипломатик самарадорликни чеклашга олиб келади.

Геосиёсий можаролар ва ихтилофлар халқнинг бошқалар томонидан қандай қабул қилинишига сезиларли таъсир кўрсатади. Баҳсли ижтимоий тизимларга мослашиш ёки можароларга аралаштириш, ҳатто давлатнинг мақсадлари унинг иттифоқчиларининг мақсад-муддаолари билан тўла мос келмаса ҳам, ушбу бирлашма томонидан таҳдидларга олиб келиши мумкин. Иттифоқларни сақлаш ва ўз қадриятларини қўллаб-қувватлаш ўртасидаги мувозанатни сақлаш мураккаб тарихий жараён бўлиб, у давлатнинг халқаро майдондаги имиджи ҳолатига таъсир этадиган омилдир.

Хулоса. Халқаро муносабатлар тизимида давлатнинг ижобий имижини шакллантириш мураккаб ва кўп қиррали ҳодисадир. Оммавий ахборот воситаларини манипуляция қилиш, қарама-қарши манфаатлар, тарихий юк, иқтисодий муаммолар, инсон ҳуқуқлари билан боғлиқ ёзувлар, геосиёсий можаролар ва раҳбариятнинг ўзгариши – буларнинг барчаси давлатлар қулай глобал идрокни яратишда дуч келадиган қийинчиликларга ёрдам беради. Ушбу муаммоларни ҳал қилиш шаффофлик, самарали мулоқот ва ахлоқий хатти-ҳаракатларга содиқликни талаб қилади.

Давлат имижини шакллантиришнинг марказида халқнинг ўз тарихий қадриятлари, сиёсати ва орзу-интилишларини халқаро ҳамжамиятга тақдим этишда дипломатия муҳим омил бўлиб хизмат қилади. Дипломатия бу – давлатларнинг ташқи сиёсат соҳасидаги вазифаларини амалга ошириш, шунингдек, чет элда ҳуқуқ ва манфаатларини ҳимоя қилиш соҳасидаги расмий фаолиятидир [6]. Турли музокаралар ва расмий саммитлар каби икки ва

кўп томонлама алоқалар давлатларга ўзларининг дипломатик маҳоратини ва глобал ҳамкорликка интилишини намойиш этиш учун платформалар яратади. Ушбу ўзаро таъсирлар орқали давлатлар ижобий ҳамкорлик алоқалари билан бир қаторда, ўз имижини юксалтириш бўйича ҳам тажриба орттириб боради. Жумладан, “дипломатик саъй-ҳаракатлар давлатни мулоқотга киришишга ва низоларни тинч йўл билан ҳал қилишга тайёр бўлган масъулиятли сифатида кўрсатишга ёрдам беради. Аксинча, дипломатик хатолар ёки муваффақиятсизликлар давлат обрўсига путур этказиши ва уни халқаро ҳамжамиятдан ажратиб қўйиши мумкин” [3].

Шуни таъкидлаш лозимки, тарихий воқеалар давлат имижини шакллантиришга катта ҳисса қўшади. Давлат ўз тарихини қандай тасвирлаши бошқалар томонидан уни қай юсунда қабул қилиниш ва идрок этилишига таъсир қилади. Ижобий ёки салбий тарихий воқеалар жамоавий хотирани шакллантиради ва халқаро муносабатларга ўз таъсирини ўтказди. Давлатлар ўзларининг имижини ошириш учун тарихнинг шонли даврларини бўрттириб талқин этиши ёки аксинча ўз тарихининг унчалик “қулай бўлмаган” томонларини камайтиришга ҳаракат қилишлари мумкин. Бундан ташқари, тарихий низолар ва шикоятлар дипломатик муносабатларга таъсир қилиши ва салбий тасаввурларни давом эттириши мумкин, бу тарих ва давлат қиёфаси ўртасидаги мураккаб боғлиқликни кўрсатади.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎХАТИ:

1. Lust-Okar, Ellen (2004) "Siyosiy muxolifatni boshqarish va manipulyatsiyasi", Qiyosiy siyosat , 36 (2), 159-179-b.
2. Ne J. Soft Power and Higher Education. 2004. EDUCAUSE. URL: <http://net.educause.edu/ir/library/pdf/FFP0502S.pdf>
3. Rachel G. The Hidden Curriculum: First Generation Students at Legacy Universities. Princeton, Nyu-Jersi: Princeton University Press, 2021.
4. Ross C. Pillars of Public Diplomacy (May 6, 2006) URL : <http://hir.harvard.edu/china/pillars-of-public-diplomacy>
5. Snow N. Anti-Americanism and the Rise of Civic Diplomacy. URL: <http://www.fpif.org/articles/anti-americanismandtheriseofcivicdiplomacy>
7. Сиёсий атамалар изоҳли луғати. -Т., 1996.
8. The Edward R. Murrow Center of Public Diplomacy. Difinitions of Public Diplomacy. URL : <http://fletcher.tufts.edu/murrow/pd/definitions.html>
9. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order; 1996
10. White R.K. Fearful Warriors: A Psychological Profile of U.S. Soviet relations. N.Y., 1984.

УЎК 902.01

СЕЛУНГУР ҒОР МАКОНИ БИФАСЛАРИ

А.М. Омонов, катта илмий ходим, Миллий археология маркази, Тошкент

Аннотация. Ушбу мақолада Ўрта Осиёнинг илк палеолит даврига оид ёдгорлиги Селунгур ғор макони бифасларининг техник-типологик хусусиятлари тўғрисида сўз юритилади.

Калит сўзлар: Бифас, кливер, чоппер, ретуш, Убайдия, илк палеолит, плейстоцен.

Аннотация. В данной статье рассматриваются технико-типологические особенности бифасов, раннепалеолитической пещерной стоянки Сельунгур в Средней Азии.

Ключевые слова: Бифас, кливер, чоппер, ретуш, Убайдия, ранний палеолит, плейстоцен.

Abstract. This article discusses the technical and typological features of the biface of the Selungur Cave, a monument of the Early Paleolithic period in Central Asia.

Key words: Bifac, cleaver, chopper, retouch, Ubeydia, early paleolithic, pleistocene.

Ўрта Осиёда маданий қатламлари яхши сақланган, ғор типидagi илк палеолит даврига оид ягона ёдгорлик бу Селунгур ғор маконидир. Селунгур ғор макони Ўзбекистон билан Қирғизистон чегарасида, Фарғона шаҳридан 100 км жануби-ғарбда, Сўх дарёси водийсида, Хайдаркон қишлоғининг ғарбий чеккасида (Ош вилояти) жойлашган. Ёдгорликнинг денгиз сатҳидан баландлиги 1890 м. Ёдгорлик 1955 йилда А.П. Окладников томонидан очиб ўрганилган, 1964 йилда М.Р. Қосимов ғорда қисқа тадқиқотлар олиб борган [9]. А.П. Окладников ва М.Р. Қосимовлар тадқиқотлари оралиғида ёдгорлик А. Пошка томонидан ҳам

ўрганилган [13]. Аммо Селунгурни тизимли ўрганиш ишлари 1980 йилда Ў.И. Исломов томонидан бошланган. Ў.И. Исломов раҳбарлигида 1980-1990 йиллар оралиғида ёдгорликда комплекс (геологик, геоморфологик, палеонтологик, палеоботаник, антропологик ва б.) тадқиқотлар олиб борилган. Мазкур даврда амалга оширилган тадқиқот натижалари қатор илмий мақолалар ва рисоаларда ўз аксини топган [4,5,6,7,8 15]. Ёдгорликни ўрганган тадқиқотчилар томонидан ғорда унча катта булмаган 9 та қазилмалар утқазилган, натижада ёдгорликдан 5 та маданий қатлам аниқланган ва бу ердаги 3-қатлам эса яна 3 та микроқатламчаларга ажратилган. Ушбу қатламларнинг қалинлиги 20-40 см дан 0,3-1 м оралиғида бўлиб, маданий ётқизикларнинг чуқурлиги 8,5 м га етган. Қазилмалар натижасида Селунгур ғор маконидан 1500 га яқин тош буюмлар, шунингдек палеофлора, палеофауна ва палеоантропологик материаллар қўлга киритилган [7]. Тош қуроллар орасида чопперлар, кўпол қирғичлар, ўйиб-кертиб ишланган, тишсимон қиррали қуроллар, тош болталар (кливерлар), тиғлар, протолимаслар (икки тиғли қурол) ва қўл чўқморлари (бифас) топилган.

Маданий жиҳатдан Селунгур ғори материаллари жанубий ашел маданиятига киритилган, Аналогия сифатида Олд Осиёдаги Убайдия ёдгорлиги келтирилади [7,8]. Селунгурнинг маданий қатламларидан олинган намуналарнинг ион-уран услуби бўйича абсолют санаси 1,1-750 минг йилликларни берган. Шу жиҳатдан Селунгур Марказий Осиё худудидаги энг қадимги ёдгорлик, деб талқин қилинган. Бироқ ёдгорлик яхши ўрганилганлигига қарамадан унинг маданий-даврий хусусиятлари хусусан, тош индустриянинг илмий талқини борасида турли фикрлилик юзага келди [11,12]. В.А. Ранов, Л.Б. Вишняцкий ва А.П. Деревянко каби тадқиқотчилар Селунгур ғор маконининг санаси 300-200 минг йиллардан қадимий эмаслиги ва ёдгорликнинг тош индустриясида қўл чўқморлари (бифаслар) мавжудлигини инкор этиб, ушбу тош қуролларнинг типологик жиҳатдан нотўғри талқин қилинганлигини нашрларда қайд этишган [2,3,14]. Хорижлик тадқиқотчилардан Н.К. Анисюткин эса, Селунгур тош буюмлари орасида бифас ва кливерларнинг борлиги ва ушбу қуроллар тош индустрияда муҳим ўрин тутганлигини, шунингдек ёдгорлик 1100000-600 минг йиллар билан саналанган Шарқий Осиё илк палеолит даври технокомплекслари билан яқинлигини таъкидлаган. Н.К. Анисюткиннинг маҳаллий мутахассислар билан бирга Россияда чоп эттирган “Селунгур ғор макони кливерлари” номли мақоласида ёдгорликнинг маданий-даврий хусусиятлари атрофлича талқин қилинган [1].

Ёдгорликни ўрганган мутахассислардан У.И. Исломов ва К.А.Крахмал эса Селунгур ғор маконининг илк ўрта плейстоценга оидлиги ҳамда тўпламда белгиловчи қуроллар (бифас ва кливерлар) мавжудлигини ҳаммауллифликда нашр этилган рисола ва бир қатор илмий мақолаларида қайд этиб ўтишган [7,8,15].

2015 йилда Селунгурда археологик тадқиқотлар Қирғизистон-Россия-Германия халқаро экспедицияси томонидан қайта жонлантирилди ва Селунгурнинг тош индустрияси Ўрта Осиё худудида микок анъаналари асосида ривожланган ўрта палеолитнинг бир варианты сифатида қаралди [10].


Шу тариқа Селунгур ёдгорлиги археологик материалларининг маданий-даврий талқини борасида жаҳон адабиётида турли фикрлилик вужудга келди ва бу ёдгорликнинг тош буюмларини замонавий стандартлар асосида қайтадан, синчиклаб ўрганишни тақозо қилди.

2022-2023 йиллар мобайнида ЎзР ФА Миллий археология маркази фондида сақланаётган Селунгур ғор макони тош буюмлари (ёдгорликдан ўтган асрнинг 80-90 йиллар оралиғида қазиб олинган артефактлар) замонавий усуллар (морфологик, археометрик, техник-типологик, экспериментал) ёрдамида тадқиқ этилиб, индустриянинг объектив тип-варақи ишлаб чиқилди. Тош буюмлар қайтадан, синчиклаб классификация қилинди, хусусан типологияси, ишланиш технологияси ўрганилиб ёдгорликнинг маданий хослиги, аналогияси ва нисбий хронологияси борасида янги илмий хулосаларга келинди [16,17]. Ушбу мақолада Селунгур ғор макони иккиламчи ишлов берилган тош қуролларидан–бифасларнинг техник-типологик таснифига батафсил тўхталиб ўтилади.

Селунгур ғор макони тош индустрияси бирламчи ва иккиламчи ишлов берилган тош буюмларга (қуроллар) бўлинади. Ибтидоий усталар томонидан турли хомашёлар (сланец,


чақмоқлашган оҳақтош, яшма ва хк.) маконга келтирилиб, тошларга бирламчи ишлов бериш (тошларни чақмоқлаш, синдириш) натижасида ўзак (нуклеус) ва йўнилғилар (учиринди) олинган. Иккиламчи ишлов бериш натижасида эса улардан қуроллар ясалган. Ана шундай тош қуроллардан бири бу қўл чуқмори (бифас) бўлиб, Селунгур коллекциясида ушбу тош қуроллардан жами 12 дона мавжуд. Бифаслар - йирик ҳажмли тош қуроллар сирасига киради ва ибтидоий одамнинг дастлабки тош қуроли ҳисобланади, уларнинг энг қадимгилари бундан 1,750 минг йил аввал Африкада пайдо бўлган. Бифасиал қуролларнинг пайдо бўлиши ашел маданиятининг шаклланиши билан боғлиқ. Бироқ Селунгур ғор макони бифаслари шакли ва ишланиш технологияси ашел маданияти шаклланиб, тарқалган Африка ва Ғарб палеолитининг синхрон индустрияларидан кескин фарқ қилади. Қуйида бу хусусда батафсил тўхталиб ўтамиз.

Юқорида қайд этганимиздек Селунгур ғор макони тош тўпламида бифаслар жами 12 дона [16]. Улардан бири кулрангли сланецдан ишланган, ҳажми 104x48x27 мм. У узунчоқ пропорцияли учириндидан бифасиал йўнишлар ва юпқа ретушлашлар ёрдамида шакллантирилган. Шакли атипик учбурчаксимон, учи бифаслар учун ноодатий тарзда учлик қилиб ишланган (1-расм). Кўндаланг кесмада икки тарафлама бўртиб чиққан. Иш қирралари чап латералида S-симон, ўнг латералда эса деярли тўғри чизиксимон.




1-расм.

Тўпламнинг иккинчи бифаси кулрангли ясси кремнийлашган оҳақтош галкадан бифасиал йўнишлар ёрдамида ишланган. Шакли атипик юраксимон (2-расм). Бифаснинг дистал учи синиб қолганидан сўнг қайта шакллантиришга ҳаракат қилинган. Бифаснинг ҳажми 70x57x27 мм. Иш қирралари зигзагсимон. Буюмнинг ҳар иккала юзасида ҳам хом ашёнинг галкали қобиғи қолдиқларини сақлаб қолган.



2-расм.

Тўпламда бир дона гардишсимон бифас мавжуд ва яшмадан ишланган, ҳажми 72x75x35 мм. Буюм бир тарафлама бўртиб чиққан, қирралари зигзагсимон (3-расм). Аввалги ишланиш босқичларида ушбу бифас нуклеус бўлган.




3-расм.

Коллекциянинг навбатдаги бифаси кулрангли сланецдан ишланган ва ҳажми 69x45x20 мм. Бифаснинг учи синиб қолган ва у бифасиал йўнишлар ёрдамида ишлов берилган (4-расм). Қирралари зигзагсимон, кўндаланг кесмада бир тарафлама бўртиб чиққан. Буюмнинг шакли атипик бодомсимон.




4-расм.

Тўпلامнинг навбатдаги бифаси кремнийлашган оҳақтошдан ишланган ва шакли нотўғри тўртбурчаксимон (55x40x15 мм). Буюм аввалги ишланиш босқичларида эҳтимол, нуклеус бўлган, сўнгра бифасиал йўнишлар ёрдамида қуролга айлантирилган (5-расм). Қирралари зигзагсимон, кўндаланг кесмада ясси. Бифасни шакллантирган периферик майда йўнилги излари буюмнинг ўзига нисбатан камроқ патинизациялашган.



5-расм.

Коллекцияда бифасларнинг эҳтимол, қўлланиш жараёнида синиб қолган учлари ҳам учрайди. Маълумки, бифасларнинг уч қисми қаттиқ ва қайишқоқ ҳайвон териларини тешишда кўп ҳолларда синиб қолган. Бундай бифас учларидан бири яшма галкасида ишланган ва ҳажми 45x50x25 мм. Буюм бифасиал йўнишлар ёрдамида ишлов берилган, қирралари зигзагсимон. Бифаснинг ҳар иккала юзасида ҳам хом ашёнинг галкали қобиғини сақлаб қолган (6-расм). Айтиш мумкинки, ушбу қуролни тайёрлашда яшманинг ясси шаклли галкаси танлаб олинган [16].




6-расм.

Ушбу тоифадаги навбатдаги буюм яшмадан ишланган ва ҳажми 45x40x17 мм. Буюм бифасиаль йўнишлар ва кўшимча ретушлар ёрдамида шакллантирилган. Қирраларидан бири тўғри чизиксимон, иккинчиси эса зигзагсимондир (7-расм). Кўндаланг кесмада бир тарафлама бўртиб чиққан.




7-расм.

Навбатдаги бифаснинг учи ҳам яшмадан ишланган ва ҳажми 49x42x20 мм. Буюм бифасиаль йўнишлар ёрдамида ишлов берилган, кўндаланг кесмада бир тарафлама бўртиб чиққан (8-расм). Қирралари зигзагсимон.




8-расм

Ушбу тоифадаги навбатдаги буюм яшмадан ишланган ва ҳажми 84x40x20 мм. У қисман бифасиаль йўнишлар ёрдамида ишлов берилган бифас уч қисмининг фрагменти ҳисобланади (9-расм). Унинг ўнг латерали табиий синган. Қурол узунчоқ ва ясси шаклга эга, аввалги ишланиш босқичларида у нуклеус бўлган.



9-расм.

Ниҳоят, ушбу тоифадаги сўнгги буюм ҳам яшмадан ишланган ва ҳажми 49x45x30 мм. Ушбу буюм нуклеус бўлагидан бифасиал майда йўнишлар ва тишсимон ретушлар ёрдамида шакллантирилган (10-расм). Кўндаланг кесмада икки тарафлама бўртиб чиққан. Қирралари зигзагсимон (10-расм).




10-расм.


Шундай қилиб, Селунгур ғор макони тош индустриясида бифаслар муҳим ўрин эгаллайди. Аммо уларнинг шакллари атипик, бодомсимон, юраксимон ва учбурчак шаклларга эга. Ёдгорликнинг бифаслари ясси галкалардан бифасиал йўнишлар ёрдамида қисман ишлов берилганлиги билан ажралиб туради, ҳамда ушбу тош қуролларнинг фрагментлари юзаларида галкали қобиғини сақлаб қолган. Ишланиши кўпол ва ҳеч қачон уларнинг ўрта қисмлари йўниш ёки шох болға ёрдамида олиб ташланмаган. Худди Шарқий ва Жанубий-Шарқий Осиё илк палеолит даври ёдгорликларида бўлгани сингари Селунгурда бифаслар нисбатан кам сонли. Ана шу каби хусусиятлар Селунгурнинг бифасларини ғарбий палеолитнинг синхрон индустрияларидан фарқ қилишини, ҳамда Шарқий ва Жанубий-Шарқий Осиё илк палеолит даври технокомплекларидаги ушбу турдаги тош қуролларга ўхшашлигини кўрсатади (11-расм).

Селунгур ғор макони бифас қуролларининг аналогиялари (Шарқий ва Жанубий – Шарқий Осиё ёдгорликлари билан).


СЕЛУНГУР
(Ўрта Осиё)



РОК-ТИНГ
(Вьетнам)



ПИНЛЯН
(Хитой)



11-расм.

Селунгурнинг бифаслари бутун Шарқий ва Жанубий-Шарқий Осиё илк палеолитида бўлгани каби Шимолий Африка, Яқин Шарқ ва Европанинг ашелга оид бундай буюмларидан фарқ қилади. Негаки ашел маданиятининг бифасларига ишлов беришда кийик шохларидан ясалган болға қўлланилган. Селунгурнинг бифаслари эса худди Шарқий ва Жанубий-Шарқий Осиё илк палеолитида бўлгани каби қисман ишлов берилган ва ҳеч қачон уларнинг ўрта қисмлари йўниш ёки шох болға ёрдамида олиб ташланмаган, юзаларида галкали қобиғи қолдиқларини сақлаб қолган кўринишга эга [16,17].

Хулоса ўрнида қайд этишимиз мумкинки, Селунгур ғор маконида бифаслар ишлаб чиқариш нисбатан кам сонли бўлсада амалга оширилган ва бу қадимги аҳолининг маданий анъаналари билан боғлиқ эҳтимол, негаки ғарбдагидек Селунгур бифасларининг аксарияти пичоқ сифатида ишлатилганлигига ишониш қийин. Шарқий ва Жанубий-Шарқий Осиёнинг илк

палеолит технокомплексларида бўлгани сингари ёдгорликнинг бифаслари чопқувчи куроллар вазифасини ўтаган бўлиши мумкин. Ўрта Осиё худудига Селунгур технокомплексига ўхшаш индустриялар учрамайди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Анисюткин Н.К., Исламов У.И., Крахмаль К.А. Кливеры раннепалеолитической стоянки Сельунгур в Средней Азии // Археологические вести. №7. Санкт-Петербург, 2000. – С. 12-19.
2. Вишняцкий Л.Б. Палеолит Средней Азии и Казахстана. Санкт-Петербург, 1996. – С. 107.
3. Деревянко А.П. Три глобальные миграции человека в Евразии. Том 2. Первоначальное заселение человеком Северной, Центральной и Средней Азии. Изд-во ИАЭТ СО РАН. Новосибирск, 2017. – С. 399-415.
4. Исламов У.И., Оманжулов Т. Пещерная стоянка Сель-Унгур // ИМКУ. Вып.19. Ташкент, 1984. – С. 18-27.
5. Исламов У.И. Древнейшая пещерная палеолитическая стоянка Сель-Унгур в Ферганской долине // Советская археология №2. Москва, 1990. – С. 115-126.
6. Исламов У.И., Крахмаль К.А. Комплексные исследования древнепалеолитической пещерной стоянки Сельунгур // Раннепалеолитические комплексы Евразии. Новосибирск, 1992. – С. 143-163.
7. Исламов У.И., Крахмаль К.А. Палеоэкология и следы древнейшего человека в Центральной Азии. Изд-во “Фан”. Ташкент, 1995. – 220 с.
8. Исламов У.И., Халмухамедова Р.А., Крахмаль К.А. Исследования палеоэкологии антропогена Центральной Азии // Проблемы каменного века Средней и Центральной Азии. Изд-во ИАЭТ СО РАН. Новосибирск. - С. 2002. 113-118.
9. Касымов М.Р. Новые исследования по палеолиту Ферганской долины в 1964 г. // ИМКУ. Вып.7. Ташкент, 1966. – С. 28-35.
10. Кривошапкин А.И., Виола Б., Колобова К.А., Чаргынов Т., Бакчиев Д. Возобновление исследования пещеры Сельунгур (Кыргызстан) // Проблемы археология, этнография, антропологии Сибири и сопредельных территорий. Новосибирск, 2015. -С. 94-98.
11. Омонов А.М. Марказий Осиёнинг илк палеолит даври маданиятлари муаммолари (Селунгур ёдгорлиги мисолида) // Ўтмишга назар // №9, 4 жилд, 2021. Б.72-85.
- Омонов А.М. Ўзбекистон палеолити хорижлик мутахассислар нигоҳида (мунозара ва танқидий қарашлар) // Ўзбекистон Археологияси. № 2 (19). Самарқанд, 2019. 112-121-бет.
12. Пошка А. Пещера Сел-Ун-Хур // Вопросы антропологии. Вып.2. Москва, 1960. – С. 38.
13. Ранов В.А., Додонов А.Е. О периодизации и хронологии нижнепалеолитических стоянок Средней Азии // К истокам истории древнекаменного века Средней Азии. – Ташкент, 1994. – С. 44-53.
14. Islamov U.I. Seloungour un nouveau site du Paleolithique inferieur en Asie Centrale. //L’Anthropologie 94/4: Paris, 1990. – P. 676-677.
15. Omonov A.M. Selungur gor makonining tosh industriyasi (texnik-tipologik tadqiqot). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. Toshkent, 2023. – 137 b.
16. Omonov A.M. Selungur gor makonining tosh industriyasi (texnik-tipologik tadqiqot). Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent, 2023. – 58 b.

УЎК 94(3)

ҚАДИМГИ ДУНЁ АКАДЕМИЯЛАРИ

С. Сабурова, т.ф.н., Тошкент Иқтисодий ва Технологиялар Университети, Тошкент

Аннотация. Мақолада қадимги дунё академиялари тўғрисида маълумотлар келтирилган. Академиялар фаолият йўналишлари, улар қолдирган илмий мерос ва мактаблар таҳлил қилинган.

Калим сўзлар: Академия, илмий мактаб, фалсафа мактаби, байт-ул ҳикма, тиббиёт, маданият.

Аннотация. В статье приведены сведения об академиях древнего мира. Проанализирована деятельность академий, оставленное ими научное наследие и школы.

Ключевые слова: Академия, научная школа, философская школа, байт-уль-хикма, медицина, культура.

Abstract. The article provides information about the academies of the ancient world. The activities of the academies, the scientific legacy they left behind and the schools were analyzed.

Key words: Academy, scientific school, school of philosophy, bayt-ul-hikma, medicine, culture.

Уйғониш даври маданиятининг ўзига хос хусусиятлари мавжуд бўлиб, дунёвий маърифатга интилиш, бу йўлда ўтмиш ва кўшни мамлакатларнинг маданияти ютуқларидан кенг фойдаланиш, айниқса, табиий-фалсафий, ижтимоий илмларни ривожлантирди.

Ҳозирда ўрта аср Шарқий мусулмон мамлакатларида фаолият кўрсатган илмий ва маданий муассасалар (институтлар), турли-туман қўлёзмалар жамланган кутубхоналар, шифохоналар, илк расадхоналар, таржима марказлари ва, ниҳоят, муайян шаҳарлар ёки хукмдорларнинг саройида ташкил топган тўла маънодаги илмий мактаблар етарли даражада ўрганилган деб бўлмайди. Агар чуқурроқ разм солинса, бундай илм масканларининг умумий сони ўндан ошиб кетади. Фикримизнинг исботи сифатида Бағдоддаги “Байт ал-ҳикма” (ёки “Байт ул-ҳикма”) (IX аср), Бухородаги “Сиван ал-ҳикма” (X аср), Қоҳирадаги “Дар ал-ҳикма” (XI-XII аср), Марағадаги Наср ад-Дин ат-Тусий ишлаган расадхона (у ҳам “Дар ал-ҳикма” деб юритилган) (XIII аср), Хоразмдаги ал-Маъмун академияси (XI аср) ва Самарқанддаги Улуғбек академияси (XV аср) кабиларни кўрсатишимиз мумкин.

Юқорида қайд қилинган академиялардан ташқари эрампдан аввалги даврларда ва эрампнинг бошларида ҳам қадимги фалсафа мактаблари ва академиялар фаолият кўрсатган.

Платон академияси. Афиналик Афлотун ҳақиқий исми Аристокл (мил. ав. тахминан, 427. 27.5 – 347) – юнон файласуфи, платонизм асосчиси. Сократнинг шогирди. Сократ унга “Платон” (кенг елкали, кенг кўкракли деган маънони беради) деб ном қўйган. Платон машҳур файласуфлар билан ёшлигидан мулоқотда бўлиб, улардан таълим олди. Гераклит, Парменид, Демокрит ва бошқа файласуфларнинг асарларини ўрганди.

Европада Платон номи билан машҳур бўлиб, милоддан аввалги 428-348 йиллари яшаган юнонистонлик йирик файласуф ва математик. Сократнинг шогирди. Милоддан аввалги 380 йилларда Афина яқинидаги Академия номли бир боғни сотиб олади (бу ном шу ерлик афсонавий қахрамон Академ шарафига берилган) ва бу боғда ўзининг **Платон академияси** деб аталган фалсафий мактаб (академия)га асос солади. Академия Афинада деярли 1000 йил фаолият кўрсатади. Унда Аристотель ҳам ўқиган. Академияда фақат фалсафадан эмас, геометрия, астрономия, география, зоология ва ботаникадан ҳам таълим берилар эди. Бироқ сиёсий таълим марказий ўринда эди. Таълим маърузалар, мунозаралар ва суҳбатларга асосланиларди. Ҳар куни гимнастика машғулотлари ўтказиларди.

Афлотун педагог ва тарбия назарётчиси сифатида ҳам машҳур. Фуқароларни тарбиялаш давлатнинг асосий вазифаларидан деб ҳисоблади. Афлотун қарашларида жамият, давлат тўғрисидаги таълимот марказий ўринлардан бирини ташкил қилади.

Афлотун (Платон) қаламига мансуб китоблар. Унинг “Сиёсат китоби” (“Китаб ас-сийаса”) - Ҳунайн б. Исҳоқ араб тилига таржима қилган. Ушбу номдаги яна икки, яъни “Бошқариш ишлари учун сиёсат китоби” (“Китаб ас-сийаса фи тадбир ар-риаса”) ва “Шаҳарлар хусусида сиёсат” (“Китаб ас-сийасат ал-мудун”) рисолаларининг ҳам Афлотунга тегишли экани маълум[1]. Булардан ташқари кўплаб китоблари “Байт ул-ҳикма”да араб тилига таржима қилинган.

Ликей - фалсафий мактаби. Европада Аристотель номи билан танилиб, милоддан аввалги 384-322 йиллари яшаб ўтган юнонистонлик машҳур файласуф ва олим. Афинада Батлимус (Платон)дан таълим олган. **Милоддан аввалги 355 йили янги фалсафий мактаб – Ликейга асос солган.** Александр Македонскийга устозлик қилган. Арасту ўша даврда мавжуд деярли барча фан соҳаларига оид асарлар ёзиб қолдирган.

Арасту қаламига мансуб китоблар. Унинг “Категориялар” (“Қатиғурийас”), “Иборалар китоби” (“Китаб ал-ибара”), “Қиёслашнинг таҳлили” (“Таҳлил ал-қийас”) Ҳунайн б. Исҳоқ томонидан “Байт ул-ҳикма”да араб тилига таржима қилинган. “Исботлаш китоби” (“Китаб ал-бурҳан”) – икки бобдан иборат бу мақолани Ҳунайн б. Исҳоқ юнон тилидан сурёнийга, Матта б. Юнус эса сурёнийдан араб тилига таржима қилган. Хожи Халифанинг кўрсатишича, ал-Форобий ҳам ушбу номда рисола ёзган[2].

“Баҳс китоби” (“Китаб ал-жадал”) - Ҳунайн б. Исҳоқ уни сурёний, Яҳё б. Адий эса араб тилига таржима қилган. Саккиз бобдан иборат бу рисолага ал-Форобий тафсир тузган ва бошқа кўплаб асарлари ҳам таржима қилинган.

“Байт ул-ҳикма” – (Бағдод) академияси. “Байт ул-ҳикма” ёки “Байт ал-ҳикма” – (Бағдод) академияси – (Баъзан эса “Хизатан ал-ҳикма” ибораси ҳам қўлланган.

Шарқ илм-фан ривожини айниқса, VIII аср охири IX аср бошларида Араб халифалигининг маркази – Бағдод, Дамашқ шаҳарларида маданият, илм-фан кучайиб бормоқда эди. Хусусан, халифалар ал-Мансур (754-776 йй.), Ҳорун ар-Рашид (786-809 йй.), ал-Маъмун (813-833 йй.) ҳукмронлиги даврида ҳиндча, юнонча, форсчадан илмий, сиёсий, бадиий асарларнинг таржималари кўпайди, маданий алоқалар авж олди. Қадимги Юнонистоннинг машҳур олимлари Аристотель, Гален, Гиппократ, Архимед, Евклид кабиларнинг мероси кенг ўрганилди. Халифаликнинг турли ўлкаларидан таниқли олимлар Бағдодга олиб келинди, бу ерда IX аср бошида “Байт ул-ҳикма” (“Донишмандлар уйи”) маркази ташкил топди. Унда турли илмлар – фалакиёт, риёзиёт, тиббиёт, тарихшунослик, география, кимё, фалсафа каби фанлар ривожланди.

Аббосийлар сулоласидан бўлган халифа, йирик сиёсий арбоб, илм-фан ҳомийси Маъмун – халифа Ҳорун ар-Рашиднинг ўғли. Маъмун отасининг вазири Жаъфар ибн Яҳё тарбиясини олиб, камол топган. Маъмун Хуросон вилояти (маркази – Марв шаҳри) ноиб (809-819 йй.) 813 йилда акаси ал-Амин билан тахт учун бўлган жангда ғолиб чиқиб, Бағдод халифалигини унинг ихтиёрига ўтади, аммо Бағдодга фақат 819 йилда кўчиб ўтган. Маъмун Мовароуннаҳр ва Хуросон олимларини ўз саройида тўплай бошлаб, уларни ўзи билан Бағдодга олиб кетган, улар “Байт ул-ҳикма” (“Донишмандлар уйи”)да ўз илмий фаолиятларини давом эттирганлар. Дунёнинг турли бурчакларидан, Ўрта Осиё ва Хуросон (Муҳаммад ал-Хоразмий, Яҳё ибн Абу Мансур, Ҳабаш ал-Хосиб ал-Марвазий, Холид ал-Марварудий, ал-Аббос ал-Жавҳарий, Аҳмад ал-Фарғоний)дан таклиф этилган алломалар илмий мавзуларда мунозаралар олиб боришган.

Маъмун даври илм-фаннинг ниҳоятда ривожланганлиги билан ажралиб туради. Маъмун риёзиёт, фалакиёт, табобат, кимё, география, фалсафа, мантик, адабиёт, диний илмлар соҳасида қатор ютуқларга эришган, муътазилия таълимоти ривожига улкан ҳисса қўшган. Отаси даврида бу кутубхона “Байт ул-ҳикмат” деб номлана бошлаган, кейинчалик у кутубхона доирасидан чиқиб, таржима ва илм ёки ўзига хос академия вазифасини ўтаган.

“Байт ул-ҳикма”да иш олиб борган фан ва маданият арбобларининг барчаси араблардан бўлмай, Шарқнинг бутун ҳудуди, чунончи, Марказий Осиёда азалдан яшаб келаётган халқларнинг вакиллари эдилар.

Рақамлардан илдиз чиқариш илмини кашф этган Муҳаммад ал-Хоразмий бу илмгоҳда, унинг қошидаги расадхона ва кутубхонага раҳбарлик қиларди[3].

Маъмун риёзиёт, фалакиёт, табобат, кимё, география, фалсафа, мантик, адабиёт, диний илмлар соҳасида қатор ютуқларга эришган, муътазилия таълимотига улкан ҳисса қўшган. Маъмун бобоси Мансур, отаси Ҳорун ар-Рашид томонидан саройда тўпланган китоблар сонини кўпайтирган. Отаси даврида бу кутубхона “Байт ул-ҳикмат” деб номлана бошлаган. Кейинчалик у кутубхоналик доирасидан чиқиб, таржима ва илм маркази ёки ўзига хос академия вазифасини ўтаган.

Хоразм Маъмун академияси. Бағдод академиясидек улуғвор илм даргоҳи Шарқ тарихида ягона бўлмай, Хоразмда маърифатпарвар ҳукмдор Маъмун II раҳнамолигида **1004 йили** яна бир академия “**Мажлиси уламо**” (“**Олимлар мажлиси**”) ташкил топганди. X аср охири XI аср бошларида фаолият кўрсатган илмий муҳит бўлиб, Маъмунийлар давлати (992-1017) тарихи билан бевосита боғлиқ. Сиёсий, иктисодий, ҳарбий қудратга эришган хоразмшоҳлар давлати мамлакатни бирлаштириш, унда тартиб ўрнатиш бўйича тадбирларни бошлаб юборган. Кун тартибида давлат ички ва ташқи сиёсатини олиб боришда мафкуравий масалаларни ҳал қилиб турган. Али ибн Маъмун (997-1010) доно ва зукко маслаҳатчиларга муҳтож бўлган. Унинг бахтига тоғаси, Абу Наср ибн Ироқ ўз даврининг ўта билимдон олими бўлган. 1004 йилнинг бошида Ибн Ироқ таклифи билан Беруний Гурганжга қайтиб келган. Маъмун саройида илм аҳли учун яхши шароит яратиб берилган. Бу икки шахс Яқин ва Ўрта Шарқдаги кўплаб олимлар билан шахсий ёзишмада бўлганлар. Уларнинг таклифи билан Нишопур, Балх, Бухоро ва ҳатто араб Ироқидан кўплаб олимлар Гурганжга келишган.

Шу тариқа 1004 йилдан бошлаб Гурганжда “Дорул ҳикма ва маориф” (баъзи бир манбаларда “Мажлиси уламо”) номини олган илмий муассаса тўла шаклланган. Бу илмий муассасада худди Афинадаги “Платон”, Бағдоддаги “Байт ул-ҳикма” академияси фаолиятига ўхшаб, илмнинг барча соҳаларида тадқиқот ва изланишлар олиб борилган, жуда кўп манбалар тўпланган, таржимонлик ишлари бажарилган. Ҳинд, юнон, араб олимларининг ишлари ўрганилган. Ал-Хоразмий, ал-Фарғонийларнинг ўлмас асарлари, илмий ишларидан фойдаланилган ва тадқиқ қилинган. XVIII-XX аср тарихчи олимлари томонидан илмий муассаса ҳар томонлама ўрганилган ва ўз фаолияти нуқтаи назаридан бу даргоҳ ўз даврининг академияси бўлганлиги исботланган ва унга “Маъмун академияси” номи берилган.

1004-1017 йилларда Гурганч (Кўҳна Урганч)да фаолият кўрсатган “Дорул Ҳикма” (“Донишмандлар уйи”) ҳақли равишда қадимги дунёда 3- академия деб юритилади. Уни Маъмун ибн Маъмун шоҳ II таъсис этган ва ўзининг ишончли кишиси Абу Райҳон Берунийга ҳакамлик этиш учун топширган

Хоразм Маъмун академияси асосини қуйидаги олимлар ташкил этган: Абу Наср ибн Ироқ, Абулхайр ибн Ҳаммор, Абу Саҳл ал-Масихий, Абу Райҳон Беруний, Ибн Сино, Яъқуб ибн Мискавайх, ас-Саолибий, Муҳаммад ас-Саҳрий, Муҳаммад ал-Хоразмий ва бошқалар[5].

Академия олимлари Юнонистон, Яқин ва Ўрта Шарқ, Ҳиндистон илм-фан ютуқларини ижодий, танқидий ўрганиб, уни янада юксак босқичга кўтарганлар. Академия аъзоларининг аксарияти олим сифатида Марказий Осиёда шаклланганлар. Уларнинг илмий фаолияти, асарлари туфайли Қадимги Хоразм бадиий санъати, адабиёти, астрономияси, математикаси, суғориш маданияти ютуқлари жаҳон тамаддуни хазинасига кирган ва бутун инсоният манфаатларига хизмат қила бошлаган.

Масалан, Абу Наср ибн Ироқ астрономияга доир илмий асарлари туфайли “Батлимуси соний” (“Иккинчи Птолемей”) деган фахрий ном олган. Абулхайр ибн Ҳаммор мантик, фалсафадан ташқари табобатда ҳам жуда машҳур бўлгани учун “Букроти соний” (“Иккинчи Гиппократ”) лақабига сазовор бўлган. Абу Саҳл ал-Масихий табиб, Ибн Синонинг устози бўлган.

Академия раҳбари Абу Райҳон Беруний фаннинг деярли ҳамма соҳалари билан шуғулланган. Унинг геодезия ва математика соҳалари бўйича асарлари бугун ҳам долзарбдир. Беруний Ўрта Осиёда биринчи бўлиб, тиббиётга оид “Китоб ас-Сайдана фит-тиб” (“Табобатда доришунослик китоби”) асарини ёзган. Беруний Америка қитъаси мавжудлигини европалик олимлардан тахминан, 450 йил олдин айтиб ўтган. Беруний ер қурраси шарсимон эканлигини исботлаган ва илк глобусни тайёрлаган, ой билан унинг орасидаги масофани аниқ ўлчаган, Ернинг нариги томонида қуруқлик борлигини илмий асослаб берган. Унинг “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар” асарида қадимги халқлар (юнонлар, эронийлар, суғдийлар, хоразмийлар ва бошқалар)нинг йил ҳисоблари, байрамлари ва машҳур кунлари, урф-одатларига оид қимматли маълумотлар тўпланган.

“Тиб қонунлари” билан Европани хайратга солган Ибн Сино, жаҳон фани таракқиётига улкан ҳисса қўшган. Хусусан, унинг “Тиб қонунлари” асари бутун дунёга машҳур бўлган. Хоразмда Ибн Сино, асосан, математика ва астрономия билан шуғулланган олимнинг Аристотель таълимоти хусусида Беруний билан ва ўзининг шогирди Бахманёр билан ёзишмалари тарихда машҳурдир.

Олим Мискавайх, математик Абу Наср ибн Ҳаммор ва бошқалар кўплаб илмий-амалий муаммоларни ечиб, жаҳон фани ривожига бетакрор ҳисса қўшганлар[6].

Хоразм Маъмун академияси олимлари Хоразм табиати, иқлими, суғориш тизими, минерологияси, ер ости сувлари, Амударё дельтасининг тарихи, коризлар қуриш орқали тупроқни тозалаш йўллари тадқиқ этишган. Академия аъзоларидан Абу Бакр ал-Хоразмий, табиб Абу-л-Фараж ибн Ҳинду шеърятда юксак маҳоратга эришганлар. Хоразм тарихи, динлари, ёзуви, миллий қадриятлари ҳақидаги қимматли маълумотлар уларнинг фаолияти туфайли бизгача етиб келган. Уларнинг ўзларига хос шиори: “Илм – инсонлар ҳожатини чиқармоқликка хизмат қилсин”, - дея аталган эди. Хоразм Маъмун академияси олимларига илмда қатъийлик хос бўлган. Аристотель йўл қўйган хатолар текширишлар давомида

тузатилган, кутбдаги давомий тун ва кунлар масаласи осонлик билан фалакиёт нуктаи назаридан тушунтирилиб, ечилган. Берунийнинг қайд этишича, қадимда Хоразм астрономлари юлдузлар жойлашиш тартибини араблардан кўра яхшироқ билишган[6].

Марказий Осиёдаги илм-фаннинг бу даврдаги равнақи жаҳондаги фан шайдоларининг диққатини ўзига тортган, бу ўз навбатида “Буюк Ипак йўли”нинг ривожланиш босқичига ўз хиссасини қўшган.

Хоразмшоҳ Маъмун ибн Маъмун (Маъмун II) саройидаги олимлар шуҳрати ўз даврида узоқ ўлкаларга тарқалган. Бу эса Маҳмуд Ғазнавийнинг ғашига теккан. У уюштирган суиқасд натижасида 1017 йилнинг баҳорида Маъмун II ўлдирилган ва ўша йилнинг июнида куёви учун қасос олиш баҳонаси билан Маҳмуд Ғазнавий Хоразмга бостириб кирган. Катта қирғин ва талон-торожликлар натижасида Хоразм Маъмун академияси фаолияти тугатилган ва бу ердаги олимларнинг кўпчилиги Ғазнага мажбуран олиб кетилган[7].

Ўзбекистон Республикасининг биринчи Президентининг “Хоразм Маъмун академиясини қайтадан ташкил этиш тўғрисида”ги фармони (1997 й. 11 ноябрь) Ўзбекистоннинг илмий салоҳиятини юксалтириш, унинг жаҳон илмий ҳамжамиятидаги ўрнини мустаҳкамлаш, минтақаларда фанни янада ривожлантириш ҳамда истеъдодли ва фидойи олимларни қўллаб-қувватлаш, юқори интеллектуал муҳит яратишдаги миллий анъаналарни ривожлантиришда қўйилган муҳим қадам бўлди.

Улуғбек академияси. Улуғбек Ўрта Осиё халқлари илм-фани ва маданиятини ўрта аср шароитида дунё фанининг энг юқори поғонасига олиб чиқди. Унинг қилган буюк иши – Самарқанд илмий мактабини ўша давр академиясини барпо этганлиги бўлди. Бу илмий мактабда 200 дан ортиқ олимлар фаолият олиб борган. Улар орасида энг йириклари Қозизода Румий, Ғиёсиддин Жамшид Коший эди. Улуғбекнинг илмий мактаби ўз фаолиятида ўрта осийлик машҳур олим Муҳаммад Хоразмий, Аҳмад ал-Фарғоний, Абул Аббос ал-Жавғарий, Ибн Турк ал-Хутғалий, Холид ал-Марваррудий, Аҳмад ал-Марвазий, Абу Наср Форобий, Абу Райҳон Берунийлар бошлаб берган илмий анъанага асосланар эди. Улуғбек Самарқанд ёнида расадхона барпо қилди.

Улуғбек академиясидаги йирик олим - Али Кушчини Улуғбек “Зиж”нинг сўзбошисида “фарзанди аржуманд”, яъни “азиз фарзандим” дейди. Аслида у Улуғбекнинг садоқатли шогирди бўлиб, “Зиж” устида ишлар поёнига етказилгунига қадар устозига ёрдам берган.

Улуғбек Самарқандда 2 та мадраса: бири Регистон ансамбли таркибида ва иккинчиси Гўри Амир ансамбли таркибида барпо қилган. Бошқа йирик олимлар қаторида Улуғбекнинг ўзи ҳам бу мадрасаларнинг ҳар бирида ҳафтада бир маротаба маъруза ўқиган. Бошқа пайтларда вақтини кўпроқ астрономик кузатишларга, “Зиж” устида ишлашга ва давлат ишларига бағишлаган.

Улуғбекнинг яна бир математикага оид асари “Рисолаи Улуғбек” деб аталади ва унинг бир нусхаси Ҳиндистонда Алигарх университети кутубхонасида сақланади, ҳали ўрганилмаган. Балки у ҳам ҳисоблаш математикасига алоқадордир.

Биз келтирган мушоҳадалар бу мактабларнинг Шарқ халқлари фани ва маданияти ривожидидаги ўрни бағоят юқорилигини ва уни батафсил ўрганиш тадқиқотчилар олдидаги шу куннинг долзарб масалаларидан эканлигини кўрсатади.

“Байт ул-ҳикма”да ва юқорида айтиб ўтилган илм марказларида фаолият кўрсатган мутафаккирларнинг катта қисми ўрта осийлик олимлар экани биз учун унинг аҳамиятини янада оширади, бошқача айтганда, мамлакатимиздаги ҳозирги шароит шу каби илмий марказларни ўрганишни тақозо этмоқда. Чунки бундай тадқиқотлар маданий меросимизни янада чуқурроқ ўзлаштириш, миллий мафкурамизни шакллантириш, бинобарин, халқимиз маънавий салоҳиятини юксалтиришда муҳим ўрин тутаяди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Абдуҳалимов Б. “Байт ал-ҳикма” ва Ўрта Осиё олимларининг Бағдоддаги илмий фаолияти (IX-XI асрларда табиий фанлар). Дисс. Т.ф.д. Токент, 2001. 116- б
2. Булгаков П.Г., Розенфельд Б.А., Аҳмедов А.А. Муҳаммад ал-Хорезми. М., 1983.
3. Мирзаева М. Жамият тараққиётида транскоммуникациялар ролини оширишнинг ижтимоий-фалсафий муаммолари. Дисс...Самарқанд, 2005. 25- б.

4. Саъдуллаев А. Хоразм Маъмун академияси. Хива, 2000.
5. Умаров Ф.Я. Беруни, Коперник и современная наука. Т.: Фан, 1973. –С. 9-10.
6. Саъдуллаев А., Сотликов А. Хоразм Маъмун академиясининг тарихий илдиэлари. Урганч, 2003.
7. Беруний Абу Райхон. Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар. Танланган асарлар, 1-ж. Т., 1968.

УДК 908

**ТЕОРЕТИЧЕСКОЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ
НАСЕЛЕНИЯ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ ТАШКЕНТСКОЙ ОБЛАСТИ**
*М.С.Саидмуродова, базовый докторант, Национальный университет Узбекистана,
Ташкент*

Аннотация. *Ushbu maqolada Toshkent viloyati aholisi va kadrlar resurslarini shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari ko'rib chiqilgan. Nazariy qism demografik tendensiyalar, migratsiya jarayonlarini hamda aholi soni va tarkibiga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-iqtisodiy omillar tahlil qilinadi. Amaliy qismda hayot sifatini oshirish va ishchi kuchi malakasini oshirishga qaratilgan ta'lim, tibbiy va ijtimoiy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish jihatlari bag'ishlangan.*

Калит со'злар: *Demografik tendensiyalar, migratsiya jarayonlari, ijtimoiy-iqtisodiy omillar, inson resurslarini boshqarish, ta'lim dasturlari.*

Аннотация. *В данной работе рассматриваются ключевые теоретические и практические аспекты формирования населения и человеческих ресурсов в Ташкентской области. Теоретическая часть включает анализ демографических тенденций, миграционных процессов и социально-экономических факторов, влияющих на численность и структуру населения. Практическая часть посвящена разработке и реализации образовательных, медицинских и социальных программ, направленных на улучшение качества жизни и повышение квалификации рабочей силы.*

Ключевые слова: *Демографические тенденции, миграционные процессы, социально-экономические факторы, управление человеческими ресурсами, образовательные программы.*

Abstract. *This article examines the key theoretical and practical aspects of the formation of population and human resources in the Tashkent region.*

The theoretical part includes an analysis of demographic trends, migration processes and socio-economic factors influencing the size and structure of the population. The practical part is devoted to the development and implementation of educational, medical and social programs aimed at improving the quality of life and improving the skills of the workforce.

Key words: *Demographic trends, migration processes, socio-economic factors, human resource management, educational programs.*

Формирование населения и человеческих ресурсов является важным аспектом социально-экономического развития Ташкентской области. Этот процесс включает в себя как теоретические, так и практические аспекты, которые необходимо учитывать для достижения устойчивого роста и благополучия региона. Теоретические аспекты:

1. Демографические тенденции. Демографические исследования играют ключевую роль в понимании процессов формирования населения. В Ташкентской области наблюдаются различные демографические тенденции, такие как изменения в рождаемости, смертности и миграции. Анализ этих тенденций позволяет прогнозировать будущие изменения в численности и структуре населения, что важно для разработки эффективных стратегий управления человеческими ресурсами.

Ташкентская область, как и многие другие регионы, испытывает значительные демографические изменения. Рассмотрим основные тенденции:

Рождаемость: В последние годы рождаемость в Ташкентской области остается на стабильном уровне. В 2022 году в регионе родилось около 54,7 тысяч человек. Это свидетельствует о положительной динамике и устойчивом приросте населения.

Смертность: Смертность в Ташкентской области также демонстрирует стабильные показатели. В 2022 году умерло около 11,2 тысяч человек. Эти данные важны для понимания общего состояния здоровья населения и эффективности медицинских услуг.

Миграция: Миграционные процессы играют важную роль в демографической картине региона. В 2022 году внешняя миграция показала, что в область прибыло 352 человека, а выбыло 738 человек. Это указывает на отрицательное сальдо миграции, что может быть связано с различными социально-экономическими факторами. Миграция является важным фактором, влияющим на численность и структуру населения.

Возрастная структура: Возрастная структура населения Ташкентской области характеризуется относительно молодым населением. Средний возраст жителей республики в 2020 году составил 29 лет. Это важный показатель, который влияет на рынок труда, образование и социальные услуги.

Анализ демографических тенденций в Ташкентской области показывает, что регион имеет стабильные показатели рождаемости и смертности, но сталкивается с вызовами в области миграции. Молодое население региона является важным ресурсом для его дальнейшего развития. Эти данные необходимы для планирования и реализации эффективных социальных и экономических программ.

2. Экономические теории: Изучение влияния экономических факторов на формирование и развитие человеческих ресурсов, включая занятость, уровень доходов и экономическую активность. Влияния экономических факторов на формирование и развитие человеческих ресурсов в Ташкентской области позволяет выявить ключевые тенденции и направления для дальнейшего развития региона.

3. Социологические подходы: Исследование социальных факторов, таких как образование, культура, здоровье и социальная мобильность, которые влияют на качество человеческих ресурсов. Ташкентская область, как и многие другие регионы, сталкивается с различными социальными вызовами и возможностями, которые влияют на качество человеческих ресурсов. Рассмотрим основные социальные факторы, такие как образование, культура, здоровье и социальная мобильность, и их влияние на развитие региона.

Образование: Образование является ключевым фактором, определяющим качество человеческих ресурсов. В Ташкентской области активно развиваются образовательные учреждения, что способствует повышению уровня знаний и навыков населения.

Культура: Культурное наследие и традиции играют важную роль в формировании идентичности и социальной сплоченности населения. В Ташкентской области богатая культурная жизнь, включающая различные фестивали, музеи и театры, способствует развитию творческих способностей и укреплению социальных связей.

Здоровье: Здоровье населения является важным показателем качества жизни и экономической активности. В Ташкентской области реализуются программы по улучшению медицинского обслуживания и профилактике заболеваний. Здоровое население более продуктивно и активно участвует в экономической и социальной жизни региона.

Практические аспекты:

1. Управление человеческими ресурсами: Внедрение эффективных стратегий управления персоналом, включая подбор, обучение и развитие сотрудников. Управление человеческими ресурсами (УЧР) играет ключевую роль в развитии организаций и предприятий Ташкентской области. Внедрение эффективных стратегий управления персоналом позволяет не только повысить производительность труда, но и создать благоприятные условия для профессионального роста сотрудников.

Подбор персонала- является первым и важнейшим этапом в управлении человеческими ресурсами. Компании должны уделять особое внимание процессу отбора кандидатов,

используя современные методы оценки и интервьюирования. Это позволяет найти наиболее подходящих специалистов, соответствующих требованиям и культуре организации.

2. Образовательные программы: Разработка и реализация образовательных и профессиональных программ для повышения квалификации и компетенций рабочей силы. В Ташкентской области активно разрабатываются и внедряются образовательные и профессиональные программы, направленные на повышение квалификации и компетенций рабочей силы. Эти программы играют ключевую роль в обеспечении конкурентоспособности региона и его экономического развития.

Разработка программ основывается на анализе потребностей рынка труда и современных тенденций в различных отраслях. Важно учитывать требования работодателей и адаптировать учебные планы под реальные условия работы.

Реализация программ включает в себя проведение курсов, тренингов и семинаров, а также использование современных технологий и методов обучения. Особое внимание уделяется практическим занятиям и стажировкам, что позволяет участникам программ получить ценный опыт и навыки.

Внедрение эффективных стратегий управления персоналом в Ташкентской области способствует созданию сильной и конкурентоспособной команды, готовой к решению сложных задач и достижению высоких результатов.

3. Социальная политика: Введение социальных программ и инициатив, направленных на улучшение условий жизни и работы населения. В Ташкентской области активно внедряются социальные программы и инициативы, направленные на улучшение условий жизни и работы населения. Эти меры играют важную роль в обеспечении социальной стабильности и благополучия жителей региона.

Инициативы по улучшению условий работы направлены на создание безопасных и комфортных условий труда, повышение заработной платы и обеспечение социальных гарантий для работников. Важным аспектом является также развитие профессиональных навыков и повышение квалификации сотрудников через различные образовательные программы и тренинги. Эти аспекты взаимосвязаны и требуют комплексного подхода для эффективного формирования и развития человеческих ресурсов в регионе.

Теоретические и практические аспекты формирования населения и человеческих ресурсов Ташкентской области взаимосвязаны и дополняют друг друга. Комплексный подход к решению этих вопросов позволяет создать благоприятные условия для устойчивого развития региона и повышения качества жизни его жителей.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Государственный комитет Республики Узбекистан по статистике. Демографические показатели Ташкентской области. С.6.
2. Молодой ученый. Управление человеческими ресурсами. С.54
3. Фаузер, В.В. Демографические и миграционные факторы формирования населения и человеческих ресурсов северных регионов. 2012, С.212.
4. Бондарская, Т.А. Смена ориентиров управления региональной экономикой в условиях реаллокации человеческих ресурсов. Диссертация. 2022, С. 78.
5. Особенности формирования и использования человеческих ресурсов. С.27

УЎК 950:633.51(045)

БУХОРО ХАЛҚ СОВЕТ РЕСПУБЛИКАСИ (БХСР)ДА ЕР МАСАЛАСИ ВА ПАХТАЧИЛИКНИНГ АҲВОЛИ

И.И.Самадов, таянч докторант, Қарши давлат университети, Қарши

Аннотация. Ушбу мақолада БХСРда ер масаласини ҳал этиши ва пахтачилик соҳасини ривожлантириши учун олиб борилган чора-тадбирлар тадқиқ этилган. Бухоро Халқ Совет Республикасининг тузилиши билан сиёсий, иқтисодий ҳамда ижтимоий - маданий соҳаларда қатъий ислохотлар жараёни бошланди. БХСР ҳукумат мамлакат иқтисодиётини ривожлантириши учун, аввало, қишлоқ хўжалигини қайта тиклаш лозим деб ҳисоблади. Бу

даврда қишлоқ хўжалиги анча оғир аҳволга тушиб қолган ва деҳқончиликда ҳосилдорлик жуда ҳам пасайиб кетган еди.

Калит сўзлар: БХСР, совет давлати, аграр сиёсат, ер-сув ислоҳоти, Рус-Бухоро пахтачилик ширкати, Деҳқонлар иттифоқи, қишлоқ хўжалиги, пахта монополияси, америка навли пахта, хом ашё экспорти.

Аннотация. В этой статье рассматриваются меры, принимаемые для решения земельного вопроса и развития хлопководства в БХСР. С образованием Бухарской Народной Советской Республики начался процесс жестких реформ в политических, экономических и социально-культурных сферах. Правительство БХСР считало, что для развития экономики страны необходимо в первую очередь восстановить сельское хозяйство. В этот период сельское хозяйство находилось в очень тяжелом положении и продуктивность земледелия сильно снизилась.

Ключевые слова: БХСР, Советское государство, аграрная политика, земельно-водная реформа, Русско-Бухарская хлопковая компания, союз земледельцев, сельское хозяйство, хлопковая монополия, американский сорт хлопка, экспорт сырья.

Abstract. This article discusses the measures taken to resolve the land issue and developing the cotton sector in the BXSР. With the formation of the Bukhara Nation's Soviet Republic, a process of tough reforms began in the political, economic and socio-cultural spheres. During this period, agriculture was in a very difficult situation and agricultural productivity decreased greatly.

Key words: USSR, Soviet state, agricultural policy, land and water reform, Russian-Bukhara cotton company, farmers' union, agriculture, cotton monopoly, cotton sort American, export of raw materials.

Кириш. 1917 йилда Россия империясида бўлиб ўтган воқеалар жараёни Бухоро амирлиги ва Хива хонлигида ҳам қизгин ўзгаришлар ва фаол ҳаракатларга сабаб бўлди. 1917 йилда юз берган февраль инқилобидан сўнг, Россия императори Николай II 2 март куни ўз ихтиёри билан тахтдан воз кечади. Албатта, бу хабар хонлик ва амирлик халқлари томонидан яхши кайфият билан кутиб олинади, бунинг сабаби улар бу тарихий жараёнга ўз мамлакатларини мустамлакачилик зулмидан озод қилиш учун жиддий бир ҳаракат сифатида қарашади. Бухорода Ёш бухороликлар, Хивада Ёш хиваликлар партияси сиёсий майдонга чиқиб, дастлаб мавжуд тузум доирасида демократик ислохотлар ўтказиш, конституциявий монархия ўрнатиш тарафдори бўлдилар. Афсуски, уларнинг бу ҳаракатлари мавжуд ҳокимият томонидан таъқиб остига олинади. 1917 йил ноябрда Туркистон ўлкасида большевикларнинг ҳокимият тепасига келиши натижасида Бухоро амирлиги ва Хива хонлиги билан Совет Россияси ўртасидаги сиёсий вазият кескинлашди. Россиядаги ҳокимиятни зўрлик йўли билан эгаллаб олган большевиклар халқаро ҳуқуқ нормаларини қўпол равишда бузиб, Хива хонлигини босиб олганларидан кейин Бухоро амирлиги сарҳадларини нишонга оладилар. Чунки 3 йил давом этган фуқаролар уруши ва ҳарбий интервенция оқибатида большевиклар давлатининг хазиnasi бўшаб қолган еди.

Адабиётлар таҳлили. Совет давридаги Ўрта Осиёда ер масаласи ва пахтачиликнинг аҳволи тарихчи олимларнинг доим диққат марказида бўлиб келган. Советлар даврида ер масаласи ва пахтачилик соҳасига оид асарларнинг аксарияти давр талаби ва ҳукмрон мафкура манфаатларидан келиб чиқиб ёзилган.

Лекин мустақиллик йилларида Туркистон, Бухоро, Хоразм Республикаларидаги мазкур мавзуни янги назарий методология асосида тадқиқ этиш зарурияти юзага келди. Жумладан, Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихига оид адабиётларда ер масаласи ва пахтачиликнинг аҳволи ҳақида қўплаб маълумотлар учрайди. Шунингдек, мақолада Ўзбекистон тарихига бағишланган илмий-оммабоп асарлардан мавзуга оид қимматли маълумотлар келтириб ўтилган.

Тадқиқот методологияси. 1920 йил 2 сентябрда Бухоро амири тахтдан ағдарилиб, пойтахт босиб олинган, ҳокимият Бутун Бухоро Муваққат Инқилобий Қўмитаси ихтиёрига ўтади. Ўша кунгидеك Инқилобий Қўмита томонидан манифест эълон қилинади. Аслида эса бу

манифест совет ҳокимияти томонидан олдиндан тайёрлаб қўйилган бўлиб, унда Бухорода мустақил давлат тузилганлиги, амирликдаги мавжуд ерларни давлат ихтиёрига ўтказилиши ҳамда уларни ерсиз ва кам ерли деҳқонларга бўлиб берилиши, суд ишлари ва солиқларни тартибга солиш, таълим тизимини ислоҳ қилиш, шунингдек, ўлим жазосини бекор қилиш ва инсон ҳуқуқларининг ҳимоя қилиниши тўғрисида ёзилган еди. XIX асрда Ўрта Осиё хонликлари аграр давлатлар эди, аммо ер унда ишловчи оддий деҳқонларники эмас, балки бу даврда ерларнинг асосий қисми, айниқса, экин майдонлари хон, унинг қариндош ва яқинлари ҳамда бир қанча катта ер эгалари қўлида бўлган. 1920 йил сентябрь ойида эълон қилинган манифестга кўра амир ва унга тегишли ерлар давлат ихтиёрига ўтказилади. Марказнинг асосий мақсадларидан бири ерларни ёппасига давлат тасарруфига олиш ва большевикча андоза остида аграр ислоҳот ўтказиш эди. Аммо Ёш бухороликлар ер масаласига бозор муносабатларига таянган ҳолда ёндашиш тарафдори эди. Уларнинг фикрича, барча ерларни, шу жумладан, вақф ва бойларнинг ерларини мусодара қилиш, Бухоро жамятини синфий жиҳатдан парчаланишига олиб келади, шунинг учун Ёш бухороликлар биринчи босқичда фақат амир, унинг оила аъзолари, амалдорларига тегишли ерларни мусодара қилиш лозим деб ҳисоблар эдилар. 1920 йилнинг 6 октябрида Бухоро амирининг ёзги саройи – Ситораи Моҳи Хосада чақирилган Бутун Бухоро халқ вакилларининг I қурултойида Бухоро Халқ Совет Республикаси эълон қилинди. Аммо большевиклар ҳокимияти ўлка халқларининг ўзига хос миллий ривожланиши мумкинлигини сўздагина эълон қилиб, барча усуллар билан бу жараёнларга тўсқинлик қилишади. Бухоро Халқ Совет Республикаси ташкил этилгач, қишлоқ хўжалиги соҳасида ҳал қилиниш керак бўлган асосий муаммолардан бири бу - ер ва сув масаласи эди. Бухоро аҳолиси 1918 йилда 2 783 минг киши бўлиб, шундан 2 463 минг нафари ёки 88 % қишлоқ аҳолиси, асосан деҳқонлар эди. Биргина шу рақамларнинг ўзи ҳам республикада ер масаласи қанчалик муҳим аҳамиятга эга эканлигини айтиб турибди. 1920 йил 30 сентябрда Бутун Бухоро Марказий Инқилобий Қўмитаси раиси А.Муҳитдинов томонидан имзоланган Бухоро Республикасининг “Ер тўғрисида”ги қонунига кўра, собиқ амир ва унинг қариндош-уруғлари ҳамда беклар қўлидаги барча мол-мулклар ва ер умумхалқ мулки деб эълон қилинди. Бу даврда мавжуд ерларнинг фақатгина 15 фоизи деҳқонларга тегишли бўлган. Қонунга кўра, аҳоли хирож, муштбар, амлок ва бошқа солиқлардан озод этилди. Мазкур қонун аграр соҳадаги дастлабки ҳужжат бўлиб, унда БХСР иқтисодий сиёсатининг асосий йўналишлари кўрсатилган эди. Шунингдек, 1920 йил 2 декабрда ер-сув ислоҳотини амалга ошириш учун “Деҳқонлар иттифоқи” ташкил этилди. Эндиликда ердан фойдаланиш ва уни тақсимлаш 1920 йил сентябрда ташкил этилган БХСР Ер ишлари нозирлигига юклатилади. Ер ишлари нозирлиги 6 та бўлимдан иборат бўлиб, булар қуйидагилардан иборат эди:

а) қишлоқ хўжалиги, б) чорвачилик, в) сув хўжалиги, г) ер ишлари, д) молия, е) хўжалик бўлимлари.

Қишлоқ хўжалиги бўлимининг вазифаси полизчилик, узумчилик, боғдорчилик соҳаларини ривожлантириш ҳамда меҳнаткашларни қишлоқ хўжалик асбоб-ускуналари билан таъминлашдан иборат бўлган. Чорвачилик бўлимининг вазифаси мол фермалари ва давлат отхоналарини қуриш, маҳаллий от зотлари ва қорақўл қўйларини кўпайтириш, шунингдек, қишлоқ хўжалик иш ҳайвонларининг сифатини яхшилаш ва бошқа шунга ўхшаш вазифалардан иборат бўлган. Сув хўжалиги бўлимининг вазифаси республикадаги ирригация тармоқларини яхшилаш, канал ва ариқлар сувидан фойдаланишни тўғри йўлга қўйишдан иборат бўлган. Ер ишлари бўлимининг вазифаларига мамлакат ерларининг умумий майдонини аниқлаш, ер билан боғлиқ ҳар қандай масалаларни кўриб чиқиб ҳал этиш, ўрмонлардан тўғри фойдаланишни йўлга қўйишдан иборат бўлган. Демак, бундан кўриниб турибдики, Ер ишлари нозирлиги ерлардан тўғри фойдаланиш, қишлоқ хўжалигини ривожлантириш, чорвачилик ва сув хўжалиги фаолиятини тўғри йўлга қўйиш билан шуғулланган. 1921 йил 2 февралда Бухоро Марказий Инқилобий Қўмитаси “Ер тўғрисида”ги декретни эълон қилди. Унга кўра барча ерлар, жумладан, вақф ерлари ҳам умумхалқ мулки, давлат мулки деб эълон қилинган. Вақф, собиқ амир ерлари, унинг амалдорлари ва шу қабила, яъни меҳнат қилмай бошқалар ҳисобига яшайдиган бойлар ерлари меҳнаткашларга бўлиб берилиши назарда тутилган. Аммо Бухорода

барча ерларни давлат тасарруфига ўтказиш, вақф ҳамда бойларнинг ерларини мусодара қилиб, камбағалларга бўлиб бериш учун ижтимоий-иқтисодий шарт-шароит йўқ еди. Шу сабабли Бутун Бухоро МИКнинг 1921 йил 2 февралда сўл коммунистлар тазйиқи билан қабул қилинган “Ер тўғрисида”ги мазкур декрети бажарилмади ва ҳаётга жорий қилинмади. 1921 йил сентябрдаги Бутун Бухоро халқ вакилларининг II қурултойида ҳам ер ислоҳоти ҳақидаги масала муҳокама қилинади. А.Муҳитдинов қурултойда ерга бўлган хусусий мулкчиликни ёқлаб чиқиб, қуйидагиларни алоҳида таъкидлайди: “Шариатга биноан, мусулмонларнинг ҳеч қандай мулки унинг розилигисиз тортиб олиниси мумкин эмас. Мен ер эгаларининг қўлида мавжуд бўлган ерларни аввалги ҳолида қолдирилишини ёқлаб фикр билдираман”. 1922 йил августда Советларнинг Умумбухоро III қурултойида ер масаласи яна кўриб чиқилади. Унда яроқсиз ерлар ҳисобига экин майдонларини кўпайтириш юзасидан бир қатор тадбирлар белгиланади. Амударёдан канал қазиги ҳам қарор қилинади. Шунингдек, деҳқончилик усулларини такомиллаштириш ва янги иш қуролларини жорий етиш, деҳқонлар учун махсус мактаблар очиш ва асаларичиликни ривожлантириш ҳам назарда тутилади. 1923 йил октябрда бўлиб ўтган Советларнинг Умумбухоро IV қурултойида янги Ер кодекси тасдиқланди. Унга кўра, барча ерлар, улардан ким фойдаланишидан қатъий назар, ишчи-деҳқон давлатининг мулки деб эълон қилинди. Ерга ким ишлов берса, унга эгалик қилиш ҳуқуқи ўшанга берилди. Битта хўжаликка мўлжалланган чекланган ер нормаси 30 таноб* қилиб белгиланди. Демак, юқоридагилардан шуни англаш мумкинки, ер ва ердан фойдаланиш большевикларнинг доим диққат марказида бўлиб келган.

Муҳокама. Маълумки, Бухоро давлатининг иқтисодий ҳаёти қадимдан қишлоқ хўжалигига асосланган бўлиб, қишлоқ хўжалигининг асосини деҳқончилик, чорвачилик, қорақўлчилик ва ипакчилик ташкил етган. Айниқса, қишлоқ хўжалиги соҳасида даромади ва стратегик аҳамияти жиҳатидан пахта экинининг салмоғи баланд бўлган. Жумладан, «1893 йилдан 1917 йилга қадар Бухорода пахта экиладиган ерлар миқдори 300000 танобгача бўлиб, ундан олинадиган даромад 25 млн. олтин сўмни ташкил етган». Бухоро амирлиги Россия империясига қарам бўлган даврда пахта етиштириш борасида Фарғона водийсидан кейин 2-ўринда турган. Аммо амирликнинг сўнгги йилларда советларга қарши олиб борган сиёсати натижасида пахта экинни 1918 йилда 50% га камаяди, 1913 йилги даражасига нисбатан 1920 йилда 90% га камаяди. Россияга пахта хом ашёси экспорти

20 баробарга қисқаради. 1921 йилга келиб республикада пахта майдонлари ўн баробар қисқариб (30 минг таноб), ундан келадиган даромад ҳам кескин пасайиб кетади. Даврий матбуот материаллари ўрганилганда пахта ҳосилининг кескин камайганлигига сунъий суғориш иншоотлари қаровсиз ва яроқсиз бўлиб қолганлиги, меҳнат қуролларининг оддий курак ва кетмондан иборатлиги, етиштирилган ҳосил ўз вақтида сотилмаганлиги, пахта уруғи ва бошқа харажатлар учун деҳқонларга ёрдам пули ўз вақтида берилмаётганлиги натижасида келиб чиққанлиги қайд қилинган.

Бухоро Халқ Республикаси ҳукумати пахтачиликни қайта йўлга қўйиш ҳамда унинг аввалги салмоғини тиклаш мақсадида айрим чора-тадбирларни амалга оширган. 1921 йил 10 апрелда Бухоро Инқилобий Қўмитаси республикада пахтачиликни ривожлантириш мақсадида, агар деҳқонлар ўз ерларида пахта экишга рози бўлишса, уларга бир қатор имтиёзлар берилиши тўғрисида қарор қабул қилади. Жумладан, 1 таноб ерга пахта эккан деҳқонга давлат томонидан қуйидагича ёрдам кўрсатилади:

- 1) 1 пуд* уруғлик чигит;
- 2) 1 пуд ёғ оладиган чигит;
- 3) 2,5 аршин газмол.
- 4) 3 фунт* керосин;

Пахта экиш мавсуми тугагач, деҳқонлар июнь ойида қўшимча равишда ҳар бир таноб ерга 3 фунт керосин, 2,5 аршин газмол ва америка навли пахта учун 3 минг рубль олишган. Шунингдек, ҳар бир таноб ерга маҳаллий ғўза эккан деҳқонга 4 минг рубль, америка навли пахта эккан деҳқонга 5 минг рубль, ёрдам берилган. Америка навли пахта экишнинг афзаллиги ҳақида даврий матбуот саҳифаларидаги мақолаларда ҳам қайд қилинган. “Азалдан ғўза экиб

келар эдик, ғуза америкони пахтага нисбатан кам фойда берар экан. 1 таноб ерга ғўза экилгонда 20 пуд беради. Бунинг пудини 2,5 сўмдан сотгонда 50 сўм бўладур. 1 таноб ерга экилгон америкони уруғ 15 пуд пахта бериб, пудини 5 сўм сотгонда 75 сўм бўладур”. 1922 йил 5 ноябрда РСФСР ва БХСР вакиллари ўртасида бўлиб ўтган музокараларда Бухоро пахтасини “Туркхлопком”га сотиш шартлиги таъкидланиб, пахта харидини совет давлати кўлида тўплаш мақсадида “Рус-Бухоро” пахтачилик ширкати тузилди. Ширкатнинг асосий вазифаси пахта экишни тўғри йўлга қўйиш, уни деҳқонлардан сотиб олиш, хом ашёни Марказга етказиб бериш, пахтакор деҳқонларга агрономлик ёрдамини бериш, уруғликни саралаш, сувдан фойдаланишни тўғри йўлга қўйиш, ирригация тизимини яхшилашдан иборат бўлган. Рус-Бухоро пахтачилик ширкати БХСРда пахтадан юқори ва сифатли ҳосил олиш учун, аввало, америка навли пахта етиштиришни кўпайтириш чораларини кўриб чиққан, чунки америка навли пахта маҳаллий пахтадан ўзининг сифати билан ажралиб турган.

Таҳлил ва натижалар. Большевикларнинг Бухорода пахтачиликни ривожлантиришдан асосий мақсадлари РСФСР саноат корхоналарини хом ашё билан таъминлаш бўлган. РСФСР нинг БХСРдан олган даромадининг асосий қисмини пахта ва ундан олинган маҳсулотлар ташкил этарди. Пахтачиликни тиклаш ва янада ривожлантириш мақсадида БХСР ва РСФСР ўртасида 1922 йил 19 июлда шартнома имзоланди. Шартномага мувофиқ, совет Россияси Бухорога 50 млрд рубль миқдорида қарз берди. Ажратилган қарз биринчи навбатда, пахта майдонларини кенгайтириш, олий навли уруғлик чигитни етказиб бериш, ирригация тизимини яхшилаш ва пахтакор деҳқонларга имтиёз ва кредитлар учун мўлжалланди.

Хулоса. БХСР ташкил этилгач, ҳукумат олдида турган энг асосий вазифалардан бири ер ва сув масаласини ҳал этиш эди. Ер ва ундан фойдаланиш большевикларнинг доим диққат марказида бўлиб келди, аммо янги ҳукумат ер ислоҳотини амалга оширишга шошилмади. Ерни ёппасига национализация қилиш ва қишлоқни социалистик асосда жадал қайта қуриш йўлини танлаган Бухоро коммунистик партиясидаги “сўллар”га айна вақтда сиёсий куч ва имкониятлар етишмади. Бу жараён кейинчалик 1926-1927 йилларда амалга оширилиб, бойларнинг ерлари ва моллари зўрлик билан тортиб олиниб деҳқонларга, ерсизларга ва кам ерлиларга бўлиб берилди. Пахтачиликни юксалтириш мақсадида амалга оширилган чоратadbирлар республика қишлоқ хўжалигининг ривожланишига олиб келди. Аммо пахта етиштириш ва уни Россияга ташиб кетиш тобора авж олди. Жумладан, БХСР дан РСФСР га пахта экспорти 1921 йилда 50 минг пудни ташкил этган бўлса, 1923 йилда 400 минг фунтгача ўсди, 1924 йилда 740 минг фунтга етади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Алимов И. Аграрные преобразования в Хорезме и Бухаре (1920-1924). – Ташкент: Узбекистан, 1970.
2. История Бухарской Народной Советской Республики (1920-1924 гг.). Сборник документов. – Ташкент: Фан, 1976. – С. 37-38.
3. Ишанов А. Бухарская Народная Советская Республика. Узбекистан, 1969. – Ташкент: Узбекистан, 1969. – С. 324.
4. Нуриддинов Т. Бухоро Халқ Совет Республикасининг ташқи алоқалари (1920-1924 й.). Монография. – Фарғона. 2023. - Б. 55.
5. Пардаев А. Бухоро ва Хоразмдаги иктисодий кенгашлар фаолияти (1920-1924 й.). Монография.–Т.: “Янги нашр”, 2015. - Б. 26.
6. Раҳмонов К. Бухоро Халқ Совет Республикаси тарихи матбуот саҳифаларида (1920-1924 й.).–Тошкент: “Abu matbuot-konsalt”. 2012. – Б. 57.
7. Тарих шохидлиги ва сабоқлари. Чоризм ва совет мустамлакачилиги даврида Ўзбекистон миллий бойликларининг ўзлаштирилиши. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 235.
8. Траева М. Ўзбекистон жанубий ҳудудларида ижтимоий-иқтисодий ва маданий жараёнлар тарихи (1920-1945 й.). Монография. – Тошкент: “Firdavs-shoh”, 2023. – Б. 28.
9. Эшов Б. Ўзбекистонда давлат ва маҳаллий бошқарув тарихи. Иккинчи китоб. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2019.
10. Ўзбекистон тарихи. X жилд. Бухоро тарихи. – Тошкент: Ўзбекистон, 2023. – Б. 313.
11. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). Биринчи китоб. 1917-1939 йиллар – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – Б. 140.
12. Ўзбекистон тарихи II жилд (XIX асрнинг II ярми – 1989 йил, июнь). Олий ўқув юртлари талабалари учун дарслик. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2015.

13. Ўзбекистоннинг янги тарихи. 2- китоб. Ўзбекистон совет мустамлакачилиги даврида. – Тошкент: Шарк, 2000. – Б. 236.

14. Хайитов Ш., Бадридинов С., Раҳмонов К., Бухоро Халқ Совет Республикаси: иктисодиёт, ижтимоий сиёсат, маданий ҳаёт (1920-1924 й.). Бухоро. 2005. ва бошқалар.

УЎК 9(М)32

УСТРУШОНАНИНГ АНТИК ДАВРИДАГИ МИГРАЦИЯЛАР ҲАҚИДА

Ф.Э. Тошбоев, PhD, проф., Жиззах давлат педагогика университети, Жиззах
Ў.Р.Равшанов, магистрант, Жиззах давлат педагогика университети, Жиззах

Аннотация. Муаллифлар ушбу мақолада Уструшонанинг антик даврида содир бўлган миграциялар ҳақида маълумот берган. Бунда Қуйи Сирдарё бўйлари ва Евросиё даштларидан силжиган сармат-дах, хун, юечжи, усун қабилалари миграцияси ва унинг Ўрта Сирдарё бўйи хусусан, Уструшона тарихида тутган ўрни таҳлил қилинган.

Калит сўзлар: Оқчадарё, Қувондарё, сармат-дах, юечжи, усун, хун, Фарғона, Уструшона, Сўғдиёна, Р.Х.Сулаймонов, Инкордарё, Чирикработ, Жети – Осор, Хитой манбалари, сақлар

Аннотация. В данной статье авторы предоставляют информацию о миграциях на территории Уструшаны в период античности. При этом анализируется миграция племен сармат-дахов, гуннов, юечжи и усуней, переселившихся из бассейна Нижней Сырдарьи и Евразийских степей, и ее роль в истории Средней Сырдарьи, в частности Уструшаны.

Ключевые слова: Окчадарья, Кувондарья, Сармат-дах, Юэджжи, Усунь, Хунны, Фергана, Уструшана, Согдиана, Р.Х. Сулайманов, Инкордарья, Чирикработ, Джети-Осор, китайские источники, саки.

Abstract. In this article, the authors provide information about migrations on the territory of Ustrushana during the period of antiquity. At the same time, the migration of the tribes of the Sarmat-Dakhs, Huns, Yuezhi, Wusuns who moved from the Lower Syr Darya and the Eurasian steppes and its role in the history of the Middle Syr Darya, in particular Ustrushana, is analyzed.

Key words: Okchadarya, Kuvondaryo, Sarmat-dakh, Yuechchi, Usun, Huns, Fergana, Ustrushona, Sogdien, R.Kh. Sulaimanov, Incordario, Chirikrabort, Jeti-Osor, Chinese sources, Saki.

Ўрта Осиёда илк бронза даврларидан (мил. авв. III мингйиллик ўрталари – II минг йиллик бошлари) катта ижтимоий ўсишлар, элатларнинг бирлашиб илк этник жамоаларни шаклланиши, ишлаб чиқариш ва янги технологияларни ихтиро қилиниш даври ҳисобланади. Бунда бронза даврида хўжалик соҳалари айниқса, чорвачилик борасида эришилган ютуқлар муҳим ҳисобланади. Бронза даврдан табиий ресурсларнинг чекланиши ўзлаштирилмаган яйловларга ва сув манбаларига эҳтиёж узоқ юртларга кўчиб хўжалик юритишга сабаб бўлган. Бу пайтда ўзлаштирилган ерлар ва яшаш ҳудудлари тобора кенгайиб, чорвадор қабилалар дашт ва тоғ олдидаги кенг ҳудудларда ёйилган [М. Грязнов: 41]. Шу даврлардан Ўрта Осиёда деҳқончилик ва чорвачиликка асосланган хўжалик маданий типлар шаклланиб, Евросиё маданий бирликлари тизимига кирган Тозабөгёб ва Андронова дашти чорвадор жамоаларининг Ўрта Осиё ҳудудларида жойлашиши бошланган.

Евроосиё даштларидан кўп сонли чорвадор аҳоли кириб келишининг йирик тўлқинлари мил. авв. I-минг йилликнинг сўнги чорагида кузатилган. Антик даврда кечган бу жарёнда дахлар, юечжи, усун, хун ва бошқа қабилаларнинг Ўрта Осиёнинг ички районларига, айниқса жанубий минтақаларга кириб бориши билан боғлиқ. Бу пайтда, кўплаб чорвадор аҳоли оммавий тарзда, Шарқий Туркистондан чиқиб Фарғона, Шош Уструшона ва Сўғдиёна вилоятларини оралаб, Шимолий Бақтрия ва то Шимолий Ҳиндистонгача кириб борганлар [А. Асқаров: 277]. Бу эса Уструшонадаги ижтимоий сиёсий жараёнларга ҳам катта таъсир кўрсатган.

Археолог олим Р.Х.Сулаймоновнинг ёзишича, мил. эр. авв. III асрда Ўрта Осиёда содир бўлган тектоник кўтарилишлар натижасида, Сирдарёнинг қуйи оқими ландшафтида кескин ўзгаришлар содир бўлган ва дарё ўзани ҳозирги даврдаги кўринишни олиб Орол денгизидаги

шимол томондан куйила бошлаган. Сирдарёнинг жанубий ирмоқлари- Окчадарё, Қувондарё, Инкордарё қуриб қолган. Бунинг натижасида, йирик сиёсий бирлашмаларга асос солган, Кир II ни мағлубиятга учратган, ярим ўтрок, ярим кўчманчи тарзда ҳаёт кечирган дахлар яъни Чирикработ ва Жети – Осор археологик маданиятлари соҳиблари қарийиб икки юз йиллик муваффақиятли тараққиётдан сўнг ғарбий, жанубий, шарқий ўлкалар томон кўчиб кетишга мажбур бўлишган[Р. Сулейманов: 15].

Дах-сарматлар маданиятига хос хусусиятлар Б.И. Вайнберг ва Л.М. Левина асарларида таҳлил қилиниб дахларнинг Сирдарё қуйи оқимларидан кетганлиги ва бу ҳудуднинг сувсизлик оқибатида секинлик билан инқирозга учраганлиги асосланган. Даштдаги кўчманчи қабилалар турли гуруҳга мансуб қабилалар бўлсада уларнинг мумумий маданияти қолдирган археологик материаллари ўхшаш бўлган. К.Ф.Смирнов, “мил. авв. II асрда Ўрта Осиё аҳолиси билан сарматлар ўртасида савдо, маданий алоқалари мавжуд бўлган” [К. Смирнов: 134],- деб таъкидлаган ва уни жанубий Урал материаллари асосида исботлашга ҳаракат қилган. Юнон рим манбаларида улар савромат, сирмат, сармат баъзи гуруҳлари дахлар номи билан эслатилади. Хитой манбаларида бу даврда яшаган қабилалар кангуй номи билан маълум. Форс манбаларида дахлар ҳақида маълумот берилади. Бу этноним дахлар- дайи шаклида юнон рим манбаларида ҳам учрайди. Дах ва сарматлар миграциясига оид маълумотлар бир-бирига ўхшаш археологик материаллар, диний тасаввурларида кузатилади.

Ушбу даврдаги урбанизация жараёнларида, кўчманчиларнинг, Қуйи Сирдарё орқали кириб келиши ҳам эътиборга лойиқдир. Ўрта Сирдарё бўйидаги ёдгорликларнинг вужудга келишида сармат (дах) қабилаларининг ҳам ўрни бўлган. Сармат ёки бошқа кўчманчи қабилаларга мансуб янги маданиятнинг Ўрта Осиёга, хусусан, Сирдарё ва Амударё оралиғига кириб келишидаги асосий йўл Фарғонани Орол бўйи билан боғловчи Сирдарё ўзани ҳавзаси бўлган.

Сармат ёки бошқа кўчманчи қабилаларга мансуб янги маданиятнинг Ўрта Осиёга, хусусан, Сирдарё ва Амударё оралиғига кириб келишидаги асосий йўл Фарғонани Орол бўйи билан боғловчи Сирдарё ўзани ҳавзаси бўлган. Сирдарёнинг юқори оқими томон кўчган дах қабилаларининг бир қисми Ўрта Сирдарёнинг Чоч ва Қадимий Уструшона ҳудудларига, ундан ўтиб Фарғона водийсига кириб келган. Албатта, ушбу миграция тезкорлик билан эмас, балки муайян даврлар билан босқичма-босқич амалга ошган. Янги ерларни эгаллаган дахлар таъсирида Сирдарё ҳавзасидаги қатор шаҳарлар вужудга келган ва бу таъсир Жанубий Суғдда ҳам сезилиши Р.Ҳ. Сулаймонов тадқиқотларида аниқланган [Р. Сулейманов: 18].

С.П. Толстов, Б.И. Вайнберг, М.А. Итина, Л.М. Левина, М.И. Филанович, Ю.Ф. Буряков, Р.Х. Сулаймонов каби археологларнинг кўп йиллик изланишлари асосида Ўрта Осиёнинг шимолий районларини ўзлаштирилиши, урбанизация жараёнлари ва унинг марказлари вужудга келиш динамикаси ҳамда даврлаштирилиши масалаларига аниқлик киритилган[Р. Сулейманов, Е. Гордеева: 7-9]. Уларнинг фикрича, Ўрта Сирдарё ҳавзасида вужудга келган дастлабки урбанизация ўчоқлари (Бурғулик маданияти ва Фарғона водийсида вужудга келган Чуст маданияти), Сирдарёнинг қуйи дельта қисмида шаклланган дах сармат қабилалари (Чирикработ) ва массагетлар (Олтин асар қалъаси ва бошқалар) миграцияси натижасида шаклланган.

М.И. Филановичнинг ёзишича, сармат қабилалари томонидан бунёд этилган энг қадимги иншоотлар Тошкентдаги Шоштепа, Мингўрик каби ёдгорликлар бўлиб, улар хочсимон лойиҳа асосида қурилган. Бу ҳолат Сирдарёнинг юқори оқими томон кўчган дах қабилаларининг бир қисми Ўрта Сирдарёнинг Чоч ва Қадимий Уструшона ҳудудларига, бошқа гуруҳлари эса Фарғона водийсига кириб келганлиги ва янги шаҳарларга асос солганлигини кўрсатади.

Мил. авв. III-II асрларда Хитойнинг шимоли-ғарбида содир бўлган сиёсий воқеалар ҳам чорвадор қабилаларнинг Ўрта Осиё ҳудудларига кириб келишига сабаб бўлган. Мил. авв. III аср ўрталарида ташкил топган Хун давлати доимо Хитойнинг Хан империяси билан рақобатда бўлиб келган. Мил. авв.ги II аср бошларида Хун давлати кучайиб, ғарбидаги 26 та давлатни ўз тобелилигига олади, ҳатто улар қанғарлар билан қуда-андачилик ришталарини ҳам ўрнатади.

Шу пайтдан Ғарбий Хан империяси ташкил топганидан сўнг, Хитой ҳукмдорлари Марказий Осиёда содир бўлган воқеалар, халқлар ва улар ўртасидаги муносабатларни синчиклаб ўрганиб, улардан ўз манфаатлари йўлида, яъни ташқи сиёсат стратегиясини тузиш учун тўла фойдаланишнинг йўлларини ахтарганлар. Шу боис сарой тарихчилари ҳар бир халқнинг этник келиб чиқиши ва улар орасидаги низоларни эътибордан четда қолдирмаганлар [А. Хўжаев: 274]. Мил.авв. 73-48 йиллар оралиғида хун ябғулари ўзаро очиқ рақобатлашиб юрган кезларда, Марказий ҳокимият заифлашиб, Хань сулоласи ҳукмдорлари хунлар устига ҳарбий юришлар уюштирадilar. Иккала давлат ўртасидаги жангларда хитойликларнинг қўли баланд келиб, хунлар Қанг давлати ҳудудларига чекинишга мажбур бўладilar.

А.С. Сагдуллаев Хунн сак-усун, юечжи қабилалари ўртасидаги қонли урушлар натижасида кўчманчилар бир неча оқим бўйлаб кўчиб юрганлиги, сак-усун қабилалари жанубга томон жуда ичкари кириб бориб, Ҳиндистонда бир неча сак-ҳинд мулкларини барпо этганлиги, иккинчи оқим Хитой билан душман бўлган юечжи (Шарқий Туркистон ва Тибетда) ҳаракати билан, учинчи оқим эса хуннлар ҳаракати билан боғлиқ бўлганлигини ёзади” [А. Сагдуллаев: 82]. Аҳолининг оммавий равишда кириб келишига нафақат бу каби ижтимоий сиёсий омиллар балки, табиий шароитлар ҳам таъсир кўрсатган. Л.Н. Гумилевнинг таъкидлашича, бунга иқлимдаги ўзгаришлар– циклонларнинг ўз йўналишини ўзгартириши ҳам сабаб бўлган [Л. Гумилев: 84-85]. Натижада ўтлоқлар муаммоси туфайли чорванинг ёппасига қирилиши авж олган. Бу эса аҳолининг деҳқончилик воҳалари томон силжишига яна бир катта сабаблардан бири бўлган.

Шундай қилиб, сўнги бронза давридан бошланган миграциялар натижасида кўплаб элатларнинг кириб келиши, юртимиздаги ижтимоий маданий жараёнларга катта таъсир кўрсатди. Антик ва илк ўрта асрлардаги миграциялар натижасида қадимий деҳқончилик воҳаларида нафақат, ўтроқ хўжалик тараққий етиб, шаҳарсозлик маданияти юксалиб борган балки, икки хил хўжалик соҳибларининг бир-бирини тўлдирувчи маданияти ҳам шаклланиб, сайқал топиб борган. Бу воҳалар атрофидаги бепоён дашт, тоғ ва тоғ олди ҳудудларида қадимдан яшовчи ва кейинги даврларда келиб жойлашган чорвадор аҳолининг ижтимоий сиёсий ва этно-маданий ҳаётга таъсири ортиб борган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Асқаров А.А. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. Тошкент, 2015. –Б. 277.
2. Грязнов М.П. Пастушеские племена Средней Азии в эпоху развитой поздней бронзы // КСИА. Вып. 122. –М., 1970. -С.41.
- Гумилев Л.Н. Тысячелетие вокруг Каспия. – Баку: Азернешр, 1991. – С. 84-85.
3. Сагдуллаев А.С. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент, 1999. – Б. 82.
4. Сулейманов Р.Х., Гордеева Е.А.К вопросу об особенностях культурогенеза и урбаногенеза юга Уструшаны //“Қадимий Жиззах воҳаси – Марказий Осиё цивилизацияси тизимида (сиёсий, иқтисодий, маданий ҳаёт)”. – Жиззах, 2019.- Б. 7-9.
5. Сулейманов Р.Х. Миграция ранних кочевников на юг Средней Азии // Кафедра археологии Средней Азии: поиск и открытия поколений. –Ташкент, 2020. – С.15.
6. Сулейманов Р. Х. Вопросы культурогенеза и глоттогенеза Центральной Азии эпохи бронзы и раннего железного века\| Культуры азиатской части Евразии в древности и средневековье. – Самарканд, 2021. –С.139.
7. Смирнов. К.Ф. Совраматы. –М., 1964. – С.134.
8. Хўжаев Аблат. Фарғона тарихига оид маълумотлар. Фарғона, 2013. – Б. 274.

УЎК 94(5)

НУРОТА ТУРКМАНЛАРИНИНГ ЎРГАНИЛИШ ТАРИХИ

А.Ш.Умаров, таянч докторант, Самарқанд давлат университети, Самарқанд

Аннотация. XIX аср охири-XX асрнинг бошларида Нурота туқман уруғлари, тармоқлари, тарқалиш географияси, уруғ жамоага бўлинганлиги ва этник тарихи масалалари тўғрисида сўз боради.

Калит сўзлар: Нурота туқман, олти ота қозоёқли, беш ота мангишлов, “чиликли”, “қуниш”, “анна”, “сиртсулув”, “қизил”, “боғожат” Жўш, Чуя, Қўшработ, Қўрғон, Пчот, Ажрим, Пангот, Қовунчи, Зарбанд, Оқтепа, Туркман-жузлар, қозоёқли, кўзтамғали, кесовли, жилонтамғали.

Аннотация. В данной статье представлена информация о вопросах этнической истории Туркменских племен в конце XIX – начале XX века, идет дискуссия о ветвях, географии расположения, разделении рода на общины.

Ключевые слова: Нурота, Туркмены, шесть отцов Козайоги, пять отцов Мангышлова, «Чикли», «Куниш», «Анна», «Сирцулув», «Кызыл», «Богожат» Джош, Чуя, Кошработ, Курган, Пчот, Аджрим, Пангот, Мелончи, Зарбанд, Октепа, Туркмен-джузы, казойоги, козтамгали, кесовли, джилонтамгали.

Abstract. At the end of the 19th – beginning of the 20th centuries, there was a discussion about the clans of Nurot Tukman, branches, geography of distribution, division of the clan into communities, issues of ethnic history.

Keywords: Nurota Tukman, six fathers of Kozayogi, five fathers of Mangyshlov, “Chikli”, “Kunish”, “Anna”, “Sirtsuluv”, “Kyzyl”, “Bogozhat” Josh, Chuya, Koshrabot, Kurgan, Pchot, Ajrim, Pangot, Melonchi, Zarband, Oktepa, Turkmen-juzlar, kazoyogi, koztamgali, kesovli, djilontamgali.

Этносинг маълум бирликларга бўлиниши жаҳон халқларида шаклланишида кўп учрайдиган ходисалардан ҳисобланади. Бу ҳолат ўзбек халқининг шаклланишида ҳам учрайди. Ўзбекларда 92 та уруғнинг учраши мазкур ходиса билан изоҳланади. Ўзбек уруғларининг ҳар бири узоқ ва ўзига хос тарихга эга эканлиги боис ўзбек уруғларининг таркиби, этник тарихи масалалари кўплаб элшунос олимларнинг тадқиқот мавзуларидан бири бўлиб келмоқда. Мана шундай йирик уруғлардан бири Нурота тукманлари ҳисобланади.

Нурота туркманлари тарихда Қизилқумдан жанубда чўл ва даштлар воҳалар билан аралаш жойлашиб, уларнинг асосий аҳолиси Дашти Қипчоқдан чиққан ярим кўчманчи турмуш тарзига ўтган ўзбек уруғ-қабилалари бўлган. XIX аср охири-XX асрнинг бошларида Икки дарё оралиғининг ички дашт чўлларида туркманлар, қозоқлар, қирғизлар, кўп сонли ўзбек аҳолиси орасида оролчалар сингари жойлашган. Шу сабабдан бу халқларнинг барчаси ўзбеклар билан аралашининг у ёки бу босқичида бўлган. Аралашиниш жараёнларига ғарбда-туркманлар, шимолда-қозоқлар, шарқда-қирғизлар ва тожиклар, уйғурлар тортилган. Ассимиляция давомида кўп сонли ўзбеклар аъналарини, тили кенг ўзлаштирилсада, туркманлар, тожиклар, қозоқлар ва бошқа этнослар вакиллари ўз этник онги, этнонимини сақлаб келмоқда. Нурота воҳасидаги тожиклар, ўзбек-туркманлар бунга мисол бўла олади. Нурота туркманларининг жойлашини ҳудуди XX асрнинг 20-йилларида Нурота туманидан четга чиқиб, Зарафшон дарёсининг ўрта оқимидан (Кармана-Жиззах) Қизилқумгача бўлган тоғолди кенгликларни қамраб олган. Бу жойларда шимоли-шарқдан жануби-ғарбга томон деярли тўғри чизиклар шаклида учта: Нурота, Оқтоғ, Қоратоғлар жойлашган. Биринчиси Қизилқум чўли бўйлаб ўтиб, (энг баланд нуқтаси 2169 м.) фақат воҳани эмас, бутун Зарафшон воҳасини шимолий совуқ оқимлардан сақлаб туради[12].

Тарихий статистик маълумотларга қараганда, Оқтоғ ва Қоратоғ оралиғидаги қишлоқларда XX асрнинг биринчи чорагида (1925 йилгача) Нурота туркманларидан 30-35 минг киши яшаган[7]. Ўзбек-туркманлар XX асрнинг ўрталаригача қишлоқларда зич яшаб, 2 та йирик уруғ-жамоа уюшмаси “олти ота қозоёқли” ва “беш ота манғишлов”га бўлинган. Олти ота қозоёқлилар: ойтамғали, қўштамғали, қонжиғали, бўғажили, қозоёқлиларга бўлинган. Уларнинг ҳар бири яна 6 тадан кичик уруғ-жамоаларига бўлиниб “24 ота туркманлилар” деб аталади.

Иккинчи этник гуруҳга кирган уруғ-жамоадагилар “беш ота манғишлов”лар “чиликли”, “қуниш”, “анна”, “сирцулув”, “қизил”, “боғожат” қавмларига бўлинган. Улар аксари Нурота тоғлари атро-фидаги Жўш, Чуя, Қўшработ, Қўрғон, Пчот, Ажрим, Пангот, Қовунчи, Зарбанд, Октепа, Майдонсой ва яна кўплаб қишлоқларда яшайдилар. “Олти ота қозоёқли”лар ёки тамғали туркманлар Нурота воҳасининг жануби-ғарбий қисмидан то Қўйтошгача, Қувқалла, Гараша, Хўроб, Илонли, Қорабал, Накрут, Эшмоқсоқ, Гулчамбар, Болғали, Жарбулоқ, Қўса, Чағишмон (Сағишмон), Ғужумсой, Сафарота ва яна бошқа қишлоқларда жойлашганлар[8].

Туркман-жузлар ҳар бири саккизтадан уруғ жамоага бўлинган. Вахтамғалилар: қозоёқли, кўзтамғали, кесовли, болғали, қозоқ, жарикбош, алифли, ботеш, жилонтамғалилар, потас, қарға, юрга (юрчи), эгачи, болохўр, қўса, тароқли, яс (ясси) уруғ жамоаларини ташкил этган[14].

Этнолог Ф.Толиповнинг ёзишича, 1976 йили Собиқ Иттифоқ Фанлар академиясининг Н.Н.Миклухо-Маклай номидаги антропология ва этнография институти, Туркменистон ФАнинг Ш.Ботиров номидаги тарих институти билан ҳамкорликда Нурота ўзбек-туркманларининг этногенези ва антропологик (ирқий) типини аниқлаш мақсадида махсус экспедиция уюштиради. Экспедиция аъзоларининг асосий қисми Нурота туркманлари дастлаб ўтrockлашган: Жўш, Чуя, Қўшрабат, Навкат қишлоқларида, шунингдек, Оқтош-Чашма қишлоғи (“Ғазғон” давлат хўжалигида) бўладилар. Кичикроқ гуруҳ тоғнинг жануби ва жануби-шарқда жойлашган Қувкалла ҳамда Гараша қишлоқларида яшайдиган ўзбек-туркманлар орасида тадқиқотлар олиб боради.

Тадқиқотлар натижаларига кўра, Нурота туркманлари Каспийбўйи туркманлари билан этногенетик жиҳатдан ягона илдизга эга бўлишлари билан бирга, уларнинг юз, тана тузилишлари, ҳатто, тишларининг тузилишларида ҳам ўхшашлик кўзга ташланиши таъкидланган. Ҳар икки ҳудуд аҳолиси танасининг ранги, юз ва кўз тузилишидаги ҳозирги антропологик фарқлар ва ўзгаришларига эса узоқ йиллар мобайнидаги табиий-географик муҳит ҳамда иқлимнинг таъсири катта бўлганлиги олимлар томонидан қайд этилди.

Гараша қишлоғида ўзбек-туркманларининг “бўғажили” этник жамоаси таркибидаги: “жовбосар”, “бузоқ”, “мехоям”, “қозоқ”, “гирра” уруғлари яшайди. Тадқиқотчиларнинг фикрича, бу этник жамоалар аجدодлари дастлаб Нурота тоғ тизмасининг марказий қисмида, яъни Оқтепа, Қўшрабат, Жўш қишлоқларида яшашган.

Ўзбек-туркманларини Гараша қишлоғига келиб жойлашиши борасида икки хил фикр мавжуд: биринчиси – ўзбек-туркманлар табиий шароити қулай кенг яйловлар, сув манбалари илинжида узоқ муддат мобайнида, босқичма-босқич кўчиб келиб жойлашганлар. Иккинчиси – қишлоқдаги хўжалар ташқи душманлар – ёвдан ҳимоя қилиш учун ўзбек- туркманларини Оқтепа, Қўшрабатдан махсус кўчириб келтирганлар.

Дастлаб қишлоқ ҳудудига қўштамғали ва ойтამғали уруғ вакиллари келиб ўрнашган. Улар маълум вақт яшаганларидан сўнг Қорабал қишлоғига кўчиб ўтадилар. Маълумотларга қараганда, ўзбек-туркманларини Гарашадан Қорабалга кўчиб ўтишларига эшонлар ва ўзбек-туркманлар ўртасидаги келишмовчилик сабаб бўлган. Оқтепа, Қўшрабат ва Қувкалладан бекжиғалилар: жовбосар, бузов, гирра, қозоқ мехоям, жингичка уруғлари вакиллари Гарашага келиб жойлашган. Кўчишга сабаб аҳоли сонининг ўсиши, яйлов ва сув манбалари учун қурашнинг кучайиши, этник можаролар бўлгани эҳтимол[11].

The role of the teacher fades into the background, although, nevertheless, it remains very important, since it is he who supervises the activities of students. Students will also learn self-learning strategies that will enable them to cope with problems outside the classroom, apply peer-teaching techniques, and build educational foundations with other students. As pedagogy developed, the introduction of electronic means of communication into the educational process gave particular importance to the virtual educational environment. In this context, the capabilities of these means have not yet been fully studied. Until now, not all teachers fully understand how to combine the existing methodology with electronic educational tools.

It is not enough to simply use email and the Internet in the educational process - these are only minor improvements. The use of old material based on new technologies without adequate adaptation is already a change of medium scale. To take full advantage of information and communication technologies, you need to adapt the material to the new educational environment. To implement a full-scale change, it is necessary to retrain teachers. Effective use of information and communication technologies will require more time spent on preparing material for classes and planning communication processes using various information tools [1].

Currently, in most universities, language departments in the field of teaching interpretation and translation use the capabilities of the virtual platform to a very limited extent. Until now, not all teachers have the idea that enormous benefits can be gained from using such a powerful resource in the classroom. Largely, this concerns the use of teaching methods aimed at students acquiring competencies that a professional translator should possess. In this vein, the use of ICT provides great advantages, such as online learning, learning regardless of the location of students and teachers. Thus, this paves the way for a combined teaching method that combines face-to-face and distance learning without any loss.

The next advantage of ICT is the ability to adapt the educational process to the needs of each student. Modern trends in education, particularly in Europe, suggest that students should take most of the responsibility for their own learning, and this makes sense. The approach using ICT significantly simplifies this task and makes it more feasible: students will now be able to independently (within given topics) select material based on their interests and level of language proficiency [2].

No less important is the issue of acquiring translation competencies. Learning to translate means acquiring knowledge, abilities, skills and strategies that will allow the translator to convey text from one language to another in such a way that the effect of reading the translation is equivalent to the effect produced on the reader when reading the source text in his native language. Translation theorists have not yet reached a consensus on what set of subcompetencies will constitute translation competence that would best characterize a professional translator. However, practical knowledge and accumulated experience in the field of translation training suggest that deciphering the original and conveying its meaning in the form of a translation text includes not only linguistic knowledge (for example, text analysis), a correct understanding of the cultural realities of both countries and the availability of research skills, but also the ability to effectively use terminology database management tools and translator automation tools. As a result, a dividing line can be drawn between factual knowledge and knowledge about the use of translation aids, strategies and techniques.

We are trying to bring the conditions for training translators closer to the real conditions that they will encounter in the future, as much as possible at the moment at the Faculty of Foreign Languages of the National Research Tomsk State University. Students receive authentic texts for translation, as well as team assignments for the translation and localization of real projects, where the use of ICT is a prerequisite (the group is divided into translators, editors, post-editors, project managers and experts on highly specialized linguistics). At the Faculty of Foreign Languages, acquiring the knowledge and skills necessary to work with tools for automating the work of a translator and supporting ICT tools in general is one of the tasks that is on par with the tasks of acquiring professional skills by performing multidirectional tasks.

We will focus on training specialists based on web technologies. Here we cannot fail to mention the so-called blended learning, or b-learning - a teaching methodology using both face-to-face classes and classes using electronic means. It combines the advantages of both methods. In fact, combined learning makes it possible to fill the gap between traditional education and electronic education [1], although sometimes the reason for switching to combined learning is a lack of funding, which simply does not allow the full use of electronic education. Combined learning allows the teacher to act in a new role, as well as maintain face-to-face communication with students. In this case, students who prefer a way of learning that involves face-to-face contact with teachers and classmates, and who learn the material well during class hours, are better receptive to audiovisual means of presenting the material, as well as kinesthetic and metacognitive educational methods, will not lose anything, on the contrary, more adapt to correspondence communication.

As a rule, students receive authentic texts of articles from magazines downloaded from the Internet, or texts from the professional translation practice of teachers. It is extremely important to pay attention to the quality of such texts and their structure (check in advance for grammatical and stylistic errors, unless the presence of such is specified in the task), as well as compliance with the chosen topic and level of complexity, which varies depending on pedagogical tasks.

Students are also provided with supporting material such as bilingual texts, background information on the topic, a list of recommended readings, as well as specialized websites and glossaries. Along with the provision of supporting material, software, as well as various resources, exercises are given, the implementation of which contributes to the achievement of general objectives that were set by the teacher together with the students.

Among the tasks to improve or instill skills that exercises and techniques are aimed at developing, the following can be identified:

- 1) deepen knowledge in the field of linguistics;
- 2) expand cultural knowledge;

- 3) improve research skills, particularly in the technical field;
- 4) teach translation techniques and strategies;
- 5) train to cope with such aspects of professional translation work as completing work under tight deadlines, working under stressful conditions, business communication with clients (creating and expanding a client base, conducting business correspondence with the customer, setting an adequate price for work in accordance with the complexity, order volumes and lead times);
- 6) check the completed translations and carry out quality control;
- 7) manage translation projects, work in a team;
- 8) work with term base management tools;
- 9) develop students' ability to learn independently

The strong shift in learning habits towards a more visual culture should lead to infusing existing pedagogies with more visual media such as video conferencing, video streaming. It is also expected to create appropriate game-based educational activities and simulation methods that will bring a professional work environment to the classroom.

REFERENCE:

1. Richards, Sylvie L.F. The Interactive Syllabus: A Resource-based, Constructivist Approach To Learning // The Technology Source. July/August 2003.
2. Kiraly D.C. Pathways to Translation. Pedagogy and Process. Kent and London: The Kent State University Press, 1995.

UO'K 37.091.113:005.963.

TALABALARNING INNOVATSION KOMPETENSIYALARINI BOSHQARISHDAGI ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

N.R. Pulatova, dots., «International School of Finance Technology and Science» instituti, Toshkent

Annotasiya. Ushbu maqolada oliy ta'lim talabalarining zamonaviy boshqarishning samarali yo'llari innovatsion boshqarishning tahliliy natijalari, tashkilot faoliyatidagi boshqarishdagi yondashuvlar taxlili ya'ni tuzilmaviyva jarayonli yondashuvlar ochib berilgan.

Kalit sozlar: innovatsiya, tizimli, vaziyatli, jarayonli, tuzilmaviy yondashuvlar, innovatsion metodlar, jarayonli boshqaruv

Аннотация. В данной статье раскрываются эффективные способы современного управления студентами вузов, аналитические результаты инновационного менеджмента, анализ подходов к управлению в организационной деятельности, т.е. структурного и процессного подходов.

Ключевые слова: инновация, системный, ситуационный, процесс, системные подходы, инновационные методы, процессное управление.

Abstract. This article reveals effective ways of modern management of university students, analytical results of innovative management, analysis of approaches to management in organizational activities, i.e. structural and process approaches.

Key words: innovation, systematic, situational, process, systemic approaches, innovative methods, process management

Kirish. Oliy ta'lim muassasalari talabalarining zamonaviy boshqarishning samarali yullarini joriy etish ijodiy, intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishning eng muhim sharti hisoblanadi, shuningdek, ta'lim tizimining o'quv jarayoniga innovatsion metodlarini qo'llashga ko'maklashadi. Kamchiliklar quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

oliy ta'lim talabalarining zimmasiga faoliyatga taalluqli bo'lmagan vazifalar yuklatilishi xodimlar va o'rtasida vazifalarning taqsimlanishida rejasizlik holatlari ular faoliyati samaradorligini baholashning aniq mezonlarining aniq belgilanmaganligi;

ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar ishlarining sust olib borilishi, sohaga tegishli tashkilotlar o'rtasida o'zaro hamkorlik darajasining pastligi;

boshqa tashkilotlarning kasbiy faoliyatiga asossiz ravishda aralashuvdan himoya qilish mexanizmlari samarasizligi, nazorat qiluvchi va boshqa davlat organlari tomonidan maktablarni tekshirish haddan ziyod ko'payib ketganligi;

ta'lim sifatini ta'minlashda demokratik usullarni ko'llashdagi kamchiliklar, o'quv-tarbiya jarayoni ustidan samarali boshqaruv nazoratining mavjud emasligi; [1] Shu sababli ta'lim tizimiga zamonaviy ta'limning metodlarini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Xususan, R.Fatxutdinov zamonaviy, murakkab va dinamik bozor muhiti oliy ta'lim muassasalaridan o'z boshqaruv tizimlarini va ularni axborotli qo'llab-quvvatlash tizimlarini doimiy takomillashtirib borishni talab qilishini va tashkilot faoliyatini boshqarishga ikkita asosiy yondashuvdan foydalanilishini ta'kidlagan [2] (1.1-jadvalga qarang):

1.1-jadval.

Tashkilot faoliyatini boshqarishga yondashuvlar

Tuzilmaviy yondashuv	Jarayonli yondashuv
Tashkilotning turli xildagi tashkiliy tuzilmalaridan foydalanishga asoslanadi	Tashkilot faoliyatining biznes jarayonlarga yo'naltirilishi
Faoliyatni boshqarish tuzilmaviy elementlar (byuro, bo'lim, departament va h.k.) bo'yicha amalga oshiriladi	Tashkilotni boshqarish tizimlari har bir biznes jarayonni ham alohida, ham barcha biznes jarayonlar bilan birgalikda boshqarishga asoslanadi
Tuzilmaviy elementlarning o'zaro harakatlari – mansabdor shaxslar (byuro, bo'lim, departament boshliqlari) va yuqoriroq darajadagi tuzilmaviy bo'linmalar orqali amalga oshiriladi	Jarayonlar egalari o'z biznes-jarayonlarini ko'rsatkichlar tizimi yordamida nazorat qiladilar

L.Plexova, T.Anurina, S.Legkostaevlar har bir maktab boshqaruv ilmiga o'z sezilarli ulushini qo'shgani lekin qarashlarning xilma-xilligiga qaramasdan ular ichidan uchta asosiy – jarayonli, tizimli va vaziyatli yondashuvlarni ajratib ko'rsatish mumkinligini ta'kidlagan [3] (1.2-jadvalga qarang):

1.2-jadval.

Boshqaruvdagi asosiy yondashuvlar

Yondashuv	O'ziga xosligi	Ustunligi	Kamchiligi
Jarayonli	Boshqaruv jarayon sifatida olib qaraladi	Boshqaruv faoliyati o'z ichida an'anaviy ravishda rejalashtirish, motivatsiya, tashkil etish va nazorat ajratib ko'rsatiladigan boshqaruv funksiyalarini namoyon etuvchi uzluksiz, o'zaro bog'lanishli harakatlar seriyasi sifatida olib qaraladi.	Tashkilotning barcha ichki tarkibiy qismlarining o'zaro aloqalarini va tashqi muhit bilan aloqasini ko'rsatmaydi, ya'ni, boshqaruv jarayonini olib qarashda tizimlilik mavjud bo'lmaydi.
Tizimli	Tashqi va ichki omillarning birgalikdagi ta'sirini hisobga olish bilan tashkilotning faoliyat yuritishiga majmuaviy yondashuv.	Tashkilotni uni tashkil etuvchilarining birligi sifatida namoyon qiladi.	Boshqaruvga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy o'zgaruvchilarni aniqlab bermaydi.
Vaziyatli	Boshqaruvning istalgan universal metodlarini inkor etadi va konkret vaziyatlarda konkret boshqaruv harakatlarining qo'llanilishiga asoslanadi.	Vaziyatning o'zaro bog'langan xususiyatlarini beradi.	Universal boshqaruv dastaklari mavjud emas, to'la asoslanmagan.

Zamonaviy ta'lim – bu ta'lim tizimining ijtimoiy-pedagogik jixatlari bulib an'anaviy ta'lim tizimidan rivojlangan yangi imkoniyatlarga, ta'lim-tarbiya tizimiga yangi zamonaviy funksional vazifalar, strategiya va taktikaviy rejalarini yangi usullarini tatbik etishdan iborat hisoblanadi. Bugungi kun pedagogika fanida tizimli yondashuv metodologiyasiz boshqaruv muammolarining hal etib bulmaydi. Zamonaviy yondashuvning joriy etilishi boshqaruvda tizimli yondashuvda ta'lim muassasasi tizim sifatida, ya'ni tashqi muhitda xizmat qilayotgan murakkab tizim sifatida ko'rib chiqiladi.

L.Malishevaning ta'kidlashicha yondashuvlar orasidagi prinsipial farq shundaki, tizimli tahlilda asosiy diqqat tizimning ichiga, o'z-o'zini tashkil etish nazariyalarida esa – tizimdan tashqariga yo'naltirilgan bo'ladi [4].

I.Tashbaev, L.Mirotinlarning fikriga ko'ra, "tizim" tushunchasi kategoriya sifatida "asosiy, tizimga xos bo'lgan asosiy xossalarni aniqlash" orqali talqin qilinishi mumkindir [5].

Ta'lim muassasasini o'rganishda alohida xususiyatlarga ega bo'lgan bir necha qismlarga ajratib, ular o'rtasidagi aloqalar xamda o'zaro bog'liqlik xususiyatlari aniqlanadi, chunki har bir qism yaxlit tizimning o'zgarishiga o'z xissasini qo'shadi. Tizimli yondashuv fan sifatida - yangi tushunchalar bermaydi, lekin obyektни boshkarishda o'ziga xos xususiyatlarni mujassamlashtirilgan texnologiyalar, ya'ni tadqiqotning integratsion texnologiyalarini o'z ichiga oladi. Universal tushunchalar abstraksiyaning yuqori darajasi, asosiy integratsion xususiyatlar - insonlarni fikrlash va dunyokarashini o'rganishning samarali usuli sifatida tizimli yondashuvni qullaniladi. Pedagogikada "tizim" tushunchasi keng tushuncha bulib, ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish usullari va shakllari tizimi va hokazo. Ta'lim tizimini o'zgartirish, uni qayta tashkil etish va moslashtirish qaysidir qismlarning o'zaro ta'sir ko'rsatish yo'nalishiga bog'liq: moddiy-texnik bazani mustahkamlash, mazmunini rivojlantirish va h.k. Tizimli yondashuv yo'nalishida turlicha karashlar mavjud bo'lib va quyidagilardan tashkil topgan.

1. Tizimlilik. yaxlitlilik - bunday shakldagi tizimni komponentlar, o'zaro ta'sir etuvchi qismlar o'zaro bir kishini tashkil etadi va uning funksiyalarini amalga oshirish va rivojlantirishni ta'minlaydi.

2. Pedagogik tizimda tizimni tashkil etuvchi omillardan biri maqsad bo'lib, unga erishish uchun uslub va vositalar zarur hisoblanadi. Maqsadga erishishda tizim va uning komponentlarining harakati tizim funksiyasining mohiyatini belgilaydi.

3. Pedagogik tizim tarkibiy kislardan iborat bo'lib, uning o'zgarishi ichki ziddiyatlarga bog'liq bo'ladi.

4. Tizimda ochiqlik bulganligi sababli muhit munosabatlari tizimning harakatlanishi va rivojlanishiga kommunikatsiyalar o'z ta'sirini ko'rsatadi.

5. Axborotlarning pedagogik tizimga kelib tushishi va undan qayta uzatilishi tizim komponentlarining o'zaro va butun bir tizim bilan hamda tizimning tashqi muhit bilan aloqa qilish uslublari hisoblanadi.

6. Talab etilayotgan, mavjud bo'lgan va istiqbol tizimlar o'rtasidagi farqni boshqaruv jihatlari belgilaydi.

Mamlakatimiz va xorijda boshqaruv kompetensiyasining ilmiy asoslari paydo bo'lishi o'zining chuqur tarixiy ildizlariga ega bo'lib - bu tizimli boshqaruvning rivojlanish jarayonidir. Boshqaruvga ilmiy yondashuvning barcha asoslari umumnazariy, umumboshqaruv, umumtexnologik, umumtizimlilik yondashuvlar bo'yicha olib borilgan izlanishlarning natijalariga asoslanadi. Shundan kelib chiqib, ta'lim muassasalarining o'zaro tahlil qilish natijasida tizimli yondashuvning tamoyillariga kuyidagilar kiritish mumkin:

subyektlar faoliyatining maqsadga yo'naltirilganligi;

majmuaviylilik – obyekt o'zaro bog'langan tashkil etuvchi qismlarning majmuasi ekanligi;

oliy ta'lim talabalarining boshqaruv kompetensiyasi va uning rivojlanishi.

T.V.Dubovitskayanig "Malaka oshirish tizimida boshlangich ta'lim ukituvchilarini kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish" nomli tadbirkotida hozirgi kundagi ta'limning asosiy vazifasi innovatsion fikrlash va muayyan ta'lim muammolarini hal qilishda amaliyotga yo'naltirilgan, tadqiqot yondashuvi bilan birlashtiradigan sifat jihatidan boshqa o'qituvchilarni tayyorlashdan iboratdir degan fikrni ilgari surgan [7]. Talabalarini innovatsion boshqaruvga ega shaxs sifatida shakllanishida uzining kasbiy va Boshqaruv faoliyatida keng uslubiy madaniyat va innovatsion muxitni rivojlantirishda innovatsion saloxiyatga ega bulishi va shu bilan birgalikda psixologik va pedagogik shart sharoitlarda innovatsion usullarni yaratishdagi innovatirdir[6].

Boshqaruv faoliyatining ko'p funksiyasi boshqaruvning qanchalik murakkabligini ifodalagan holda oliy ta'lim talabalarini tanlashda hisobga olinishi zarur bo'lgan jihatlarni ochib beradi. Boshqaruv kompetentligiga ega talabalarni tanlashda boshqaruv funksiyalarni bajarishga tayyorlik darajasi baholanadi.

Shaxs yondashuvi. Bunday yondashuvga binoan, samarali boshqaruv talabalaridagi boshqaruvga xos bo'lgan qator shaxsiy sifatlar bilan belgilanadi. Shaxsga xos xislatlar va boshqaruv samaradorligi o'rtasidagi aloqani ko'rsatib o'tishda qator tadqiqotlar orqali ta'kidlangan rahbarning intellektual qobiliyati ustida to'xtalib o'tish mumkin. Xususan, tafakkurning egiluvchanligi, turli toifadagi vazifalarni tez yechish qobiliyati, samarali rahbarning ijodiy tafakkurga ega bo'lishi alohida ta'kidlab o'tiladi

Vaziyatli (xulq) yondashuvi. Vaziyatli yondashuvning amaliy ahamiyatini ushbu yondashuv namoyandasi – F.Fidler qarashlari orqali ifodalab berish mumkin [8]. Bunga ko'ra, samarali yoki samarasiz rahbar haqida gapirish o'rinsiz hisoblanadi. Agar rahbar ma'lum bir vaziyatda samarasiz boshqarishga moyil bo'lsa, boshqa bir vaziyatda u mutlaqo samarali bo'lishi mumkin. Shuning uchun oliy ta'lim talabalarini tayyorlashga alohida e'tibor qaratish va rahbar samarali ishlashi uchun shunga taalluqli muhitni yaratish lozim, degan fikr olg'a suriladi. Ushbu yondashuv vakillari fikriga ko'ra, boshqaruv kompetensiyasiga ega talabning samarali boshqaruvini ta'minlovchi asosiy ko'rsatkich va omil talaba tomonidan guruh va vaziyatni boshqarish salohiyati, deb qaraladi. Vaziyat deganda obyektiv sharoitlar majmui, boshqaruv obyektlarining holati, jamoadagi shaxslararo munosabatlar va ularning dinamikasi tushuniladi. Bunday vaziyat boshqaruv kompetensiyasiga ega talabadan o'ziga xos va noan'anaviy harakatni talab qiladi. Yuzaga kelgan bir vaziyat boshqaruv kompetensiyasiga ega talabning sezgir va yumshoq tabiat bo'lishini, boshqa bir vaziyatda esa qattiqqo'l, o'ta ehtiyotkor va qat'iy bo'lishni, hatto tavakkalchilikka borishni talab qiladi. Vaziyatli yondashuv boshqaruv kompetensiyasiga ega talabadan namunaviy xulqni takror va takror ijro etish, faoliyatni algoritmizatsiyalash talabini qo'ygan holda uni qattiq tartib iskanjasiga solib qo'yadi.

Xulosa: Xulosa sifatida shuni ta'kidlash kerakki talabalaridagi innovatsion Boshqaruvchilik kompetensiyalar faoliyatdagi natijaviylikka asoslanib, innovatsion faoliyatni, innovatsion jarayonni va innovatsion muxitni yaratishdagi Boshqaruvning yangicha yondashuvlari tizimidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Innovatsionniy menedjment // Uchebnik. Pod red. V.A.Shvandara, V.Y.Gorfinkelya. – M.: Vuzovskiy uchebnik, 2006. – 382
2. Inoyatov U.I. Teoreticheskie i organizatsionno-metodicheskie osnovy upravleniya i kontrolya kachestva obrazovaniya v professionalnom kolledje: Dis. ... d-ra ped. nauk. – Tashkent: «ISSPO», 2003. – 330 s.
3. Ismadiyarov Ya.U. Sovershenstvovanie mexanizmov formirovaniya innovatsionnogo menedjmenta v sisteme vysshego pedagogicheskogo obrazovaniya Avtoref. dis. ... doktora. pedagogich. nauk. – Tashkent: 2003.-28 s. S-27.
4. Issledovanie organizatsionno-ekonomicheskix modeley upravleniya vuzom v usloviyax modernizatsii obrazovaniya / G.I. Malseva, T.G. Uvarova, M.V. Niyazova i dr.; Pod red. G.I. Malsevoy. - Vladivost. gos. un-t ekon. i servisa. - Vladivostok, 2005, 78 s- Dep. v INION RAN 17.05.05, № 559262
5. Kurbanov Sh., Seytxalilov E. Ta'lim sifatini boshqarish. T. «Turon-Iqbol». 2006. 196 bet.
6. Kapitalizm, Sotsializm i Demokratiya: Per. s angl. /Predisl. i obsh. red. V.S. Avtonomova. — M.: Ekonomika, 1995. - 540 s. - (Ekon. nasledie) - ISBN 5-282-01415-7
7. Klarin M.V. Innovatsii v mirovoy pedagogike: obuchenie na osnove issledovaniya, igri i diskussii (analiz zarubejnogo opita). – Riga: NPS «Eksperiment», 1995. – 176 s.
8. Kochetkova A.I. Vvedenie v organizatsionnoe povedenie i organizatsionnoe modelirovanie: Uchebnoe posobie. — 2-ye izd. — M.: Delo, 2004. — 944 s. S. 556.
9. Kokurin D.I. Innovatsionnaya deyatelnost. – M.: Ekzamen, 2001. – 576 s.
10. Komenskiyning Y.A Buyuk didaktika. 345 b.
11. Kondrateva N.D. Teoriya innovatsionnogo razvitiya // Ekonomicheskie nauki. – № 46-2. 24.05.2016.
12. Kravchenko A.I. Istoriya menedjmenta 5-ye izd. – M.: Akadem. Proekt: Triksa, 2005. – 506 s.

UO'K 37.02

4-SINF ONA TILI FANIDAN OT SO'Z TURKUMINI O'RGATISH DARSLARINI SAMARALI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION USULLARI N.Q. Shukurullayeva, talaba, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. Mazkur maqolada 4-sinf ona tili darslarida ot so'z turkumini o'rgatish jarayonida turxli xil grammatik o'yinlar hamda innovatsion metodlardan foydalanish usullari keltirib o'tilgandir. Boshlang'ich sinf bosqichi sodda bo'lishi bilan birga, o'quvchi ongida aniq va tushunarli ma'lumotlarni shakllantirishni talab qiluvchi davr hisoblanadi. Ushbu maqolada esa aynan shu masala bo'yicha izlanishlar olib borilgan hamda bir qancha metod va o'yinlar keltirib o'tilgandir.

Kalit soʻzlar: innovatsiya, samara, soʻz turkumi, kelishiklar, grammatika, metod, qoʻshimcha.

Аннотация. В данной статье приведены различные грамматические игры и способы использования инновационных методов в процессе обучения именованному ряду на уроках родного языка в 4 классе. Этап начальной школы-это период, который, хотя и прост, требует формирования ясной и понятной информации в сознании ученика. В этой статье были проведены исследования по этому вопросу, а также приведены несколько методов и игр.

Ключевые слова: инновация, эффект, категория слова, спряжения, грамматика, метод, дополнение.

Abstract. In the process of teaching the noun category in the lessons of the 4th grade native language, methods of using different grammatical games as well as innovative methods are presented in this article. While the initial class stage is simple, it is a period that requires the formation of clear and understandable information in the student's mind. In this article, research has been done on this particular issue and a number of techniques and games have been cited.

Key words: innovation, effect, Word category, agreement, grammar, method, suffix.

Kirish. Bugungi kunda rivojlanish jarayonida boʻlgan zamonning talablariga javob beradigan avlodlarni tarbiyalash pedagoglarning oldidagi ulkan vazifalardan biridir. Ayniqsa, uchinchi renessans arafasida turgan mamlakat kelajagiga oʻzining yutuqlari bilan hissa qoʻshadigan yoshlarni tarbiyalash barchamizning oldimizda turgan eng masʼuliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “Oʻzbekiston Respublikasi xalq taʼlimi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi PF-5712-son Farmoniga muvofiq, xalq taʼlimi sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalarni joriy etish ham nazarda tutilgandir. Shuningdek, mazkur farmonning ikkinchi bobida xalq taʼlimi tizimidagi mavjud muammolar ham keltirib oʻtiladi. Jumladan, “Davlat taʼlim standartlari kompetensiyaviy yondashuvga asoslanganligiga qaramasdan, oʻqitish va baholash metodlari, shuningdek darsliklar va boshqa oʻquv materiallarini asosan axborotni yodlash va bayon qilishga qaratilgan boʻlib, tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish koʻnikmalari va boshqa malakalarni rivojlantirishga toʻsqinlik qilmoqda” deya keltirib oʻtiladi. [1]

Shuni aytish joizki, ona tili darslarida oʻquvchilarni tanqidiy fikrlashga hamda axborotni mustaqil izlashga va tahlil qilishga oʻrgatish oʻquvchining barcha sohalarda oʻz fikrini ochiq bayon qila oladigan shaxs boʻlib yetishishini taʼminlaydi.

Asosiy qism. Jamiyatda til kishilar oʻrtasidagi aloqaning asosiy vositasidir. Shu bilan birga oʻz fikrlarini bayon etishning ham asosiy vositasi hisoblanadi. Oʻquvchilarning yuqori sinflarga koʻchib borgani sari uning ahamiyati uzluksiz ravishda ortib boradi. Shu oʻrinda mamlakatimiz Prezidenti Shavka Mirziyoyevning quyidagi jumllarini keltirib oʻtsam:

“Ayni paytda islohotchi boʻlib maydonga chiqadigan, uzoqni oʻylab fikr yuritadigan, bilimli va malakali yangi avlod kadrlarini tarbiyalashimiz zarur. Shu boisdan ham bogʻchadan boshlab oliy oʻquv yurtigacha – taʼlimning barcha boʻgʻinlarini izchil isloh qilmoqdamiz. Nafaqat yoshlar, balki butun jamiyatimiz aʼzolarining bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm-maʼrifat, yuksak madaniyat kerak. Ilm yoʻq joyda qoloqlik, jaholat va albatta, toʻgʻri yoʻldan adashish boʻladi.

Eng katta boylik – bu aql-zakovat va ilm, eng katta meros – bu yaxshi tarbiya, eng katta qashshoqlik – bu bilimsizlikdir. Shu sababli hammamiz uchun ilgʻor bilimlarni oʻzlashtirish, chinakam maʼrifat va yuksak maʼnaviyat egasi boʻlish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak”. [2]

Til borliqni oqilona, mantiqiy bilish vositasidir. Til birliklari yordamidagina bilish jarayonida umumlashtirish, tushunchani muhokama va xulosa bilan bogʻlash amalga oshadi. Til va nutq tafakkur bilan uzviy bogʻlanadi. Tilni egallash va nutq oʻstirish bilan oʻquvchining fikrlash qobiliyati ham oʻsib boradi. Maktabning vazifasi tilni kishilar orasidagi munosabatning rivojlangan nozik quroliga aylantirish hisoblanadi. [3]

Adabiyotlar tahlili. Ona tili fanining katta boʻlimlaridan biri hisoblangan morfologiya boʻlimida oʻrganiladigan ot soʻz turkumini 4-sinfda oʻrgatishning samarali usullari va innovatsion metodlarini koʻrib oʻtamiz. Soʻz turkumi sifatida ot muayyan leksik maʼnolari va grammatik belgilari

bilan ajralib turadi. Barcha otlarning umumiy leksik ma'nosi shaxs va narsani ifodalash hisoblanadi. Boshqa so'z turkumlarini o'rganish ham aynan ot so'z turkumini o'rganishdan boshlanadi. So'z turkumi atama sifatida 3-sinfdan o'rgatilishni boshlaydi. 4-sinfda esa otlarning Grammatik belgilari, ya'ni kelishik, egalik, ko'plik qo'shimchalarini olishi o'rgatiladi.


4-sinfda ot ustida ishlashning asosiy vazifasi fikr bayon qilishda otning kelishik shakllaridan ongli foydalanish va kelishik qo'shimchalarini to'g'ri yozishga o'rgatish hisoblanadi.

Bu sinfda ot quyidagi izchillikda o'rganiladi:

- 1) otlarning kelishiklar bilan turlanishi haqida tushuncha berish;
- 2) ko'plikdagi otlaming turlanishini o'rgatish;
- 3) har bir kelishikning xususiyatlarini alohida o'rganish va u bilan bog'liq holda kelishik qo'shimchalarining yozilishi haqida ko'nikma hosil qilish. [3, 254]

Metodologiya. Darslikdagi mashqlarni turli xil metodlar orqali bajarish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. 4-sinf darsligida otni o'rgatishga doir bir necha mashqlar uchun metodlarni ko'rib o'tamiz.

“Chorrahada” metodidan foydalanish orqali o'quvchilarning fikrlashini yanada kengaytirish mumkin. Bunda doskaga chorraha rasmi chiziladi. Chorrahaning o'rtasiga berilgan so'z yoziladi. O'quvchilar esa chorrahadan o'ngga, chapga, to'g'riga va orqaga yurish orqali berilgan yo'llardagi topshiriqni bajaradilar. Mazkur metod quyidagi ko'rinishda bo'ladi:



Masalan, **Salimda** so'zi berilgan bo'lsa, to'g'riga yurish orqali uning *o'rin-payt kelishigida* ekanligini, chapga yurish orqali uning *birlikda* ekanligini, o'ngga yurish orqali uning *kimda?* so'rog'iga javob bo'lishini aytadilar. Orqaga yurish orqali esa shu so'zni qatnashtirib gap tuzishadi: **Salimda** uchta qiziqarli kitob bor.

“Qaratqichlar qani?” metodida egalik qo'shimchasini olgan so'zlar keltiriladi va o'quvchilardan shu so'zga mos ravishda qaratqich kelishigidagi so'zni qo'yishlari so'raladi. Masalan: ... ko'zi, ... qo'li, ... sahifasi, ... mazasi, ... o'quvchisi, ... dumi, ... qanoti, ... oyog'i. Mazkur mashqni bajarish orqali o'quvchilarning nafaqat ona tili fanidagi bilimi, balki dunyoqarashi ham sinab ko'riladi. Chunki sahifa, dum va qanot kabi komponentlar borliqdagi qaysi jism yoki narsalarda bor ekanligini fikrlab topishlari kerak bo'ladi.

“Nimaga bog'langan?” o'yinida o'quvchilar e'tiboriga maqollar havola qilinadi va ulardan maqol tarkibida qatnashgan, kelishik qo'shimchalarini olgan ot so'z turkumiga mansub so'zlarni o'zi bog'langan so'z bilan yozish topshirig'i beriladi. Bu mashq orqali ot so'z turkumiga mansub so'zlar har xil kelishikni olganida har xil so'z turkumlariga bog'lanishini fikrlash orqali bilib oladilar. Masalan:

Jalada qolgan yomg'irdan qo'rqmas.

Mergan ovda bilinar.

Tilingda bo'lsa bo'ling, kulib turar iqbo'ling.
 O'zga yerda sulton bo'lguncha,
 O'z elingda cho'pon bo'l.
 To'g'ri oshini yer, egri boshini.
 Vatanni sotgan – el bo'lmas.
 Vatanning qadrini bilmagan, o'z qadrini bilmas.
 Qo'lingdan kelsa, qo'lingdan ber,
 Qo'lingdan kelmasa yo'lingdan ber.
 Haqiqat oltindan qimmat.
 Hisobdan adashsang ham yo'ldan adashma.
 Kattaga hurmatda bo'l, kichikka izzatda.

Mazkur metod orqali o'quvchilarning bilimi to'liq mustahkamlanadi. Chunki qaratqich kelishigini olgan so'zlar ot bilan bog'lanishini, fe'l bilan bog'lanmasligini bilib oladilar. Shu jumladan, chiqish kelishigidagi so'zlar fe'llardan tashqari, sifat so'z turkumiga oid so'zlar bilan ham bog'lanishi mumkinligini tushunib oladilar. Aynan maqollarni keltirilishi esa o'quvchilarni milliy ruhda tarbiyalash, har qanday vaziyatda ham milliylikni yo'qotmaslikni uqtrish imkonini beradi. Shu bilan birga, so'z boyligini oshiradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni aytish joizki, o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytirish ularning olishi mumkin bo'lgan bilim doirasini ham kengaytirish demakdir. Yuqoridagi kabi o'quvchilardan faqatgina yodlab olishni talab qilmasdan, fikrlash orqali mashqlarni bajarishga qaratilgan metodlar ta'lim jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Ot so'z turkumiga kelishik va ko'plik qo'shimchalarini qo'shish, gapda qo'llash orqali uni o'rgatish o'quvchi mantiqiy fikrlashini rivojlantiradi. Mantiqiy fikrlash darajasi rivojlangan o'quvchilar esa kelajak bunyodkorlaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmoni.
2. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. Toshkent: "O'zbekiston", 2022.
3. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharofjon Sariyev. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Nosir", 2009.
4. G'oyibnazar Ernazarov. Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Ilm ziyo", 2011.
5. 4-sinf ona tili fani darsligi, 2023.
6. <https://lex.uz/>

UO'K 30.428

OLIV NERV FAOLİYATI MAVZUSINI O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

M.S. Usmonova, PhD, dots., Qo'qon davlat pedagogika instituti, Qo'qon
X.E. Usmonov, magistrant, Qo'qon davlat pedagogika instituti, Qo'qon

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy nerv sistemasi faoliyati mavzusini tashkil etishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishning samaradorligi muhokama etiladi. Maqolada ushbu mavzuning ayrim asosiy tushunchalari ko'rib chiqiladi hamda texnologiyalarni qo'llashga doir tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Pedagogik texnologiya, oliy nerv faoliyati, o'qitish, interfaol metod, ta'lim.

Аннотация. В данной статье рассматривается эффективность использования педагогических технологий в организации темы деятельности высшей нервной системы. В статье рассматриваются некоторые основные понятия данной темы и разрабатываются рекомендации по использованию технологий.

Ключевые слова: Педагогическая технология, высшая нервная деятельность, обучение, интерактивный метод, образование.

Abstract. This article discusses the effectiveness of using pedagogical technologies in organizing the topic of higher nervous system activity. The article examines some basic concepts of this topic and develops recommendations for the use of technologies.

Key words: Pedagogical technology, higher nervous activity, teaching, interactive method, education.

Oliy nerv faoliyati degan tushunchani fanga I.P.Pavlov kiritgan. Oliy nerv faoliyati (ONF) nerv tizimi yuqori bo'limlarining odam va hayvonlarning muhit o'zgarishlariga moslashishiga qaratilgan individual xatti-harakatlarini birlashtiruvchi faoliyatidir.

Oliy nerv faoliyati atamasini "ruhiy faoliyat" tushunchasining ekvivalenti desa bo'ladi. I.P.Pavlov ONF tushunchasini "quyi nerv faoliyatidan" ajratish kerakligini ta'kidlagan.

Quyi nerv faoliyati muayyan organizmning shartsiz reflekslaridan iboratdir. Bu reflekslar turning har qaysi namoyonasiga xos kerakli retseptiv soha adekvat ta'sirlovchi bilan ta'sirlanganida qonuniy ravishda yuzaga chiqadi. Shartsiz reflekslar organizmning gomeostazni ta'minlash uchun zarur bo'lgan faoliyatlarini birlashtiradi.

ONF quyi nerv faoliyati zaminida shakllanadi va individual hayot davomida organizm o'zlashtirgan turli biologik sifatga ega reaksiyalar yig'indisini tashkil etadi. Bu reaksiyalar juda murakkab va xilma-xil: shartli reflekslar va ular bilan bog'liq fiziologik hodisalar, II signal tizimining rivojlanishi, hissiyotlar, maqsadga erishishga qaratilgan faoliyatlar va boshqalar.

Bolalarda ONF ning shakllanishi juda murakkab jarayon. Bu faoliyatda yoshga bog'liq bo'lgan jiddiy o'zgarishlar kuzatiladi. Ular po'stloqning assotsiativ, xususan peshona va pastki chakka sohalari kengayishi bilan bog'liq. O'sish jarayonida bu sohalarning yuzasi 9 marta ko'payadi va po'stloq umumiy yuzasining 2/3 qismini egallaydi.

Yangi tug'ilgan chaqaloqni tashqi muhit bilan juda oz shartsiz reflekslar bog'lab turadi. Bu reflekslar asosida eng avval interotseptiv va propriotseptiv shartli reflekslar paydo bo'ladi. Agar 5-6 kunlik bolani emizish orasidagi vaqt aniq bo'lsa (masalan, bola har 4 soatda emizilsa), ovqatlanish vaqtdan bir necha daqiqa avval u bezovtalanib, uyg'onadi. 6-7 kunlik bolalarda emizishdan 30 daqiqa oldin qonda leykotsitlar miqdori ko'payadi, gazlar almashinuvi jadallashganini qayd qilish mumkin. Bola hayotining ikkinchi haftasi oxirida "emizish holatiga" shartli so'rish refleksi paydo bo'ladi: emizish uchun bolani qo'lga olish teri retseptorlarini, proprio- va vestibulyar retseptorlarni qo'zg'atuvchi shartli signal sifatida xizmat qiladi. Shartsiz ta'sirovchi – emish esa mustahkamlovchi vazifani bajaradi.

Bola 3 oylik bo'lganidan keyin eksteroretseptorlardan shartli reflekslar paydo bo'la boshlaydi. Birinchi galda, ko'ruv retseptorlari ta'sirlanishi natijasida vaqtinchalik aloqalar yuzaga chiqadi. Bola tanish odamlar nigohini ko'rganda, umumiy "jonlanish" bilan javob beradi, yuzini yuvmoqchi bo'lgan onasining sovunlangan qo'lini ko'rsa, qichqiradi va aftini o'giradi.

Ko'ruv ta'sirlovchilariga shartli reflekslarning hosil bo'lish tezligi va ularning mustahkamligi ko'ruv retseptorlar bilan bir vaqtda taktil va vestibuloretseptorlar qo'zg'alganida yuqori bo'ladi.

Keyinroq eshituv analizatori ishtirokida shakllanadigan vaqtinchalik aloqalarni ham taktil va vestibuloretseptorlarning bir vaqtda qo'zg'alishi tezlashtiradi va mustahkamlaydi.

Demak, oliy nerv faoliyati ontogenezida turli analizator tizimlarning ishtiroki teng qimmatli emas. Faoliyat ko'rsatish jihatidan hali yetarli darajada rivojlanmagan analizator tizimlar orqali tashqi muhit hodisalarini tafovut qilish ayni vaqtda yetuk rivojlangan sensor tizimlar yordamida yuzaga chiqadi [2].

Tabiiy shartli reflekslarning shakllanish fursati analizatorlar o'tkazuvchi yo'llarining yetilish vaqtiga to'g'ri keladi. Bola 3 oylik bo'lganidan keyin shartli reflekslarni barcha analizatorlar ishtirokida hosil qilish mumkin.

Avval shartli refleks hosil qilish uchun shartli signalni shartsiz ta'sirlovchi bilan ko'p marta takrorlash kerak. Bola o'sishi bilan takrorlanishni kamaytirgan holda mustahkam shartli refleksni yuzga chiqarish imkoniyati tug'iladi.

Bolalarda harakat bilan bog'liq shartli reflektor faoliyat tiklanishida uchta bosqich kuzatiladi. Birinchi bosqichda javoblar kuchsiz va noaniq bo'lib, chamalash reaksiyasiga o'xshaydi. Shartli reflektor harakat vegetativ komponentining kuchliligi ko'zga tashlanadi (yurak faoliyati va nafas sezilarli darajada o'zgaradi). Ikkinchi bosqichda ixtisoslashgan reaksiya ancha uyg'unlashadi, ammo

uning vegetativ komponenti sezilarli qolaveradi. Uchinchi bosqichda shartli reflektor harakat har gal aniq va kuchli, vegetativ komponentlar esa juda sust bo'ladi.

Shartli signallarni farqlash va ularga ixtisoslashgan holda javob berish tormozlanish jarayonining rivojlanishi bilan bog'liq. Shartsiz tashqi tormozlanishni shartli reflektor faoliyat paydo bo'lishi bilanoq kuzatish mumkin. Har qanday yot ta'sirot eksteroyoki interoretseptorlarni qo'zg'atib, shartli refleksi tormozlashi mumkin. Murg'ak bolalarda tashqi tormozlanishning osonlik bilan yuzaga chiqishiga shartli reflekslarning uyg'un emasligi sabab bo'ladi [4].

Shartli yoki ichki tormozlanish keyinroq paydo bo'ladi. So'nish va farqlash tormozlanishini 2,5-3 oylik bolalarda yuzaga chiqarish mumkin. Avval bolalar bir-biridan sezilarli darajada farqlanadigan shartli signallarni ajratadi (masalan, qo'ng'iroq tovushini hushtakdan). 6 oyga borib farqlash tormozlanishi oydinlashadi.

Shartli tormoz tipidagi tormozlanish farqlash tormozlanishidan keyinroq paydo bo'ladi. Kechiktirilgan tormozlanish belgilarini bola 5 oylik bo'lganida kuzatish mumkin.

Quyida ushbu mavzuni qaysi metodlarda o'qitish mumkinligi yuzasidan ayrim fikrlar muhokama etiladi.

Pedagogik hamda interfaol metodlardan majburan foydalanish mumkin emas. Aksincha, tajribali pedagoglar tomonidan asoslangan yoki ular tomonidan qo'llanilayotgan interfaol metodlardan foydalanish bilan birga, ularni ijodiy rivojlantirish maqsadga muvofiqdir. Interfaol metod texnologiyasining mohiyati tahsil oluvchilarning ustuvorligiga tayanib, darsda erkin bahs – munozara sharoitini yaxshilashdan iboratdir. Bu metodga ko'ra darslar bir necha bosqichga bo'linadi:

1. Chaqiriq bosqichi. Bu bosqichda tahsil oluvchilarni faollashtirish, shuningdek mazmun mohiyatiga kirib borishni anglab yetish jarayoniga tayyorlash maqsadi ko'zda tutiladi.

2. Fikriy hujum. Bu usul darsning boshlanishida yoki istalgan joyida qo'llanilishi mumkin. Bu bosqichda muammo tahsil oluvchilarga aqliy hujum yo'li bilan beriladi va ularning fikrlari orqali olinadi.

3. Anglash bosqichi. Mavzuga oid xulosaviy fikrlar eshutiladi va o'qituvchi tomonidan yangi fikrlar bilan to'ldiriladi.

4. Fikrlash bosqichi. Mavzu yuzasidan o'zlashtirilgan bilim va tushunchalarni qisqa jummalarda yozma ravishda bayon qilish topshiriladi. Bu topshiriqni bajarish uchun sinf guruhlarga bo'linadi. Har bir guruh topshiriq bo'yicha o'z fikrini yozadi va har bir guruh vakili bajarilgan topshiriqni boshqalarga ma'lum qiladi. Guruhlar bilan ishlash faqat fikrlar bosqichida emas, balki birinchi bosqichdan boshlab yo'lga qo'yilishi mumkin.

Tahsil oluvchilarni guruhlarga bo'lib ishlash uchun qo'yidagi talablarga amal qilish zarur [5]:

1. Guruhlarga ajratish o'qituvchi tomonidan amalga oshiriladi.

2. Har bir guruhga rahbar tayinlanadi.

3. Har bir guruhdagi tahsil oluvchilar bilim darajasining teng bo'lishiga erishish kerak.

4. Guruh doira shaklida o'tirishi lozim.

5. Ish jarayonida har bir guruhning faoliyatiga, g'oyalari e'tibor beriladi. Dars jarayonida guruh a'zolarini almashtirib borish ham mumkin. Quyidagi ta'lim jarayonida foydalanilayotgan interfaol metodlardan bir nechtasining mohiyati va ulardan foydalanish borasida so'z yuritimiz.

Fikriy hujum metodi. Mazkur metod tahsil oluvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish, muayyan mavzu yuzasidan rang barang g'oyalarni to'plash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni yengishga o'rgatish uchun xizmat qiladi.

“6X6X6” Metodi. 6x6x6 metodi asosida tashkil etilayotgan mashg'ulotda har birida 6 nafardan ishtirokchi bo'lgan 6 ta guruh o'qituvchi tomonidan tashlangan muammoni muhokama qiladi. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetgach o'qituvchi oltita guruhni qayta tuzadi. Qaytadan shakllangan guruhlarning har birida avvalgi oltita guruhdan bittadan vakil bo'ladi. Yangi shakllangan guruh a'zolari o'z jamoadoshlariga avvalgi guruhi tomonidan muammo (masala) yechimi sifatida taqdim etilgan xulosani bayon etib beradilar va mazkur yechimlarni birgalikda muhokama qiladilar.

“**Aqliy hujum**” metodi. Mazkur metod muayyan mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llanadigan metod sanalib, u mashg'ulot ishtirokchilarini muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritish hamda o'z tasavvurlari va g'oyalaridan ijobiy foydalanish borasida ma'lum ko'nikma va malakalarni hosil qilishga rag'batlantiriladi. Bu metod yordamida tashkil etilgan mashg'ulotlar jarayonida ixtiyoriy muammolar yuzasidan bir necha original yechimlarni topish imkoniyati tug'iladi.

Shu va boshqa shu kabi pedagogik texnologiyalarni qo'llash oliy nerv faoliyati mavzusini o'qitishda yuqori samaradorlik keltirishi shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B. Sodiqov, L. Kuchkarova, Sh. Qurbanov “Bolalar va o'smirlar fiziologiyasi va gigiyenasi” O'zbekiston milliy entsiklopediyasi davlat milliy nashriyoti. T. 2015 y.
2. Q.S. Sodiqov “O'quvchilar fiziologiyasi va gigiyenasi” T. O'qituvchi, 2012.
3. A.G. Xripkova, M.V. Antropova, D.A. Farber, “Yosh fiziologiyasi va gigiyenasi” M. Prosvesheniye 2010.
4. Sog'lom avlod yurtimiz kelajagi “O'qituvchi gazetasi”. № 48. 2019.
5. Klinik farmakologiya va ratsional farmakoterapiya asoslari, M. 2012 y.
6. Lepaxin V.K. va boshqalar «Klinik farmakologiya», M. 2018 y.

UO'K 37

SO'ZLARNING SHAKL VA MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARINING MAKTABDA O'QITILISHI

B.Yuldosheva, mustaqil izlanuvchi, Navoiy davlat pedagogika instituti, Navoiy

Annotatsiya. Mazkur maqolada so'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari haqida nazariy ma'lumotlar berilgan. Maktabda shakldoshlarning o'qitilishiga oid ma'lumotlar tizimli va ichki guruhlariga bo'lib yoritilgan. Omonim so'zlar qanday hosil bo'lishi haqida, omonimlarning nutqdagi va she'riyatdagi vazifalari hamda ahamiyati haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Omonim, sinonim, ko'p ma'nolilik, poetika, leksema, sinonim, leksik omonim

Аннотация. В данной статье представлена теоретическая информация об омонимах. Чтобы было понятно ученикам, информацию об одноклассниках разделили на внутренние группы и постарались уточнить. Дана информация о том, как образуются омонимы, функции и значение омонимов в речи и поэзии.

Ключевые слова: Омоним, синоним, многозначность, поэтика, лексема, синоним, лексический омоним

Abstract. This article provides theoretical information about homonyms. In order to make it understandable to the students, the information about the classmates was divided into internal groups and tried to be clarified. Information is given on how homonyms are formed, the functions and importance of homonyms in speech and poetry.

Keywords: Homonym, synonym, ambiguity, poetics, lexeme, synonym, lexical homonym

Tilshunoslikda tizimli o'rganilgan har qanday mavzu keng va tushunarli bo'lishga xizmat qiladi. Xususan, so'zlarning shakl va ma'no munosabati maktab darsliklarida ma'lum turlarga bo'lib o'rganiladi. Har bir so'zning lisoniy ongimizda o'z o'rnini hamda o'z hissasi bor. Shu boisdan so'zlarning shakl va ma'no munosabati nutqimizda muhim ahamiyat kasb etadi, ular boshlang'ich sinfdan boshlab o'quvchilarga o'rgatila boshlanadi. Mazkur mavzuning nazariy jihatlarini 5-sinf ona tili darsligidan boshlab bosqichma-bosqich, o'quvchilarning yoshiga mos holda tasniflab, tizimlashtirilib, soddadan murakkabga qarab o'qitiladi. Har bir so'zning shakli va ma'no mazmuni, uning turlari, nutqdagi ahamiyati, matn hosil qilishdagi o'rnini haqida bilimlar o'rgatiladi.

So'zlar shakl va ma'no munosabatiga ko'ra sinonim, omonim, antonim va paronim so'zlarga bo'linadi.[1] Har biri haqida birma-bir darsliklarda bosqichma-bosqich nazariy ma'lumotlar berilib, mashqlar asosida mustahkamlanib boriladi. So'zlarning tuzilishi jihatidan biroz murakkab bo'lgan turi bu omonim so'zlar hisoblanadi. Omonim va sinonim so'zlarning o'rganish jarayoni, odatda, qiyin va osonlik darajasiga ko'ra farqlanadi. Shu boisdan omonimlarni o'rganishda so'z boyligi muhimdir. Omonim va sinonim so'zlarni bir-biriga qiyoslab tez o'rganib olish metodi ham o'qituvchidan katta

mahorat talab qiladi. Imkon qadar barcha darslarda so'z o'yinidan foydalanib, o'quvchilar nutqida omonimlarga ko'proq e'tibor qaralib borilsa, bu jarayon oson kechadi.

